




S.F. FOZILOV

# NEFT MAHSULOTLARINI TEXNIK TADQIQ QILISH



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**S.F.FOZILOV**

# **NEFT MAHSULOTLARINI TEXNIK TADQIQ QILISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan 5321300-«Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi» ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida taysiya etilgan*

**TOSHKENT – 2015**

UO'K: 665.62(075)

KBK 35.51ya7

F-79

F-79      S.F.Fozilov. Neft mahsulotlarini texnik tadqiq qilish. (Darslik). – T.: «Fan va texnologiya», 2015, 320 bet.

ISBN 978-9943-9900-81-4

Ushbu darslik neft va gaz mahsulotlarini qayta ishlash natijasida olinadigan organik moddalar tuzilishini o'rganish fizik-kimyoiy tahlil qilish usullari eng zamonaviy asboblar yordamida tekshirilib, ularning tarkibi va tuzilishi to'g'risida to'liq xulosa qilishga imkon beradi. Elektrokimyoiy analiz usullaridan konduktometriya, kulonometrik analiz, polyarografiya, potensiometriya, elektromiqdoriy analiz usullari to'g'risida umumiy tushunchalar berilgan. Optik usullaridan Fotokolorimetrik, ultrabinasfa (UB), infraqizil (IQ), yadro magnit rezonansi (YaMR), mass-spektrometriya, shuningdek moddalarini tahlil qilishning gaz, gaz-suyuqlik va yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usullari keng yoritilgan. Har qaysi usulning nazariy asoslari, ishlataladigan asboblarning turlari, ularning ishlatalishi bayon etilgan.

Darslikdan oliv o'quv yurtlari kimyoiy texnologiya yo'nalishi bo'vicha o'qiyotgan talabalar hamda neft va gazni qayta ishlash zavodlarida ishlaydigan texnik muhandis xodimlar foydalanishlari mumkin.

\*\*\*

В данном учебнике изучает процесс переработки нефти и газа, а также построение и получение органический веществ в химической промышленной при помощи современной технологии делает их физико-химический анализ и полный вывод. Здесь освещаются такие понятия как ультрафиолетовый (УФ), инфракрасный (ИК), ядерной магнитно резонанс (ЯМР), масс-спектроскопия, а также анализ газа, газо-жидкостное метод хроматографии высокоеффективной жидкости.

Учебник предназначен для студентов высших учебных заведений, а также для занимающихся профессиональной деятельности.

\*\*\*

In the given textbook studies process of processing of petroleum and gas, and also construction and the reception of organic substances in chemical industrial through modern technology does(makes) their physical-chemical analysis and complete conclusion. Such concepts as analysis, as well as by UV, IR, NMR, EPR spectroscopy and mass spectrometry. and also analysis of gas, gas -liquid method of a highly effective liquid here are shined(covered). The synthesized monomers. identified by liquid chromatography, is a colorless crystalline substance, well soluble in many organic solvents.

UO'K: 665.62(075)

KBK 35.51ya7

#### Taqribchilar:

O.M.Yoriyev – Buxoro Tibbiyot instituti professori kimyo fanlari doktori;

S.H.Astanov – Buxoro muhandislik-texnologiya professori fizika-matematika fanlari doktori;

H.B.Do'stov – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori kimyo fanlari doktori.

ISBN 978-9943-9900-81-4



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

## SO'Z BOSHI

Neft mahsulotlarini texnik tadqiq qilish usullarini o'rganish hozirgi kunda ko'pchilik texnik oliv o'quv yurtlarining, kimyoviy texnologiya yo'nalishi ayniqsa neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi, neft va gazni qayla ishlash yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan muhandis-teknologlar tayyorlaydigan ixtisosliklarning o'quv dasturlaridan mustahkam o'rinni olgan. Neft mahsulotlarini texnik tadqiq qilish bir-birini to'ldirib, analitik kimyo fanini tashkil etadi.

Ushbu darslik texnik oliv o'quv yurtlarining talablariga mo'ljalangan bo'lib, tahlilning fizik-kimyoviy, boshqacha aytganda instrumental usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Ma'lumki, darslikda asosiy e'tibor fizikkimyoviy tahlil usullari nazaryasiga qaratilgan bo'lib, bu nazariya fizika va kimyoning asosiy qonunlariga tayana-di. Shu bilan birga kitobda fizik-kimyoviy tahlil usullarining amalda qo'llanilishi masalalari, ularning ahamiyati, imkoniyatlari haqida mukammal fikr yuritiladi.

Darslik asosan yetti bobdan tarkib topgan. Birinchi bobda elektrokimyoviy analiz usullaridan konduktometriya, kulonometrik analiz, polyarografiya, potensiometriya, elektromiqdoriy analiz üsullari to'g'risida umumiyligi tushunchalar berilgan neft va gaz mahsulotlarini fizik-kimyoviy tahlil usullari nazaryasi bayon qilingan. Ikkinci bobda tahlilning optik usullar – neft va gazlar tarkibini fotokolorimetrik, fotometrik tekshirishga asoslangan usullar berilgan. Uchinchi bob tahlilning spektroskopiya usullari ultrabinafsha (UB), infraqizil (IQ), tahlil usullariga bag'ishlangan. To'rtinchi bobda tahlilning yadro magnit rezonansi (YaMR) haqida bayon etilgan. Besinchi bob tahlilning mass-spektrometriya usuli. Oltinchi bobda xromatografiya usuliga bag'ishlangan.

Har qaysi bo'uning oxirida materialni yanada chuqurroq o'zlashtirishga mo'lallangan o'z-o'zini tekshirish uchun savollar berilgan. Darslikning oxirida talabalarni nazariy olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida tahlilning fizik-kimyoviy usullariga doir 100 ta masalalar toplami berilgan. Muallif o'zlarinig qimmatli maslahatlarini bezan O'zFA akademigi M.Asqarovga, prof,

O.M.Yoriyevga, prof. I.I. Ismoilovga, Samarqand davlat universiteti «Anorganik kimyo» kafedrasи mudiri, texnika fanlari doktori, professor A.M. Nasimovga va Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori H.B.Do'stovlarga minnatdorligini izhor etadi.

Shuningdek, muallif darslikni qisqa muddatda nashrga tayyor-lashda katta yordam bergen H.S.Fozilovga tashakkur izhor etadi.

Ushbu darslik neft va gaz yo'nalishi bo'yicha dastlabki tajriba bo'lganligi sababli ayrim kamchiliklardan xoli emas. Shuning uchun muallif darslik haqidagi barcha fikr va mulohazalarni samimiyat bilan qabul qiladi.

## KIRISH

Ushbu darslik neft va gazni qayta ishlash hamda neft kimyosi sanoatida ishlab chiqariladigan organik moddalarning tuzilishini o'rganishda neft va gaz mahsulotlarini fizik-kimyoviy tahlil qilish usullarining eng zamonaviy asboblar yordamida tekshirilib ularning tarkibi va tuzilishi to'g'risida to'liq xulosa qilinadi. Shulardan ultrabinafsha, infraqizil, yadro magnit rezonansi, mass-spektrometriya, shuningdek, moddalarni tahlil qilishning gaz, gaz-suyuqlik va yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usullari keng yoritilgan. Har qaysi usulning nazariy asoslari, ishlatiladigan asboblarning turlari, ularning ishlatilishi bayon etilgan.

Keyingi yillarda neft va gaz mahsulotlaridan olingen murakkab organik biror moddalarning tuzilishini aniqlashda kimyoviy usullar bilan bir qatorda tahlilning fizik-kimyoviy usullaridan keng foydalanmoqda. Fizik-kimyoviy usullar kimyoviy usullarga qaraganda bir qancha afzallikkarga ega:

– Birinchidan, fizik-kimyoviy usullar qo'llanilganda tahlilni juda qisqa vaqtida va kam miqdor moddalar bilan bajarish mumkin.

– Ikkinchidan, fizik-kimyoviy usullar yordamida kimyoviy usul bilan erishib bo'lmaydigan natijalar olish mumkin.

Fizik-kimyoviy usulning bu afzallikkari kimyoviy usulni butunlay inkor etadi, deb tushunish noto'g'ri, albatta. Aksincha, fizik-kimyoviy usullardan birgalikda foydalaniyganda samarali natija olish mumkin.

Tahlilning fizik-kimyoviy usullari moddalarning kimyoviy reaksiyalari jarayonida fizikaviy xossalarni o'rganishga asoslangan. Fizik-kimyoviy tahlil usullarining bir necha xili mavjuddir. Ulardan hozirgi vaqtida sanoat, ayniqsa, neft va gaz sanoatida neft va gaz mahsulotlarining xossalarni o'rganishda ulardan olingen organik moddalarni, shuningdek, ilmiy tekshirish laboratoriyalari ishlarida keng foydalaniлади. Ularning orasida tajribada katta ahamiyatga ega bo'lganlari quyidagilardir:

- 1) spektral va boshqa optik usullar;
- 2) elektrokimyoviy usullar;
- 3) xromatografik-tahlil usullari.

Yuqorida ko'rsatilgan uchta guruh orasida tahlil usullari sonining ko'pligi jihatidan va tajribada eng muhim ahamiyatga ega bo'lgani bu spektral va boshqa optik usullar guruhidir. Spektral va boshqa optik usullar guruhi quyidagi tahlil usullarini o'z ichiga oлади:

- atom-emission spektrlar;
- atom-absorbsion spektrlar;
- infraqizil spektrlar;
- alangaviy spektrometriya;

• lyuminessensiya va boshqa usullar. Bu usullar moddaning elektromagnit nurlar bilan o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan har xil effektlarini o'lhashga asoslangan.

Elektrokimyoviy tahlil usullari guruhi elektr o'tkazuvchanlikni, potensiallarni va boshqa xossalarni o'lhashga asoslangan bo'lib, potensiometriya, konduktometriya, voltamperometriya va boshqa usullardan iborat.

Xromatografik tahlil usullari guruhiga, gaz va gaz-suyuqlik xromatografiyası, yupqa qatlamlı, ion almashinish va boshqa xromatografik usullari kiradi. Bu usullarni keyinchalik alohida ko'ramiz.

Neft va gaz mahsulotlari tarkibidagi organik moddalarni tahlil qilish maqsadlarda fizik va fizik-kimyoviy xossalardan foydalanish fizik-kimyoviy tahlil usullariga asoslangan. Neft mahsulotlarini texnik tadqiq qilish usullari muhim afzallikkarga (yuqori sezgirlikka, natijalarning tez olinishiga) ega va qator ko'rsatgichlari bo'yicha klassik usullardan ustunlikka egadir. Neft mahsulotlarini texnik tadqiq qilish usullarining yuqori sezgirligi, natijalarning tez olinishi, ularning universalligi, bu usullarni avtomatlashtirish mumkinligi va ko'pgina boshqa afzalliklari, ularni xalq xo'jaligidagi, fan va texnikaning turli sohalarida qo'llash imkonini beradi. Mahsulot sifatini va mehnat unumdarligini oshirish kabi muhim masalalarni hal qilishda ham g'oyat muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu neft mahsulotlarini texnik tadqiq qilish usullari kimyo fanining yangi sohasi–kosmik tahliligi kimyoning asosini tashkil etadi.

Neft mahsulotlarini texnik tadqiq qilishda hozirgi vaqtida fizik-kimyoviy tahlil usullaridan fotokolorimetrik, ultrabinafsha (UB), infraqizil (IQ), spektroskopiya, yadro magnit rezonansi (YaMR) elektronparamagnit rezonansi (EPR), mass-spektrometriya, rentgenostruktura, shuningdek, xromatografiya usullari keng qo'llaniladi.

---

---

## **NEFT VA GAZNI FIZIK-KIMYOVİY TAHLİL USULLARINING UMUMİY TAVSIFI**

### **Neft va gaz mahsulotlarini tuzilishini tadqiq qilishda fizik-kimyoviy tahlil usullardan foydalanishning asosiy tushunchalari**

Hozirgi zamon tasavvurlariga ko‘ra yorug‘lik ham zarracha, ham to‘lqin xususiyatiga ega. Boshqacha aytganda, tovush va suv yuzidagi to‘lqinlar uchun xos qonuniyatlarga yorug‘lik kam bo‘ysunadi. Suvga biror jism tashlansa, suvning shu joyidan har tomonga halqasimon to‘lqinlar tarqalishi ma’lum. Bunda tashlangan jismning kinetik energiyasi muhit (misolimizda suv) zarrachalarini tebranma harakatga keltiradi.

Zarrachalarning tebranish yo‘nalishi to‘lqinning tarqalish yo‘nalishiga perpendikulardir. Tovush to‘lqinlarida esa tebranish bilan tarqalish yo‘nalishi bir xil. Suv yuzasida tarqalayotgan to‘lqinlar uchun quyidagi kattaliklar xos: ikkita tepalik («o‘rkach») yoki chuqurlik o‘rtasidagi masofa; to‘lqinning balandligi va uning tarqalish tezligi. Ikkita o‘rkach yoki chuqurlik orasidagi masofa to‘lqin uzunligi deyiladi va λ (lyambda) bilan belgilanadi (aslida to‘lqinning istalgan ikkita bir xil holati oralig‘ini to‘lqin uzunligi deyish mumkin.). Ariq suvidagi to‘lqinlar uzunligi uncha katta bo‘limgani holda okean va dengizlar yuzasidagi to‘lqinlar uzunligi bir necha o‘n metrga yetadi. To‘lqinning balandligi uning amplitudasi deyiladi. To‘lqin tarqalayotgan joydan sal yuqoriyoqdagi bir nuqta belgilanib, shu nuqtadan bir sekundda o‘tgan balandlik yoki chuqurliklar (boshqacha aytganda, tebranishlar) soni aniqlansa, to‘lqin chastotasi topilgan bo‘ladi. Chastota odatda v (nyu) harfi bilan ifodalanadi. Chastota birligi qilib gers qabul qilingan. Bir gers deganda to‘lqinning sekundiga bir marta tebranishiga aytildi.

To‘lqinning tezligi, uzunligi va chastotasi o‘zaro bir-biriga bog‘liq. Aytaylik, biror tovush to‘lqini manbaining chastotasi 200 ta bo‘lsin, ya‘ni manba sekundiga 200 ta to‘lqin chiqarsin. To‘lqin bir sekundda bosib o‘tadigan masofa d ga teng, deylik. Tovush uchun


$d=338,4$  metrga teng. Shunday qilib, shu masofada 200 to'lqin joylashadi. U holda, bitta to'lqinning uzunligi 1,692 metrga teng. Ko'rinib turibdiki, to'lqinning uzunligini topish uchun uning bir sekundda bosib o'tadigan masofasini tebranishlar chastotasiga bo'lish zarur. Tovush (umuman istalgan jism) sekundiga bosib o'ta oladigan masofa uning tezligini bergani sababli  $\lambda = v$  bo'ladi. Ushbu formula faqat tovush uchun emas, balki istalgan, masalan, yorug'lik to'lqinlari uchun ham to'g'ri keladi. U holda

$$\lambda = \frac{C}{V} \quad S = \lambda \cdot V$$

kabi yozish mumkin.

Yorug'lik va elektromagnit to'lqinlari uchun  $S$  o'zgarmasdir (300000 km/sek). Demak, yuqoridaq tenglamaning chap tomoni o'zgarmas ekanligi e'tiborga olinsa,  $\lambda$  bilan  $v$  o'zaro bir-biriga bog'liqligi kelib chiqadi. Tenglamaning o'ng tomoni  $C$  ga teng bo'lsin uchun  $\lambda$  oshsa,  $v$  kamayishi zarur, va aksincha. Shunday qilib, to'lqin uzunligi va chastota bir-biriga teskari proporsional kattaliklardir.

Yorug'lik – ko'zga ko'rindigan nur. Bundan tashqari, inson ko'zi sezmaydigan rentgen, ultrabinafsha, infraqizil nurlar va radioto'lqinlar ham mavjud. Nurlarning barcha turlariga **elektromagnit to'lqinlar** deyiladi. Turli xil nurlar to'lqin uzunliklari ortib borishi tartibida joylashtirilsa, elektromagnit spektr hosil bo'ladi. Bu spektr to'lqin uzunligi bir necha yuz kilometr bo'lgan past chastotali to'lqin (o'zgaruvchan tok) bilan boshlanib, to'lqin uzunligi santimetrnning yuz milliondan bir ulushiga teng bo'lgan gamma-nurlar bilan tugaydi.



*I-rasm. To'lqin uzunligining umumiyl ko'rinishi.*

Ushbu 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, radio to'lqinlarning o'zi uchta guruhga ajratiladi. To'lqin uzunligi eng katta ( $10^5$ sm) bo'lgan radio to'lqinlarning chastotasi yuqoridagi tenglamaga ko'ra hisoblanadi.

$$v = \frac{C}{\lambda} = \frac{300000000 \text{ sek}}{1000} = 300000 \text{ sek}$$

Tenglamadan bu to'lqin sekundiga 300 000 marta tebranishi ma'lum bo'ldi. Bu tenglamani yorug'lik nuri uchun ham bajarsak, bir sekunddag'i tebranishlar soni 400-800 trillion atrofida bo'lishiga ishonch hosil qilamiz. Bu chastotaga muvofiq, keladigan to'lqin uzunligi juda kichik bo'lgani uchun uni kundalik turmushga qo'llaniladigan o'chov birlıklari (km, m, sm, mm) bilan ifodalab bo'lmaydi. Kichik to'lqin uzunliklarini o'chash uchun mikron, millimikron, angstrom kabi birlıklar qabul qilingan. 1 mikron =  $10^{-4}$  sm, ya'ni mikron santimetrnning o'n mingdan bir bo'lagi. Millimikron esa millimetrnning milliondan bir, santimetrnning esa o'n milliondan bir qismini tashkil etadi 1mmk =  $10^{-6}$  mm =  $10^{-7}$  sm. To'lqin uzunlikni o'chashda ko'pincha angstrom qo'llaniladi. 1 angstrom 1A =  $10^{-7}$  mm, ya'ni angstrom-millimetrnning o'n milliondan bir qismi. 1 mmk = 10 A. Millimikron ba'zan nanometr (im) deb ham yuritiladi. Ko'zga ko'rindigan nurlar to'lqin uzunligi 400-800 mmk yoki 4000-8000 A oraliqda yotishishi rasmdan ko'rinib turibdi. Shunday qilib, kundalik turmushda to'lqin uzunligi bir necha km dan mm ning milliondan bir ulushlariga teng bo'lgan elektromagnit nurlardan foydalanamiz. Ana shu nurlarning juda kam qismini ko'zimiz bilan ko'ramiz.

Elektromagnit spektrdagi har qanday nur muayyan energiyaga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, har qanday nur ma'lum energiya tashiydi. Bu energiya nur chastotasi bilan bog'liq bo'lib, uning miqdori Plank formulasi asosida hisoblab topiladi.

$$E = h v$$

$$h - \text{Plank doimiysi} \approx 6,62 \cdot 10^{-27} \text{ erg sek.}, v - \text{chastota}.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, nur energiyasi uning chastotasiga to'g'ri proporsionaldir. (chunki, Plank doimiysi o'zgarmas miqdor). Masalan, ko'zga ko'rindigan nurlarning quyi

cheгараси қизил нур (800 mmk) энергияси бинафша нур (400 mmk) энергиясидан кичик.

Bирор органик мoddага нур тушурilsа, нур мoddа орқали о'tadi yoki yutiladi, agar нур yutilsа мoddа молекуласи o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlarning tavsifi нурning tabiatiga va moddaning tuzilishiga bog'liq. Gamma-nurlar yadrolarning energetik holatini o'zgartiradi (gamma-rezonans spektroskopiyasi). Gamma-rezonans spektroskopiyadan foydaланib yadro kuchlari va ularning ta'sirlashishi xususida ma'lumotlar olishi mumkin. Rentgen nurlari atomlarning ichki, yadroga yaqin elektron qavatlаридан elektronлar energiyasini o'zgartiradi (rentgenospektroskopiyasi).


Rentgenospektroskopiya yadroga juda yaqin joylashgan qavatlarda elektronlarning taqsimlanishini hamda ularning energiyasini aniqlashга imkon beradi.

Ultrabinafsha va ko'zga ko'rindigan nurlar ta'sirida molekulадagi atomlarning valent elektronлari energetik holatlari o'zgaradi. (UB-spektroskopiyasi yoki elektron spektrлari).

Infraqizil nurlar мoddа malekulasidagi atomlarning tebranishiga sabab bo'ladi (IQ-spektroskopiyasi yoki tebranish spektrлari). UB va IQ-spektroskopiyalar yordamida neft va gaz mahsulotлaridan olingan organik moddalarning molekulалари tuzilishi to'g'risida muhim ma'lumotlar olinadi.


Radio to'lqinlar esa yadro va elektronлar spinлari energetik holatлarini o'zgartiradi (Yadro magnit rezonanansi va elektron paramagnit rezonansi spektroskopiyalar).

Yadro magnit rezonansi (YaMR)-spektroskopiyasi yordamida neft va gaz mahsulotлaridan olinадиган organik moddalarning tuzilishini o'rganishda boshqa usullar bilan erishib bo'lmaydigan natijalarini olish mumkin. Moddaga нур ta'sir ettirilganda мoddа nurni yutadi va uning energiyasi ortadi. Ko'pincha, bu xil molekula «hayajonlangan» holatga o'tdi deyiladi. Modda hayajonlangan holatda faqat  $10^{-6}$  sekund bo'la oladi, xolos. Keyin esa yana yutilган energiyani biror нур, issiqlik holida chiqarib, molekula o'zining avvalgi holatiga qaytadi. Molekulaning turli qismlari har xil energiya yutgани uchun ayni molekulaning shu qismlari nur chiqarganda ham aynan shunday energiya ajraladi. Chiqayotgan нурning to'lqin uzunligini bilgan holda molekulaning tuzilishi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bu yutilish spektrлari deyiladi.



## 2-rasm. Elektromagnit spektrlari.

Ba'zan modda cho'g'lanish haroratigacha qizdirilib, cho'g'lanayotgan modda chiqarayotgan nur o'rganiladi. Shular asosida modda molekulاسining tuzilishi aniqlanadi bu esa chiqarish spektrлari deyiladi.



### **3-rasm. Spektral asbobning tuzilish sxemasi:**

1-nurlanish manbai, 2-namuna joylashtirilgan kyuveta,  
 3-monoxromator, 4-monoxromatorni kirish va chiqish tirqishi,  
 5-fokslanadigan optika, 6-disperslangan setka, 7- nur qabul qiluvchi  
 qurilma, 8- ro'yxatga oladigan qurilma.

Neft va gaz mahsulotlaridan olinadigan organik moddalarning tuzilishi ko'proq yuritilish spektrlari bilan o'rghaniladi. Elektromagnit spektrdagи har qanday nur bilan sodir bo'ladigan yutilish spektrlarini o'rghanish uchun barcha hollarda avvalo yorug'lik manbai, o'rganila-yotgan modda solinadigan idish, ya'ni kyuveta, monoxromatik yoki bir xil to'lqin uzunlikdagi nurlar hosil qiluvchi va tekshirilayotgan modda orqali o'tgan nurning jadalligini (intensivligini) o'lchaydigan asboblar va qayd qiluvchi qurilmadan foydalaniladi.

Yutilish spektrlarini o'rghanadigan asboblar spektrometr yoki spektrofotometr bo'lib, tekshirilayotgan modda orqali o'tgan nuring jadalligi fotoelementlar yordamida qayd etiladi. Spektral asbobning tuzilishi 3-rasmda keltirilgan. Hozirgi vaqtida CΦ-4, CΦ-4A; CΦ-D2; CΦ-8; CΦ-2M; CΦ-4M, CΦ-26, CΦ-16, CΦ-46 markali spektrofotometrlar bilan moddalarning spektrlari o'rghaniladi.

## I bob. ELEKTROKIMYOVIY TAHLIL USULLARI

### 1.1-§. Tahlilning konduktometrik usuli

**Elektr o'tkazuvchanlik.** Konduktometrik tahlil usullari elektrolytlar (kislota, asos, tuz) eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini o'lchash bilan eritmada erigan modda miqdorini aniqlashga asoslangan bo'lib, tokning chastotasiga ko'ra past chastotali ( $10^3 \text{Gs}$ ) – konduktometriya va yuqori chastotali ( $10^6 \text{Gs}$ ) - yuqori chastotali titrlashga bo'linadi.

**1. Elektr o'tkazuvchanlik.** Qarshilikka teskari kattalik-elektr o'tkazuvchanlik deyiladi va quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$W = \frac{1}{R}, \text{Om}^{-1}$$

bunda,  $R$  – eritmaning qarshiligi,  $\text{Om}$ .

$W$  – eritmaning elektr o'tkazuvchanligi,  $\text{Om}^{-1}$ .

**Eritmaning qarshiligi,** ( $R, \text{Om}$ ) eritmaga tushirilgan elektrodlar orasidagi masofaga  $l$  ( $\text{sm}$ ) to'g'ri proporsional va elektrodlarning sirt yuzasiga  $S$  ( $\text{sm}^2$ ) teskari proporsional:

$$R = \rho \frac{l}{S}$$

bunda,  $\rho$  ( $\text{Om}, \text{sm}$ ) – proporsionallik koefitsiyenti yoki aniqrog'i o'tkazgichning solishtirma qarshiligi deyiladi.

Agar o'tkazgichning uzunligi  $l=1 \text{ sm}$  va ko'ndalang kesim yuzasi  $S=1 \text{ sm}^2$  bo'lsa,  $\rho = R$  bo'ladi. Demak, solishtirma qarshilik 1 sm uzunkligagi, kesim yuzi 1  $\text{sm}^2$  ga teng bo'lgan o'tkazgichning qarshiligidir.

**2. Solishtirma elektr o'tkazuvchanlik.** Solishtirma qarshilikka teskari qiymat solishtirma elektr o'tkazuvchanlik ( $\chi$ ) deyiladi va quyidagi formula bilan ifodalaniladi:

$$\chi = \frac{1}{\rho} (\text{Om}^{-1} \text{sm}^{-1})$$

Shunday qilib, solishtirma elektr o'tkazuvchanlik deb yuzalari 1 sm<sup>2</sup> bo'lgan o'zaro 1 sm masofada joylashgan elektrodlar orasidagi eritmaning elektr o'tkazuvchanligiga aytildi.

**3. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik.** Qalinligi 1 sm va unga tushirilgan elektrodlarning sirt yuzasi 1 sm<sup>2</sup> teng bo'lgan 1 g-ekv elektrolit saqlagan eritmaning elektr o'tkazuvchanligiga ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik deyiladi ( $\lambda, \text{Om}^{-1} \text{sm}^2 / \text{g-ekv}$ ) va u quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\lambda = H \frac{1000}{C}; \quad \lambda = H \cdot V$$

bunda,  $C$  – elektrolitning konsentratsiyasi, g-ekv,

$V$  – 1 g-ekv erigan modda saqlagan eritmaning, sm<sup>3</sup> dagi hajmi.

Ion (kation, anion) larning 1 sek-da tashigan tok miqdori (kulonda) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$J = \frac{\alpha \cdot C \cdot E}{1000 \cdot l} \cdot SF(v_+ + v_-)$$

bunda,  $\alpha$  – elektrolitning dissotsiatsiyalanish darajasi;

$E$  – elektrodlar orasidagi potensiallar farqi, V;

$v_+$  +  $v_-$  – potensial 1 V bo'lganda kation va anionlarning 1 sm masofani o'tishdagi absolyut harakat tezligi;

$F$  – Faradey soni, 96500 kulon.

Om qonuniga muvofiq  $W = J/E$ , bunda elektr o'tkazuvchanlik:

$$W = \frac{\alpha \cdot C \cdot S}{1000 \cdot l} F(v_+ + v_-)$$

Umuman,  $S = 1\text{sm}^2$ ,  $l = 1$  sm bo'lganda aniqlangan elektr o'tkazuvchanlik  $W$ , solishtirma elektr o'tkazuvchanlikni  $H$  ifodalaydi.

$$H = \frac{\alpha \cdot C}{1000} F(v_+ + v_-)$$

Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik  $\lambda = H \cdot V$ ,  $V=1000/C$  ekanligini bilgan holda:

$$\lambda = \alpha F(v_+ + v_-)$$

kelib chiqadi.

Ionlarning absolyut tezligi juda kichik bo‘lganligi sababli, F marta katta bo‘lgan qiymat-ionlarning harakatchanligidan ( $\lambda_+ + \lambda_-$ ) foydalanamiz:

$$H = \frac{\alpha \cdot C}{1000} (\lambda_+ + \lambda_-)$$


$$\lambda = \alpha (\lambda_+ + \lambda_-) \text{ yoki } \lambda = \alpha \cdot \lambda'$$

$$\alpha = 1 \text{ bo‘lganda, } \lambda' = \lambda_+ + \lambda_-$$

Shunday qilib, (chegara) cheksiz suyultirilgan eritmaning ekvivalent elektr o‘tkazuvchanligi suyultirilgan eritma (chegara) ekvivalent elektr o‘tkazuvchanliklarning yig‘indisiga yoki cheksiz suyultirilgan eritmadagi kation va anionlar harakatchanliklarining yig‘indisiga teng. Bu Kolraush tomonidan ta’riflangan additivlik (ionlar harakatining mustaqillik) qonuni deyiladi. Elektr o‘tkazuvchanlikning qiymati eritma konsentratsiyasi, harorat, erigan modda va erituvchi holatiga bog‘liq.

## 1. 2 §. Elektr o‘tkazuvchanlikka ta’sir qiluvchi omillar

**Eritma konsentratsiyasining ta’siri.** Elektr o‘tkazuvchanlikning konsentratsiyasiga bog‘liqligi elektrolitning tabiatiga bog‘liq bo‘lib, konsentratsiyaning oshishi solishtirma elektr o‘tkazuvchanlikning ortishiga va ma’lum qiymatdan keyin kamayishiga olib keladi (4-rasm).



4-rasm. Solishtirma elektr o‘tkazuvchanlikning eritma konsentratsiyasiga bog‘liqligi.

Eritma konsentratsiyasi oshishi bilan zaryadli zarrachalar soni ham ko'payadi, natijada elektr o'tkazuvchanlik ma'lum qiymatgacha oshadi, keyin esa kamayadi, chunki eritma konsentratsiyasi oshishi bilan eritmaning ion kuchi oshadi, natijada ionlar orasidagi masofa kichrayib, ion jutflari hosil bo'ladi va ionlarning harakatchanligi kamayadi. Demak, konsentratsiya va ionlarning zaryadi qancha katta bo'lsa, eritmaning ion kuchi shuncha katta bo'ladi. Bu bog'lanish Onzager tenglamasi bilan ifodalandi:

$$\lambda = \lambda^0 - \beta \mu^0$$


$\lambda$  – berilgan konsentratsiyadagi eritmaning ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi;

$\lambda^0$  – cheksiz suyultirilgan eritmaning ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi;

$\mu^0$  – eritmaning ion kuchi;

$\beta$  – erituvchining kimyoiy tabiatiga bog'liq bo'lgan kattalik.

Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik eritmaning suyultirilishi bilan o'zgarib, eritma cheksiz suyultirilganida o'zining eng katta qiymatiga yotadi. Chunki eritma suyultirilishi bilan ionlar orasidagi o'zaro ta'sir susayib, ionlarning harakat tezligi ortadi (5-rasm).



*5-rasm. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlikning konsentratsiyasiga bog'liqligi.*

Kuchsiz elektrolit eritmalarida konsentratsiyaning kamayishi bilan dissotsiatsiyanish darajasi ortadi; cheksiz suyultirilganda elektrolit amalda to'liq dissotsilangan deb hisoblanadi. Bunday holda ekvivalent

elektr o'tkazuvchanlikning konsentratsiyasiga bog'liqligini Kolraush tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$\lambda = \lambda_\infty - A \cdot C$$

$\lambda$  – berilgan konsentratsiyadagi ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik;  
 $\lambda_\infty$  – cheksiz suyultirilgandagi ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik;  
 $A$  – doimiy qiymat.

**Haroratning ta'siri.** Haroratning oshishi bilan eritmaning qovushqoqligi kamayib, ionlarning harakatchanligi oshadi. Harorat  $1^{\circ}\text{C}$  ga oshganda eritmaning elektr o'tkazuvchanligi 2-2,5% ga oshadi. Bu bog'liqlik quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$H_t = (1 + \alpha t + \beta t^2)$$

$H_t = 0$   $^{\circ}\text{C}$  haroratdagи eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi;

$\alpha, \beta$  – elektrolitning kimyoviy tabiatи va konsentratsiyasiga bog'liq bo'lgan kattaliklar ;  
 $t^0$  – harorat.

Haroratning juda ham oshib ketishi ionlar harakatini oshiradi. Natijada ionlarning to'qnashlar soni ko'payib, qarshilik oshadi, elektr o'tkazuvchanlik kamayadi.

**Erituvchi kimyoviy tabiatining ta'siri.** Eritmaning dissotsiyalianish darajasi, ya'ni eritmadiagi ionlar miqdori ( $\pm$ ) erituvchining dielektrik singdiruvchanligiga bog'liq. Bu kattalik qancha kichik bo'lsa, dissotsiyaianish shuncha kam bo'ladi, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi ham kam bo'ladi.

**Masalan:** Suvning dielektrik singdiruvchanligi 78,3, benzolniki esa 2,3. Demak, suv yaxshi erituvchi hisoblanadi. Bu bog'liqliknı quyidagi tenglamadan ham bilish mumkin.

$$F = \frac{g_1 \cdot g_2}{4^2 \epsilon}$$


Ionlar orasidagi ta'sir kuchi, shu ionlar miqdoriga to'g'ri proporsional, ular orasidagi masofaning kvadratiga va erituvchining

dielektrik singdiruvchanligiga teskari proporsional. Xuddi shunday eritmaning elektr o'tkazuvchanligi erituvchining qovushqoqligiga ham bog'liq. Agar erituvchining qovushqoqligi qancha kichik bo'lsa, ionlar harakati haddan tez bo'lib, elektr o'tkazuvchanlik shuncha katta bo'ladi.

Konduktometrik tahlil usuli to'g'ri (bevosita) konduktometriya va konduktometrik titrlashga bo'linadi.

**To'g'ri konduktometriya** asosida eritma konsentratsiyasi bilan elektr o'tkazuvchanligi orasidagi bog'lanish yotadi. Bu usul bilan eritmada bo'lgan alohida elektrolitlarning miqdorini aniqlash. ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilish mumkin.

**Konduktometrik titrlash** – titrlash jarayonida eritmaning elektr o'tkazuvchanligi o'lchab boriladi. Olingan natijalar asosida (elektr o'tkazuvchanlikning titrant hajmiga bog'iqligi) titrlash egri chiziqlari chiziladi. Aniqlanadigan moddadagi ionlarning harakatchanligini turlicha bo'lganligiga qarab, titrlash egri chiziqlarining ko'rinishi quyidagicha bo'ladi.




- a) kuchli kislotani kuchli asos bilan titrlash;
- b) cho'kma hosil qilish reaksiyasiga asoslangan titrlash;
- d) kuchli kislotani, kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzi bilan titrlash;
- e) kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzni kuchli asos bilan titrlash egri chiziqlari.

Ekvivalent nuqta titrlash egri chiziqlaridan topiladi va hisoblashlar olib boriladi. Konduktometrik titrlashda neytrallanish, oksidlanish-qaytarilish, cho'ktirish, kompleks hosil qilish, qaytar va qaytmas reaksiyalardan foydalanish mumkin.

### 1.3 §. Yuqori chastotali titrlash

Yuqori chastotali titrlash usuli ham eritmaning elektr o'tkazuvchanligini o'lchashiga asoslangan bo'lib, tahlil qilinadigan eritma yuqori chastotali tebranish konturiga (elektr maydoniga) qo'yiladi. Bunda tokning chastotasi megogers va bir necha ligogersga teng bo'ladi. Elektr maydoniga joylashtirilgan eritmadiagi ionlar kichik chastotada tebranadi. Chastota amplitudasi oshirilganda ionlarning tebranishi kamayadi, oxirida ionlar harakat qilmaydi. Ayni vaqtida yuqori chastota molekulalarni deformatsiyalab, deformatsion qutblanish hosil qiladi. Qutblangan molekulalar yuqori chastotali o'zgaruvchan tok maydonida harakat qila boshlaydi, natijada orientatsion qutblanishni hosil qiladi. Qutblanishning har ikkalasi eritmadiagi ionlarni siljishiga olib keladi, natijada eritmada qisqa muddatli tok paydo bo'ladi. Molekulani qutblanishi eritmaning elektr o'tkazuvchanligini, dielektrik va magnit kirituvchanlik xususiyatini o'zgartiradi.


Yuqori chastotali titrlash asboblarining sxemasi konduktometrik (quyi chastotali) titrlash asboblari sxemasidan farq qilib, tahlil qilinadigan eritma yacheykasi kondensator plastinkalari orasida yoki induktiv g'altak ichida joylashtiriladi (6 - rasm).



**6-rasm. Yacheykalar:**

- a) kondensatorli yoki S - sig'imli, S-yacheyka.
- b) induktiv yoki L - yacheyka.

Yuqori chastotali titrlashda elektrodlar eritmaga tushirilmaydi. Yuqori chastotali titrlashda asbobning asosiy qismi yuqori chastotali tebranish generatori hisoblanadi. Generatorning tebranish chastotasi titrlash egri chizig'ining ko'rinishiga kuchli ta'sir qiladi. (7-rasm)



*7-rasm. Asbob ko'rsatgichining titrant hajniga bog'liqligi.*

Rasmdan ko'rini turibdiki, ekvivalent nuqta chastota 25-30 mgs. dan katta bo'lqanda aniq topiladi. Yuqori chastotali titrlash usulining quyi chastotali (konduktometrik) va potensiometrik titrlashga nisbatan sezgirligi katta. Bundan tashqari, yuqori chastotali titrlash bir necha afzalliklarga ega: elektrodlar eritmaga tushirilmaydi, rangli, quyuq smola, emulsiya, zaharli suv, organik erituvchilar muhitida ham tahlili olib borish mumkin.

Yuqori chastotali titrlash usulida neytrallanish, cho'ktirish, kompleks hosil qilish va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan foydalanish mumkin.

Yuqori chastotali titrlash usulining kamchiligi asboblarning murakkab tuzilganligi, yacheyka doimiyligini saqlab turish qiyinligida.

#### **1.4-§. Tahlilning kulonometriya usuli**

Moddalarni eritmadagi aniqlanuvchi modda miqdorini elektrokimyoiy to'liq qaytarish yoki oksidlash uchun sarflanadigan elektr miqdorini o'lchanishga asoslangan usulga kulonometrik tahlil deyiladi. Bunda moddalarning unumi tok sarfi bo'yicha 100 % bo'lishi, ya'ni induksiya tokining effektivligi 100 % bo'lishi kerak. Kattaliklarning oson o'lchanishi, ishlatiluvchi asboblarning ancha soddaligi bu

usuldan neft va neft mahsulotlari tarkibini analitik jihatdan amaliyotida aniqlashda qulaylik yaratadi. Kulonometrik aniqlashning ikki turi mavjud:

- a) bevosita kulonometriya;
- b) kulonometrik titrlash.

a) Bevosita kulonometriya usulida tahlil qilinadigan modda kulonometrik yachevkada elektrokimyoiy o'zgarishga uchraydi. Kulonometrik titrlash usulida esa aniqlanuvchi modda kulonometrik yachevkada maxsus tanlab olingan eritmadan hosil bo'lувчи titrant bilan reaksiyaga kirishadi.

b) Kulonometrik titrlash usulida titrlovchi eritmalar oldindan tayyorlanmaydi. Kulonometrik titrlash asosida qulay va oddiy avtotitratorlar yaratish mumkin, ular ishlatalish xususiyatlari va ishonchliligi jihatdan titrlovchi eritmalarni dozalab beri hga asoslangan mavjud asboblarga nisbatan ancha afzal bo'ladi. Kulonometriyada aniqlik yuqori bo'ladi, qayta aniqlashlar natijalari bir-biriga juda yaqin va tahlilning xatoligi kam bo'ladi.

Organik va ayniqsa anorganik moddalar eritmalarining elektrolizida ba'zan elektrokimyoiy yachevka elektrodida faqat bitta reaksiya sodir bo'ladi. Agar elektroliz katom va anod mahsulotlari aralashib ketmaydigan sharoitda olib borilsa, elektroliz jarayonida eritmadan o'tgan elektr miqdorining hammasi faqat bitta moddaning oksidlanishi (anod reaksiyasi) yoki qaytarilishi (katod reaksiyasi) uchun sarflanadi. Reaksiyaga kirishayotgan moddalar to'liq parchalangunga qadar reaksiyaga sarflangan elektr miqdorini o'chash yo'li bilan va elektroliz qonunlarini tatbiq etib, shu moddaning miqdorini topish mumkin.

Kulonometrik tahlilda odatda tok manbaidan elektrodlarga elektr energiyasini uzatish uchun metall o'tkazgichlardan va elektrolit o'tkazgichlardan (elektrolit eritmalaridan) foydalaniladi. Elektrolit eritmasidan elektr toki o'tganida eritmaning konsentratsiyasi o'zgaradi yoki elektrodlardan modda ajralib chiqadi va reaksiya sodir bo'lganligi bilinadi. Moddalarning elektrodlarda elektrokimyoiy oksidlanish yoki qaytarilishi va elektron berish yoki qabul qilish bilan boradigan bunday jarayon *elektroliz* deb ataladi.

Elektr-kimyoiyi, reaksiyaning amalga oshishi uchun eritmada elektrod yuzasi bilan to'qnashganda ma'lum miqdorda elektron qabul qilish yoki uzatishga qodir zarrachalar bo'lishi kerak. Bunda turlicha

zaryadlangan ionlar hosil bo'lib, musbat zaryadlangan ionlar (kationlar) katodga, manfiy zaryadlanganlari (anionlar) esa anodga tomon harakatlanadi, Shunday qilib, metall o'tkazgich va elektrolitdan tarkib topgan zanjirdan tok o'tganida elektrodlar yuzasida elektronlarning zarrachadan elektrodga yoki, aksincha, elektroddan zarrachaga o'tishi sodir bo'ladi.

O'tkazgichdagi kuchlanish V (v), uning qarshiligi R (Om) va undan o'tuvchi tok kuchi I (a) orasidagi bog'liqlik Om qonuni orqali ifodalanadi:


$$I = \frac{U}{R}$$

Kulonometrik tahlilda sarflanadigan elektr miqdori (2 tok kuchining o'tkazgichdagi o'tish vaqtiga ko'paytmasiga teng bo'ladi. Bunda elektr miqdorining birligi sifatida kulon (K) qabul qilinadi, u o'tkazgichning ko'ndalang kesimi orqali 1 sek. davomida o'tgan kuchi 1A bo'lgan elektr miqdoriga teng.


Elektr toki ta'sirida moddaning kimyoviy parchalanishi elektroliz deb ataladi. Manfiy zaryadli elektrod-katodda qaytarilish jarayoni sodir bo'ladi. Masalan:



musbat zaryadli elektrod anodda esa oksidlanish jarayoni sodir bo'ladi. Masalan:




sulfatlar, fosfatlar va ba'zi bir boshqa tuzlarning suvdagi eritmalarini elektroliz qilinganda anodda  $SO_4^{2-}$  yoki  $RO_4^{3-}$  ionlari o'rniغا  $OH^-$  ionlari oksidlanadi:



Chunki hatto kislota muhitli eritmalarida ham  $SO_4^{2-}$  va  $PO_4^{3-}$  ionlariga nisbatan  $OH^-$  ionlari o'z elektronlarini osonroq beradi.

Anodda faqatgina anionlar emas, balki kationlar ham oksidlanishi mumkin. Masalan,  $Rb^+$  ionlari qo'rg'oshin dioksid hosil qiladi:




Kulonometrik tahlil usulining nomi elektr miqdorining birligiga kulon so'zidan kelib chiqqan. Elektroliz potensiali nazorat qilinadigan elektroliz (bevosita kulonometriya) bilan tok kuchi nazorat qilinadigan elektrolizga (bilvosita va bilvosita kulonometriya) bo'linadi.

Bevosita elektrolizda aniqlanuvchi moddaning o'zi elektrodlarda reaksiyaga kirishadi. Bilvosita usulda esa aniqlanuvchi modda maxsus tanlab olingen moddaning elektrolitik parchalanish mahsuloti bilan reaksiyaga kirishadi.

Potensiali nazorat qilinadigan elektroliz bevosita potensiometrik kulonometriya deb ham aytildi. Tok kuchi nazorat qilinadigan bevosita elektroliz bevosita amperostatik kulonometriya, tok kuchi nazorat qilinadigan bilvosita elektroliz - kulonometrik titrlash (bilvosita amperostatik kulonometriya) deyiladi.

**Bevosita kulonometriya** Faradey qonunlaridan foydalanishga asoslangan va elektrokimiyoviy reaksiyani o'tkazishda eritmagan o'tgan elektr miqdorini o'lchashdan iborat. Kulonometriya uchun eng oddiy qurilma tekshiriluvchi eritma solingan va elektrodlar botirib qo'yiladigan elektrolitik yacheyska 1, kulonometr 5, doimiy tok manbasi 4, reostat 3 va o'lchov asboblari: voltmetr hamda mikroampermetr 2 dan tashkil topgan (8-rasm).



**8-rasm. Kulonometrik tekshirish qurilmasining tuzilishi.**

Elektrolitik yacheykada katod sifatida ko'pincha simobdan foydalaniladi, chunki u vodorod ajralishida yuqori o'ta kuchlanishga ega (vodorod ajralishidagi o'ta kuchlanish vodorod ionlari  $2\text{H}^{+} \Rightarrow \text{H}_2$  ga qadar qaytariladigan elektrodda manfiy potensialning ortishi). O'ta kuchlanishning qiymati katod tabiatiga, muhit pH iga va boshqa omillarga bog'liq. Kulonometr butun sistemadan o'tgan elektr miqdorini aniqlashga imkon beruvchi asbob. Laboratoriya amaliyotida ko'pincha gazli yoki mis va kumushli kulonometrlar ishlatalidi. Gazli kulonometrlarda elektr miqdori kulonometrdan o'tgan elektr toki ta'sirida tuzning elektrolizida (tuz ishtirokida) ajralib chiqqan kislorod hamda vodorodning hajmi orqali aniqlanadi. Misli va kumushli kulonometrlarda elektr miqdori elektrodlarga o'tirgan metall (mis yoki kumush) miqdori bo'yicha aniqlanadi. Elektrolitik yacheykadan o'tgan tok kulonometrga keladi va metallning tuzli eritmasidan elektrodda metall ajralib chiqishini ta'minlaydi. Yuvib quritilgan elektrotni tarozida tortib, ajralib chiqqan metall massasi aniqlanadi va unga qarab elektrolitik yacheykadan o'tgan elektr miqdori hisoblab chiqariladi. Keyingi vaqtarda asbob shkalasidan elektr miqdorini hisoblashga imkon beruvchi elektr kulonometrlar qo'llana boshlandi.

Kulonometr va elektrolitik yacheyka orqali bir xil miqdordagi elektr o'tadi. Bir xil miqdordagi elektr ta'sirida ekvivalent miqdordagi moddalar ajralishini e'tiborga olib, quyidagi nisbatni keltirib chiqarish mumkin:

$$Q = \frac{q_k * n_k * F}{M_k} = \frac{q_{yu} * n_{yu} * F}{M_{yu}}; \quad n_k = n_{yu}$$

bo'lganda  $q_k / M_k = q_{yu} / M_{yu}$  ni olamiz,

bu yerda,  $q_k$  — kulonometrda olingen modda massasi;

$q_{yu}$  — yacheykada olingen modda massasi;

$M_k$  — kulonometrdagi moddaning molyar massasi;

$M_{yu}$  — yacheykadagi moddaning molyar massasi;

$p_k$  — kulonometrda elektrkemyoviy reaksiyada uzatiladigan elektronlar soni;  $n_{yu}$  — yacheykada elektrkemyoviy reaksiyada uzatiladigan elektronlar soni .

Bevosita kulonometriya tahlilning juda aniq va sezgir usuli bo'lishiga qaramay, ko'p mehnat talab qilishi va tahlilning uzoq davom etishi sababli, bu usulga qaraganda ko'proq kulonometrik

titrash usulidan foydalilanladi. Oddiy titrashdan farqli ravishda bu usulda titrant elektrolitik yachevkaga solingen moddadan hosil bo'ldi. Bu jarayon *titrant generatsiyasi* deyiladi. Masalan, yachevkaga qo'shilgan *Yu* dan elektrkimiyoiy reaksiyada titrant  $\text{Z}_2$  hosil bo'ldi va u aniqlanuvchi modda bilan reaksiyaga kirishadi. Bu usul bilan hatto elektrkimiyoiy jihatdan noaktiv moddalarni ham tahlil qilish mumkin. Bundan tashqari, oddiy sharoitda beqaror reagentlardan, masalan,  $\text{Cu}^{2+}$  ionlardan foydalansa bo'ldi, ularni elektrkimiyoiy reaksiya yordamida to'g'ridan-to'g'ri elektrolitik yachevkada ham hosil qilish mumkin.

Reaksiyaga, shuningdek, tegishli apparatlarning mavjudligiga qarab kulonometrik o'lchashlarni o'zgarmas tok kuchida (amperostatik, galvanostatik) yoki jarayon sodir bo'ladigan elektrod potensial o'zgarmas bo'lganda (potensiostatik) olib borish mumkin. Tok kuchini doimiy tutib turish uchun qo'llda yoki avtomatik boshqariladigan amperostatlar (galvanostatlar) dan foydalilanladi.

### 1.5-§. Potensiostatik kulonometriya


Bevosita kulonometriyada potensial uzlusiz nazorat qilinadigan potensiometrik yoki kulonometrik usullar keng qo'llaniladi.

Potensiometrik kulonometriya aniqlanuvchi moddaning elektrokimiyoiy oksidlanishi yoki qaytarilishi uchun sarflangan elektr miqdorini o'lchashga asoslangan. Bunday elektrolizda ishchi elektrodnинг potensiali o'zgarmas holda tutib turiladi va uning qiymati tok samaradorligini 100% qilib elektrkimiyoiy reaksiyani o'tkazishni ta'minlaydi.

Anod va katod qismlari bir-biridan ajratilgan elektrolitik yachevka yig'iladi. Inert platina elektrodlardan foydalilanladi va elektroliz boshlanadi. Aniqlanuvchi moddali qismda joylashgan elektrod ishchi elektrod (IE) deyiladi. Ikkinci elektrod – yordamchi elektrod (EE) dir. Ishchi elektrod potensialini aniqlash va nazorat qilish uchun qutblanmaydigan taqqoslash elektrodi (TE) xizmat qiladi. Taqqoslash elektrodi sifatida aniq qiymatli har qanday elektrod, masalan, kalomel elektrod, kumush xloridli elektrod va boshqalarni ishlatish mumkin.

Elektroliz davomida maxsus qurilma vositasida ishchi elektrodnинг taqqoslash elektrodigiga nisbatan potensiali nazorat qilib turiladi,

uning qiymati elektrolizning boshidan oxirigacha o'zgarmay turishi kerak. Eritmani aralashtirish uchun magnitli aralashtirgichdan foydalaniladi.



**9-rasm. Potensiostatik kulnometriya qurilmasining tuzilishi sxemasi .**

Potensiostatik kulonometriyada ishlatiladigan qurilmaning principial sxemasi 9-rasmda keltirilgan.

Akkumulator batareyasi 1 dan kuchlanish taqsimlovchi 2 orqali kulonometrik yacheyka 5 ning ishchi elektrodi 4 ga beriladi. Elektrod potensiali millivoltmetr yoki potensiometr yordamida, tok kuchi ampermetr yordamida o'chanadi. Sarflangan elektr miqdori kulonometr 6 yordamida aniqlanadi. Zamonaviy qurilmalarda barqarorlashtirilgan kuchlanish manbai sifatida odatda maxsus elektron asboblardan — potensiastatlardan foydalaniladi. Ular berilgan potensialni -2,5 dan +2,5Vgacha bo'lган oraliqda 10 mV aniqlikda tutib turadi. Ishchi elektrod potensiali chegara tokiga erishilgan sohada qutblanish egri chizig'i I-U yordamida aniqlanadi.

Kulonometrik yacheykada ishchi elektrod sifatida, odatda platina plastinkasi yoki simob, ba'zan esa oltin, kumush va grafit elektrodlar ishlatiladi. Yordamchi elektrod ham shu materialarning o'zidan tayyorlanadi. Ishchi va yordamchi elektrodlar maydoni o'zarajratilgan bo'ladi. Ular bir-biri bilan g'ovak to'siq orqali tutashadi. Taqqoslash elektrodi sifatida kalomel yoki kumush xloridli elektrodlar


tanlanadi. Elektrkemyoviy reaksiyaning borishi uchun sarflangan elektr miqdori tok integratorlari yoki kulonometrlar vositasida o'lehanadi yoki hisoblash usuli bilan topiladi.

Kulonometrlarning ishlashi shunga asoslanganki, zanjirda ketma-ket ulangan asbobdan o'tadigan tok tahlil qilinadigan eritmadan o'tadigan tok kabi bo'ladi, demak, ma'lum vaqt oraliq'ida tekshiriluvehi eritmadan ham, asbobdan ham bir xil miqdorda elektr o'tadi. Ketma-ket ulangan unumi 100% bo'lgan kulonometrda ma'lum elektrkemyoviy reaksiya sodir bo'ladi va shunday qilib, elektr miqdorini o'lehash shu jarayonda hosil bo'luchchi modda miqdorini aniqlashdan iborat bo'lib qoladi.

Ajraluvehi modda massasi yoki hajmini o'lehash usuliga qarab kulonometrlar gazli, elektrogravimetrik, titratsion va boshqalarga bo'linadi. *Gazli* kulonometrlarda elektrkemyoviy reaksiya natijasida ajralib chiqqan gaz hajmi aniqlanadi. *Elektrgravimetrik* kulonometrda moddaning massasi aniqlanadi. Masalan, misli kulonometrda mis sulfat eritmasining elektrolizi natijasida ajralib chiqqan mis metallning massasi, kumushli kulonometrlarda kumush nitratning elektrolizida ajralib chiqqan kumushning massasi aniqlanadi.

Yuzasida mis yoki kumush ajralib chiqqan katodni tarozida tortish o'miga ba'zan shu elektrodlardagi metallni o'zgarmas tok kuchida anorra eritishdan foydalaniлади. Jarayon davom etish vaqtini va tok kuchini bilgan holda formula bo'yicha ajralib chiqqan metall massasi yoki to'g'ridan-to'g'ri elektr miqdorini hisoblab topish mumkin:

$$m = \frac{Q \cdot M}{96500}$$



*10-rasm. Kulonometrik titrlash egri chiziqlari.*

Potensiostatik kulanometriyada titrlash egri chiziqlari «elektrod potensiali- vaqt» koordinatalarida tuziladi (10-rasm).

Egri chiziqlarning gorizontal qismi elektrodda reaksiya bora-yotganiga mos keladi, bunda aniqlanayotgan modda eritmada hali anchagini miqdorda bo‘ladi. Egri chiziqning qismi esa aniqlanuvchi ion batamom tugaganligi natijasida potensialning keskin kamayishiga mos keladi. Egilish nuqtasi  $A$  ekvivalentlik nuqtasiga, ya’ni titrlashning oxiriga to‘g’ri keladi. Masalan:  $\text{Fe}^{+3}$  ionini platina katodda  $\text{Fe}^{+2}$  gacha qaytarish orqali aniqlash mumkin. Bunda  $\text{Fe}^{+3}$  ionlar tugagan vaqt elektrod potensialining kamayishiga va titrlash egri chizig‘ida egilish paydo bo‘lishiga to‘g’ri keladi.

Sanoatda ishlab chiqarilgan potensiostatlar (PB, PEB, P-5848) galvanostat. rejimida ham ishlashi mumkin, bu esa ulardan ikkala turdag'i kulanometriyada ham foydalanishga imkon beradi. Tahlilning boshqa usullaridan farq qilib, kulanometriyani to‘liq avtomatlashtirish mumkin, bu esa tasodifiy xatolarini keskin kamaytirishga imkon beradi. Bundan avtomatik kulanometrik titratorlarni yaratishda foydalanilgan, ular nihoyatda sezgir asboblar bo‘lib, tahlildan katta aniqlik talab qilingan hollarda ishlatiladi.

Tajribada olingan ma'lumotlar potensiostatik kulanometriya usulidan asosan moddalarining milligramm (5-200 mg) miqdorlarini aniqlashda foydalanish qulayligini ko‘rsatdi. Bu usulni moddalarining mikrogrammlarini aniqlash uchun ham qo’llash mumkin va bu imkoniyat ayniqsa, transuran elementlarni aniqlashda ahamiyatlidir.

Aniqlash xatoligi 0,01-3,0% ni tashkil etadi va konsentratsiyalardan ko‘ra ishlatilayotgan apparatlarga hamda tekshiruvchining mahoratiga ko‘proq bog‘liq. Bitta aniqlash uchun elektrolizga bir necha daqiqadan bir soatgacha vaqt ketadi.

Tegishli muddani aniqlash uchun zaruriy ishchi elektrod potensialining qiymatini turli usullar bilan topish mumkin. Elektrod faol moddalarining har qanday konsentratsiyasi uchun elektrod potensiali  $E$  ni Nernstning quyidagi tenglamasidan topsa bo‘ladi:


$$E_{ox/K} = E^\circ + \frac{RT}{nF} \lg \frac{C_{ox}}{C_K}$$

bu yerda,  $E^\circ$  – oksidlanish-qaytarilish sistemasining rasmiy potensiali.

Analda elektrolizni o'tkazish uchun ishchi elektrod potensiali  $E$ ning qiymatiga nisbatan manfiyoq (qaytarilishda) yoki musbatroq (oksidlanishda) qilib olinadi. Potensialning siljish qiymati  $\Delta E$  moddaning elektrikmyoviy o'zgarishini qaysi darajada tugallash lozimligiga qarab aniqlanadi. 11-rasmdan ko'rinish turibdiki, 90% li tugallanish uchun bu siljish bir elektronli ( $p=1$ ) reaksiyada 120 mV ni tashkil etadi. Bu holda o'zgarmas sharoitda elektroliz o'tayotgan tok kuchi quyidagi tenglama (katod jarayoni) orqali aniqlanadi:

$$i = i_{\text{g}}(1 - \exp \frac{nF}{RT} \Delta E)$$

bu yerda,  $i_g$  – moddaning ayni konsentratsiyasida moddaning elektrodga o'tish tezligi diffuzion, nazorat qilinganda olinishi mumkin bo'lgan eng katta tok kuchi.



*U-rasm. Elektrod reaksiyasi tugallanish darajasining elektronlar va potensial miqdoriga bog'liqligi.*


Elektroliz vaqtida diffuziya kuchlari evaziga elektrod yuzasiga keluvchi barcha zarrachalar darhol zaryadsizlangani sababli, ularning elektrod yaqinidagi konsentratsiyasi noldan juda kam farqlanadigan bo'lub qoladi. Shu paytdan boshlab tok kuchini orttirib bo'lmaydi. Elektrod konsentratsion qutblanish deb ataluvchi holatga keladi.

Zanjirdan o'tayotgan tok diffuziya chegara (eng katta) toki deyiladi. Sodir bo'lgan turg'un diffuziya jarayoni quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$i_{gr} = nF \cdot D \frac{C_0}{\delta}$$

bu yerda,  $F$  – Faradey doimisi, A·s/mol;  $D$  – elektrod faol muddaning diffuziya koefitsiyenti,  $\text{sm}^2/\text{s}$ ;  $C_0$  – uning eritma hajmidagi konsentratsiyasi, mol/ml;  $\delta$  – diffuzion qatlamning qalinligi, sm. Modda shu qatlamdan elektrodga o'tadi.

Tenglamadan ko'rinishicha, diffuziya chegara tokining kuchi diffuzion qatlam qalinligiga bog'liq bo'lib, qalinlik ortishi bilan tok kuchi kamayadi.



*12-rasm. Ishchi elektrod potensialini qutblanish egri chizig'i bo'yicha tanlash.*

Tahlilni o'tkazish uchun tok-potensial qutblanish egri chiziqdan aniqlanuvchi muddaning chegara tokiga erishilgan potensiallar sohasi topiladi. Ishchi elektrod potensial 12-rasmida ko'rsatilganidek, chegara toki maydonida olinadi. Potensiostatlashning bu holi yacheykadan o'tuvchi tok ekspotensial qonun bo'yicha kamayib boradi. Istalgan  $t$  vaqtidagi tok quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$i_t = I_0 \cdot e^{-Kt} = I_0 \cdot 10^{Kt} K = 2,303k$$

bunda,  $I_t$  – vaqtning  $t$  momentidagi tok;  $I_0$  – elektroliz boshlanish paytidagi tok;  $K$  yoki  $K'$  – elektroliz sharoitlariga (diffuziyalanish

koeffitsiyenti, elektrod sathi va boshqa qiymatlarga) bog'liq konstantalar.

Agar konstanta  $K$  ma'lum bolsa tenglama (1) tahlil qilinayotgan muddani istalgan darajada parchalash uchun zaruriy elektroliz vaqtini hisoblab chiqish imkonini beradi. Hisoblashlar elektrolizni 99,99 % borishi uchun zaruriy vaqt  $3/K$  ga teng bo'lishini ko'rsatdi.  $K$  ning qiymati elektr faol muddaning diffuziyalanish koeffitsiyenti D ishchi elektrodnning sathi  $A$  ga, tekshirilayotgan eritma hajmi  $V$  ga va diffuziyalanuvchi qatlam qalinligi  $b$  ga bog'liq:

$D$  va 8 larning aniq qiymatlarining yo'qligi  $K$  qiymatlarining aniqligini chegaralaydi. Shu sababli, potensiostatik kulonometriyada elektroliz amalda oxirigacha yetkazilmay, tok kuchi tahlil qilinayotgan namunadan istalgan miqdorda modda olinishini ta'minlaydigan qiyimatga qadar kamayganda to'xtatiladi. Masalan:  $K = 0,1 - 0,2$  bo'lganda xato 0,1% chegarasida bo'lishi uchun elektrolizni kamida 15-30 min davomida olib borish kerak. Tenglama (1) dan muddani elektrikmyoviy parchalashda sarf qilingan elektr miqdorini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Umumiy elektr miqdorini hisoblashning elektrikmyoviy reaksiyani oxirigacha olib borish talab etilmaydigan usuli ham mavjud. Bu urul tok logarifmi - vaqt grafik bog'liqligidan foydalanishga usoslangan. Bu grafik to'g'ri chiziqdan iborat bo'lib, uning ordinatalar o'qi bilan kesishish nuqtasi  $I_0$  ga, og'ish burchagining tangensi esa  $Q$  ga to'g'ri keladi. Tenglamani  $I_t$  bo'yicha logarifmlasak, quyidagini olamiz:

$$\lg I_t = \lg I_0 - Kt, \text{ u holda}$$

$$K = \frac{I_0 / I_t}{t}$$

Elektr miqdorini hisoblash uchun Q formulaga  $I_t$  ning qiymatlarini qo'syak

$$Q = \int_0^t I_0 I^{-Kt} * dt = I_0 \int_0^t \frac{e^{-Kt}}{K} = \frac{I_0}{K} = \frac{I_0}{2.303K}$$


$K$  ning qiymati grafikdan topiladi. (2) tenglamani o'zgartiramiz:

$$\lg I_t = \lg I_0 - \frac{K_t}{2.303}$$

$\lg I_t$  -  $I$  koordinatalarda (a) bog'liqlik burchak koeffitsiyenti  $K/2,303$  bo'lgan to'g'ri chiziqdan iborat. Ekstropolatsiya qilinganda bu to'g'ri chiziq ordinatada  $I_0$  ga teng kesmani kesib o'tadi (13-rasm).

Elektrolizni eng yuqori tok kuchida ham o'tkazish mumkin. Eng yuqori tok o'tishiga mos keluvchi potensialni topish uchun oldin tahlil qilinayotgan eritmaning qutblanish xarakteristikasini ( $i-E$  bog'lanishni) olish zarur. Eng yuqori tok kuchi konsentratsiyaga mutanosib bo'lGANI sababli elektroliz sodir bo'lgan sari modda konsentratsiyasining kamayib borishiga bog'liq ravishda qayd etiluvchi tok kuchi ham kamayib boradi. Shartga ko'ra  $E=Const$ .

Tok kuchining kamayishi  $i=I_0 * \exp(-Kt)$  tenglama orqali ifodalanadi. Bunda  $I_0$ =o elektroliz boshlangan paytdagi tok kuchi, A;  $K$  - konstanta. T - elektroliz boshlanganidan tokni o'lchash paytigacha o'tgan vaqt, s. Yarim logarifmlangan koordinatalarda ushbu bog'liqlik to'g'ri chiziq shaklida bo'ladi (13-rasm).



*13-rasm. Potensiostatik sharoitlarda tok vaqt bog'liqligining koordinatalarda ifodalanishi.*

Amalda jarayon davom etish vaqtini ko'pincha 30 daqiqadan ortmaydi. Qaytarilishning oxiri odatda ma'lum vaqt orasida tok kuchining o'zgarmay qolishiga qarab aniqlanadi. Bunda tok kuchi deyarli nolgacha kamayib ketadi. Ba'zi hollarda, masalan, qoldiq toki

katta bo'lganda aniqlashning kimyoviy yoki fizik - kimyoviy usullaridan foydalanadi.

Aniqlanuvchi moddaning massasi ushbu formula yordamida topiladi:

$$m = \frac{Q}{96500} M$$

Tok kuchini va elektroliz vaqtini bilgan holda qoldiq tokka tuzatish kiritiladi.

Kulonometrik titrlashda ekvivalentlik nuqtasini aniqlash uchun kimyoviy va asbobiylardan foydalanadi. Indikatorlar qo'shiladi, rangli birikmalar fotometrlash yoki spektrofotometrlash yo'li bilan aniqlanadi. Masalan,  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  yacheykaga KI va kraxmal eritmasi qo'shilgandan keyin titrlanadi. Elektrodda  $\text{J}_-\text{ionlaridan}$  titrant  $\text{J}_2$  hosil bo'ladi va u  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  bilan reaksiyaga kirishadi. Titrlashning tugallanish momentida  $\text{J}_2$  ning ortiqchasi paydo bo'ladi va u yacheykadagi eritma ta'sirida ko'k rangga kiradi. Tok kuchini bilgan holda titrlashga sarflangan vaqtini aniqlab, elektr miqdori va  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ning miqdori hisoblab topiladi.

Elektrkimiyoiy aniqlashning maxsus usullari ham mavjud bo'lib, ularda titrlanuvchi eritmaga qo'shimcha elektrodlar jufti botiriladi va tegishli elektrokimiyoiy asbob bilan ulanadi. Masalan, ekvivalentlik nuqtasiga aniqlash uchun elektrodlari titrlanadigan eritmaga botirilgan potensiometrdan foydalanish mumkin. Shuning singari, eritmaga elektrodlar juftini tushirib va bunday indikator zanjiridagi tok qiymatini qayd etib, qo'shimcha elektrokimiyoiy reaksiyaning vujudga kelishini (titrantning ortiqchasi bo'yicha) yoki oxirini (aniqlanuvchi modda bo'yicha) aniqlash mumkin (bioampermetrik aniqlash). Elektrkimiyoiy indikator zanjirlaridan foydalanilganda tahlil natijalari titrlash egri chiziqlari yordamida aniqlanadi.

Bioampermetrik aniqlashda (indikatsiyada) kulonometrik titrlash egri chiziqlari elektroliz vaqtiga indikator zanjiridagi tok qiymati  $I$  koordinatalarida chiziladi. Titrlovchi moddaning bir me'yorda hosil bo'lishida uning aniqlanayotgan modda bilan o'zaro ta'siriga sarf bo'lgan miqdori vaqtga mutanosib bo'ladi. Hosil bo'lувчи (titrlovchi) reagent bilan tekshirilayotgan moddaning elektrkimiyoiy faolliklariga bog'liq ravishda titrlash egri chiziqlari turli ko'rinishda bo'ladi.

Birinchi holatda (10-rasm, 1-egri chiziq) indikatsiya (ta'sir) aniqlanuvchi modda bo'yicha kuzatilib, egri chiziq aniqlanuvchi moddaning konsentratsiyasi kamayganida indikator tokining ham kamayishini ko'rsatadi. Sinish nuqtasi moddaning oxirgi qismining ham yo'qolishiga to'g'ri keladi va shundan keyin chiziq gorizontal bo'ladi. Masalan,  $\text{Se}^{+3}$  ionlaridan  $\text{Se}^{+4}$  hosil bo'lishi evaziga faol  $\text{Fe}^{+2}$  ionlarni oksidlashda titrlash jarayonida  $\text{Fe}^{+2}$  ionlari konsentratsiya-sining kamayishi tufayli indikator toki kamayadi.  $\text{Fe}^{+2}$  ning hammasi  $\text{Fe}^{-3}$  ga qadar oksidlanganda tok minimal bo'ladi va barqrarorlashadi.

Ikkinci holda (10-rasm, II egri chiziq) indikatsiya hosil bo'layotgan faol titrant bo'yicha olib boriladi. U aniqlanayotgan ion bilan reaksiyaga kirishayotganda indikator zanjirida tok o'zgar masligicha qolaveradi (fon toki). Aniqlanuvchi ion to'liq bog'langandan keyin yachevkada faol titrantning ortiqchasi paydo bo'ladi va tok vaqtga mutanosib ravishda ortib boradi. Masalan, «kislotali muhitda elektrokimyoiy nofaol  $\text{Zn}^{+2}$  ni yachevkaga solingan  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmasi bilan titrlashda elektrodda  $[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-}$  ionlari  $[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{4-}$  ionlariga qadar qaytariladi va bu ionlar  $2\text{p}^{+2}$  ionlari bilan reaksiyaga kirishadi. Indikator zanjiridagi tok avval o'zgarmaydi, amino ekvivalentlik nuqtasida faol  $[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{4-}$  ionlarining paydo bo'lishi tokning ortishiga olib keladi. Uchinchi holda (10-rasm, III egri chiziq) aniqlanuvchi modda ham, hosil bo'luchchi titrant ham elektrkimyoiy faol bo'lgani sababli indikator zanjiridagi tok daslab kamayadi va so'ngra ortadi. Barcha hollarda ham titrlash egri chizig'idagi sinish nuqtasi ekvivalentlik nuqtasiga mos keladi.

Kulonometrik titrlash usuli neytrallanish, oksidlanish - qaytarilish, cho'ktirish yoki kompleks hosil qilish reaksiyalarining qaysi biriga asoslangandan qat'i nazar, titrlash oxirini barcha ma'lum usullar bilan aniqlash mumkin, chunki bu usul titrlovchi reagentni kiritish texnikasi bilangina farqlanadi.

Kislota - asosli titrlashda eritmaning rangi ekvivalentlik nuqtasida rangli indikatorlardan foydalanilganda o'zgaradi, oksidlanish - qaytarilish usulida eng oddiy holda rangni titrlanuvchi yoki titrlovchi reagent o'zgartiradi. Shunga binoan titrlash oxirini ko'z bilan kuzatib aniqlash mumkin. Bu maqsad uchun fotokolorimetrlardan foydalanish ishonchliroq natijalar beradi.

Tahlil qilinadigan modda va titrant optik diapazonda rangsiz bo'lganida (bu ayniqsa organik moddalar tahlilida ko'p uchraydi) titrlash oxirini spektrofotometrik yo'l bilan aniqlash mumkin, bunda avval shu reaktivlar spektrning qaysi sohasida «rangli» bo'lishi aniqlab olinadi. Shunday qilib, titrlash eritmani UB yoki IQ nurlar bilan yoritib va aniqlash uchun tegishli spektrofotometrning qayd qilish sistemasidek foydalanib o'tkazish mumkin.

Titrlashda qiymatining keskin o'zgarishi ekvivalentlik nuqtasini topish uchun xizmat qiladigan uchta elektrik xarakteristikani aytish mumkin: bular indikator elektrodining potensiali (aniqrog'i, indikator elektrodi bilan taqqoslash elektrodi orasidagi potensiallar ayirmasi), indikator elektrodlari orasidagi tok kuchi; eritmaning elektr o'tkazuvchanligi. Shunga mos ravishda titrlash tugaganligini aniqlashning potensiometrik, amperimetrik va konduktometrik usullari bor.

*Potensiometrik* usulda kislota asosli titrlash uchun ko'pincha shisha elektrod, oksidlanish - qaytarilish reaksiyasiga asoslangan titrlashda platina elektrodlar ishlataladi. Shisha elektrodnинг potensiali eritmaning pH i bilan oddiy  $E = 0,059 \text{ pH}$  bog'liqlik orqali bog'langani sababli ekvivalentlik nuqta yaqinida eritma pH keskin o'zgarishi kerak. Buni ko'z bilan ko'rib aniqlash yoki tegishli elektron sxema yordamida avtomatik (o'zi yozar moslamadan foydalanib) qayd qilish mumkin. Oksidlanish - qaytarilish sistemasi uchun ham shunga o'xshash bog'liqlik mavjud:

$$E = E^{\circ} + \frac{0,059}{n} \lg \frac{C_{\text{ox}}}{C_{\text{Red}}}$$

«Ikki indikator elektrodlı ampermetriya» deb ataluvchi *ampermetrik* usul asosan amperimetrik titrlashdan kelib chiqqan. Potensiometrik kulonometriyadan ma'lumki, zanjirdagi tok kuchi eritmadiagi elektrod faol moddaning konsentratsiyasiga mutanosib bo'ladi, shu sababli yacheykaga ikkita qo'shimcha indikator elektrodnini kiritib, ushu elektrodlar orasidaga tok kuchini o'lchash yo'li bilan aniqlanuvchi modda konsentratsiyasini nazorat qilish mumkin. Tok kuchi nolga qadar kamayganida ekvivalentlik nuqtasi paydo bo'ladi.

*Konduktometrik* usulda ekvivalentlik nuqtasi eritma elektr o'tkazuvchanligining elektroliz vaqtiga bog'liqligi grafigidagi bukilish joyiga qarab topiladi, bunda eritma elektr o'tkazuvchanligining ionlar

konsentratsiyasiga bog'liqligidan foydalaniladi. Eritmada tuzlarning umumiyligi konsentratsiyasi odatda katta bo'lgani sababli yuqorida ko'rsatilgan bog'liqlik aniq chiqmaydi va shu sababli, bu usul keng tarqalmagan. Ko'pincha, titrlanuvchi ionlar va reaksiya mahsulotlarining harakatchanligi o'zgarishiaga bog'liq bo'lgan elektr o'tkazuvchanlikning o'zgarishidan foydalaniladi. Shularga qaramasdan kislota asosli titrlashda yetarli aniqlikday bog'liqlarlarni olish mumkin. Egri chiziqda bukilish nuqtasini topish uchun turli kulonometrlardan foydalaniladi, ba'zan ular o'zi yozar moslamalar bilan birga ishlatiladi. Sanoatda ishlab chiqariladigan, kulonometriyada foydalaniladigan asboblar anchagina murakkabdir. Elektrolizyorlarning tuzilishi esa qo'llaniladigar usulga bog'liq bo'lib, ko'pincha yangi obyektlarni tahlil qilishda ataylab o'zgartirishni talab etadi. Shu munosabat bilan kulonometrik tahlilning ba'zi usullarida ishlatiluvchi ayrim elektrolizyorlarning tavsifini aytib o'tamiz.

Ideal elektrolizyor quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kerak: germetiklik, termostatlash, eritan elektr faol gazlarni chiqarib yuborish uchun gaz kiritish; tekshiriluvchi eritmani yaxshilab aralashtirilishi; elektrodlarning, mexanik yoki magnitli aralashtirgichning va elektrolitik kalitning yaxshi joylashuvi; anod va katod atrofidagi moddalarning bir kameradan ikkinchisiga diffuziyalanmasligi. Lekin kulonometrik tahlil o'tkazishning barcha hollarida ko'rsatilgan shartlarning hammasiga rioya qilinishi shart emas. Masalan, termostatlash xona haroratidan yuqoriroq yoki pastroq haroratlarda ishlash talab qilinadigan hollardagina zarur. Germetiklikni va ideal gaz kiritishni ta'minlash elektrrod jarayonlarida yoki kimyoiy reaksiyalarda ishtirok etib, tekshirish natijalarining buzilishiga sabab bo'lувчи  $\text{CO}_2$ ,  $\text{O}_2$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{NH}_3$ ,  $\text{H}_2\text{S}$  kabilalar eritma tarkibida mavjud bo'lgan yoki havodan o'tishi mumkin bo'lgan hollardagina kerak.

Boshqa barcha talablarga rioya qilinishi shart. Mexanik yoki magnitli aralashtirgich yordamida aralashtirish elektrkimyoiy reaksiya tezligini oshirishdan tashqari, elektr ta'sirida hosil bo'lgan mahsulotning aniqlanuvchi modda bilan samarali ta'sirlashishini ham ta'minlaydi. Oxirgi nuqtani elektrkimyoiy yo'l bilan aniqlashda generatorli va indikatorli elektrodlar, shuningdek, bitta eritmaning o'ziga boshqalari bilan birga tushirilgan qo'shimcha elektrodlar elektrolizyor kamerasida bir-biriga va aralashtirgichga tegmaydigan qilib o'rnatilishi kerak.

**Elektrodlar.** Kulonometrik tahlilda nechta ishchi elektrod talab qilinadi. Zaruriy elektrkemyoviy reaksiya boradigan elektrod generator (yoki ishchi) elektrod, ikkinchisi esa yordamchi elektrod deyiladi. Bulardan tashqari potensiostatik kulonometriyada taqqoslash elektrodi ham talab qilinadi va u orqali generator elektrodnинг potensiali nazorat qilinadi. Kimyoviy reaksiyalar tugaganligini aniqlashning elektrkemyoviy usullaridan foydalilanidigan kulonometrik titrlashda tegishli qo'shimcha indikator elektrodlar ham bo'lishi kerak.

Generator elektrodlar tayyorlash uchun platina, oltin, kumush, amalgamalar, grafit, ba'zan volfram, mis, qo'rg'oshin va boshqalardan foydalanish mumkin. Bulardan platina va simob eng ko'p ishlatiladi. Platina anoddagi jarayonlar uchun ko'proq yaroqlidir. Moddalarning elektr ta'sirida o'zgarishi elektrod potensialining vodorod ajraladigandan ko'ra musbatroq qiymatlarida sodir bo'ladi hollarda katoddagi jarayonlar uchun ham platina ishlatish mumkin. Simob elektrodda vodorodning o'ta kuchlanishi katta bo'lgani sababli deyarli barcha katod jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Ammo simobning anorra oson erishi sababli elektrolizni NVE potensiali qiymatlaridan musbatroq qiymatlarda olib borib bo'lmaydi. Shunday qilib, bu elektrod bir-birining kamchiligini to'ldiradi.

Oltin elektrod platina elektrodgaga o'xshash bo'ladi. Kumush elektrod galogenidlarni va Ag<sup>+</sup> bilan yaxshi erimaydigan hamda kompleks birikmalar hosil qiluvchi anionlarni aniqlashda Ag<sup>+</sup> ni hosil bo'lishi sifatida ishlatiladi.

Ba'zi hollarda vodorodning o'ta «kuchlanishini orttirish uchun nodir metallar yuzasi simob qatlami bilan elektrolitik usulda yoki simobda ma'lum vaqt tutib turish yo'li bilan qoplanadi: ba'zan esa tegishli amallar qo'llaniladi.


Grafit elektrod nodir metallardan tayyorlangan elektrodlarga nisbatan potensialarning mansiy qiymatida ishlash imkonini beradi. Lekin g'ovakligi sababli eritmadiagi moddalarni adsorbsialanishi natijasida elektr parametrlarni o'lehashda takroriy natijalar bir xil chiqmaydi va qoldiq tok ancha katta bo'ladi. Lekin grafitga tegishlicha ishllov berilganda (unga turli smolalar, parafin va b. shimdirish) grafitni juda foydali generator (shuningdek, indikator) elektrod sifatida ishlatish mumkin.

Metall elektrodlarni turlicha shakllarda yasash mumkin: ular plastinkalar, simlar, spirallar, to'rlar holida foydalilanadi. Grafit

elektrodlar, odatda, silindr shaklida bo‘ladi. Katta sathli elektrod olish uchun simob elektrolizer tubiga quyiladi. Bunda elektr kontaktni amalga oshirish uchun idish tubiga nodir metall simi kavsharlanadi. simning ikkinchi uchi tokli (mis) simga ularadi. Ba’zan metall elektrodlar mis simga kavsharlanadi, so’ngra sim bilan birlashtiriladi shisha naycha ichiga kavsharlanadi.

Yordamchi elektrodlar sifatida asosan nodir metallardan yasalgan elektrodlar, ko‘pincha platina ishlataladi. Ba’zan anodda platinani yemiruvchi gaz holatidagi xlor ajralib chiqish ehtimoli bo‘lganida kumush elektrod ishlataladi. Bu esa yordamchi elektrodn generator elektrod bilan bir kamerada o‘rnatishga imkon beradi.

Taqqoslash elektrodlari qutblanmaydigan bo‘lishi, ya’ni ulardan kichik tok o‘tganida potensiali o‘zgarmaydigan bo‘lishi kerak. Taqqoslash elektrodi sifatida to‘yingan kalomel elektrod ko‘proq ishlataladi. lekin boshqa taqqoslash elektrodlaridan ham foydalanish mumkin.



#### **14-rasm. Ikki elektrodl li yacheukaning tuzilishi:**

*a- elektrodlar ajratilgan; b- elektrodlar ajratilmagan.*


*1 - elektrolizorning qobig‘i; 2- regeneratsiyalaruvchi reagent; 3-VE;*

*4- ajratuvchi g‘ovak membrana; 5 - tekshirilayotgan modda;*

*6 - qo’shimcha elektrolit; 7 - magnitli aralashitirgich.*

14-rasmda potensiostatik, amperostatik kulonometriya uchun va titrlash oxiri eritma rangining o‘zgarishiga qarab aniqlanadigan kulonometrik titrlash uchun yaroqli qo’sh elektrodl li yacheykalarining variantlari keltirilgan. Bunday yacheykada tekshiriluvchi eritma yacheukaning ishchi hajmiga quyiladi va titrantni hosil qiluvchi tok

2 va 3 elektrodlar orasidan o'tadi. Bunda yordamchi o'Ichov sistemasi bo'lmaydi. 15-rasmda to'rt elektrodli universal yacheyka keltirilgan. 14-rasmda keltirilgan yacheykadan ikkita indikator elektrodi borligi bilan farq qiladi, ular bu yacheykadan ampermetrik, konduktometrik va ba'zi potensiometrik titrlashlarni o'tkazishda foydalanish imkonini beradi. Kislota - asos usulida titrlash uchun indikatorli sxema o'rniiga shisha elektrod va kumush xloridli elektrodlar ishlatish kerak.




**15-rasm. To'rt elektrodli yacheykaning tuzilishi:**

1-elektrolizorning qobig'i; 2 - RE; 3- VE; 4 - ajratuvchi g'ovak membrana; 5- tekshirilayotgan modda; 6-qo'shimcha eritma; 7-IE; 8-magnitli aralashtirgich; 9- elektrolizorning qopqog'i.

### 1.6-§. Polyarografiya usuli

Polyarografik tahlil usuli 1922-yilda chex olimi Ya. Geyrovskiy tom'onidan ishlab chiqilgan va bu kashfiyoti uchun u Nobel mukofotiga sazovor bo'lган. Polyarografiya usulida tekshirilayotgan eritmadagi aniqlanishi lozim bo'lган element (ion)ning miqdori tekshirilayotgan eritmani polyarograf deb ataladigan maxsus asbobda elektroliz qilish natijasida hosil bo'lган volt-amper egri chizig'i (polyrogramma)ning tuzilishiga qarab aniqlanadi. Polyarografiyaning rivojlanishiga rus olimi A. N. Frumkin katta hissa qo'shdi, u elektrod jarayonlari va qo'sh elektr qavat nazariyasining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi.

Polyarografik tahlil usuli maxsus asboblarda-polyarograflarda amalga oshiriladi.



*16-rasm. Oddiy polyarografining tuzilishi:*

- 1 - polyarografik yacheyka; 2 - tomchi mikroelektrod; 3 - simobli rezervuar; 4 - voltmetr; 5 - reostat; 6 - akkumulator;
- 7 - mikroampermetr; 8 - simob elektrad.

Eng oddiy polyarograf polyarografiya yacheykasi 1, potensial-kuchlanish bilan ta'minlovchi qurilma-akkumulator 6, reostat 5, voltmetr 4 va mikroampermetr 7 dan tashkil topgan (16-rasm). Polyarografik yacheyka tarkibida eritilgan modda bor elektrolit eritmasi (fon eritma) quyilgan shisha idishdan iborat. Yacheykaga tomchi simob elektrad 2 joylashtirilgan bo'ladi. Tomchi simob elektrad kapillardan iborat bo'lib, u rezina naycha orqali simob solingan balloncha 3 bilan tutashtirilgan bo'ladi. Kapillardan chiqadigan simob diametri 1 mm li osilib turuvchi tomchilar hosil qiladi va ular vaqt-vaqt bilan kapillardan uzilib turadi. Simob tomchilari almashinib turishi natijasida elektrod yuzasi doimo yangilanib turadi, bu esa elektrod yuzasining tozaligini va qaytarilgan ionlar bilan ifloslanmasligini ta'minlaydi. Simob tomchi elektrodnning yuzasi kichik bo'lib, elektrokimyoiy qaytarilishda u orqali katta toklar o'tadi. Shu sababli tomchi simob elektrodnning potensiali elektrokimyoiy reaksiyani o'tkazish uchun zaruriy muvozanat

potensialidan farq qiladi. Bu hodisa *elektrodnning qutblanishi* deyiladi va tahlil usulining nomi – polyarografiya (qutblanishga asoslangan yozish usuli) ana shundan kelib chiqqan. Bu usul *voltampermetriya* usuli deb ham ataladi.

Katod sifatida tomuvchi simob elektrod, anod sifatida deyarli qutblanmaydigan kalomel elektrod ishlataladigan sistemadagi elektrolizni ko'rib chiqamiz. Bunday sistemadan tashqari EYuKning o'zgarishi batamom katod potensialini o'zgartirish sarflanadi. Agar eritmada elektr toki ta'sirida qaytariladigan moddalar bo'lmasa, tok kuchi  $I$  berilgan kuchlanishga  $E$  mutanosib bo'ladi (Om qonuni):


$$I = E/R$$

bu yerda,  $R$  – qarshilik.

Polyarografik to'lqin 17-rasmda ifodalangan. Potensial qiymati kichik (AV qismi) ishchi mikroelektrodda elektr-kimyoviy reaksiyani sodir qilish uchun yetarli bo'limganida yacheyska orqali juda kichik tok o'tadi, bu tok avvalo qo'sh elektr qavatning zaryadlanish toki va eritmada analiz qilinayotgan moddaga nisbatan elektr kimyoviy faolroq aralashmalar mavjudligi tufayli hosil bo'ladi.

Potensial oshganida depolyarizator deb ataluvchi elektr-kimyoviy faol modda elektrodda elektr-kimyoviy reaksiyaga kirishadi va buning natijasida tok keskin oshadi (*VS* qismi). Bu tok *Faradey diffuziya toki* deyiladi. Potensial yanada ko'payganida tok eng yuqori (chegara) qiymatgacha oshadi va so'ngra o'zgarmay (*SD* qismi). Chegara tok potensiallarning ushbu sohasida yaqinidagi qatlama depolyarizatorning hammasi elektr-kimyoviy reaksiya natijasida sarflanib bo'lGANI tufayli vujudga keladi; depolyarizator kamaygan qatlama esa eritma hajmidan depolyarizator diffuziyalanib o'tadi. Bunday sharoitda diffuziya tezligi umumiy elektr-kimyoviy jarayonning tezligini belgilaydi. Bunday tok *diffuziya chegara toki* deyiladi. Depolyarizatorning elektrodlar maydonida elektrostatik siljishini yo'qotish va yachekadagi qarshilikni kamaytirish uchun o'lchashlar son deb ataluivchi kuchli elektrolitning mo'l miqdori ishtirokida olib boriladi.

Indifferent son elektrolit ko'p miqdorda ortiqcha bo'lganida ionlarning elektrod yaqinidagi qatlama kelishining boshqa, nodiffuzion mexanizmlarining hissasi juda kichik bo'ladi.



*17-rasm. Polyarografik aktiv birikma ishtirokida (2) va shu birikma bo‘lmaganda (2) olingan voltampermetrik egri chiziq.*

Nodiffuzion jarayonlar orasida ionlarning elektr maydoni ta’sirida katod tomon harakatlanishi asosiy ahamiyatga ega. Agar ushbu jarayon natijasida paydo bo‘ladigan migrantsion toklar yo‘qotilmasa, umumiy tokni nazorat qilib bo‘lmay qoladi. Migrantsion (siljituvchan) tokni yo‘qotish uchun eritmaga ajralish potensiali tekshiriluvchi ionnikiga nisbatan ancha manfiyoq bo‘lgan fon elektrolit yetarli konsentratsiyada qo‘shiladi. Fon elektrolitning kationlari elektrodni to‘sishi natijasida elektr maydoni ta’sirida ko‘chish kuchi amalda nolgacha kamayadi.


Fon eritmadagi modda elektrokimyoviy indifferent (nofaol) bo‘lib, aniqlanuvchi modda bilan kimyoviy reaksiyalarga (ko‘pincha kompleks hosil qilish reaksiyalariga) kirishishi mumkin. Ba’zan fon elektrolit ayni vaqtning o‘zida bufer eritma vazifasini bajaradi. Masalan,  $Cd^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$ ,  $Zn^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Co^{2+}$  ionlarni polyarografik aniqlashda fon eritma sifatida yuqorida aytib o‘tilgan barcha funksiyalarni bajaruvchi ammiakli bufer eritmadan foydalilanadi.

Katod potensialining ma’lum qiymatida simob tomchisi yuzasidagi ionlar konsentratsiyasi  $S_m$  eritmaning massasidagi konsentratsiyasiga nisbatan juda kichik miqdorgacha kamayadi va katodda ionlarning zaryadsizlanish tezligi diffuziya tezligiga tenglashib qoladi.

Qaytariluvchi ionning eritma ichkarisidagi konsentratsiyasi o‘zgarmas bo‘ladi, chunki elektroliz juda kichkina tok kuchida (taxminan  $10^{-5}A$ ) ham sodir bo‘ladi va elektroqda yaqin qatlAMDAGI


konsentratsiya nolga yaqin bo'ladi. Shuning uchun ayni haroratda diffuziya tezligini belgilovchi konsentratsiyalar farqi ham o'zgarmas bo'ladi. Bu esa ionlarning katodga o'zgarmas tezlikda kelib turishiga sabab bo'ladi. Vujudga kelgan muvozanat holati kuchlanishi yanada oshirilganda o'zgarmaydigan tok kuchi bilan tavsiflanadi. Diffuziya orqali nazorat qilinuvchi bu doimiy tok *diffusion tok* deyiladi va  $i_d$  bilan belgilanadi.

Polyarogrammada qimmatli analitik axborot bo'ladi: yarim to'lqin potensiali  $E_{1/2}$  depolyarizatorning sifatini belgilaydi, ayni vaqtida chegara diffuzion tok uning eritma hajmidagi konsentratsiyasi bilan chiziqli bog'lanishda bo'ladi (18-rasm).



*18-rasm. Yarim to'lqin potensiali va to'lqining balandligi ko'rsatilgan polyarogramma.*

Misol tarzida 19-rasmida konsentratsiya ortishi bilan potensial larning siljishi tasvirlangan. Rasmdan ko'rinishicha, egri chiziqlar yarim to'lqin potensiali deyiladigan o'rtacha potensiali nisbatan simmetrik bo'lar ekan. Yarim to'lqin potensiali  $E_{1/2}$  o'zgarmas kattalik bo'lib, uning qiymati qaytariluvchi ion konsentratsiyasiga ham, o'lchashning tanlangan usuliga ham bog'liq emas.



### 19-rasm. Konsentratsiya ortishi bilan potensiallarning siljishi.


Yarim to'lqin potensialini polyarografik to'lqin tenglamasidan topish mumkin:

$$E = E_{1/2} - \frac{0.058}{n} \lg \frac{i}{i_{st} - i}$$


Ammo yarim to'lqin potensiali muhit. fon elektrolitning tabiatini va konsentratsiyasiga juda bog'liq bo'ladi. Eritmada aniqlanuvchi ion bilan kompleks hosil qiluvchi moddalar bo'lishi, ayniqsa, katta ahainiyatga ega. Tekshiriluvchi eritmada ligandlarning bo'lishi yarim to'lqin potensialini manfiy soha tomon siljitadi, bundan koordinatsion birikmalarining tarkibini va barqarorlik konstantalarini aniqlashda foydalaniлади. Eritmaga ligand kiritilganda yarim to'lqin potensialining siljishi polyarografik tahlil usulining imkoniyatlarini ancha kengaytiradi, bitta eritmadagi bir necha komponentlarni oldindan bir-biridan ajratmay turib aniqlashga imkon beradi. Masalan, 1 M KCl eritmadasidagi qo'rg'oshin (II) va talliy (I) ionlarining yarim to'lqin potensiallari tegishlicha 0,435 B va 0,483 B ga teng bunda ularni alohida-alohida aniqlab bo'lmaydi. 1 M NaOH eritmaside qo'rgoshining yarim to'lqin potensiali 0,755 B ga teng bo'ladi, talliyniki

esa amalda o'zgarmay qoladi. Shu sababli, bu ionlarni ishqoriy eritmada birga ishtirok etganida ham aniqlash mymkin.

Agar eritmada yarim to'lqin potensiallari bir-biridan  $100 \text{ mV}$  va undan ortiqroq farqlanuvchi bir necha modda bo'lsa u holda polyarogammada bitta emas, bir necha qaytaruvchi ionlar soniga teng to'lqin hosil bo'ladi (20-rasm). Ba'zan to'lqinlar soni qaytariluvchi ionlar sonidan ortiqroq ham bo'lishi mumkin, chunki ionlar pog'onali qaytarilganda har biri ikkita to'lqin hosil qilishi mumkin.



*20-rasm. Polyarogrammada to'lqinning ionlar soniga bog'liqligi.*



*21-rasm. Polyarogramma:  
1-qoldiq tok; 2-diffuzion tok.*

Masalan,  $\text{Si}^{2+}$  ioni 1M  $\text{NH}_4\text{OH}$  ishtirokida ikkita to'lqin hosil qiladi: birinchisining yarim to'lqin potensiali -0.20 V ga, ikkinchisini esa 0.48 V ga teng bo'ladi. Shu tariqa ionlarning polyarografik spektrlarini olish, so'ngra bu ma'lumotlar hamda o'lchangan yarim to'lqin potensiali bo'yicha tekshiriluvchi moddani aniqlash mumkin. Ravshanki, bunday spektrda elementning holati fon elektritolitga uning tabiatini va konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

21-rasmda ifodalangan polyarogramma birmuncha ideallash-tirilgan, chunki unda simob tomchilarining vaqtı-vaqtı bilan uzilishi tufayli ro'y beradigan tok ossillatsiyasi ko'rsatilmagan. Ba'zan bunday ossillatsiya, ayniqsa, aniqlanuvchi elementning konsentratsiyalari kichik bo'lganda ishni juda qiyinlashtiradi. Polyarografiyada ishchi elektrod potensialini o'lhash maqsadida foydalilaniladigan hisoblash nuqtasini standartlash uchun potensiometriyadagi singari kalomel elektroddan foydalilaniladi.

Kalomel elektrod yasash oson va u elektritolit tarzida kaliy xloridining to'yingan eritmasi ishlatalganda juda qulay bo'ladi. U ko'pchilik polyarografik ishlarda to'yingan kalomel elektrod (TKE) nomi bilan standart sifatida foydalilaniladi.

Suv siz eritmalar bilan ishlanganda taqqoslash elektrodi erituvchining tabiatini hisobga olib tanlanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, molekulalarida harakatchan vodorod ionlari bo'lmaydigan va ma'lum darajada dipolga ega bo'lgan dipolyar erituvchilar uchun taqqoslash elektrodi sifatida litiy metalini ishlatish qulaydir. Polyarografiyada taqqoslash elektrodi sifatida kalomel elektroddan tashqari kumush xloridli elektrod yoki katta yuzali elektrod - ko'pincha yacheyka tubidagi simob qatlami ishlatiladi. Katta yuza qutblanishning oldini olish uchun kerak bo'ladi. Elektrodlar polyarografga biriktirilgan. Polyarograf elektrordlarda potensialning 0 dan 3 V gacha ortishini va polyarogramma chizilishini ta'minlaydi.

Polyarografik tahlilda tekshiriluvchi moddalarning eritmalarini bufer eritmalarida yoki tekshiriluvchi moddaga nisbatan yuqoriyoq potensiallarda qaytariladigan elektritolitlar eritmalarida (fon elektritolitlar) tayyorlanadi. Bu elektritolitlar eritmaning yuqori elektr o'tkazuv-changini ta'minlash va uning polyarografik jarayonga ta'sirini yo'qotish uchun kerak.

Polyarografiyada massa kuchishi quyidagicha amalga oshishi mumkin: elektrod faol moddaning erituvchi oqimida konvektiv

ko'chishi; elektr maydonida ionlarning migrations ko'chishi; sistemaning turli qismlarida konsentratsiya turlicha bo'lishi natijasida diffuzion ko'chish.

Polyarografiyada konvektiv va migrations massa ko'chishining oldini olish choralar ko'rildi. Buning uchun elektroliz aralash-maydigan eritmada mo'l fon elektrolit ishtirokida olib boriladi. Bunda fon elektrolit ionlarining oksidlanish, qaytarilish potensiallari tekshiruvchini qiziqtiruvchi potensiallar sohasidan tashqarida bo'lishi kerak.

Fon elektrolitlarning konsentratsiyalari 0,1-1,0 mol/l oraliq'ida, ya'ni elektrod faol modda konsentratsiyasidan ancha katta bo'ladi. Bu shartlarga rioga qilinganida elektrod faol moddani elektrod - eritma ajralish chegarasiga ko'chirishning yagona usuli diffuziya bo'lib qoladi.

Diffuziya jarayonining vujudga kelish va sodir bo'lish mexanizmini mukammalroq ko'rib chiqaylik.

Elektroliz boshlanishidan oldin elektrod faol moddalarning eritma hajmidagi va elektrod - eritma ajralish chegarasidagi konsentratsiyalari bir xil bo'ladi. Qutblanish davomida elektrod potensiali elektrofaol modda reaksiyaga kirishishi uchun yetarli qiymatgacha ortadi. Reaksiya natijasda elektrodga yaqin joyda reaksiyaga kirishuvchi zarrachalarни (tuz elektroliz qilinganda ionlarning yoki organik birikmalar elektrolizida neytral molekulalarning) bir qismi yo'qolishiga olib keladi.

Elektrod potensiali ko'paygan sari vaqt birligida reaksiyaga kirishuvchi zarrachalar soni ortib boradi. Bunda zanjirda ajratish kuchi ko'payadi, zarrachalar konsentratsiyasi elektrod yaqinidagi qavatda eritma hajmidagiga nisbatan kamayib boradi. Konsentratsiya gradiyenti vujudga keladi, u zarrachalarni eritma hajmidan elektrod yuzasiga diffuzion ko'chirishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Potensial yetarli darajada kattalashganda shunday vaqt keladiki, unda diffuziya evaziga elektrodga yaqinlashganda zarrachalarning hammasi darhol zaryadsizlanadi va ularning elektrod yaqinidagi qatlamdagi konsentratsiyasi juda kamayib, noldan salgina farqlanuvchi bo'lib qoladi. Ana shu paytdan boshlab tok kuchining yanada ortishi mumkin bo'lmay qoladi. Elektrod konsentratsion qutblanish deb ataluvchi holatga keladi. Bunda zanjirdagi tok eng katta diffuzion tok /<sub>d</sub> deb ataladi. Vujudga keladigan statsionar diffuziya jarayoni quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$i_A = n * F * D * \frac{C_0}{\delta}$$

bunda,  $F$  – Faradey doimiysi;  $D$  – elektrodaol moddaning diffuziyalanish koeffitsiyenti,  $\text{sm}^2/\text{s}$ ;  $C_0$  – uning eritma hajmidagi konsentratsiyasi,  $\text{mol}/\text{ml}$ ,  $\delta$  – elektrodga moddani uzatuvchi diffuzion qatlamning qalinligi,  $\text{sm}$ . Tenglama eng katta diffuzion tokning kuchi diffuzion qatlamning qalinligi  $\delta$  ga bog'liqligini va qatlam qalinligi ortishi bilan tok kuchi kamayishini ko'rsatadi.

### 1.7-§. Bevosita polyarografiya

Bevosita polyarografiya usullari polyarografiya to'lqini tenglamasidan

$$E = E_{1/2} + \frac{RT}{nF} \lg \frac{i_A - i}{i} \quad (1)$$

va *Ilkovich tenglamasidan* bevosita foydalanishga asoslangan.

Yarim to'lqin potensiali konsentratsiyaga bog'liq emas va moddaning sifatini belgilovchi hisoblanadi. Odatda yarim to'lqin potensiali grafik yo'l bilan aniqlanadi.


Tenglama (1)  $\lg \frac{i_A - i}{i}$  E ning chiziqli funksiyasi ekanligini ko'rsatadi.

Demak, agar grafikka E ning funksiyasi sifatida  $\lg \frac{i_A - i}{i}$  ni qo'yilsa, u holda abssissa o'qini  $b'$  nuqtada, ya'ni  $E = E_{1/2}$  bo'lganida, demak,  $\lg \frac{i_A - i}{i} = 0$  bo'lganida kesib o'tuvchi to'g'ri chiziq hosil bo'jadi (22-rasm).


Noma'lum moddani aniqlash uchun ushbu usul bilan yarim to'lqin potensialini aniqlab hamda yarim to'lqinlar potensiallari jadvalidan yoki polyarografik spektrdan foydalanib, elementni eng katta ehtimollik bilan topish mumkin. Ko'pincha, bu xossaladan fon elektrolitni tanlash uchun foydalaniladi.

Namunaning sifat tarkibini bilgan holda jadval ma'lumotlari bo'yicha shunday fon tanlanadiki, unda aniqlanuvchi elementning

polyarografik to‘lqini xalaqit beruvchi elementning to‘lqini evaziga yoki boshqa elektrod jarayoni evaziga hech qanday xatoliksiz olinadi.



**22-rasm. Yarim tuzilish potensialini grafik yordamida aniqlash.**



**23-rasm. Darajalash (kalibrlash) egri chiziqlari.**


### 1.8-§. Miqdoriy polyarografik tahlil

Miqdoriy polyarografik tahlil Ilkovich tenglamasiga asoslangan. Darajalash grafigi usuli eng ko‘p qo’llaniladi. Grafik bir necha

(odatda 5-6) standart eritmalarini polyarografiyalash ma'lumotlari bo'yicha tuziladi. Ordinata o'qiga diffuzion tok kuchiga mutanosib bo'lgan polyarografik to'lqin balandligi, abssissa o'qiga esa aniqlanuvchi modda konsentratsiyasi qo'yiladi. Ilkovich tenglamasiga binoan  $i=KC$  darajalash grafigi koordinat (a) boshlanishidan o'tuvchi to'g'ri mutanosiblikni ko'rsatuvchi chiziqdan iborat (23-rasm).

Standart eritma va aniqlanuvchi namunani polyarografiyalash mutlaqo bir xil sharoitda o'tkazilganda bu usul aniq natijalar beradi. Ba'zi hollarda to'g'ri mutanosiblikdan cheklanishlar ham kuzatiladi. Koordinata boshidan yuqoriroq joylashgan to'g'ri chiziqlar (b), odatda, aniqlanuvchi ion to'lqini ustiga potensiali musbatroq qiymatlarda qaytariladigan biror moddaning to'lqinlari qo'shilganida hosil bo'ladi. Ko'pincha, bunday modda sifatida eritmada erigan kislorod ishtirok etadi. Xalaqt beruvchi modda bartaraf etilgandan so'ng ko'pchilik hollarda to'g'ri mutanosib bog'liqlik olinadi. Aniqlanuvchi modda konsentratsiyalari kichkina bo'lgan sohalarda to'g'ri mutanosiblik buzilishidan kesishuvchi darajalangan to'g'ri chiziqlar hosil bo'ladi (24-rasm).

Katta konsentratsiyalarda cilingan moddalarni polyarografiyalashda to'g'ri mutanosiblikning, ko'pincha, diffuzion toklarning kamayishi tomoniga og'ishi kuzatiladi (e egri chizig'i).



24-rasm. Darajalash egri chiziqlarining turlari.

Bunga qaytaruvchi moddaning konsentratsiyasi katta bo'lganida diffuzion tok qiymati faqatgina diffuziyalanish tezligiga emas, balki katodda moddaning qaytarilish tezligiga ham bog'liqligi sabab bo'lishi mumkin. Darajalash grafigi usuli juda sodda usuldir.

*Standart eritmalar usuli.* Bu usulda mutlaqo bir xil sharoitda standart va tekshiriluvchi eritmalarning polyarogrammalari olinadi va tenglamaga asoslangan mutanosiblikdan noma'lum konsentratsiya hisoblab topiladi.

$$C_x = C_{st} \frac{h_x}{h_{st}}$$

bunda,  $C_{st}$  – standart eritma konsentratsiyasi;  $h_x$  va  $h_{st}$  – polyarografiyalashda olingan tekshiriluvchi va standart eritmalarining to'lqin balandliklari. Usuldan polyarografiyalash sharoitini qat'iy standartlagandagina foydalanib bo'ladi. Polyarografiyada modda miqdorini aniqlash uchun qo'shimcha qo'shish usuli ham keng tarqalgan. Tekshiriladigan eritmani polrografiyalashda diffuzion tok kuchi

$$i_1 = K^* C_x \quad (2)$$

deb olaylik. Ushbu eritmaga standart eritmaning  $S_{st}$  aniq, miqdorini qo'shib, diffuzion tokni yana o'chaymiz:

$$i_{x+st} = K(C_x + C_{st}) \quad (3)$$


Tenglama (1) ni tenglama (3) ga hadma-had bo'lganimizda  $\frac{i_1}{i_{x+st}} = \frac{C_x}{C_x + C_{st}}$  ni olamiz, bundan

$$C_x = C_{st} * \frac{i_x}{i_{x+st} - i}$$

kelib chiqadi. Bu nisbatdan tekshiriluvchi eritma konsentratsiyasi topiladi.

Grafik usulidan ham foydalanish mumkin. Bu holda olingan ma'lumotlar  $i_{x+st}$  ning  $C_{st}$  ga bog'liqligi grafigiga qo'yiladi (25-rasm).

Tenglama (a) dan ko'rinish turibdiki,  $i_{x+st}$  da  $C_x = -C_{st}$ , bo'ladi, ya'ni ekstrapolatsiya qilinganda ushbu grafikdagи to'g'ri chiziq  $i_{x+st} = 0$  bo'lganida abssissa o'qida aniqlanuvchi modda konsentratsiyasiga teng kesmani kesib o'tadi. Qo'shish usulida



**25-rasm. Qo'shish usulida tok kuchining eritma konsentratsiyasiga bog'liqlik grafigi.**

fonning va uchinchi komponentlar deb ataluvchi komponentlarning ta'siri avtomatik hisobga olinadi. Bu esa undan murakkab aralashmalarini tahlil qilishda foydalanish imkonini beradi.

Agar tekshiriluvchi eritmada simob katodda qaytariladigan bir necha modda ishtirok etsa, polyarogrammada, yuqorida aytib o'tilganidek, bir necha to'lqin hosil bo'ladi. Bunda yarim to'lqin potensialining qiymati bo'yicha har qaysi komponentning sifat tarkibi, diffuzion tok kuchi bo'yicha esa konsentratsiyasi aniqlanadi. Masalan, 24-rasmdagi polyarogramma uchta to'lqindan tashkil topgan va ularning har biri aralashma komponentlaridan birini tavsiflaydi:  $A$  komponentning yarim to'lqin potensiali  $E_{1/2(A)}$ , diffuzion toki  $i_{d(A)}$ , ga teng,  $V$  komponentda yarim to'lqin potensiali  $E_{1/2(V)}$  ga va diffuzion tok  $i_{d(V)}$  ga teng va h.

Bu usul amaliyotda, masalan, ruda tarkibidagi mis va ruxni bitta polyarogramma orqali aniqlashda muvaffaqiyat bilan qo'llaniladi.

Diffuzion tok  $i_d$  ning konsentratsiya  $S_m$  va boshqa kattaliklar bilan bog'liqligi Ilkovich tenglamasi orqali ifodalananadi:

$$i_d = 605 ZD^{1/2} C_m t^{2/3} \tau^{1/6}$$

bunda,  $Z$  – ionning zaryadi,  $D$  – diffuziya koeffitsiyenti, m-kapillardan 1 sek da oqib chiquvchi simobning massasi,  $\tau$  – tomchi hosil bo'lish vaqtida ishslash davri).

Ushbu tenglamaga kiruvchi kattaliklar orasida diffuziya koeffitsiyenti  $D$  ni tajribada aniqlash ancha qiyindir. Shuning uchun modda konsentratsiyasi bilan diffuzion tok kuchi orasidagi mutanosiblik koeffitsiyenti, odatda, standart eritmalar yordamida topiladi. Darhaqiqat, polyarografiyalash sharoiti o'zgarmas bo'lganida  $D$ ,  $m$  va  $\tau$  larning qiymatlari o'zgarmas bo'ladi va Ilkovich tenglamasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$i_d = K^* C_m$$

bunda

$$K=607ZD^{1/2}m^{2/3}\tau^{1/6}$$

Shu munosabat bilan polyarografiyaga doir ishlarda doimo kapillar xarakteristikasi deb ataladigan va  $m^{2/3}\tau^{1/6}$  sifatida hisoblab topiladigan knitalik ko'rsatiladi. To'g'ri chiziqli bog'lanish miqdori  $i=K^*S$  polyarografik tahsilning asosi hisoblanadi.

Elektroddagi jarayon tezligini diffuzion massa uzatish orqali nazorat qilishning o'ziga xos xususiyati elektrod muvozanatinining sinqlanib qolishidir, bunda zanjirdan tok o'tishiga qaramay elektrod potensiali Nernst tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$E = E^0 + \frac{RT}{nF} \ln C$$

bunda,  $E$  – Faradey doimiysi: 96500 kulon;  $D$  – elektrofaol muddaning diffuziyanish koeffitsiyenti,  $sm^2/s$ ;  $C$  – potensialni belgilovchi zarrachalarning sirdagi konsentratsiyasi.

Jarayon tezligi ortganida  $C$  kamayadi, natijada elektrod potensiali Nernst tenglamasiga binoan siljiydi. Bundan konsentratsion qutblanish deyiluvchi atamaning ma'nosi yaqqol ko'rindi.

Tegishlicha  $Ox+n\text{e}^- = \text{Red}$  reaksiyasi uchun elektrod potensiali quyidagicha ifodalanadi:

$$E = E^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{C_{Ox}}{C_{Red}} ; \quad E = E^0 \frac{\sigma_e}{\text{Red}} + \frac{RT}{nF} \ln \frac{[Ox]}{[\text{Red}]}$$

bunda  $[Ox]$ ,  $[\text{Red}]$  tegishlicha oksidlangan va qaytarilgan shakllarning konsentratsiyalari.

Har qanday turdagи polyarografda tahlilni voltamperometrik usulda o'tkazish quyidagi tartibda bajarilishi kerak:

1. Elektrodlar sistemasi tayyorlanadi: tegishli taqqoslash elektrodi tanланади, qattiq elektrod yuzasi tozalanadi yoki tomchi simob elektrodini tomish rejimi belgilanadi, buning uchun kapillar ustidagi simob ustunning balandligi rostlanadi.

2. Elektrolitik yacheykaga tekshiriluvchi eritma to'ldiriladi, unga ishchi mikroelektrod va taqqoslash elektrodi botiriladi.

3. Tekshiriladigan eritma azot yoki argon o'tkazish yo'li bilan xavfsizlantiriladi.

4. Qutblariga rioya qilgan holda elektrodlar polyarografning tegishli klemmalariga biriktiriladi.

5. Polyarografni tokka ulab, asbob pasportida ko'rsatilganidek isitiladi.

6. Polyarografda zaruriy ish rejimi o'rnatiladi: qutblovchi kuchlanishni yuzaga keltiruvchi amplituda, boshlangich kuchlanish, qutblovchi kuchlanishning o'zgarish tezligi, sezgirlik va b. Parametrlar belgilanadi. Sezgirlik  $E_{1/2}$  ga nisbatan 0,2 V ortiq, potensialda tanланади, polyarografik to'lqin balandligi 25 sm bo'lishi kerak.

7. Sezgirlik va qutblanishning boshlangich potensiali to'g'rilib olinadi va so'ngra volt-amper egri chizig'i qayd etiladi. Polyarogrammadagi to'lqinlar soni tekshiriluvchi eritmadi polyarografik faol moddalarning taxmin etiluvchi sonidan kam bo'lmasligi kerak. Elektr-kimyoiy jarayonning ko'p bosqichli bo'lishi evaziga to'lqinlar soni ko'proq bo'lishi ham mumkin. Polyarogramma bir necha bor takrorlab qayd etiladi.

8. Elektrolizyor polyarografdan ajratiladi. Polyarografda tumblerlarni o'chirish tartibiga rioya qilib, polyarograf o'chiriladi. Elektrolizorni yuvib, ichiga distillangan suv solib qo'yiladi. Taqqoslash elektrodi KCl ning to'yingan eritmasiga botiriladi. Qattiq elektrod quritiladi. Elektrolizordagi tomchi simob elektrodning tomishi to'xtatiladi.

Axboblardan foydalaniladigan boshqa usullarga nisbatan polyarografiya usulining qator afzalliklari bor. Undan fan va texnikaning tuli sohalarida, anorganik va organik moddalarning holati, tabiatи, sifatлari va tarkibi haqida axborot olishning nihoyatda yaxshi natija beruvchi usuli sifatida keng foydalaniladi.

Voltamperometrik usullar metallarni, kation va anionlarni, organik birikmalarni hamda dori preparatlarni tahlil qilishda keng qillaniladi. Kation va anionlarni polyarografik analiz qilish uchun ular elektrodlarda oksidlanadigan va qaytariladigan bo'lishi kerak. Unda fon elektrolitning xususiyati va uning elektrodlarda zaryadsizlanish potensiali katta ahamiyatga ega. Ba'zi ionlarning yarim to'lqin potensiallari, elektrod reaksiyalari va ularni aniqlash shartlari florunda keltirilgan.

Ko'pchilik organik birikmalar polyarografik faol bo'lib, elektrodlarda oksidlanadi yoki qaytariladi va polyarograf yordamida ularni miqdorliy aniqlash mumkin.

Ko'pchilik organik birikmalarning polyarogrammalarida elektrodlardagi adsorbsion hодисалар туфayли adsorbsion cho'qqilar deb atahiychi cho'qqilar hosil bo'ladi. Ular odatda, sirt faol moddalarning (жимтинг) eritmalarini vositasida yo'q qilinadi.

Polyarografiya elektrokimyoiy qaytarilishi yoki oksidlanishi mumkin bo'lgan dori preparatlarni tahlil qilishda ham keng qillanila boshladi. Masalan, polyarografiya usulida salisilat kislota ( $E_{1/2} = \sim 1,6$  B 0,1 n  $(CH_3)_2N_2$ , vitamin B<sub>1</sub>  $E_{1/2} = \sim 1,25$  B 0,1 n eritmalarini va shunga o'xshash preparatlarni tahlil qilish mumkin.

Fon elektrolitlar yacheyskaning yuqori elektr o'tkazuvchanligini ta'minlaydi, pH ni o'zgarmas holda tutib turish zarur bo'lganida fon elektrolit sifatida bufer eritmadan foydalanilsa bo'ladi. Eng ko'p ishlataladigan fon elektrolitlar va bufer eritmalar jadvalda keltirilgan.

Hac bir fon elektrolitning elektrodda zaryadsizlanish potensiali bo'ladi va uning qiymati usulning imkoniyatlarini cheklaydi. Modda yamim to'lqinining potensiali fon elektrolitning zaryadsizlanish potensialidan kichik bo'lganidagina tahlilni o'tkazish mumkin.

Tahlilni bajarishda fon elektrolit tanlab, uning ma'lum hajmi yacheykaga solinadi, fon polyarogrammasi olinadi, so'ngra tekshiruvchi eritmadan aniq hajm qo'shiladi va yana polyarogramma olinadi.

Yarim to'lqin potensiali  $E_{1/2}$  - 0,4 V dan ortiq bo'lgan moddalarni tahlil qilishda suvda erigan havo kislorodi xalaqit beradi, chunki u ikkita baland polyarografik to'lqin (-0,2 -0,4 V oralig'ida va -1,2 V da) hosil qiladi. Shu sababli eritmada kislorodni azot puflash orqali yoki  $\text{NaHSO}_3$  qo'shib yo'qotiladi.  $\text{NaHSO}_3$  qo'shilganda u kislorodni bog'lab, o'zi  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  gacha oksidlanadi.

Polyarografiyaning afzalliklariga uning juda sezgirligi ( $10^{-5}$ - $10^{-6}$  mol/l gacha), yaxshi tanlovchanligi (moddalar aralashmasini analiz qilish mumkinligi), qayta tajribalarda o'xshash natijalar berishini (farqi 1-2%) kiritish mumkin. Polyarografik aniqlash mumkin bo'lgan moddalarning xillari juda ko'p bo'lib, o'nlab mingga yetadi.

Polyarografik tahlilni to'q rangli qoramtil suyuqliklarda, eritmaning oz hajmlarida, eritma oqimida (avtomatlashtirish mumkinligi) o'tkazish mumkin. Tahlil natijalari o'ziyozar moslama tomonidan qayd qilinadi.

Polyarografiyadan kimyo, biologiya, tibbiyat, geologiya, metallurgiya, yarimo'tkazgichlar texnikasida, atrof-muhitni tekshirishda va boshqa sohalarda foydalaniadi. U moddalarning tuzilishi va reaksiyaga kirishish xususiyatlarini, ularning eritmada mavjud bo'lish shakllarini, ularning reaksiya davomida o'zgarish kinetikasi va mexanizmini tekshirishga imkon yaratadi.

Ko'pchilik analitik masalalarni hal etishda polyarografiya va voltamperometriya usullari eng qulay yoki yagonadir. Bunday masalalar qatoriga, avvalo, organik birikmalarни tahlil qilishdagi miqdoriy aniqlashlar, ayniqsa, ularning asarini aniqlash kiradi. Bundan tashqari, bu usullar murakkab aralashmalarning biologik faol tarkibiy qismlari bilan ishlashga. ko'pchiligi polyarografik nofaol bo'lgan birga ekstraksiyalanuvchi moddalarning mo'l miqdori ishtirokida, shuningdek, rangli va loyqa eritmalarda tahlil olib borishga imkon beradi.

### 1.9-§. Tahlilning potensiometrik usuli

Bu tahlil usuli elektrokimyoviy tahlil usullarining asosiyalaridan biridir. Bu usul eritmaga tushirilgan elektrodlar (galvanik elementlar) da yuzaga keladigan potensiallar farqi-elektr yurituvchi kuchni o'chish bilan eritmada erigan modda miqdorini (konsentratsiyasini) aniqlashga asoslangan.

Ma'lumki, ko'pchilik texnologik jarayonlarda foydalaniladigan yoki hosil bo'ladigan eritmalardagi biror modda miqdorini aniqlash uchun shu modda tarkibidagi biror ion miqdori aniqlanadi. Aksariyat hollarda eritmadiagi vodorod ioni -  $H^+$  miqdori, ba'zi hollarda  $Cl^-$ ,  $Br^-$ ,  $NO_3^-$ ,  $CO_3^{2-}$ ,  $Na^+$ ,  $K^+$ ,  $Ca^{2+}$ ,  $Ag^+$ ,  $Pb^{2+}$ ,  $NH_4^+$  ... ionlarning miqdori aniqlanadi. Shu olingan natijalarga asoslanib ishlab chiqarish jarayonlari nazorat qilinadi yoki boshqariladi.

**Potensiometrik usulning qisqacha nazariy asoslari.** Eritmada erigan modda (ion, ionning aktivligi) miqdori ( $C_{ion}$ ) bilan elektrodlarda yuzaga keladigan potensial o'rtaida o'zaro to'g'ri bog'lanish mavjud bo'lib, u Nernst formulasi orqali ifodalanadi:

$$E = E^0 + \frac{2.3RT}{nF} \lg C_{ion}$$

Bu yerda,

$E$  – elektrodda yuzaga keladigan potensial, V yoki mV.

$R$  – universal gaz doimiysi, 8,314 kJ mol/grad.

$T$  – absolyut harorat, K.

$F$  – Faradey soni, 96500 KI.

$n$  – ionning zaryadi yoki berilgan (qabul qilingan) elektronlar soni.

$E^0$  – miqdori aniqlanayotgan ionning standart oksidlanish-qaytarilish potensiali bo'lib, eritmada  $S = 1\text{mol/l}$  bo'lganda elektrodda yuzaga keladigan potensial qiymati. Uning qiymati ma'lumotnomalarda berilgan bo'ladi.

$\frac{2.3RT}{nF} = Q$  bilan belgilanadi.  $n=1$ ,  $t=25^{\circ}\text{C}$  bo'lganda 0,059 B,  $n=2$ ,  $t=25^{\circ}\text{C}$  bo'lganda esa, 0,029 B

Ushbu formuladan ko'rinish turibdiki, elektrodlarda yuzaga keladigan potensial eritma bilan elektrodning sirt chegarasida elektron almashtinuvigagina emas, balki eritmadiagi potensial aniqlovchi ion konsentratsiyasining o'zgarishiga ham bog'liqdir. Shuning uchun potensiometrik usulda neytrallanish, oksidlanish-qaytarilish, cho'kma hosil bo'lish va kompleks hosil bo'lish reaksiyalaridan foydalaniladi.

Nernst formulasiga ko'ra elektrodlarda yuzaga keladigan potensialning qiymati, potensial hosil qiluvchi ionning tabiatiga, haroratga, normal oksidlanish-qaytarilish potensiali  $-E_{oksi/qayt}^0$  hamda ionning konsentratsiyasiga –  $C_{ion}$  bog'liq.

**Potensiometrik usulda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar.** Elektrod – eritma bilan o'zining sirt chegarasida elektronlar yoki ionlar almashinuvi natijasida potensiallar farqi yuzaga keladigan eritma va unga tushirilgan metall plastinkadan iborat elektrokimyoviy sistemadir.

Eng oddiy elektrod – rux sulfat tuzi eritmasiga tushirilgan rux plastinkasidir. Bunda eritmaga tushirilgan rux plastinka «aktiv metall» bo'lGANI uchun eriy boshlaydi, ya'ni oksidlanadi.

Natijada plastinka sirtida elektronlar qoladi, eritmaga esa rux ionlar  $Zn^{2+}$  o'tadi. Plastinka sirti manfiy zaryadlanadi, plastinkaning sirtiga tegib turgan eritma musbat zaryadlanadi, ya'ni eritma bilan plastinka (o'rtasida) sirt chegarasida qo'sh elektr qavat hosil bo'ladi. Qo'sh elektr qavatda potensiallar farqi yuzaga keladi va bu *elektrod potensiali* deb aytildi.

Elektrodda yuzaga keladigan potensial Nerst tenglamasi

$$E = E_{Zn^{2+}/Zn}^0 + \frac{2,3 RT}{nF} \lg C_{Zn^{2+}}$$

bilan ifodalanadi. Har bir elektrod uchun yuqoridagi singari elektrod potensialini hisoblash formulalari mavjud.


Elektrodlar ularda boradigan elektrokimyoviy reaksiyaning mexanizmiga va ishlatalish maqsadiga ko'ra bir necha turga bo'linadi.

**Birinchi tur elektrodlar** – elektrod potensiali eritmada potensial hosil qiluvchi ionning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lgan elektrodlar. Bu elektrodlar eritmada o'z ionlariga nisbatan qayta ishlaydigan, eritmaga tushirilgan metall plastinkalardir. Birinchi tur elektrodlarga misollar:

Kumush elektrodi  $AgNO_3$  eritmasiga tushirilgan Ag plastinkasi ( $Ag/AgNO_3$ ); Mis elektrodi  $CuSO_4$  eritmasiga tushirilgan Cu plastinkasi ( $Cu/CuSO_4$ ); vodorod elektrodi, xingidron elektrodi, shisha elektrodi va hokazolar. Bu elektrodlar ishlatalish maqsadiga ko'ra *indikator elektrodlar* deyiladi. Shu elektrodlardan ayrimlari bilan yaqindan tanishib chiqaylik.

**Normal vodorod elektrodi.** Normal vodorod elektrodi (NVE) - tarkibida vodorod ionlari bo'lgan eritma ( $H_2SO_4$ ) ga tushirilgan sirtiga vodorod gazi singdirilgan platina (Pt) plastinkasidan iborat sistema.

Bu elektrod sirtida quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi boradi:



Elektrodda yuzaga keladigan potensial quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$E = E_{2H^+/H_2}^0 + \frac{2.3RT}{F} \lg \frac{a_{H^-}}{p_{H_2}^{1/2}} = E_{2H^+/H_2}^0 + \frac{0.059}{1} \lg a_{H^+} - \frac{0.059}{2} \lg p_{H_2}$$

bunda,  $p_{H_2}$  – vodorod gazining bosimi.

Vodorod elektrodnинг potensiali shartli ravishda istalgan haroratda ham nolga teng deb olingan. Elektrod  $p_{H_2} = 1$  atm vodorod bilan to‘ldirilib,  $a_{H^+} = 1$  bo‘lgan kislotaga tushirilganda elektrodnинг potensiali:

$$E_{NVE} = -0,059pH$$

ko‘rinishiga keladi.

Demak, normal vodorod elektrodnинг potensiali eritmaning pH-iga, ya’ni eritmaning kislotaliligiga to‘g‘ri proporsionaldir. Normal vodorod elektrod asosan metallarning standart oksidlanish-qaytarilish potensialini o‘lchashda foydalaniлади.

Vodorod elektrodnинг potensiali quyidagi shartlarga riox va qilinganda doimiy bo‘лади:

- 1) juda toza vodorod va elektrolit qo‘llanilganda;
- 2) elektrodn eritmaga muayyan chuqurlikkacha botirilganda;
- 3) elektrodga juda oz miqdorda tok berilganda.

Vodorod elektrodnitrat, xlorat, permanganat, manganat, temir (III) singari oksidlovchilar va qaytaruvchilar bo‘lgan, shuningdek to‘yinmagan organik birikmalar, aminlar, nitrofenollar, alkaloidlar ishtirok etganda ishlatiб bo‘lmaydi.

**Shisha (ionoselektiv membranalı) elektrod.** Shisha elektrod nazariyasini akademik B.P.Nikolskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Shisha elektrodidagi shisha membrana vodorod ionining konsentratsiyasi har xil bo‘lgan ikki eritmani bir-biridan ajratib turadi. Bu vaqtda elektrod sirtida potensial yuzaga keladi. Tekshirishlarning

ko'rsatilishiga ko'ra shisha to'rsimon kremniy-kislород zanjirlaridan iborat bo'lib, oradagi bo'sh joylar ishqoriy metallarning kationlari bilan band.



### *Shishaning tuzilishi*

Bo'sh joylardagi kationlar to'rning tuzilishini buzmasdan qayta ravishda almashinish reaksiyasiga kirisha oлади. Vodorod selektiv shisha elektrodning sharsimon qismiga kumush xloridli elektrod joylashtiriladi va u 0,1 m HCl (yoki boshqa elektrolit) bilan to'ldiriladi. Bu tekshiriladigan eritmaga tushiriladigan yarim elementni tashkil etadi. Shisha elektrod potensiali shisha membrananing har ikkala tomonidagi eritmalar potensiallarining ayirmasiga tengdir.

Odatda ichki eritmaning potensiali doimiy bo'lganligi uchun bu ayirma elektrod tushirilgan eritmaning potensialiga teng bo'ladi va quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$E_{sh.c} = \text{Const} + 0,059 \lg a_H$$

$$E_{sh.e} = \text{Const} - 0,059 pH$$

Ushbu formulalardan ko'rinib turibdiki, shisha elektrodi  $H^+$  - ionlariga nisbatan qayta ishlaydigan elektrod bo'lib, undan asosan eritmalarining pH ini o'lhashda, vodorod ionlarining miqdori –  $[H^+]$  ni va shu kattaliklarga mos keladigan eritma potensialini o'lhashda foydalilanadi.

**Ikkinchи tur elektrodlari** – elektrod potensiali elektrodnи hosil qiluvchi metall bilan kam eriydigan birikma hosil qiluvchi anionga nisbatan qaytar bo'lgan va potensiali tashqi eritmадаги boshqa ionlar konsentratsiyasiga bog'liq bo'lmagan elektrodlardir.

Bu tur elektrodlar amaliyotda asosan solishtirma elektrodlar sifatida ishlataladi. Solishtirma (taqqoslash) elektrodlarga misollar: Kalomel elektrodi - KE, kumush xloridli elektrodi-KXE.

**Kumush xloridli elektrod.** Kumush xloridli elektrod – KCl ning to'yingan eritmasiga tushirilgan va sirti kam eriydigan AgCl moddasi bilan qoplangan kumush simdir. Uning formulasi: Ag/AgCl, Cl<sup>-</sup>.

KXE ning potensiali  $\alpha_{Ag}$  ga bog'liq bo'lib, elektrod ichki eritmasidagi Cl<sup>-</sup> ionlariga nisbatan qaytar elektroddir. Buning sababini KXE potensiali – E<sub>KXE</sub> ni hisoblash formulasini keltirib chiqarish bilan tushuntirish mumkin.

$$\text{Umuman, KXE uchun: } E_{KXE} = E_{Ag^+/Ag}^0 + 0,059 \lg \alpha_{Ag}.$$

Lekin ichki eritmada Ag<sup>+</sup> ionlari yo'q. Bu ion elektrod sirtidagi AgCl ning dissotsilanishi tufayli hosil bo'ladi

$$\text{Shunga asosan: } EK_{AgCl} = \alpha_{Ag^+} \cdot \alpha_{Cl^-}$$

Bu ifodadan elektro-kimyoiy jarayonda qatnashadigan kumush ionning aktiv konsentratsiyasi:

$$\alpha_{Ag^+} = \frac{EK_{AgCl}}{\alpha_{Cl^-}} \text{ ga tengligini e'tiborga olsak, } E_{KXE} \text{ quyidagi ifodaga teng bo'ladi:}$$

$$E_{KXE} = E_{Ag^+/Ag}^0 + 0,059 \lg \frac{EK_{AgCl}}{\alpha_{Cl^-}} = E_{Ag^+/Ag}^0 + 0,059 \lg EK_{AgCl} - 0,059 \lg \alpha_{Cl^-}$$

Bu formuladagi  $E_{Ag^+/Ag}^0 + 0,059 \lg EK_{AgCl} = E_{Ag/AgCl}^0$  ga teng bo'lib, 20°C da uning qiymati +0,2220 v ga teng. Bu qiymatni yuqoridagi formulaga qo'yilsa: E = 0,2220 - 0,059 lg  $\alpha_{Cl^-}$  bo'ladi.

Bu formula KXE ning potensialini hisoblash formulasini deyiladi.

Yuqorida aytigandanidek, bu elektrodnning potensiali  $\alpha_{Cl^-}$  – ga bog'liq. Agar ichki eritma sifatida 0,1 n KCl (HCl) eritmasidan foydalanilsa, E<sub>KXE</sub> = +0,2900 v; agar 1n KCl (HCl) eritmasi bo'lsa, E<sub>KXE</sub> = +0,2370 v bo'ladi.

**Uchinchi tur elektrodlari.** Bir xil anionga ega bo'lgan ikki kationdan biriga nisbatan qaytar elektrodlardir. Bunga simobning simob va kalsiy oksalatidagi elektrodini misol qilib keltirish mumkin. Uning potensiali ikkinchi metall ionining aktivligi bilan belgilanadi.

$$E = E^0 + \frac{2,3RT}{nF} \lg a_{Ca^{2+}}$$

Uchinchi tur elektrodlarning qaytarlik darajasi yuqori va ular elektrod metaliga nisbatan begona bo‘lgan kationlarni aniqlash uchun indikator elektrod sifatida ishlataladi.

Elektrodlar ishlatalishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

**Indikator elektrodlar** – tekshiriladigan eritmadi ionning elektrod aktivligiga qarab potensialini o‘zgartiradigan elektrodlardir. Indikator elektrodlari elektrod-eritma sirti chegarasida boradigan elektrokimyoviy jarayonning mexanizmiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

1) oksidlanish-qaytarilish (redoks) elektrodlar; bunday elektrodlarda elektronlar almashinishi kuzatiladi;

2) birinchi, ikkinchi tur metall va metallmas elektrodlar; bunday elektrodlarda elektron-ion almashinishi kuzatiladi;

3) ionselektiv membranalni elektrodlar, bunday elektrodlarda ion almashinishi sodir bo‘ladi.

Elektrodlar agregat holatlariga ko‘ra qattiq (platina, kumush, grafit va boshqalar), suyuq (simob) va gaz (vodorod, xlor) elektrodlarga bo‘linadi. Bundan tashqari, elektrodlar aktiv (kumush, mis va boshqalar) va befarq (platina, oltin, grafit va boshqalar) elektrodlarga bo‘linadi.

**Solishtirma elektrodlar** – sifatida elektrod potensialini o‘lchash uchun mo‘ljallangan qaytar (normal vodorod to‘yingan kalomel, kumush xloridli, talliy xloridli va boshqa) elektrodlar (etalon sifatida) ishlataladi.

Solishtirma elektrodlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. potensial belgilovchi elektrodnинг ichki reaksiyasi termodynamik qaytar bo‘lishi kerak;

2. elektrod kam qutblanuvchan bo‘lishi, ya’ni undan tok o‘tganda o‘z potensialini nihoyatda kam o‘zgartirishi kerak;

3. elektrod uzoq vaqt saqlanganda va turli xil sharoitlarda ham o‘z potensialini o‘zgartirmasligi shart.

Potensiometrik tahlil usuli to‘g‘ri potensiometriya va potensiometrik titrlashga bo‘linadi.

**To‘g‘ri potensiometrik** usuli yordamida ionlarning aktivligini ( $pH$ ,  $pNO_3$  va  $pK$ ), dissotsiatsiya konstantasi, muvozanat konstantasi, kompleks birikmalarining barqarorlik konstantasi, yomon eriydigan

moddalarning eruvchanlik ko‘paytmasi kabi fizik-kimyoviy kattalik-larning qiymatlari o‘lchanadi.

Bu usul ionlarning aktivligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniqlashga imkon beradigan yagona usul hisoblanadi. Bu usul quyidagi turlarga bo‘linadi:

**pH-metrik** – eritmalarning pH qiymatlari, kislota va asoslarning (protolitharning) kislotali-asosli konstantalari, protolitik xususiyatga ega bo‘lgan kompleks birikmalarining barqarorlik konstantalari va shu kabilarni aniqlashga imkon beradi.

**Ionometrik** – pH metriyaning rivojlanishi natijasida mustaqil usul bo‘lib ajralgan zamonaviy usullardan biri. Bu usulda indikator elektrodi sifatida turli xil ionoselektiv elektrodlar qo‘llaniladi.

**Redoksmetrik** – oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va redoks juftlarning potensiallarini o‘lchashga asoslangan usul bo‘lib, uning yordamida redoks juftiarning standart va real potensiallari, ular asosida esa turli xil konstantalar hamda kinetik kattaliklar aniqlanadi.

**Potensiometrik titrlash** – aniqlanayotgan modda miqdoriga ekvivalent miqdorda aniqlovchi modda (standart) eritmasidan qo‘shilganda elektrodlar sistemasida yuzaga keladigan, potensiallar ayirmasining keskin o‘zgarishiga asoslangan miqdoriy tahlil usulidir. Ekvivalent nuqta yaqinida elektrokimyoviy reaksiyalarning biri ikkinchisi bilan almashinadi.

Potensialning keskin o‘zgarishiga potensial sakrash yoki titrlashning oxirgi nuqtasi (t.o.n) deyiladi. Potensial sakrashga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- a) erituvchi va elektrolit foni tabiatni ( $\alpha$ ,  $K_{diss}$ );
- b) elektrolitning konsentratsiyasi;
- c) elektrod materiali va sirt yuzasi;
- d) harorat.

Potensiometriyada titrlashning oxirgi nuqtasini topish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:


- 1) hisoblash usullari;
- 2) rasm usullari.

1. Hisoblash usullarida titrlanadigan modda eritmasiga titrantning eritmasidan teng (1ml.dan) miqdorda qo‘sib har bir qo‘shilgan hajm, unga to‘g‘ri keladigan potensialning qiymati va har ikki yaqin nuqta orasidagi potensiallar farqi ham qayd qilinadi.

$\Delta E$  eng katta bo‘lgan soha ekvivalentlik nuqta joylashgan soha hisoblanadi.

2. Rasm usullari. Titrlashni oxirgi nuqtasini aniqlashning rasm usullari integral (to‘liq), differential (farqli), ikkinchi tartibli hosila va boshqa usullarga bo‘linadi.


a) Integral usulida EYuK ning titrant hajmi ( $V$ ) ga bog‘liqligi rasmi chiziladi.



### 26-rasm.Potensiometrik titrlashning integral egri chizig‘i.

Bu rasm asosida ekvivalent nuqta va titrlashning oxirgi nuqtasini topish uchun urinmalar o‘tkaziladi. O‘tkazilgan urinmalar kesishish nuqtalarining abssissalar o‘qiga perpendikular bo‘lgan balandligi topiladi. Bu balandlik teng ikki qismga bo‘linadi va kesishgan nuqtadan titrlash egri chizig‘i bilan kesishguncha ordinatalar o‘qiga parallel o‘tkaziladi. Shu parallelning titrlash egri chizig‘i bilan kesishish nuqtasidan esa abssissalar o‘qiga perpendikular tushiriladi. Ushbu perpendikularning abssissalar o‘qi bilan kesishish nuqtasi t.o.n siga to‘g‘ri keladi (26-rasm).


b) Differential usul t.o.n sini topishning ancha oson va aniq usulidir; bunda  $\Delta E/\Delta V$  nisbatning qo‘silgan titrant hajmiga bog‘liqligi ko‘rinishi chiziladi. Cho‘qqisimon egri chiziq cho‘qqisidan abssissalar o‘qiga tushirilgan perpendikular, titrlashning ekvivalent nuqtasiga (t.o.n siga) to‘g‘ri kelgan hajmini ko‘rsatadi (27-rasm).



**27-rasm.** Potensiometrik titrlashning differentzial egri chizig'i.

Differensial usulda t.o.n sini topishning aniqligini oshirish uchun ikkinchi tartibli hosila olish usulidan foydalaniladi.

d) Ikkinchi tartibli hosila olish usulida  $\Delta^2 E / \Delta V^2$  ning qo'shilgan titrant hajmiga bog'iqligi ko'rinishi chiziladi.



**28-rasm.** Potensiometrik titrlashning ikkinchi darajasining titrlash egri chizig'i.

Rasmdan ko'rinyaptiki, egri chiziqlar abssissa o'qining har ikkala tomonida joylashgan (28-rasm). Egri chiziqlarning uchlarini tutashtirganda abssissa o'qi bilan chiziqning kesishish nuqtasi t.o.n siga to'g'ri keladi.

Potensiometrik titrlash kislota - asosli (neytrallash), oksidlanish-qaytarilish, cho'ktirish va kompleks hosil bo'lish reaksiyalari asosida, shunday xossalarga ega bo'lgan moddalarni aniqlash va tekshirish uchun keng qo'llaniladi. Natijada, moddalarning konsentratsiyasining emas, balki ularning turli xil konstantalarini ham aniqlash mumkin.

Potensiometrik titrlashda boradigan reaksiyalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) reaksiya tegishli yo'nalishda stexiometrik nisbatda oxirigacha borishi;

b) kimyoviy reaksiyaning tezligi yetarli darajada katta bo'lishi;

d) kimyoviy reaksiya muvozanati tez qaror topishi;

e) qo'shimcha reaksiyalar bo'lmasligi kerak.

Potensiometrik va boshqa asboblar yordamida titrlash usullarining, vizual (ko'z bilan kuzatiladigan) usullarga ko'ra bir qator afzalliklari mayjud. Ular quyidagilardan iborat:

a) titrlashda subyektiv xatolarga yo'l qo'yilmaydi;

b) aniqlashning sezuvchanligi ancha yuqori bo'ladi;

d) loyqa va rangli eritmalarini titrlash mumkin;

e) bir vaqtning o'zida aralashmadagi bir necha komponentni tabaqa lab (ketma-ket) titrlash mumkin;

f) titrlash jarayonini osongina avtomatlashtirish mumkin.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollar**

1. Eritmada elektrolitlarning ionlarga, dissotsialish sabablarini tushuntiring.

2. Konduktometrik tahlil usulining mohiyatini tushuntiring.

3. Solishtirma, molyar va ekvivalent elektr o'tkazuvchanliklar orasida qanday bog'lanishlar bor.

4. Elektrolit eritmalarining ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi qanday fizik ma'noga ega?

5. Nima uchun eietkrolit eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini o'lichashda doimiy tok emas, balki o'zgaruvchan tok ishlataladi?

6. Eritma elektr o'tkazuvchanligini o'lichashda yacheyka doimiyligiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.

7. Erituvchi sifatida suv o'miga aseton ishlatilsa, kuchsiz elektrolytning dissotsilanish konstantasining qiymati o'zgaradimi? Nima uchun?

8. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik kuchli va kuchsiz elektrolitlar konsentratsiyasi bilan qanday bog'liqlikda bo'ladi?

9. Bevosita va bilvosita konduktometriya usullari orasida qanday farq bor? Qaysi usul ko'proq tanlash xususiyatga ega? Nima uchun?

10. Ekvivalent nuqta yaqinidagi qanday o'zgarish konduktometrik titrlashni tugatishga sabab bo'ladi?

11. Yuqori chastotali titrlashda yacheykalarning qanday turlari ishlataladi?

12. Murakkab aralashmalarni konduktometrik titrlash qanday bajariladi? Titrlashdagi egri chiziqlarning ko'rinishiga misollar keltiring.

13. Konduktometrik titrlash egri chizig'i silliq bo'lsa, ekvivalent nuqta qanday aniqlanadi?

14. 0,1 n  $NaCl$  eritmasining ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi  $79,2 \text{ sm}^2/\text{Om}$ . Eritmaning qarshiligi  $5 \text{ Om}$  bo'lishi uchun sirt yuzasi  $5 \text{ sm}^2$  ga teng bo'lgan parallel elektrodlar orasidagi masofa qanchaga teng bo'lishi kerak?

15. Cheksiz suyultirilgan  $KCl$  eritmasining ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi  $130,1 \text{ Om}^{-1} \text{ sm}^2 / \text{g-ekv}$ .  $Cl^-$  ionlarining tashish soni  $0,504$  ga teng. Eritmadagi  $K$  va  $Cl^-$  ionlarining harakatchanligini hisoblang.

16.  $18^\circ\text{C}$  da zichligi  $1,0255 \text{ g/sm}^3$   $4\%$  li sulfat kislota eritmasining solishtirma elektr o'tkazuvchanligi  $0,1675 \text{ Om}^{-1} \text{ sm}^{-1}$  teng. Eritmaning ekvivalent elektr o'tkazuvchanligini hisoblang.

17. Dissotsiatsiyalanish konstantasi  $1,76 \cdot 10^{-5}$  teng bo'lgan  $0,1 \text{ n}$  sirka kislota eritmasidagi  $[H^+]$  va eritmaning ekvivalent elektr o'tkazuvchanligini hisoblang ( $\rho_{H_2COOH} = 390,7$ ).

18. Dissotsilanish konstantasi  $1,79 \cdot 10^{-5}$  va darajasi  $0,01$  bo'lgan  $Mg(OH)_2$  eritmasining konsentratsiyasini va ekvivalent elektr o'tkazuvchanligini hisoblang. To'yingan  $AgBr$  eritmasining solishtirma elektr o'tkazuvchanligi  $0,57 \cdot 10^{-7} \text{ Om}^{-1} \text{ sm}^{-1}$ . Chegara ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi  $121,9 \text{ Om}^{-1} \text{ sm}^2 / \text{g-ekv}$   $AgBr$  ning eruvchanligini hisoblang.

19. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi  $109,9 \text{ Om}^{-1} \text{ sm}^2 / \text{g-ekv}$  bo'lgan  $0,050 \text{ n } KNO_3$  eritmasiga tushirilgan elektrodlar orasidagi masofa  $2 \text{ m}$ , elektrodlarning sirt yuzasi  $5 \text{ sm}^2$  teng. Shu eritmaning elektr o'tkazuvchanligi nimaga teng?

20. Yacheyka doimiyligi  $0,5 \text{ sm}^{-1}$  bo‘lganda  $0,0100 \text{ n } KNO_3$  eritmasining qarshiligi  $423 \text{ Om}$ . eritmaning solishtirma va ekvivalent elektr o‘tkazuvchanligini hisoblang.


21. Harorat  $298 \text{ K}$   $0,10 \text{ n } NH_4OH$  eritmasining solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi  $0,037 \text{ Om}^{-1} \text{ sm}^{-1}$ . Shu eritmaning ekvivalent elektr o‘tkazuvchanligini va pHni hisoblang.

22.  $18^\circ\text{C}$  da ekvivalent elektr o‘tkazuvchanligi,  $94,3 \text{ Om}^{-1} \text{ sm}^2/\text{g}$ -ekv ga teng  $1 \text{ n } AgNO_3$  eritmasi bo‘lgan yacheykadagi elektrodlarning sirt yuzasi  $25 \text{ sm}^2$  va ular orasidagi masofa  $5,5 \text{ sm}$  ga teng bo‘lsa, eritmaning elektr o‘tkazuvchanligini hisoblang.

## II bob. TAHLILNING OPTIK USULLARI

### 2.1-§. Yorug'likning yutilish qonuniyatları va yutilish spektrlarini ifodalash usullari

Optik spektrlar deganda infraqizil, ultrabinafsha va ko'zga ko'rindigan nurlardan foydalanib hosil qilinadigan spektrlarga aytildi. Optik spektrlar uchun yorug'lik yutilishining umumiyligi qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu qonuniyatlar o'rganilayotgan yoki tekshirilayotgan modda va yutilayotgan nuring miqdori bilan bog'liq. Bu bog'liqlik Lambert-Buger-Ber qonuni orqali ifodalanadi. Tekshirilayotgan neft va gaz mahsulotlaridan olingan organik moddalar eritmasi orqali o'tgan nur jadallikligi eritma qavati qalinligi bilan uning konsentratsiyasiga teskari proporsionaldir.




Bu yerda,  $I_0$  – eritmaga tushayotgan nur jadalligi,  $I$  – chiqayotgan nur jadalligi,  $c$  – eritma qavatining qalinligi,  $R$  – yutilish koeffitsiyenti,  $S$  – eritmaning konsentratsiyasi,  $L$  – natural logarifm asosi.

$$\lg \frac{I_0}{I} = klc \quad (4)$$

Nuring jadalligi, ya'ni nuring jadalligi yoki tezligi deganda amplitudasi yoki tebranish kengligi tushuniladi. Quyidagi formuladan foydalilanildi (29-rasm).

$$\lg \frac{I_0}{I} = D$$

optik zichlik deyiladi.



29-rasm. Kofein (a) va xinolin(b)ning UB - spektrlari.

Nurning yutilish spektrlarini grafik usulda ifodalash uchun yutilish koeffitsiyentining to'lqin uzunlikka bog'liqligi asos qilib olinadi yoki ikkita o'zgaruvchan kattaliklar – jadallik, ya'ni jadalligi va to'lqin uzunligi omillari koordinatlar o'qiga qo'yilib, spektr hosil qilinadi. Ko'pincha, abssissa o'qiga to'lqin uzunligi, ordinata o'qiga esa jadallik joylashtiriladi. Xullas, moddaning spektri deganda, muayyan chastotada yoki to'lqin uzunlikda elektromagnit to'lqinning qancha qismi yutilishi (yoki chiqarilishi) ko'rsatuvchi grafik tushuniladi. Agar (2) formulada konsentratsiya mol/litr, eritma qavatining qalinligi sm da olinsa,  $\epsilon$ -yutilishning molyar koeffitsiyenti yoki ekstinksiya deyiladi.


$$D = \epsilon \cdot c \cdot l \quad \text{yoki} \quad \epsilon = \frac{D}{c \cdot l} \quad (5)$$

bu yerda,  $\epsilon$  – ekstinskiya.

Ultrabinafsha (UB)-spektroskopiyada odatda ordinata o'qiga  $\epsilon$  yoki  $lg A$  abssissa o'qiga esa millimikron (mmk) yoki angstrom (A) da ifodalangan to'lqin uzunligi quyiladi. (29-rasm). IQ-spektroskopiyada esa ordinata o'qiga quyidagi kattaliklardan biri joylashtiriladi.

$I/I_0$  – o'tgan (yoki yutilmagan) nur miqdori,  $(I/I_0)/100$  yutilmagan» nur foizi,  $(I_0 - I)/I$  yutilgan nur miqdori,  $(I_0 - I)/I \cdot 100$  yutilish foizi,  $D = \lg(I_0/I)$  – optik zichlik,  $\epsilon = \frac{D}{c \cdot L}$  ekstinksiya yoki molyar yutilish

koeffitsiyenti (qavati qaliligi 1 sm bo‘lgan 1 molyar eritmaning optik zinchligi). To‘lqin soni esa abssissa o‘qiga quyiladi. To‘lqin soni – bu bir sm masofada joylashishi mumkin bo‘lgan to‘lqinlar soni bo‘lib,  $\text{sm}^{-1}$  da olingan to‘lqin uzunligining teskari qiymatidir. To‘lqin soni  $\text{sm}^{-1}$  kabi belgilanadi (teskari santimetr). Juda kamdan-kam hollarda abssissa o‘qiga mikronlarda ifodalangan to‘lqin uzunligi quyiladi.



*30- rasm. Neftdan olingan difenil efirining IQ- spektri.*

30-rasmda IQ-spektrlarning ko‘p qo‘llaniladigan grafik ifodasi keltirilgan. Spektroskocho‘qqi usullar neft va gaz mahsulotlaridan olingan murakkab organik moddalarni tuzilishini o‘rganishda eng ko‘p qo‘llaniladigani IQ-spektroskopiyadir.

## **2.2- §. Optik tahlil usullari. Fotokolorimetrik tahlil usullari. Beger-Lambert-Ber qonuni**

Fotokolorimetrik tahlil usulining mohiyati. Fotokolorimetrik usul bilan modda miqdorini ko'zga ko'rindigan spektrlar sohasida (400-780 nm) aniqlash standart va aniqlanayotgan rangli eritma tomonidan nur yutilishini solishtirishga asoslangan. Buni barqaror rangli har xil organik va noorganik birikmalar hosil qilish mumkinligi bilan tushuntirish mumkin.

Fotokolorimetrik tahlil usulini aniqlaniladigan konsentratsiyalarning katta doirasida ishlatish mumkin. Bu usulni har xil murakkab texnik birikmalar tarkibidan aniqlaniladigan modda miqdori 1% dan ko'p va  $10^{-5}$ - $10^{-4}$  % bo'lganda ham qo'llash mumkin. Fotokolorimetrik tahlil usulini ba'zi bir moddani ajratish usullari - xromatografiya, ekstraksiya bilan birlashtirishda qo'llash, modda miqdorini aniqlashda sezgirlikni yana bir foizga oshirishga va o'lchash aniqligini  $10^{-5}$  % ta yetkazishga imkon beradi.

Ko'p metall va metallmaslar har xil rangli kompleks birikmalar bilan o'zaro ta'sir etishga qodir. Shuning uchun fotokolorimetrik tahlil usulining aniqlash sohasini chegarasi yo'q: hozirgi vaqtida deyarli hamma elementlar va ularning birikmalarini aniqlashning oddiy usullari mavjud. Tahlilning fotometrik usuli asosan solishtirishga asoslangan. Tekshirish uchun tayyorlangan rangli eritmaning rangini konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan, ya'ni standart eritma rangi bilan solishtiriladi. Eritma rangining jadallikligini yoki jadalligini ko'z bilan kuzatiladi va har xil asboblar: kolorimetrlar, fotokolorimetrlar va spektrofotometrlar yordamida aniqlanadi.

Agarda nur yutilishini fotokolorimetrlar yordamida o'lchansa, bunday usulni **fotokolorimetrik** usul deyiladi.

Fotometrik tahlilda qo'llaniladigan kimyoviy reaksiyalar, boradigan jarayonning kimyoviy tabiatiga bog'liq bo'lmay, balki eritma tomonidan nur o'tishi, o'zgarishi yoki susayishiga bog'liqdir. Reaksiya tez, oxirigacha va takrorli sodir bo'lishi kerak. Bundan tashqari, hosil bo'layotgan tahlil qilinayotgan moddaning rangi vaqt davomida yorug'likka turg'un (barqaror) bo'lishi kerak.

Fotometrik tahlil usulida kompleks va ichki kompleks birikmalar olishda oksidlanish-qaytarilish va organik moddalarni sintez qilish reaksiyalaridan foydalaniladi.

**Nur yutilishinig asosiy qonuni.** Modda tomonidan nur yutilayotganda, bizni yutilayotgan nuring sifatigina emas, balki uning miqdoriy xususiyatlari ham qiziqtiladi. Atom, ion yoki molekula nur kvantini yutishi natijasida yuqori energetik holatga o'tadi.

Agar  $J_0$  jadallilikka ega bo'lgan monoxromatik nur oqimi biror eritmaning bir xil qavatiga tushayotgan bo'lsa, unda uning bir qismi qaytadi (jadallikligi  $J_r$ ), bir qismi ( $J_a$ ) yutiladi, bir qismi ( $J_t$ ) esa qavatdan o'tib ketadi, shunday qilib:

$$J_0 = J_r + J_a + J_t \quad (6)$$

Oddiy ko'z bilan kuzatiladigan kolorimetriya va fotokolorimetriyada bir xil idishdag'i eritmalar solishtirilgani uchun  $J_r$  miqdorini hisobga olmasa ham bo'ladi. Unda

$$J_o = J_a + J_t \quad (7)$$

Shunday qilib, nur oqimi eritmadan o'tganda o'z jadalligining ma'lum qismini yo'qotadi.  $J_o$  va  $J_t$  nur o'rtaсидаги bog'lanishni **Buger-Lamberg qonuni** orqali ifodalanash mumkin:

$$J_t = J_o \cdot L^A \quad (8)$$

Bu yerda,  $J$ - natural logarifm asosi;  $A$  – yutilish koeffitsiyenti;  $L$ -yutilish qavatining qalinligi.

Eritmada rangli molekulalar qancha ko'p bo'lsa,  $J_o$  ning qiymati shuncha katta bo'ladi.

Eritmadan o'tayotgan nur o'rtaсining kamayishini o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti (yoki o'zgaruvchanlik) deyiladi va quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$T = \frac{l}{l_0} \quad (9)$$

$T$  ning teskari ishora bilan olingan logarifmini optik zinchlik deyiladi va  $D$  bilan belgilanadi:

$$\lg T = -\lg \frac{J_0}{J_t} = D \quad (10)$$

Nur yutilayotgan eritma va uning optik zichligi o‘rtasidagi bog‘lanishni *Ber* (1852-yili) o‘zining qonuni bilan quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin:

$$\lg \frac{J_0}{J_t} = K_i C \quad (11)$$

bu yerda,  $K_i$  – proporsionallik koeffitsiyenti;  $C$  – erigan modda konsentratsiyasi.

*Ber* qonuniga asosan, *bup xil qalilik qavatidagi eritmaning optik zichligi erigan modda konsentratsiyasiga to‘g‘ri proporsionaldir.*

*Buger-Lamberg-Ber* ning umumiyligini qonuni, nur yutilishining asosiy qonuni bo‘lib, quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$J_t = J_0 \cdot 10^{-K_i C l} \quad (12)$$

bu yerda,  $K$  – nur yutilish koeffitsiyenti, u erigan moddaning tabiatiga va uning fizik holatiga bog‘liq, bo‘ladi.


Agarda konsentratsiya  $S = 1 \text{ mol/l}$ ,  $l = 1 \text{ sm}$ , bo‘lsa, unda  $K$  nur yutilish molyar koeffitsiyenti deyiladi va  $E$  bilan belgilanadi. (5) formulaning ko‘rinishini

$$J_t = J_0 \cdot 10^{-\varepsilon C l} \quad (13)$$

deb yozish mumkin.

$\varepsilon$  ning qiymatini oshishi bilan reaksiya uchun sezgirlik xarakteristikasidir. Nur yutilishining asosiy qonuniga rioya qilinganda eritmaning optik, zichligi nur yutilish molyar koeffitsiyentiga, nur yutayotgan modda konsentratsiyasiga va nur o‘tayotgan eritma qavatining qalilikiga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi. Optik zichlikni konsentratsiyaga bog‘liqligini grafik orqali ifodalansa, u to‘g‘ri chiziq, ko‘rinishiga ega bo‘ladi.


$$D = \varepsilon C l \quad (14)$$



**31-rasm. Optik zichlikni rangli eritma konsentratsiyasiga bog'liqlilik grafigi.**

**Nur yutilish spektrlari.** Hamma rangli birikmalar yorug'lik nurini yutilish xususiyatiga ega. Yorug'lik yutilish molyar koeffitsiyenti va eritmaning optik zichligi rangli eritmadan o'tayotgan yorug'lik to'lqin uzunligi uchun har xil qiymatga ega. Har xil birikmalarning rangli eritmalarini to'lqin, tavsiflash uchun, ularning yutilish spektrlaridan foydalaniлади (yorug'lik yutilish egrisi chiziqlari). Yutilish spektri bu aniqlanadigan modda yutayotgan yorug'likni to'lqin uzunligiga bog'liqligidir. Spektrlarning ma'lum bir sohasida yutilishning eng katta qiymati modda tabiatini tafsiflaydi.

Yutilishning eng katta qiymatidagi to'lqin uzunlikni  $\lambda_{\text{max}}$  deb belgilasak, shu to'lqin uzunlikdagi yutilish molyar koeffitsiyentini  $\varepsilon_{\text{max}}$  bo'ladi.



**32-rasm. Optik zichlikni to'lqin uzunligiga bog'liqligi.**

Koordinatalar  $D=f(\lambda)$  yoki  $\epsilon =f(\lambda)$  da yutilish spektrlarini chizish uchun har xil to'lqin uzunlikda bir nechta eritmaning optik zichligi yoki yorug'lik yutilishining molyar koeffitsiyenti o'lchanadi va olingen ma'lumotlar asosida grafik chiziladi.

Eritmalarni ko'zga ko'rinaridigan ( $\lambda=400-760$  nm) va ultrabinafsha rangli ( $\lambda=185-400$ ) spektrlar sohasida nur yutishi spektrofotometrlar yordamida optik zichlik o'lchanadi.

**Rangli eritmalar konsentratsiyalarini aniqlash usullari.** Fotokolorimetrik tahlillarda eritmadagi modda konsentratsiyasini asosan to'rt xil usul bilan aniqlash mumkin:

**1. Tenglashtirish usuli.** Bu usulda tekshirilayotgan eritmadan alikvod qism olib, undan rangli eritma tayyorlaymiz va uning optik zichligi ( $D$ ) ni o'lchaymiz. So'ngra konsentratsiyasi aniq bo'lgan 4-5 xil standart rangli eritma tayyorlab, bir xil qalinlik qatlamida ularning optik zichligi ( $D$ )ni o'lchaymiz. Tekshirilayotgan ( $D$ ) va standart eritmalar ( $D_s$ ) optik zichliklarini solishtirish natijasida aniqlanadigan moddaning noma'lum konsentratsiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$Cx = C_{sm} \cdot \frac{D}{D_{sm}}$$

**2. Jadvallangan grafik usuli.** Bu usulda Ber qonuniga bo'y so'nadigan konsentratsiyada bir nechta standart rangli eritma tayyorlanadi va ularning optik zichligi o'lchanadi. Olingen ma'lumotlar asosida ordinata o'qiga optik zichlik, abssissa o'qiga esa, eritma konsentratsiyasining qiymatini quyib, grafik chizamiz. Chizilgan grafikni (32-rasm) jadvallangan grafik deyiladi. So'ngra, tekshirilayotgan noma'lum konsentratsiyali eritmaning optik zichligini ( $D$ ) ni o'lchab, chizilgan grafik yordamida uning konsentratsiyasi ( $S_x$ , mg/ml, mkg/ml) qiymati topiladi.

**3. Qo'shish usuli.** Tekshirilayotgan eritmadan alikvot qism olib, undan rangli eritma tayyorlanadi va uning optik zichligi  $D_x$  o'lchanadi. Tekshirilayotgan eritmadan yana alikvod qism olinadi va unga konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan standart eritmadan solinadi. Hosil bo'lgan rangli eritmaning optik zichligi ( $D_x+ct$ ) o'lchanadi. Aniqlanadigan moddaning noma'lum konsentratsiyasini quyidagi formuladan hisoblaniladi:

$$C_x = C_{sm} \frac{D_x}{D_{(x+xt)} - D_x}$$

**4. Differensiyallash usuli.** Usulning mohiyati shundan iboratki, unda aniqlanadigan va standart rangli eritmalarining optik zinchligini toza erituvchiga nisbatan emas, balki aniqlanadigan elementli ma'lum konsentratsiyali rangli eritmaga nisbatan o'chanadi. Bu usul katta konsentratsiyali moddalarni yuqori aniqlikda tahlil qilishda qo'llaniladi.

Eritma rangining jadallikligini yoki yorug'lik yutilishini miqdoriy baholash uchun har xil asboblar qo'llaniladi:

1. *Fotoelektrik kolorimetrlar* – ФЕК-Н-52, 54, 57, ФЕК-56 М, ФЕК-60, bu asboblar optik bo'lib, fotoelement yordamida polixromatik nuring yutilish darajasi o'chanadi. Yuqorida ko'rsatilgan asboblar ikkita fotoelementli, ikki nurli bir xil prinsipial sxemalidir. Asboblar ikki nur oqimi jadallikligini o'zgaruvchan diafragmalar yordamida taqqoslashga asoslangan.

2. *Spektrofotometrlar* – СФ-4А, СФД-2, СФ-5, 8, 9, 10, 16, 26, bu fotometrlar monoxromatik nur yutilishni o'lehash uchun ishlatiladi. Nur manba sifatida 320-1100 nm to'lqin uzunlikda cho'g'lanuvchi lampa, 315-630 nm to'lqin uzunlikda simob kvarsli va 220-320 nm to'lqin uzunlikda vodorodli lampa ishlatiladi.

**Fotoelementlar.** Fotokolorimetrik va spektrofotometrik tahlil usullarida rangli eritmalarining nur yutish darajasini fotoelementlar yordamida aniqlaniladi. Fotometrlanadigan rangli eritmadan o'tayotgan nur energiyasini fotoelement elektr energiyasiga aylantiradi. Optik asboblarda ikki xil fotoelementlar – yarimo'tkazgichli va vakuumli fotoelementlar qo'llaniladi. Tuzilishiga qarab fotoelementlar: ichki fotoeffektli, tashqi fotoeffektli va zanjir qatlamlili bo'ladi.


Fotoeffekt qonuniga asosan, hosil bo'layotgan fototokning kuchi fotoelementga tushayotgan yorug'lik jadallikligiga, ya'ni jadalligiga to'g'ri proporsionaldir. Fotoeffekt faqat ma'lum bir to'lqin uzunligidagi nur bilan yoritilganda hosil bo'ladi.



**Yorug'lik filtrlari.** Fotometrik tahlil usulida sezgirlikni oshirish va aniq natija olish uchun fotometrlanayotgan rangli eritma tomonidan yutilayotgan nuring eng katta qiymatini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Ko'zga ko'rindigan spektrlar sohasidan ma'lum bir to'lqin uzunligidagi nurlarni ajratib olish uchun, nur yutuvchi eritmalar

oldiga, yorug'lik o'rtasini yo'liga nur yutgichlar, ya'ni nur filtrlari o'rnatiladi. Nur filtrlari sifatida rangli shishalar va plyonkalar rangli suyuqliklar va interferension nur filtrlari ishlataladi.

**Fotokolorimetriya.** Fotokolorimerik aniqlash ishlarida fotoelementning nur sezuvchi sirti yoritilishi natijasida paydo bo'ladigan va zanjirdagi galvanometr yordami bilan yozib olinadigan fototok kuchiga qarab, rangli eritmadan o'tgan nur jadalligi haqida fikr yuritiladi. Aniqlash ishlari maxsus asboblarda fotokolorimetrlarda olib boriladi. Asosan eng ko'p tarqalgan fotokolorimetrlar ikki yelkali yoki differensial fotokolorimetrlardir.

Fotoelektrokolorimetrnning ishlash sxemasi 33-rasmda keltirilgan. Nur manba- cho'g'lanuvchi lampa 1 dan nur o'rtasi uni ikki o'rtasiga bo'luvchi va yassi ko'zgular 4ga yo'naltiruvchi prizma Z ga tushadi. Ko'zgular nurni ikkita parallel oqimlar ko'rinishida qaytaradi. Nurning parallel oqimlari nur filtrlagich 5 dan o'tadi va eritma solingan kyuvetalarga tushadi. Kyuveta 6ga erituvchi, 7 chi kyuvetaga esa tekshiriladigan eritma solinadi. Nur kyuvetalardan o'tganda qisman yutiladi. Kyuvetalardan o'tgan nur oqimlari so'riluvchi diafragmalar 8 dan o'tib, ko'zgular 11 dan qaytadi va orqasida fotoelement 9 bo'lgan oq rangli shisha 12ga tushadi. Suriluvchi diafragmalar ularga birikkan hisob olinadigan 13 barabanlar sarflanganda tirkish kengligini o'zgartiradi va fotoelementga tushayotgan nur o'rtasining jadalligini o'zgartiradi. Fotoelementda kuchli nur o'rtasiga proporsional bo'lgan tok vujudga keladi. Ikkala fotoelement mikroampermetr 10 bilan ulangan.





**33-rasm. FEK-56M fotoelektrokolorimetrining optik sxemasi va umumiyo ko'rinishi.**

(a)-oldindan ko'rinishi; (b) - yonidan ko'rinishi; 1 - mikroampermestr; 2 -yoritgich korpusi; 3 - pardani yopuvchi band (tutkich); 4 - kyuveta almashtirgich; 5-hisob olinuvchi barabanlar; 6- hisob olinuvchi baraban shkalasi; 7 - nolga keltirish tutkichi; 8 -sezgirlikni sozlash tutqichi; 9 - nur filtrlagichlarni almashtirgich.

Fotoelektrokolorimetrda cho'g'lanuvechan lampa asbobning orqa qismida joylashgan. Yorug'lik nurini fotoelementga faqat aniqlash vaqtida tushishini ta'minlash uchun nur o'rtaсини berkitadigan parda mavjud. Parda tutkich 3 yordamida ochiladi. Har xil rangdagi nur filtrlagichlar asbobning orqa tomoniga mahkamlangan diska o'rnatilgan nur filtrlagichlar tutkich 9 yordamida suriladi. Tutkichda nur filtrlagichlarning soni ko'rsatiladi. Tajribani boshlashdan oldin asbobga kyuvetalar to'plami (3 ta kyuveta) o'rnatiladi. Yorug'lik nuri eritma solingan kyuvetadan o'tib fotoelementga tushadi. Har bir fotoelementning yoritilganligi diafragma yordamida sozlanadi, diafragma tizqishining kengligi olinuvchi barabanlar (5) ga ikkita shkala (6) chizilgan. Qora shkala-yorug'lik o'tkazish shkalasi-yorug'-lik o'tkazish koeffitsiyentini ko'rsatadi. Qizil shkala tekshiriladigan eritmaning optik zichligini ko'rsatadi.

FEK-56M asbobida cho'g'lanuvchi lampa RN-35 (8V,35Vt) va simob-kvarsli lampa DRK-120 ishlataladi. Ular 315-630 nm diapazonda ishlash imkonini yaratadi.

**FEK-56M asbobida aniqlash texnikasi.** 1. Asbob ish boshlashdan 25-30 daqiqa oldin stabilizator orqali SS-98 holatga keltiriladi. Bu paytda parda 3 yopiq bo'lishi kerak.

2. Ikkala hisob olinuvchi barabanlar (6) qizil shkala bo'yicha nolga qo'yiladi, diafragmalar to'liq ochiladi. Tutqich 7 ni burab, milliampermetr strelkasini nolga olib kelinadi.

3. Bir xil uzunlikdagi 3 ta kyuveta olinadi: ulardan ikkitasini ishchi erituvchi bilan, bittasini esa tekshiriladigan eritma bilan to'ldiriladi. Chapdagagi kyuveta tutkichga erituvchi solingan kyuveta, o'ngdagsiga-bitta o'ringa tekshiriladigan eritma bilan to'ldiriladi. Chapdagagi kyuveta tutkichga erituvchi solingan kyuveta, o'ngdagsiga-bitta o'ringa erituvchi solingan kyuveta, ikkinchi o'ringa erituvchi solingan kyuveta quyiladi.

4. Parda ochiladi, bunda mikroampermetr strelkasi noldan chetlashadi, chapdagagi hisob olinuvchi barabanni (6) ni o'zimizdan oldinga qarab burab mikroampermetr strelkasi nolga keltiriladi.

5. Parda berkitiladi.

6. Tutqich 4 burab, yorug'lik nuri yo'liga eritma solingan kyuyetani joylashtiriladi.

7. Parda ochiladi. Mikroampermetr strelkasi yana nol holatdan chetlashadi.

8. O'ng hisob olinuvchi barabanni o'zingizdan u tomonga burab, mikroampermetr strelkasi nolga keltiriladi.

9. Parda yopiladi. O'ngdagi hisob olinuvchi barabanning qizil shkalasi bo'yicha optik zichlik  $D$  ko'rsatmasi yozib olinadi.

10. Darajalovchi egri chiziqli ko'rsatgich yoki jadval bo'yicha aniqlanayotgan modda miqdori topiladi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollar

1. Fizik-kimyoviy tahlilning asosiy tushunchalari nimalardan iborat?

2. Fizik-kimyoviy tahlil usullarining necha xili mavjud?

3. Fizik-kimyoviy tahlili qanday afzalliliklarga ega?

4. Yorug'likning qanday yutilish qonuniyatları va yutilish spektrlarini bilasiz?

5. Spektral va boshqa optik usullar haqida tushuncha bering?

6. Neft va gaz mahsulotlarini tahlil qilishda hozirgi vaqtida fizik-kimyoviy tahlil usullardan optik usullarini tavsiiflang?

7. Jadallik deganda nimani tushunasiz?

8. Elektromagnit spektr nima?

9. Chiqarish spektlari orqali moddalarni tuzilishi qanday aniqlanadi?
10. Yutilish spektrlari nima?
11. Fotokolorimetrik tahlil usulining mohiyati nimalardan iborat u qaysi sohalarda ishlatalidi?
12. Buger- Lamberg- Ber qonuni va uni qo'llash sharti nimadan iborat?
13. Fotokolorimetriyada rangli eritmalar olish uchun reaksiyalarning qanday turlaridan foydalaniлади?
14. Sinishning molyar koeffitsiyentini fizik ma'nosini tushunting?
15. Fotometriyada qanday eritmalar standart deyiladi?
16. Fotoelementning vazifasi nimadan iborat?
17. O'tkazish koeffitsiyenti va optik zichlik deb nimaga aytildi?
18. Darajalangan grafikning mohiyati nimadan iborat?
19. Absorbsion tahlil usullari (kolorimetrik, fotokolorimetrik, spektrofotometrik) nimaga asoslangan?
20. Yutilish spektridagi maksimumning balandligi nima bilan taysiflanadi?


### **III bob. TAHLILNING SPEKTROSKOPIYA USULLARI**

#### **3.1-§. Ultrabinafsha spektroskopiya (UB). Neft mahsulotlaridan olingan ko‘p atomli molekulalar spektrlari**

Moddalarni optik spektrining qisqa to‘lqinli ko‘rinadigan qismiga yondash sohasini tekshirish bilan shug‘ullanadigan spektroskopiya **ultrabinafsha spektroskopiya** deyiladi. Ultrabinafsha spektroskopiya elektronlarning bir energiya pog‘onasidan boshqa energiya pog‘onasiga o‘tishiga asoslangan. Shuning uchun bu spektrni ko‘p hollarda **elektron spektr** deb ham ataladi. Molekulaning har qanday elektron holati shu molekulaning aylanma va tebranma qo‘zg‘algan holatga o‘tkazish uchun kerakli energiya elektronlarni yuqoriroq energetik pog‘onaga o‘tkazish uchun talab qilinadigan energiyadan kichik bo‘lishi ma’lum. Shuning uchun ham molekulaga energiyasi ancha katta bo‘lgan ultrabinafsha nurlar tushurilganda uning har uchchala (aylanma, tebranma, elektron) energiyasi o‘zgaradi. U holda elektron ultrabinafsha (UB) spektrlar juda murakkab bo‘lishi mumkin, chunki spektrda uch xil energiya o‘zgarishlariga muvofiq keladigan chiziqlar kuzatiladi. Aylanma va tebranma spektrlar, ba’zan spektrning nozik strukturasi ham deyiladi. Nozik strukturalar UB-spektrlarni interpretatsiya (ya’ni izoh berish) qilishda juda qiyinlik tug‘diradi. Buni bartaraf qilish uchun moddalar spektlari eritmada olinadi. Eritvuchi molekulalari erigan moddaning aylanma-tebranma harakatiga xalaqit bergani uchun spektr eritmada olinganda nozik strukturalar bo‘lmaydi yoki juda kam kuzatiladi (34-rasm).

Ko‘p moddalar ultrabinafsha nur-qismidan 100 dan 400 nm gacha nurlanishiga, ba’zi birikmalar esa ko‘rinadigan nur qismida 400 dan 800 nm gacha nurlanishiga ega bo‘ladi.

Ultrabinafsha spektroskopiya neft va gazdan sintez qilingan organik birikmalarni, shuningdek, o’simlik va hayvonlar organizmidan ajratib olingan yangi tabiiy birikmalarning tuzilishini o‘rganishda boshqa spektroskocho‘qqi usullar kabi katta ahamiyatga ega.



**34-rasm.** Sirka aldegidining UB spektrlari (I) gaz fazada, (II) spirtda.

Har qanday moddaning ultrabinafsha spektrini olish mumkin. Buning uchun amalda moddalarni erituvchi sifatida 95 % li etil spirt, metil spirt, dietilefir, geksan va geptanlar ishlataladi.

UB-spektroskopiyaga to'lqin uzunligi 100-800 mmk bo'lgan nurlar ta'sirida valent elektronlarning bir orbitalidan ikkinchisiga o'tishida ular yutadigan nuring to'lqin uzunligi va jadalligini o'lchashga asoslangan. Elektron spektriskopiyada jami o'tishlar uchta katta guruhga ajratiladi.

**Birinchi,  $N \rightarrow V$  o'tishlar:** Bu o'tishlar ( $\sigma \rightarrow \sigma^*$  va  $\pi \rightarrow \pi^*$ ) larni o'z ichiga olib molekula hayajonlangan holatda qutblangan bo'ladi.

Elektron o'tishlar natijasida molekulaning dipol momenti ortadi. Molekulaning qutblanganligi ortishi bilan bo'ladigan o'tishlar natijasida UB-spektrda kuzatiladigan maksimumlarning jadalligi yuqori bo'ladi.  $\sigma \rightarrow \sigma^*$  o'tishlar molekula optik spektrning uzoq ultrabinafsha sohasida yorituvchi, to'lqin uzunligi 200 mmk va undan kichik bo'lgan nurlarni yutganda sodir bo'ladi. Hozirgi vaqtida ko'p ishlataladigan spektrfotometrlar 200 mmk dan yuqori to'lqin uzunliklarda yutishlarni qayd qila oladi. Undan kichik to'lqin uzunliklar uchun maxsus murakkab spektrofotometrlar talab qilinadi. Neft va gaz mahsulotlridan olinadigan qo'shbog' va getero atom tutmaydigan birikmalarda asosan  $\sigma$ -bog'lar bo'lgani uchun o'tishlar ham faqat  $\sigma \rightarrow \sigma^*$  tipida bo'ladi. Boshqacha aytganda, ular yaqin ultrabinafsha va ko'rindan sohada nur yutmaydi. Shuning uchun bu birikmalardan UB-spektrlarni olishda erituvchi sifatida (geksan, siklogeksan va hokazo) foydalaniladi. Bog'lovchi  $\pi$ -molekular

orbitaldagagi elektronlar yadrolarga  $\sigma$ -elektronlarga nisbatan kuchsiz tortilib turadi, shuning uchun  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlari amalga oshirish uchun uncha katta energiya talab qilinmaydi.

Spektrda bu o'tishlarga muvofiq keladigan maksimumlar yuqori jadallikka ega bo'ladi.  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlar aksariyat hollarda qo'shbog' tutgan birikmalarda uchraydi. Qo'shbog'lar bir-biridan ikkita yo undan ortiq oddiy bog'lar bilan ajratilgan hollarda yutilish maksimum ( $\lambda_{maks}$ ) ning spektrdagagi o'rni o'zgarmaydi, maksimum jadalligi ( $\epsilon$  yoki  $lgf$ ) esa qo'shbog'lar soniga proporsional ravishda ortadi. Masalan, etilen ( $\text{CH}_2=\text{CH}_2$ ) uchun  $\lambda_{maks}=185$  mmk. Geksadien 1,5 uchun ham yutilish maksimumi 185 mmk ga teng. Lekin etilenda  $\epsilon = 1000$ , geksamden -1,5 uchun esa - 20000).

Qo'shbog'lar navbatlashib keladigan (oralatma bog'lanishli) birikmalarda esa additivlik kuzatilmaydi. Masalan, butadien-1,3 ( $\text{CH}_2-\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ ) da yutilish  $\lambda_{maks} \approx 217$  mmk da sodir bo'lsa, geksamden 1,3,5 ( $\text{CH}_2 = \text{CH}-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ ) uchun bu qiyomat 258 mmk tashkil qiladi. Ko'rinish turibdiki, oralatma bog'lanishli birikmalarda qo'shbog'lar soni ortishi bilan  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlarga muvofiq keladigan energiya kamayib boradi. Boshqacha aytganda, shu o'tishlarni vujudga keltiruvchi UB-nurlar spektrda to'lqin uzunligi katta bo'lgan soha tomon siljiydi. Bu xil «batoxrom» siljish deyiladi. Agar yutilishi maksimumi to'lqin uzunligi qisqa bo'lgan (yuqori chastotali) soha tomon siljisa gipsoxrom siljish bo'ladi. (Yutilish maksimumi jadalligining ortishi ginexrom, kamayishi esa ginoxrom effekt deb aytildi. Batoxrom siljishda ginerxrom effekt kuzatiladi, ya'ni ( $\epsilon$ ) ortib boradi. Umumiy qo'shbog'ga  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tish bera oladigan istalgan bir xromaforga elektronodonor guruhrilar (ayniqsa o'zida umumlashmagan just tutuvchi) oralatma bog'lanish bilan bog'langan bo'lsa. batoxrom siljish kuzatiladi. Bunday guruhlarga auksoxrom ( $\text{NH}_2$ ,  $\text{NR}_2$ ,  $\text{OH}$ ,  $\text{C-X}$ ,  $\text{OR}$ ,  $\text{SH}$ ,  $\text{SR}$ ) lar misol bo'la oladi. Shunga o'xhash qo'shbog'dagi uglerod bilan bog'langan vodorod atomlari uglevodorod radikallariga almashtirilsa yoki sistemaga auksoxromlar kiritilsa, batoxrom siljish sodir bo'ladi. Bu to'yingan uglevodorodlar uchun ham o'rinnlidir. Spektr qutbli erituvchilarda olinganda ham  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlarda batoxrom siljish kuzatiladi. Demak, molekulada oralatma bog'lashnishli qo'shbog' (yoki boshqa xromofor)lar sonini oshirib borish bilan shu molekulani ko'zga ko'rindigan nurlar yutadigan qilish. ya'ni uni rangli holga o'tkazish

mumkin, chunki ko'zga ko'rinaradigan soha (400-800 mmk) da nur yutadigan barcha muddalar ranglidir. Haqiqatan ham butadien-1,3 (qo'shbog'lar ikkita,  $\lambda_{\text{maks}} \approx 127$  mmk) rangsiz bo'lgani holda pomidorda uchraydigan likopin pigmenti ( $S_{40}N_{56}$  qo'shbog'lar o'n beshta,  $\lambda_{\text{maks}} \approx 504$  mmk) qizil ranglidir.

**Ikkinchidan,  $N \rightarrow Q$  o'tishlar:**  $n \rightarrow \sigma^*$  va  $n \rightarrow \pi^*$  o'tishlar shular jumlasidandir.  $n \rightarrow \sigma^*$  o'tishlar uzoq yoki yaqin ultrabinafsha sohada, o'zida geteroatom tutuvchi to'yingan birikmalarda uchraydi.  $n \rightarrow \pi^*$  o'tishlar esa to'lqin uzunligi katta bo'lgan yaqin UB- va ko'zga ko'rinaradigan sohaga muvofiq keladi. Ular umumlashmagan juft tutuvchi geteroatom qo'shbog' bilan bog'langan hollarda kuzatiladi. C=O, C=S, -N=N- kabi xromoforlar  $n \rightarrow \pi^*$  o'tishga muvofiq keladigan yutilish maksimumlariga ega. Bundan tashqari, ana shu xromoforlarda  $n \rightarrow \sigma^*$  va  $\pi \rightarrow \pi^*$  kabi o'tishlar kam uchraydi.  $N \rightarrow Q$  o'tishlarning eng asosiysi va muhimmi  $n \rightarrow \pi^*$  dir.  $n \rightarrow \pi^*$  o'tishlar jadalligi kam ( $\epsilon = 100$  dan kichik). Taqqoslash uchun  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlarda  $\epsilon = 1000$  dan katta bo'lishini eslatib o'tamiz. Molekulaga elektronodonor o'rinosar kiritilsa va spektr qutbli erituvchilarda olinsa  $\lambda_{\text{maks}}$  qisqa to'lqin uzunligi (yuqori chastota) tomon siljiydi (gipsoxrom siljish).  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlarda aksincha effekt kuzatilishini ko'rib o'tdik. Bundan  $n \rightarrow \pi^*$  o'tishlarni  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlardan farq qilishda foydalilanildi. I-jadvalda eng muhim xromoforlarning yutilish maksimumlari keltirilgan.

**Uchinchidan,  $N \rightarrow R$  o'tishlar:** Muddalar molekulasi yuqori energiya berilsa, elektron undan chiqib ketishi mumkin (fotoionlanish). Bu o'tish uzoq, ultrabinafsha sohada sodir bo'ladi va unga spektrda jadallik, ensiz maksimumlar muvofiq keladi.  $N \rightarrow R$  o'tishlar atomar yoki Ridberg o'tishlari ham deyiladi.

1- jadval


Xromoform	Bog'lanish	$\lambda_{\text{maks}}, \text{mmk}$	$\lg \frac{\mu}{\mu_{\text{maks}}}$
- Cl	$CH_3Cl$	173	2,30
- Br	$CH_3Br$	204	2,30
	$H - C_3H - Br^\sigma$	208	2,48
- I	$CH_3I$		

I-jadvalning davomi

$-N$	$CH_3NH_2$ $(CH_3)_3N$	259 217 227	3,56 2,78 2,45
$-O-$	$SN_3ON$	184	2,18
$-S$ $\swarrow$	$(CH_3)_2S$ $(C_2H_5)_2S^{\sigma}$	210 215	3,01 3,20
$C = C$	$RCH=CH_2$ <i>Sis</i> - $RCH=CHR$ <i>Trans</i> - $RCH=CHR$ $R_2C=CH_2$		4,1 4,1 4,1 3,9
$C \equiv C$	<i>Siklogeksan</i> $\delta$ $RC \equiv CH^{\delta}$ $RC \equiv CR^{\delta}$	183 187 191	3,88 2,65 2,93
$C = C = C$	$C_2H_5CH=C=CH_2$ $CH_3CHO^{\sigma}$	225	2,70
$C=O$	$(CH_3)_2CO^{\sigma}$	294	1,08
$N=O$	<i>Tret</i> - $S_4N_2NO$	279	1,14
$N=O$	$CH_3N=NCH_3$ $CF_3N=NCF_3$	265 340	1,30 0,65
$C=S$	$CH_2(CH_2)_4C=S$	360 504	0,20 $\sim 0,7$
<i>Aromatik birikmalar</i>	$C_6H_6$ $C_6H_5Cl$ $C_6H_5NO_2$	184, 204, 256 210, 265 200, 300	

Neft mahsulotlaridan olingan organik moddalarni tuzilishini o'rganishda  $N \rightarrow V$  va  $N \rightarrow Q$  o'tishlar ahamiyatlidir.  $N \rightarrow V$  o'tishlar natijasida yuzaga keladigan maksimumlar K-chiziq, benzol halqasi tutuvchi birikmalardagi xuddi shunday o'tishlardan hosil bo'ladigan e yutilish chiziqlari A yoki E chiziqlar deyiladi. K- chiziqlar ko'pincha  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlar tufayli kuzatiladi.  $n \rightarrow \pi^*$  o'tishlar tufayli paydo

bo'ladigan yutilish maksimumlari esa R-chiziqlar deyiladi. Benzol uchta yutilish chizig'iga ega:  $\lambda_{\text{maks}} = 180 \text{ mmk}$ ;  $\epsilon = 50000$ ;  $200 \text{ mmk}$ ,  $\epsilon = 70000$ ;  $230—260 \text{ mmk}$ ;  $\epsilon = 200$  (35-rasm).



**35-rasm Neftdan olingan benzolning geptandagi UB spektri.**


Odatdag'i spektrofotometrlar bilan oxirgi chiziq (K va R) ni kuza-tish mumkin. Benzol halqasiga biror o'rinxbosarning kiritilishi batoxrom siljishga sabab bo'ladi. Ayniqsa, qo'shbog' yoki umumlashmagan elektron juftlari mavjud bo'lgan o'rinxbosarlar, shuningdek,  $\text{NO}_2$ ,  $\text{C}=\text{O}$  kabi elektronoakseptor guruhlar bu siljishni kuchaytiradi. Birinchi va ikkinchi guruh o'rinxbosarlar ko'rsatadigan batoxrom ta'sir quyidagicha o'zgaradi.  $-\text{CN} < \text{SO}_2 < \text{R}-\text{COOH} < -\text{COCH}_3 < -\text{CHO} < -\text{NO}_2 < \text{Cl} < \text{OH} < \text{SR-NR}_2$ . Agar I va II guruhga kiruvchi ikkita o'rinxbosar benzol halqasida para-holatda bo'lsa, siljish katta bo'ladi. Masalan, anilin va nitrobenzol uchun  $\lambda_{\text{maks}}$  muvofiq ravishda 230 va 269 mmk ga teng. Bu qiymat paradinitrobenzol uchun 266 mmk ni tashkil qilgani holda, paranitroanilinda 281 mmk gacha ortadi. Metanitroanilin uchun esa  $\lambda_{\text{maks}} = 280 \text{ mmk}$ . Benzol hosilalaridagi batoxrom siljishdan halqadagi o'rinxbosarlarining joylanishini aniqlashda foydalaniadi.

Karbonil guruh tutuvchi birikmalar (aldegid, keton, murakkab efirda jadallik K-chiziq  $\pi \rightarrow \pi^*$  dan tashqari,  $\text{n} \rightarrow \pi^*$  o'tishga muvofiq keladigan kuchsiz chiziq (R) ham kuzatiladi. Umuman molekuladagi o'tishlar qancha ko'p bo'lsa, spektrdagi chiziqlar ham shuncha ko'p

bo'ladi. Lekin kutilgan o'tishlarning hammasi ham amalga oshavermaydi. Buning bir nechta sababi bor.

- Birinchidan valent elektronlar yuqori energiyali molekulalı orbitaga MO ga o'tganda ularning spinlari o'zgarmasligi yoki o'zgarishi mumkin (36-rasm). Spin o'zgarmasdan boradigan o'tish singlet, spin o'zgarishi bilan boradigan o'tishlar esa triplet yoki taqiqlangan o'tishlar deyiladi. Spin o'zgarishi bilan boradigan taqiqlangan o'tishlarning ehtimolligini juda kam va bunda hosil qiladigan yutilish chiziqlarining jadallikligi (E) kichik bo'ladi. Boshqacha aytganda, triplet o'tishlarda molekula nur yutmaydi, yutsa ham kam yutadi. Triplet o'tishlar spin taqiqlangan o'tishlar ham deyiladi.

-Ikkinchidan, agar elektron o'tishlar natijasida molekulaning dipol momenti o'zgarmasa (ya'ni orbital simmetriyasi o'zgarmasa) ham elektron energiya yutmaydi.



*36-rasm.  $\pi \rightarrow \pi^*$  singlet(I) va triplet (II), ya'ni taqiqlangan o'tishlar.*

Ikkinci qoida bilan oralatma bog'lanishli birikmalar UB-spektrlarida yutilish chiziqlarining nima sababdan to'lqin uzunligi katta bo'lган sohada kuzatilishini osongina tushuntirish mumkin. Masalan, etilen uchun  $\lambda_{\text{maks}} = 185$  mmk, ya'ni odatdag'i spektrofotometrlar bilan etilen UB-spektrini olib bo'lmaydi. Butadienda esa  $\lambda_{\text{maks}} = 217$  mmk kuzatiladi. Bu butadiendagi valent elektronlarning  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlarini ta'minlash uchun etilenga nisbatan kamroq, energiya sarflanadi, ya'ni o'tish osonlik bilan yuz beradi. O'tishlarni osonlashtiruvchi omil butadiendagi mezomer strukturalar deb hisoblanadi. Mezomer strukturalar ( $\text{CH}_2^+ \sim \text{CH}=\text{CH} - \text{CH}_2 - \text{CH}_2^-$ ,  $\text{CH}=\text{CH}' - \text{CH}_2$ ) molekulaning dipol momentini oshirgani uchun o'tishlar yengil bo'ladi.

Yuqorida ko'rganimizdek, ikkita omil mumkin bo'lган o'tishlar sonini ancha cheklaydi. Bu esa, o'z navbatida, spektrlarning oddiy

bo'lishini (unda chiziqlarning kamligini), ularni interpretatsiya qilish qulayligini ta'minlaydi. To'yigan birikmalarda radikal zanjirning ortishi tufayli vujudga keladigan batoxrom siljishni ham xuddi shunday tushuntirish mumkin. Zanjir uzayishi bilan  $\sigma$ - $\sigma$  oralatma bog'lanish effekti (giperkonyugatsiya) ortadi. Oqibatda neft va gaz mahsulotlaridan olingan to'yigan organik birikmalarda butadiendagiga o'xshab mezomer strukturalar hosil bo'ladi, ular esa o'tishlarni osonlashtiradi. Shunday qilib, taqiqlanmagan va taqiqlangan o'tishlar bo'lishi mumkin ekan. Taqiqlanmagan o'tishlarda yutilish chiziqlari juda jadallik, taqiqlangan o'tishlarda esa kuchli bo'ladi.  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlar taqiqlangan deb qaraladi. Natijada ularga muvofiq, keladigan chiziqlar ham kam jadallikka ega.

$\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlar taqiqlanmagan va jadallikligi juda yuqori. Yutilish maksimumlari  $\lambda_{\text{maks}}$  ga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Bu omillarga erituvchi, molekula ichidagi vodorod bog'lar, stereo omillar va izomeriyalar kiradi. 2-jadvalda  $\pi \rightarrow \pi^*$  o'tishlar (R) ga turli erituvchilarining ta'siri keltirilgan.

2- jadval

	Gep-tan	Xloro-form	Asetonitril	Etil spirt	Suv
Aseton	276,5	274,5	274	270	264,5
Nitrometan	275	274,5	273	272	268,5
Dietilnirozamin	358	—	—	350	338
Simmtriazin	272	—	268	267	260
Etilentriiokarbonat	467	457	453	451	424

UB-spektroskopiyadan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Shulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

1. Ma'lum va noma'lum moddalarning UB-spektrini bir xil sharoitda olib, moddalarning bir xil yoki bir xil emasligini isbotlash mumkin.

2. Molekula ichida vodorod bog'lanishlar bog' yoki yo'qligini aniqlashda UB-spektrlardan foydaniladi. Agar vodorod bog'lar mavjud bo'lsa, batoxrom siljish kuzatiladi.

3. Yangi modda 200-800 mmk sohada nur yutsa (tinik, bo'lmasa), demak, u alkan alkanol alifatik amin va efirlar sinfiga mansub bo'lmaydi. U holda yangi modda boshqa sinf birikmasi bo'ladi.

4. UB-spektroskopiyadan foydalanim, dialmashingan benzol hosilalaridagi o'rribosarlarning joylanish tartibini aniqlash mumkin.

5. Sis,-trans-izomerlarni farq qilishda UB-spektrlar yordam beradi. Trans-izomer odatda sis-izomerga nisbatan nurni ko'proq, yutadi hamda yutilish chizig'i to'lqin uzunligi katta soha tomon siljigan. Shunday qilib, UB-spektroskopiya funksional guruhlarning o'zaro munosabatini, jumladan,  $-C=C-C=C \rightarrow C=C-C\equiv C \rightarrow C=C-C=O$ ,  $C = C - Ar$  va boshqa oralatma bog'lanishlarini o'rganadi.

### 3.2-§ Infraqizil (IQ)-spektroskopiya tahlil usuli

Bu usul moddalarning kimiyoviy tuzilishini va tarkibiy qismining qanday funksional guruhlardan tashkil topganligini aniqlashga yordam beradi, bu usulda tahlil uchun juda oz miqdorda modda sarflanishi va tahlilning tez bajarilishi, yaqqolligi bilan boshqa usullardan afzal turadi.

Har qanday birikmaning o'ziga xos infraqizil spektri bo'lgani uchun bu spektr shu birikmaning pasporti ham deyiladi.

Har bir molekulada atomlar o'zaro kimiyoviy bog'langan va doimiy tebranma harakatda bo'ladi. Masalan, modda  $x$  va  $u$  atomlardan tuzilgan bo'lsa, ularning tebranishi prujinasimon qisqarish yoki cho'zilish yo'nalishida bo'ladi. Bu atomlarning tebranishi matematik jihatdan Guk qonuniga asosan quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$v = \frac{1}{2\pi C} \sqrt{\frac{f}{\mu}} \quad (15)$$

$v$  – to'lqin son (ya'ni 1 sm uzunlikka to'g'ri keladigan to'lqinlar soni);

$C$  – yorug'lik tezligi;

$f$  – bog'lanishlarning konstantasi (doimiysi);

$\mu$  – keltirilgan massa.

Keltirilgan massa quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\mu = \frac{m_x \cdot m_u}{m_x + m_u} \quad (16)$$

$m_x$  va  $m_u$  –  $x$  va  $u$  atomlarning massasi.

Bunda  $f = 4\pi^2 c^2 \mu v^{-2}$ ; agar barcha konstantalarning son qiymatlarini qo'syak,  $f = 0,06 \mu v^{-2}$  tenglamaga ega bo'lamiz. Misol tariqasida  $JCl$  birikmasi uchun  $f$  ni hisoblab chiqaylik. Tekshirish ko'rsatishicha  $JCl$  uchun  $v = 318 \text{ sm}^{-1}$

$\mu$  ni  $\mu = \frac{m_x \cdot m_y}{m_x + m_y}$  asosida topamiz:

$$\mu = \frac{127 \cdot 36}{127 + 36} \cong 30 \quad (17)$$

So'ngra  $f = 0,06 \mu v^{-2}$  asosida  $f$  ni hisoblaymiz:

$$f = 0,06 \cdot 30 \cdot 384^{-2} = 2,4 \cdot 10^5 \frac{\text{din}}{\text{sm}}$$

Endi CO uchun  $f$  ni topaylik. CO uchun  $v = 2170,2 \text{ sm}^{-1}$


$$\mu = \frac{12 \cdot 16}{12 + 16} = \frac{192}{28} = 6,86 \quad (18)$$

$$f = 0,06 \cdot 6,86 \cdot 2170,2^{-2} = 61,6 \cdot 10^5 \frac{\text{din}}{\text{sm}} \quad (19)$$

Binobarin,  $JCl$  bog'lanishi CO bog'lanishiga qaraganda taximinan o'ttiz marta bo'shdil.

Moddaga elektromagnit nur ta'sir ettirilganda modda «*hayajonlangan*» holatga o'tishi ma'lum (chunki, molekulaning energiyasi ortadi) Odatda modda optik spektr sohasiga muvofiq, keladigan energiya yutsa, uning aylanma, tebranma va valent elektronlari energiyasi ortadi. Aylanma energiya molekulaning aylanma harakatidan vujudga keladi. Tebranma energiya molekuladagi atomlarining bir-biriga nishbatan tebranishidan hosil bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, molekula va undagi atomlarning aylanma-tebranma harakatlari odatdagagi sharoitda ham mavjud bo'lib, bu aylanma-tebranma harakat odatiy holatdagagi harakat, unga mos keladigan energiya normal aylanma va tebranma harakat deyiladi. Malekulaga nur energiyasi berilsa, uning aylanma va tebranma harakati ko'payadi, muvofiq ravishda energiyasi ham ortadi. Berilgan energiyaga hamda modda tabiatiga qarab aylanma va tebranma harakat kuchayish kamroq yoki ko'proq bo'lishi mumkin. Bunda molekula odatdagagi tebranma (yoki aylanma) energiyasi holatdan «*hayajonlangan*» tebranma (yoki

aylanma) energiyasi holatga (yoki pog'onaga) o'tadi. Molekulada aylanma va tebranma energiya pog'onalari bir nechta deb qaraladi. Boshqacha aytganda, nur energiyasi ta'sirida molekula o'tishi mumkin bo'lgan aylanma va tebranma holatlar anchagini (37-rasm).



*37-rasm. Molekuladagi energiyaning aylanma, tebranma va elektron pog'onalarini.*


Molekulaning aylanma energiyasini oshirish uchun ancha kichik energiya yetarli (bu rasmdan ko'rinib turibdi). Bu energiya optik spektrning uzoq infraqizil (ya'ni to'lqin uzunligi katta bo'lgan) nurlar sohasiga muvofiq keladi. Molekulaning aylanma spektrlari uncha ahamiyatli emas. Molekulaning tebranma energiyasini oshirish maqsadida (uni energiyasi ko'proq bo'lgan tebranma pog'onaga o'tkazish uchun) unga yaqin infraqizil sohada yotuvchi (ya'ni to'lqin uzunligi qisqa bo'lgan) nur tushiriladi. Shuni eslatib o'tamizki, tebranish natijasida molekulaning dipol momenti davriy o'zgarib tursagina molekula spektrning IQ-sohasida nur yutadi. Valent elektronlarini hayajonlangan, holatga o'tkazish uchun optik spektrning to'lqin uzunligi yana kam kichik bo'lgan ko'zga ko'rindigan va ultrabinafsha sohasida yotuvchi nurlardan foydalilanadi.

Molekulaning tebranishi ikkita katta guruhga ajratiladi:

1. Valent tebranishlar.

2. Deformatsion tebranishlar.

Agar molekula n-tasi atomdan tashkil topgan bo'lsa, u Zn-6 ta asosiy tebranishga ega bo'ladi. Shundan n-1 tasi valent, ya'ni bog'lar o'qlari bo'ylab (bog'lar cho'zilib va qisqarib) bo'ladi. Ba'zan obertonlar hisobiga molekula tebranishlari Zn - 6 dan ko'p ham bo'lishi mumkin.



38-rasm. Suv (a -b) va kabonat angidrid (e-g) molekulalari hamda  $\text{CH}_2$  ( $\text{K}-\text{H}$ ),  $\text{CH}_3(\text{O}-\text{C})$  asosiy tebranishlari, e-molekula dipol momenti o'zgarmasidan bo'ladi. a, m, s va e-simmetrik tebranish; b, e va n, d - antisimetrik tebranishlar; d, g, h, k - deformatsion tebranishlar.

Deformatsion tebranishlar valent burchaklar o'zgarishi bilan sodir bo'ladi. Ikki atomli molekulada faqat valent tebranishlarga mavjud bo'lishi o'zidan-o'zi tushunarli. Deformatsion tebranishlar bitta tekislikda yotmaydigan, yelpig'ichsimon, mayatniksimon, aylanma

hamda qaychisimon bo'ladi. Masalan, benzol molekulasida C-H bog'larning deformatsion tebranishlari yassi (a) va yassimas (b) bo'lishi mumkin; a da C-H bog' molekula tekisligida tebransa, b da tebranish bu tekislikka perpendikular yo'nalishda (tekislikda) sodir bo'ladi. 38-rasmda asosiy tebranishlarga misollar keltirilgan. Bundan tashqari, yana skelet va guruhlar tebranishlari ham farq qiladi. Skelet tebranishlar muayyan; organik sinf birikmaları asosidagi skeletlar tebranishlari hisoblanib, ular spektrda  $800-1500\text{cm}^{-1}$  sohada maksimumga ega. Skelet tebranishlar yaxlit molekula uchun xos.

Neft mahsulotlaridan olingen organik moddalar molekulasi spektrining bu qismi juda murakkab bo'lib, bu sohadagi yutilish (yoki yutilmagan qism) maksimumlarini u yoki bu atomlar va atom guruhlariga xos deb xulosa chiqarib bo'lmaydi. Lekin bu soha yaxlit molekulaga xos bo'lgani uchun undan foydalanib, yangi modda ilgaridan ma'lum bo'lgan biror modda bilan bir xil yoki har xilligini aniqlash mumkin. Buning uchun yangi modda va ma'lum moddaning spektrlari  $800-1500 \text{ cm}^{-1}$  sohada bir-biriga taqqoslanadi. Spektrlar aynan bir xil bo'lsa, har ikkala modda ekanligi isbotlangan bo'ladi.

Yuqoridagilarga asosan IQ-spektrdagı  $800-1500 \text{ cm}^{-1}$  oraliq, «barmoqlar izlari sohasi» yoki daktiloskocho'qqi soha deb ataladi.

Guruhlar tebranishlari IQ-spektrda  $1500 \text{ cm}^{-1}$  va undan yuqori (juda kam hollarda  $1500 \text{ cm}^{-1}$  dan kichik) sohalarda kuzatiladi. Guruhlar tebranishlari alohida guruhlar ( $\text{OH}$ ,  $\text{NH}$ ,  $\text{C-O}$ ,  $\text{S-H}$ ,  $\text{C-H}$  va hokazo) uchun xosdir. Muayyan guruh qaysi birikmada bo'lishidan qat'i nazar, (masalan,  $\text{C=O}$  guruhi aldegidlar, ketonlar, karbon kislotalarda bo'lishi mumkin) shu guruhi yutadigan nur chastotasi deyarli o'zgarmaydi. Boshqacha aytganda, turli moddalar spektrlarida ayni guruhi uchun bir xil to'lqin soni muvofiq keladi. Masalan,  $\text{C=O}$  guruhning valent tebranishlari  $-1700 \text{ cm}^{-1}$ ,  $\text{OH}$  niki  $3550-3650 \text{ cm}^{-1}$ ,  $\text{C=N}$  niki  $-2250 \text{ cm}^{-1}$  da kuzatiladi. Shunga ko'ra guruhlar tebranishlari ko'pincha tavsifiy chastotalar ham deyiladi. Tavsifiy chastotalar noma'lum modda molekulasida u yoki bu guruhlarning mavjudligini, shuningdek, noma'lum modda molekulasining tuzilishini aniqlashga imkon beradi.

Shu o'rinda oddiy C-C bog'larning tebranishlari tavsifiy emasligini, ya'ni bir molekuladan ikkinchisiga o'tganida o'zgarib turishini eslatib o'tamiz.

Qo'shbog'lar ( $C=C$ ,  $C=O$ ,  $N=O$ ) va uchbog'lar ( $C-C$ ) ning tebranishlari xarakteristik hisoblanadi va qo'shbog'dan uchbog'ga o'tilgan sari yutilish chastotalari kamayib (to'lqin uzunligi ortib) boradi.

### *Turli organik sinif birikmalarining xarakteristik chastotalari*

3-jadval

Guruh	Tebranish turi	Bog'lanish turi	$\nu_{\text{maks}}, \text{sm}^{-1}$	Sohaning jadallilikligi
$C_2H$ $-C\equiv CH$	$\begin{cases} v(CH) \\ v(C\equiv H) \\ \sigma(CH) \end{cases}$	Alkin « « Alkan	3320 2120 630 2930	Kuchli, keskin Kuchli
$>C<^H_H$	$\begin{cases} v(CH) \\ \text{antisimm.} \end{cases}$	«	2855 1465 1380	
	$v(CH)\text{simm.}$	«	968	O'zgaruvchan
$-C<^H_H_H$	$v(CH)\text{simm.}$			
$H>C=C<_H$		Alken (trans)	3620	O'zgaruvchan,
	$v(CH)$		3610	Keskin
		Spirit	1200	
		Fenol	1730	
$C_2H_2O$				
$\begin{array}{c} < \\ C-O-H \end{array}$	$v(OH)$	Efir yoki		
		Lakton		Kuchli
$-CO-O-$	$\begin{cases} v(C-O) \\ v(C=O) \end{cases}$			
$>C=O$	$v(CO)$		1700	
$COO^-$	$v(COO')$	Aldegid yoki keton	1580	
$C, H, N$				

$>N-H$	v(NH)	Dialkilamin	3430	
		Diarilamin	3450	
		Pirrol	3490	
-C≡N	v(CN)	Alkilsianid	2250	
		Arilsianid	2225	
- N=C=N-	v(NCN)	Karbodinmid	2135	
C,H,O,N				
-CO-NH-	v(CO)	Amid	1645	
	$\delta(NH)$		1560	
-N=C=O	v(NCH)		2270	
C,H,O,S				
$>S=O$	v(SO)		1065	

Tebranishlar chastotasi molekuladagi bir-biriga nisbatan tebranayotgan atomdan yoki guruhlar o'rtasidagi bog'ning mustahkamligiga, shuningdek, shu atom va guruhlarning massasiga bog'liq yengil vodorod atomi tutuvchi C-H, N-H, O-H kabi guruhlarning tebranishlariga muvofiq keladigan maksimumlar nisbatan yuqori chastotali soha ( $3600\text{-}2800 \text{ sm}^{-1}$ ) da joylashgan. Agar vodorod atomlari radikal yoki galogen bilan almashtirilsa, yutilish maksimumi qisqa chastotali (to'lqin uzunligi katta bo'lgan) soha tomon siljiydi.

Bundan tashqari, tebranishlar chastotasi juda ko'p omillarga muayyan guruh qanday atom bilan bog'langanligiga (ya'ni shu guruhnini nimalar o'rabi olganligiga), molekula ichidagi va molekulalardagi orasidagi o'zaro ta'sir kuchlariga, ayni guruh boshqa atom va guruhlar bilan vodorod bog'lanish hosil qilish-qilmasligiga bog'liq.

### 3.3-§. Infracizil spektroskopiya usulida neft va gazdan olingan organik moddalarning tuzilishini o'rganish

Infracizil spektroskopiyadan foydalanib, neft va gaz mahsulotlari tarkibidagi moddalarning tuzilishini aniqlash uchun quyidagilarni amalga oshirish mumkin.

**Birinchidan**, neftdan yoki gazdan ajratib olingan noma'lum moddaning IQ-spektrini ma'lum modda spektri bilan taqqoslab, ularning bir xilligini isbotlash, agar spektrlar bir xil bo'lmasa-yu, har ikkala moddaning ko'pgina xususiyatlari bir-biriga yaqin bo'lsa, bu yangi modda yetarli darajada tozalanmaganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, IQ-spektroskopiyaga moddalarining tozalik darajasini aniqlashga ham imkon beradi.

**Ikkinchidan**, turli tip bog'lari bo'lgan izomerlari IQ-spektroskopiyadan foydalanib osongina aniqlash mumkin, Masalan  $C_2H_6O$  formulaga ikki modda: etil spirit va dimetil efir muvofiq keladi. Etil spiritda O-H bog', dimetil-efirda esa C-O bor mavjud. Shuningdek spirit spektrida O-H, dimetil efirda esa C-O bog'ning yutilish maksimumi kuzatiladi. Izomerlarni bilib olishga doir yana bir misol keltiramiz.

Neftdan olingan aromatik moddalarни aromatik halqalardagi C-H bog'larning yassi bo'lмаган tebranishlari  $700-800\text{ sm}^{-1}$  sohada kuzatiladi. Orto-dialmashingan benzol hosilalarida esa bu soha  $735-770\text{ sm}^{-1}$ ga muvofiq keladi. Meta- va para-dialmashingan hosilalar muvofiq ravishda  $750-810\text{ sm}^{-1}$ ,  $800-860\text{ sm}^{-1}$  sohalarda maksimumlarga ega. Ko'rinish turibdiki, dialmashilgan benzol hosilasining IQ-spektrini olish bilan uning qaysi izomer ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Izomerlarning spektrini etalon namuna bilan taqqoslab ko'rib, aralashmadagi har xil izomerning nisbiy miqdorini, ham aniqlasa bo'ladi.

**Uchinchidan**, noma'lum modda molekulasida qanday guruhlar borligi yoki biror molekulada reaksiya natijasida qanday bog'lar hosil bo'lGANI (yoki yo'qolgani) IQ-spektrda shu bog'larning yutilishi maksimumini kuzatish bilan aniqlanadi. Masalan, N-H guruh metillansa yoki asetillansa reaksiya mahsuloti spektrida N-H ning yutilish maksimumi yo'qolib, o'rniga N-metil va N-asetil guruhlarining tavsifiy chastotalari paydo bo'ladi. Bundan tashqari, IQ-spektrlardan foydalanim, faqat muayyan guruh to'g'risida emas, balki uning yon guruhlari to'g'risida ham ma'lumot olish mumkin. Ayni guruhnинг maksimumi uni qanday atom va guruhlar o'rabi turganligiga qarab bir oz o'zgaradi. Masalan, to'yigan aldegid va ketonlarda karbonil guruh  $1705-1725\text{ sm}^{-1}$  da maksimumga ega bo'lsa, karbonil elektronoakseptor (F, Cl, C=N, >C=O) guruhlar bilan bevosita tutash bo'lgan hollar ( $\alpha$ -galoid yog' ketonlar hamda  $\alpha$ -dekotonlar)da yutilish

nisbatan yuqori chastotali soha (muvofig, ravishda  $1725-1745 \text{ sm}^{-1}$ ,  $1710-1730 \text{ sm}^{-1}$ ) da kuzatiladi. Aksincha, karbonil elektronodonor guruhlar (aromatik halqa yoki qo'shbog') bilan bog'langan hollarda esa, yutilish  $20-40 \text{ sm}^{-1}$  kam chastotali tomon siljiydi.



**To'rtinchidan**, qaytar organik reaksiyalarni sifat va miqdoriy jihatdan o'rganishda IQ-spektroskopiyan foydalaniladi. Buning uchun spektrdag'i yutilish jadallikligi alohida komponentlarning yutilish jadallikligi bilan taqqoslanadi.

**Beshinchidan**, IQ-spektroskopiyan foydalanib, molekulaning konfiguratsiyasi va konformatsiyasi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, tebranganda  $\text{C}=\text{C}$  bog'ning uzayishi simmetrik etilen uglevodorodlarda molekulaning dipol momentini o'zgartirmaydi. Shu tufayli trans-izomerning spekrida  $\text{C}-\text{C}$  bog'ning yutish maksimumi bo'lmaydi, sis-izomerda esa mayjud.

Siklogeksanning konformatsiyasini IQ-spektrlardan foydalanib aniqlash mumkin. Ekvatorial  $\text{C}-\text{X}$  bog' aksial bog'ga nisbatan  $10-50 \text{ sm}^{-1}$  ga katta.

**Oltinchidan**: IQ-spektroskopiya tadqiqiga yana bir misol keltiramiz. Gidroksil guruhning yutilish maksimumi  $3500-3650 \text{ sm}^{-1}$  da kuzatiladi. Gidroksil guruh vodorod bog'lanish hosil qilgan hollarda yutilish qisqa chastotali soha tomon siljiydi va yutilish maydoni kengayadi. Vodorod bog'lanishi qancha mustahkam bo'lsa, siljish shuncha kuchli bo'ladi.  $3500-3650 \text{ sm}^{-1}$  dagi ensiz yutilish maksimumi odatda bog'lanishsiz erkin gidroksil guruh uchun xosdir. Agar vodorod bog'lanish juda mustahkam bo'lsa (masalan, xelat birikmalar) siljish  $2500-3200 \text{ sm}^{-1}$  gacha bo'lishi mumkin.

**Yettinchidan**, Bir necha bosqichda boradigan kimyofig reaksiyalarning yo'nalishini IQ-spektrlari yordamida nazorat qilib turish mumkin. Buni akril kislota efirining sintezi misolida ko'rib chiqamiz. Dastlabki modda sifatida etilenxlorigidrin, ya'ni 2-xloretanol (I) olinadi. 2-xloretanolning IQ-spektrida molekulaning skelet tebranishlari (barmoqlar izlari sohasi) dan tashqari  $\text{C}-\text{H}$ , bog'langan  $\text{O}-\text{H}$  ( $3360 \text{ sm}^{-1}$ ),  $\text{C}-\text{O}$  ( $1080 \text{ sm}^{-1}$ ),  $\text{C}-\text{Cl}$  ( $663 \text{ sm}^{-1}$ ) bog'larning valent, shuningdek,  $\text{O}-\text{H}$  bog'ning deformatsion ( $1393 \text{ sm}^{-1}$ ) tebranishlari kuzatiladi (39-rasm, I) 2-xloretanolga kaliy sianid ta'sir ettiliganda  $\beta$ -oksipropionitril (II) hosil bo'ladi:



39-rasm. 2-xloretanol (1),  $\beta$ -oksipropilnitril(2), akrilonitril (3) va etilakrilat (4) ning IQ-spektrlari.

$\beta$ -oksipropionitrilning IQ-spektrida gidrosil guruhi maksimumi saqlanib qolgan holda, C=Cl bog' tebranishlariga muvofiq, keladigan maydon ( $663\text{ cm}^{-1}$ ) yo'qolib, o'rniغا  $2252\text{ cm}^{-1}$  da C=N guruhi uchun xos maksimum hosil bo'ladi (39-rasm, 2).  $\beta$ -oksipropionitril degidratlanganda hosil bo'ladigan akrilonitril (3-spektri OH guruhi maksimumining yo'qolishi va yangidan  $\text{CH}_2=\text{CH}$  ( $1620\text{ cm}^{-1}$ , C=C guruhining valent tebranishlari), S-N ( $3038$  va  $3070\text{ cm}^{-1}$  to'yinmagan birikmalardagi C-H ning valent tebranishlari), S-H ( $980$  va  $1420\text{ cm}^{-1}$  vinil guruhi yonidagi C-H ning deformatsion tebranishlarning vujudga kelishi bilan tafsiflanadi (39-rasm, 3).

$\text{C} \equiv \text{N}$  guruhning valent tebranishlari esa C=C guruhi bilan tutashgani uchun to'lqin uzunligi qisqa bo'lgan soha tomon ( $2230\text{ cm}^{-1}$ .) siljigan. Akril kislota alkogoliz qilinganda uning etil efiri (4)-hosil bo'ladi. Efirning IQ-spektrida murakkab efir guruhi ( $1735\text{ cm}^{-1}$ ) C=O ning hamda ( $1205\text{ cm}^{-1}$ ) C-O ning valent tebranishlari kuzatiladi.  $2230\text{ cm}^{-1}$  dagi maksimum ( $\text{C} \equiv \text{N}$ ); yo'qolganda vinil guruhiga mos keladigan maksimumlar saqlanib qolgan (39-rasm, 4).

Yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdiki, reaksiyaning maqsadga muvofiq yo'nalishda borayotganligini yoki yo'qligini aniqlashda IQ-spektroskopiyaning ahamiyati katta.

## IV bob. YADRO MAGNIT REZONANSI

### 4.1-§. Yadro magnit rezonansi (YaMR) usulining nazariy asoslari

Yadro magnit rezonans usulini 1946-yilda Parsell va Blox bir-biridan xabarsiz holda yaratdilar va shundan so'ng kimyo fanida qo'llana boshladi. Ma'lumki, har qaysi yadro spin kvant soni bir bilan tavsiflanadi va bu spinlar  $0,1/2,1, 3/2,2\dots\dots\dots$  qiymatga ega bo'ladi. Agar yadroda nuklonlar soni juft bo'lsa – ( $C^{12}$ ,  $O^{16}$ ) umumiyl spin kvant soni nolga teng bo'ladi. Agar ularning soni toq bo'lsa ( $F^{19}, C^{13}$ ) umumiyl spin kvant soni  $+\frac{1}{2}$  yoki  $-\frac{1}{2}$  qiymatga ega bo'ladi. Umumiyl spin kvant soni 0 nolga teng bo'lgan yadro magnit maydonida bir energetik holatda bo'ladi ( $2\cdot0+1$ ). Bunday yadrolar YaMR-spektroskopiya uchun obyekt bo'la olmaydi. Yadroning spin  $\frac{1}{2}$  ( $H^1, C^{13}, F^{19}, P^{11}$ ) bo'lsa, yadro tashqi magnit maydonida 2 ta energetik holatda turadi.

Shunga qarab yadroda musbat zaryad ham turlicha taqsimlanadi. Zaryadli yadro o'z o'qida aylanganda magnit momentiga ega bo'ladi. Bunday yadrolarning xossalalarini YaMR usulida tekshirish mumkin. Yadroga radio nurlanish berilganda energiya yutilib, bir magnit-energiya darajadan ikkinchi magnit-energiya darajaga o'tadi. Bor qoidasiga asosan birinchi holatdan ikkinchi holatga o'tish uchun:

$$\Delta E = h\nu = M \cdot g \cdot H \quad (20)$$

energiya talab qilinadi. Bu yerda  $H$  – maydon kuchlanishi.  $M$  – Bor magnetonij,  $g$  – ajralishning spektroskopik omili.

Shunday qilib, moddalarni yadromagnit rezonans usulida tekshirishda tekshiralayotgan moddaga kuchli magnit maydoniga tik ravishda klistron (generator) yordamida ma'lum takrorlikda radio to'lqin beriladi. Yuqoridagi tenglamaga muvofiq,

$$v = \frac{M \cdot gH}{h} \quad (21)$$

H ning ma'lum qiymatida tenglamaning o'ng tamoni v ga teng bo'ladi, ya'ni tenglama sharti bajariladi. Bunda magnitlangan modda tomonidan radioto'lqin (energiya) yutiladi. Bu hol shkalada maksimumlar shaklida namoyon bo'ladi. Shkala  $\tau$  birligida belgilanib, 1 dan to 10 gacha bo'lingan bo'ladi. Shkalaning uzunligi maydon deb hisoblansa, 1 dan to 5 gacha bo'lgan masofa kuchsiz va 5 dan 10 gacha bo'lgan masofa kuchli maydon deb yuritiladi. Kuchsiz maydonda gidroksil - OH, karboksil - COOH, aldegid R-COOH, benzol  $C_6H_6$ , suv  $H_2O$  dagi protonlar aks etadi. Kuchli maydonda esa metin -  $CH$ , metilen -  $CH_2$  va metil  $CH_3$  protonlari aks etadi. Shu bilan birga protonlarga molekuladagi qo'shni protonlar va boshqa funksional guruhlar ta'sir etadi, natijada shkalada protonlarning ko'rinishi har xil bo'ladi. Masalan, ajratilgan metil guruh bo'lsa, uning uchta protoni shkalada bitta cho'qqili uch protonga teng bo'lgan singletga ega bo'ladi. Agar metil guruhning yonidagi uglerodda bitta proton bo'lsa, uning ta'sirida ikkita cho'qqili uch protonga teng bo'lgan dublet hosil bo'ladi. Shunday qilib, YaMR usuli molekuladagi vodorod atomlarining sonini va qanday holatda joylashganligini yaqqol ko'rsatib, birikmaning tuzilishini aniqlashda katta yordam beradi.


Har qanday mikrozarracha (elektron, proton, neytron va hokazo) spinga ega. Spinni zarrachaning o'z o'qi atrofida harakat qilishi deb qarash mumkin. Juft sonli massa va zaryadga ega yadrolar  $^{12}_6C$ ,  $^{16}_8C$  uchun spin kvant soni ( $J$ ) nolga teng. Juft sondagi massaga va toq sondagi zaryadga ega bo'lgan yadro ( $^{14}_7N$ ),  $^{2}_1H$ (deyteriy) lar soniga ega bo'lib  $J = 1$  dir. Toq massa va toq zaryadi yadrolarning spin kasr sonlarga muvofiq keladi. Masalan,

$$J = \frac{1}{2} ({}^1H, {}^{19}F, {}^{13}C, {}^{31}P); \quad J = \frac{3}{2} ({}^{11}B, {}^{35}Cl, {}^{79}Br, {}^{81}Br); \\ J = \frac{5}{2} ({}^{17}O, {}^{127}I)$$

Bulardan yadro magnit rezonansi (YaMR)-spektroskopiya uchun eng ahamiyatlisi  ${}^1H$  (proton)dir, chunki barcha neft va gazdan olingan


organik moddalar o‘z tarkibida vodorod tutadi. Vodorod atomi yadrosi (proton) zaryadi bo‘lgani uchun o‘z o‘qi atrofida harakat qilganda magnit maydoni hosil bo‘ladi. Ma’lumki, bu harakatlanayotgan har qanday zaryadli zarracha uchun xosdir. Masalan, o’tkazgich bo‘ylab elektr toki (ionlar va elektronlar) o‘tganda uning atrofida magnit maydoni (solenoid) hosil bo‘ladi. Shunday ekan, protonni o‘z maydoniga ega bo‘lgan «mitti» magnit deyish mumkin. Spinga ega bo‘lgan biror zarracha kuchlanganligi  $H_0$  bo‘lgan magnit maydoniga kiritilsa, o‘zaro ta’sirlashish natijasida zarracha muayyan holatlarni oladi. Bu holatlar spin kvant soni  $J$  bilan bog‘lanishda bo‘ladi. Masalan,

$J = \frac{1}{2}$  bo‘lgan proton uchun  $2 \cdot \frac{1}{2}$  bo‘ladi, proton magnit maydonida ikki holatda bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, proton hosil qiladigan magnit maydonining kuch chiziqlari tashqi maydon ( $H_0$ ) kuch chiziqlari bilan bir tomoniga qarab yo‘unga qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘lishi mumkin (40-rasm).



*40-rasm. Yadro spinining magnit maydonida joylashuvi.*

Bitta proton qanday qilib ikki xil yo‘nalishga ega maydon hosil qilishini quyidagicha tushuntirish mumkin. Agar 1 g miqdorida vodorod ioni olinsa, unda  $6,3 \cdot 10^{23}$  dona proton bo‘ladi. Magnit maydonida ana shu miqdor protonning bir qismi hosil bo‘lgan maydon ( $H_0$ ) bilan bir xil bo‘lib uni kuchaytiradi, qolgan qisminiki esa tashqi maydonga qarama-qarshi bo‘ladi, ya’ni tashqi maydonini susaytiradi. Boshqacha aytganda, spinlar maydon bo‘ylab va teskari yo‘nalishda joylashadi. Asosiy maydon ( $H_0$ ) ni kuchaytiradigan yadrolar energiyasi uni susaytiradigan yadrolar energiyasidan kichik bo‘ladi (41-rasm). Odatda, bu hol yadrolarning energetik pog‘onalari magnit maydoniga ikkiga ajralishi deyiladi.



**41-rasm. Magnit maydonida yadrolar energetik pag'onalarining ajralishi.**

$$\left( \frac{1000000 \cdot 0,0001}{10} = 10 \right)$$


Shunday qilib, yadrolarning bir qismi pastki pog'onada, qolgan qismi esa energiyasi ko'proq bo'lgan yuqori pog'anada joylanadi. Pog'onalar energiyalarining farqi  $\Delta E$  ga teng. Tabiiyki, pastki pog'ona energiyasi kichik bo'lgani uchun unda yuqori pog'onaga nisbatan ko'proq yadrolar joylashadi. Boshqacha aytganda, hosil bo'lgan maydonlari yo'nalishi tashqi maydon ( $H_0$ ) yo'nalishi bilan bir xil bo'ladiqan yadrolar nisbatan ko'proq bo'ladi. Lekin bu farq uncha katta emas. Odatdagi haroratlarda yuqori va quyi pog'onalar zichligidagi farq umumiy yadrolarning 0,00001 qismidan oshmaydi. Masalan, yuqori pog'onada 1000000 yadro bo'lib, quyi pog'onada

$$\left( \frac{1000000 \cdot 0,00001}{1} = 10 \right) \cdot 1000010$$

ta yadro, ya'ni o'ntagina atom yadro ortiq bo'ladi, xolos.

Pog'onalardagi yadrolar zichligidagi bu farqning kam bo'lishiga sabab, yuqori va quyi pog'onalar energiyalaridagi farq ( $\Delta E$ ) ning kichikligidir. Yadro magnit rezonansi usulining mohiyatini mana bunday ifodalash mumkin: Har ikkala pog'onadagi yadrolarni tenglashtirish uchun tashqaridan energiya beriladi. Bunda pastki pog'onadagi yadrolar yuqori pog'onaga ko'chib o'tadi. Boshqacha aytganda, yadrolar spini teskarisiga o'zgaradi. Endi asosiy maydon ( $H_0$ ) yo'nalishiga qarama-qarshi maydon hosil qiluvchi yadrolar soni

ortadi. O'tadigan yadrolar soni kam bo'lgani, pog'onalar energiyalari o'rtasidagi farq ( $\Delta E$ ) kichik bo'lgani uchun bu o'tishni energiyasi kam bo'lgan (to'lqin uzunligi katta, chastotasi kichik) radio to'lqinlar yordamida amalga oshirish mumkin.



*42-rasm. YaMR spektometrining umumiy sxemasi.*

Lekin ana shu kichik miqdor energiya ( $\Delta E$ ) moddaning radio chastotali to'lqin yutishi va uni kuzatish uchun kifoya. Pog'onalar energiyalarining farqi tashqi maydonning kuchlanganligiga to'g'ri proporsionaldir.


$$\Delta E = \frac{h \cdot J \cdot H_0}{2 \cdot \pi} \quad (22)$$

Bunda,  $h$  – Plank doimiysi,  $J$  – proporsionallik koeffitsiyenti,  $H_0$  – tashqi maydon kuchlanganligi,

$$E = h\nu \text{ bo'lgani uchun } h\nu = \frac{h \cdot J \cdot H_0}{2 \cdot \pi} \quad \text{yoki} \quad \nu = \frac{J \cdot H_0}{2 \cdot h} \quad (23)$$

(20) tenglama yadro magnit rezonansi (YaMR) ning asosiy tenglamasidir. Yadro magnit rezonansini kuzatish uchun modda ampulaga solinib, yuqori kuchlanishli doimiy magnit maydoniga kiritiladi (42-rasm). Ampulaga g'altak o'ralsan bo'lib, undan radio

chastotali o'zgaruvchan tok o'tkaziladi. Tokning chastotasini generatordan o'zgartirib turish mumkin. Ampulaga o'ralgan g'altakdan o'tgan tok o'zgaruvchan magnit maydoni hosil qiladi, Energiya modda tomonidan ana shu maydon ko'rinishida yutiladi. Generatorordan berilayotgan chastota ( $\nu$ ) ni oshira borib uni shunday qiymatga yetkazish mumkinki, bu qiymat (20) tenglamani qanoatlantiradi. Ana shu paytda



**43-rasm. Yadro magnit rezonansi (YaMR) spektr.**

modda energiya yutadi. Odatda, bunda rezonans vujudga keldi deyiladi. Modda energiya yutganda zanjirdagi tok kamayib ketadi. Energiya yutilishi tugagandan keyin, zanjirdagi tok asli holiga qaytadi. Endi chastotaning har qanday o'zgartirilish moddaga ta'sir qilmaydi. Ana shunday hosil qilingan yadro magnit rezonansi (YaMR) spektr 43-rasmida ko'rsatilgan. Spektdagi cho'qqi (cho'qqi) signal deyiladi. Chastota ( $\nu$ ) doimiy qoldirilib, magnit maydoni kuchlanganligi ( $H_0$ ) o'zgartiriladi. ( $H_0$ ) qiymati (20) tenglamani qanoatlantirganda rezonans kuzatiladi. Hozir 40,60,100 Mgs (megagers  $10^6$  gers) chastotada ishlaydigan spektrometrlar mavjud.

Yadro magnit rezonansi (YaMR) spektrlar odatda eritmalar (modda suyuq bo'lsa, shu holicha) olinadi. Eritmaning konsentratsiyasi 5-20 % atrofida bo'ladi. Spektr olish uchun zarur bo'lgan modda miqdori 25-30 mg. Erituvchi sifatida YaMR spektr bermaydigan ( $CCl_4CSi$ ) yoki boshqa organik birikmalar (rezonans bermaydigan sohada energiya yutuvchi moddalar ( $CDCl_3$ -deyterokloroform)


ishlatiladi. Yadro magnit rezonansi (YaMR) spektr to'rtta kattalik bilan tavsiflanadi:

1. Signallar (cho'qqi) cho'qqilarning o'rni.
2. Signallar soni.
3. Signallar jadalligi.
4. Signallarning ajralib ketishi.

#### **4.2-§. Yadro magnitrezonansi spektroskopiyasida signallarning o'rni va kimyoiy siljishi**

Yadro magnit rezonansi (YaMR) asosiy tenglamasi (20) dan ko'rindan, proton doim bir xil signal (bitta chastotada cho'qqi) berishi zarur. Chunki hamma protonlar tabiatini jihatidan bir-biridan farq qiladi. Tenglamadagi J. rezonans paytida esa v va  $H_0$  lar ham barcha protonlar uchun doimiydir. Amalda turli molekuladagi, hatto bitta molekuladagi proton (vodorod atomlar) rezonanslari chastotasi (ya'ni ion yutadigan energiyalari miqdori) bir-biridan farq qiladi. Chastotalardagi bu farq protonlar tufayli emas, chunki yuqorida ko'rib o'tganimizdek, barcha protonlar uchun (20) bir xil. Rezonans sodir bo'ladijan chastotalarning har xilligiga sabab shundaki, turli protonlarni turlicha qo'shni atomlar o'rabi turadi. Protonlar atrofidagi elektron bulutlar zichligi ham har xil. Masalan, ba'zi protonlarni qo'shbog', ikkinchi xillarini oddiy yoki uchbog' elektron buluti o'rabi olgan va hokazo. Ana shu qo'shni yadrolar va elektron bulutlar tashqi maydon ( $H_0$ ) bilan ta'sirlashadi. Tabiiyki, molekuladagi protonlar turlicha o'rabi olingan bo'lgani uchun protonlar magnit maydonida o'zini har xil tutadi, ya'ni ular yutadigan energiyalarining chastotalari bir-biridan oz bo'lsada, farq qiladi. Boshqa so'z bilan aytganda, proton atrofidagi qo'shni elektronlar zaryadli va harakatda bo'lgani uchun magnit maydoni hosil qiladi. U **lokal maydon** deyiladi\*.

Lokal magnit maydoni tashqi maydon ( $H_0$ ) yo'nalishi bilan parallel bo'lishi, ya'ni uni kuchaytirishi yo susaytirishi mumkin. Shuning uchun tashqaridan qo'yilgan maydon ( $H_0$ ) molekuladagi barcha protonlar uchun bir xil bo'lsa ham, protonlarni o'rabi olgan elektronlar magnit maydoni har xil bo'lgani uchun tashqi maydon protonlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi.



**44-rasm. Tashqi maydon ( $H_0$ ) ta'sirida elektr maydonning hosil bo'lishi.**

Masalan, agar lokal maydon tashqi maydonga parallel bo'lsa, (uni kuchaytirsa) signal kuchsiz maydonda kuzatiladi, ya'ni rezonansni vujudga keltirish uchun tashqaridan beriladigan maydon ( $H_0$ ) energiyasi kamroq bo'lsa ham kifoya (dezekranlashish). Aksincha, lokal maydon qarama-qarshi yo'nalgan bo'lsa (tashqi maydonni susaytirsa), signal tashqi maydonning kattaroq chastotasi (ko'proq energiya kuchli maydon)da kuzatiladi (ekranlashish). Lokal maydon  $H_0$  ni susaytiruvchi hollar ko'proq uchraydi. Bularning 44-rasmdan ko'rish mumkin. Shunday qilib, lokal maydon  $H_0$  ni biror miqdor ( $\sigma$ -sigma) ga kamaytiradi

$$H = H_0 - \sigma \cdot H_0 = (1 - \sigma)H_0 \quad (24)$$

$H$ -effektiv maydon,  $\sigma$ -ekranlashish konstantasi deyiladi. A-elektron tashqaridan quylgan maydon kuch chiziqlarini aylanib harakat qilishga intiladi, uning hosil qilgan maydoni yo'nalishi esa tashqi maydonga antiparallel bo'ladi (Lens qonuni). Demak, rezonans  $H_0$  da emas, balki undan kuchsizroq,  $H$  da kuzatiladi, ya'ni:

$$\nu = \frac{J}{2 \cdot \pi} \cdot H \quad yoki \quad \nu = \frac{J}{2 \cdot \pi} \cdot H_0 \quad (25)$$

Ekranlanish qancha kam bo'lsa, ( $\sigma$ -kichik) rezonansni vujudga keltirish uchun tashqaridan beriladigan maydon kuchlanishi va yetiladigan chastota (energiya) shuncha kichik bo'lishi ko'rini turibdi. Aksincha  $\sigma$  ning katta bo'lishi  $H_{eff}$  ni oshiradi  $H_{eff} H_0$  ga yaqinlashib qoladi. Signal esa kuchli maydon (ko'p energiya) da kuzatiladi. Turlicha qurshalgan protonlar uchun  $\sigma$ -ning har xil bo'lishi tushunarli. Proton bilan qo'shni atom va guruhlarining elektron-akseptor xossasi qancha katta bo'lsa, proton shuncha kam ekranlashadi. Chunki bu guruhlar proton atrofidagi elektronlarni o'ziga tomon tortib, natijada proton atrofida elektronlar hosil qilgan, yo'nalishi  $H_0$  ning antiparallel lokal maydon kichik bo'ladi, rezonans  $H_0$  ning kichikroq qiymati (kuchsiz maydon) da yuzaga keladi. Elektron donor atom va guruhlar aksincha ta'sir ko'rsatadi. Elektronakseptor atom va guruhlarga F, C, NO<sub>2</sub>, CN, OR, COOR elektron donorlarga radikkalar (CH<sub>3</sub>, C<sub>2</sub>H<sub>5</sub> va h.k.) ni misol keltirish mumkin.

Molekulada turli holatda protonlarning turli chastotalarda beradigan signallari **kimyoviy siljish** deyiladi. Ko'pincha kimyoviy siljish deb spektrdagি turli signallar o'rtasidagi masofaga aytildi.



$$\frac{102Gs}{60 \cdot 10^6} \cdot 10^6 = 1,7 \quad \text{va} \quad \frac{170Gs}{100 \cdot 10^6} \cdot 10^6 = 1,7 \quad (26)$$

Bu ikkala tushuncha aslida bitta narsadir. Turli laboratoriylar har xil spektrometrarga ega. Ular ishchi chastotalari (40,60 yoki 100) Mgs bilan bir-biridan farq qiladi, (7,58) dan ma'lumki, rezonans signal chastota (v) ga to'g'ri proporsionaldir. Shunday ekan turli chastotalarda aniqrog'i har xil spektrometrda olingan bitta moddaning signali har xil bo'lishi zarur. Chunonchi (60 mgs li asbobda biror proton 102 gersda rezonans bersa, 100 mgs. lida bu qiymat 170 gs. ga teng bo'ladi. Turli chastotalarda olingan signallarni taqqoslash uchun gerslarda ifodalangan signal chastotasi ishchi chastotaga bo'linadi. Qulaylik uchun bu nisbat 10 ga ko'paytiriladi. Hosil qilingan birlik ishchi chastotaga nisbatan olingan million hissalarini deyiladi. Masalan, yuqorida misol uchun har ikkala holda ham million hissa (m. h) ga ega bo'lamiz.

Protonlarning tajribada topiladigan kimyoviy yoki rezonans siljishlari o'zgarmasi yoki biror narsaga nisbatan olinadimi, degan

savol o'rinnlidir. Alovida olingan, ya'ni hech qanday qo'shnilar va elektroni bo'limgan protonning kimyoviy siljishini o'lchab, uni nol deb qabul qilib, boshqa «o'rab olingan» protonlar rezonans signalarini shunga nisbatan aniqlash mumkin, lekin protonning absolyut rezonans signalini aniqlash qiyin. Shuning uchun etalon moddadan foydalilaniladi. Etalon imkoniyati boricha bittagina signal berishi, u ham ko'pchilik protonlar beradigan signaldan chetda joylashishi zarur. Bu talablarga tetrametilsilan  $[(CH_3)_4Si]$  javob beradi. Xalqaro etalon sifatida qabul qilingan tetrametilsilan (TMS) birmuncha afzalliklarga ega. Birinchidan, undagi ikkita proton ham bir xil qurshab olingan. Shuning uchun ular hammasi bitta chastotada energiya yutadi, ya'ni spektrda yagona cho'qqi kuzatiladi. Bu signal ham kuchli maydonda yotadi. Neft hamda gazlardan ajratib olingan organik birikmalardagi barcha protonlari nisbatan kuchsiz maydonda rezonansiga uchraydi. Ikkinchidan TMS boshqa organik moddalar bilan deyarli kimyoviy ta'sirlashmaydi. Nihoyatda, u uchuvezhandir. Spektr olib bo'lingandan keyin, moddani yana osongina ajratib olish mumkin. TMS ning kamchiligi shundan iboratki, hamma organik birikmalar u bilan aralashmaydi. (Chunki spektrni olish oldidan moddaga TMS aralashtiriladi, shunda signallarni TMS ga nisbatan belgilab olish osonlashadi.) Bunday paytda ko'pincha TMS o'rniga benzol, uchlamlchi butil spirt, hech bo'lmasa suv ishlatalidi (suv moddaga aralatirilmaydi, u tashqi standart vazifasini bajaradi). Odatda TMS ning signali 0 deb qabul qilinadi.

Signallarning son qiymati kuchsiz maydon tomon oshib boradi, bu shkalani  $\delta$  (delta) shka-la deyiladi. Ko'pincha TMS signalini 10 ga teng deb ham aytildi. U holda rezonans signalning qiymati kuchsiz maydonga o'tganda kamayib boradi. Bu  $\tau$  (tau) shkaladir. Demak, kuchsiz maydonda rezonans beruvchi protonning kimyoviy siljishiga  $\delta$  shkalada katta,  $\tau$  shkalada esa kichik qiymat muvofiq keladi. Har ikkala shkala o'rtasida oddiygina bog'lanish bor (45-rasm)  $\tau=10-\delta$  rasmdan ko'rinish turibdiki (45-rasm, A), ekranlashishi kam bo'lgan uchun gidroksil guruhning protoni kuchsiz maydonda rezonansga uchraydi. Ekranlashishi kam bo'lganda proton signali kuchsiz maydonda kuzatiladi.



**45-rasm.** A-diaseton spirtining (60 Mgs da olingan) 1 gersda,  
2 gersda, 2- $\sigma$  shkalada, 3- $\sigma$  shkalada olingan; B-turli etalon  
moddalarining YaMR-spektrlari.

Shunday qilib, turlicha o'rab olingan protonlar turlicha kimyoviy siljiydi. Tuzilishi aniq juda ko'p birikmalardagi protonlarning kimyoviy siljishi topilib, keyin ulardan noma'lum moddada qanday protonlar borligini aniqlashda foydalaniladi. Kimyoviy siljish qiymati protonning qo'shnilariga bog'liq bo'lgani uchun birdaniga muayyan protonning atrofini o'rab turgan atom va guruhlar to'g'risida ham ma'lumotlar olingan. Quyidagi jadvalda turli protonlarning kimyoviy siljislari keltirilgan.

## Turli protonlarning kimyoviy siljishi

4-jadval

Protonlar turi	Kimyoviy siljish, milion hissada (m.h)	
	$\tau$	$\sigma$
Siklopropan	9,8	0,2
Birlamchi $RCH_3$	9,1	0,9
Ikkilamchi $R_2CH_2$	8,7	1,3
Uchlamechi $R_3CH$	8,5	1,5
Vinil $C=C - H$	4,1 – 5,4	4,6 – 4,9
Asetil $C\equiv C - H$	7 – 8	2 – 3
Aromatik $Ar - H$	1,5 – 4	6 – 8,5
Benzil $Ar - C - H$	7 – 7,8	2,2 – 3
Allil $C=C - CH_3$	8,3	1,7
Ftoridlar $HC - F$	5,5 – 6	4 – 4,5
Xloridlar $HC - Cl$	6 – 7	3 – 4
Bromidlar $HC - Br$	6 – 7,5	2,5 – 4
Yodidlar $HC - I$	6 – 8	2 – 4
Spirtlar $HC - OH$	6 – 6,6	3,4 – 4
Oddiy efirlar $HC - OR$	6 – 6,7	3,3 – 4
Murakkab efirlar $RCOO - CH$	5,9 – 6,3	3,7 – 4,1
Murakkab efirlar $HC - COOR$	7,8 – 8	2 – 2,2
Kislotalar $HC - COOH$	7,4 – 8	2 – 2,6
Karbonil bog'lanish $HC - C=O$	7,3 – 8	2 – 2,7
Aldegidlar $RCHO$	0 – 1	9 – 10
Gidroksil $ROH$	4,5 – 9	1 – 1,5
Fenol $ArOH$	2 – 6	4 – 12
Enol $C=C - OH$	7 « 5 «	15 – 17
Karboksil $RCOOH$	2 « 0,5 «	10,5 – 12
Amin $RNH_2$	5 – 9	1 – 5

Kimyoviy siljish ko'pincha formulalar bilan ifodalanadi.

$$\text{Kimyoviy siljish} = \frac{\nu_{\text{namuna}} - \nu_{\text{etalon}}}{\nu_0} \cdot 10^6 \quad (27)$$

$$\text{yoki kimyoviy siljish} = \frac{H_{\text{namuna}} - H_{\text{etalon}}}{H_0} \cdot 10^6$$


(24) dan foydalanimiz gersda berilgan signalni ε shkalaga aylantirish mumkin:

$$\varepsilon = \frac{\nu_{\text{namuna}} - \nu_{\text{TMN}}}{\nu_0} \quad (28)$$

bunda,  $\nu_{\text{TMN}} = 0$ ;  $\nu = 60 \text{ Gs}$  bo'lgani uchun

$$\varepsilon = \frac{78 - 0}{60 \cdot 10^6} \cdot 10^6 = 1,3 \text{ m.x.}$$

Kimyoviy siljishni ko'rib chiqishdan oldin, unga ekranlashish ta'sirini ko'rsatuvchi misol keltiramiz (46-rasm. A, B, D)




**46-rasm.** (1) Asetilin (1). benzol va karbonil (2) guruhdagi ekranlashishi.

Asetilen vodorodlari kuchli maydonda, aromatik halqa va aldegid guruh protonlari kuchsiz maydonda rezonans uchrashi ko'rinishib turibdi. Niroyat proton signali uning muayyan funksional guruhlarga nisbatan fazoda joylashishiga ham bog'liq. Fenil guruhi tekisligida yotgan

proton signali chapga (I), tekislikning tagi va yuqorisidagi (2) protonlar signali o'ngga (ko'chish maydon tomon), karbonil va qo'shbog' tekisligida (4,5), shuningdek, C—C C—O oddiy bog'lar chizig'i bo'ylab yotgan (6,7) protonlar chapga, chiziqlar tagi yuqorisidagi (8,9) protonlar signali esa o'ngga C-C bog' chizig'ida yotuvchi protonlar o'ngga (10), chiziq tagi va yuqorisidagi (11) protonlar signali chapga (kuchsiz maydon tomon) siljydi. Qo'shbog' va >C=O guruh tekisligining tagi hamda yuqorisidagi (12, 13) protonlar signali esa kuchli maydonda kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinaradiki, protonga qo'shni bo'lган atom guruqlar hosil qiladigan lokal maydon kuch chiziqlari protonning yonida o'tsagina ekranlashish yoki dezekranlashish kuzatiladi. Proton yonidan o'tadigan lokal maydon kuch chiziqlari yo'nalishi tashqi maydon ( $\text{H}_\alpha$ ) bilan bir xil bo'lib qolgan sohalarda yotuvchi protonlar dezekranlashishga, tashqi maydonga antiparallel bo'lган sohalarda yotuvchi protonlar esa ekranlashishga uchraydi.

Asetilendagi uglerod sp gibrildanish holatida. Benzol uglerodlari esa  $\text{sp}^2$  gibrildanishga uchragan. Asetilendagi uglerod nisbatan elektrono-akseptor bo'lGANI uchun asetilen vodorodlari benzolnikiga nisbatan kuchsiz maydonda rezonans uzatishi kerak edi. Amalda esa buning aksi kuzatilishi ko'riniB turibdi.






**47-rasm. Kimyoviy siljishning protonning fazoviy joylashishi bilan bog'liqligi.**

Proton bilan bog'langan atom yoki guruhlar hosil qiluvchi lokal maydon yo'naliishi tashqi maydon yo'naliishiga nisbatan maqsadga muvofiq (ya'ni parallel yoki antiparallel) joylashsa, bu guruhlar magnit anizotrop guruhlar deyiladi. Tashqi maydonga nisbatan boshqa yo'naliishlarda lokal maydon hosil qiluvchi atom va guruhlar izotrop-larga kiradi. 47-rasmda ko'rsatilganlar magnit anizotrop guruhlardir.


#### 4.3-8. Yadro magnit rezonansi spektroskopiyasida (YaMR) signallar soni

Yadro magnit rezonansi spektrlardagi signal (cho'qqi) cho'qqilar soni turlicha bo'ladi. Spektrdagи cho'qqilar sonini turlicha o'rab olingen protonlar belgilaydi. Boshqacha aytganda, bir xil tipdagи protonlar bitta cho'qqi beradi. Masalan, spektrda beshta bo'lsa, shu modda molekulasiagi vodorod atomlari besh xil deymiz. Bir xil o'rab olingen protonlar (ya'ni beshta chastotada rezonans beruvchi) ekvivalent protonlar deyiladi. Har xil o'rab olingenlari esa (turli chastotali energiyalar yutuvchi) noekvivalent protonlardir:




(1) da metil guruhidagi uchta proton (a), metilen guruhidagi ikkita proton (b) ekvivalentdir. Shuningdek, (2) da oltita proton (a, a) o'zaro ekvivalent va hokazo.


Protonlar kimyoviy magnit va stereekimyoviy ekvivalent bo'ladi. Kimyoviy ekvivalentlik o'z-o'zidan tushunarli. Kimyoviy ekvivalent protonlar magnit ekvivalent ham bo'ladi. Masalan, a protonlar magnit ekvivalentdir. Protonlar stereekimyoviy ekvivalent bo'lishi ular fazoda qo'shbog' yoki asimetrik uglerod atomiga nisbatan aynan bir xil joylashishi zarur.




(4)



(5)




(6)



(7)

Ko'rinib turibdiki, stereokimyoviy ekvivalent protonlar ham kimyoviy ekvivalentdir.

Etil xloridiga (1) metil guruhining uchta protoni kimyoviy va magnit ekvivalent ekanini aytib o'tdik. Agar (2) ning konformatsiyalari ko'rib chiqilsa, bu fikrga shubha tug'iladi. Haqiqatan ham etil xloridning biz kuzatgan bir lahzadagi konformatsiyasi (8) kabi bo'lsin. Metil guruhining bitta protoni xlorga nisbatan antiholatda, qolgan ikkitasi esa tutash holatdadir.



Metil guruhi bitta protonning o'rabi olinishi qolgan ikkitasidan farq qilishini sezish qiyin emas, ya'ni bu uchta proton magnit ekvivalent emas. Unday bo'lsa, nima uchun spektrda metil radikal protonlarining ekvivalentligi kuzatiladi, ya'ni ular bitta signal beradi. chunki etil xloridda C=C bog' atrofida aylanish vaqt rezonans bo'ladigan vaqtga nisbatan kichik. Boshqacha aytganda, modda spektri olinguncha (rezonans hosil qilinib, uni qayd qilingunga) qadar molekula C=C bog' atrofida bir marta (balki undan ham ko'proq) aylanib chiqadi. Demak, YaMR-spektrometr haqiqiy tutash holatdagi protonlar signallarini emas, balki shu holatlarning o'rtachasiga muvofiq keladigan signallarni qayd etiladi. Agar (7-9) konformatsiyalar bir-biriga o'tish (C=C bog' atrofida aylanishi) tezligi kichik bo'lsa, YaMR-spektrometrda har qaysi konformatsiyani alohida rasmga olish va demak, spektrda metil guruh protonlarining magnit noekvivalentligini kuzatshi mumkin bo'lar edi.

Konformatsiyalarning yoki konfiguratsiyalarning bir-biriga sekin o'tishi va uni YaMRda qayd qilinishi mumkin bo'lgan, hollar neft va gazlardan olingan organik birikmalarda juda ko'p uchraydi. Bu esa yadro magnit rezonansi (YaMR) spektroskopiyasining imkoniyatlarini juda kengaytiradi, chunki boshqa birorta spektrometr bilan yuqoridagi o'zgarishlarni kuzatib bo'lmaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, etil xloriddagi metil protonlari anti va tutash konformatsiyalar o'rtasidagi turuvchi signallardir. Haqiqatan ham, spektrdagi metil protonlari signali xira bo'ladi.

#### 4.4-§ **Yadro magnit rezonansi spektroskopiyasida (YaMR) signallar jadalligi**

Magnit ekvivalent protonlar bitta cho'qqi berishini ko'rib o'tdik. Xo'sh, unda ekvivalent protonlar sonini nima belgilaydi? Har qaysi signal jadallikligi cho'qqining soniga proporsionaldir. Lekin cho'qqilar balandligini o'chash ishonchli emas, chunki bu jadallik boshqa omillarga ham bog'liq. bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham odatda cho'qqi balandligini uning kengligiga ko'paytmasidan, ya'ni cho'qqi maydonini o'chash usulida foydala iladi. Bu usul protonlar sonini aniq topishga imkon beradi, YaMR spektrometrlarga maxsus elektron qurilmalar o'rnatilgan bo'ladi. Uni **integrator** deyiladi. Bu usulda topilgan protonlar jadalligiga integral jadallilik deyiladi. Integrator xuddi zinapoyaga o'xshash egri chiziq chizadi. Sodda qilib bu «zina» balandligi cho'qqining kengligi bilan balandligi hisobga olingan holdagi balandligidir. Zinalarning balandligi protonlar soniga proporsional (48-rasm). Integrator pog'onalarini signallarining ustida chizadi. «Zina» larning balandligini istalgan birliklar (sm.mmm) da o'chash mumkin. Ko'pincha spektr olinadigan qog'oz juda kichik katakchalarga bo'lingan bo'ladi:

Rasmida o'chov birligi sifatida ana shu katakchalar (ular rasmida ko'rsatilmagan) dan foydalanilgan. «Zina»larning balandliklari o'chab olingandan keyingi bajariladigan ish xuddi moddaning foiz tarkibini hisoblash asosida uning formulasini chiqarishga o'xshash.


8,8:2,9:3,8 =3,0:10:1,3 yaxlitlash uchun Z ga ko'paytirilsa, 9,0:3,0:3,9 yoki 9,0: 3,0: 4. Shunday qilib, balandligi 8,8 katak bo'lgan cho'qqiga 9 ta, 2,9 ga 3 ta, 3,8 ga esa 4 ta proton to'g'ri keladi. Moddaning formulasini ma'lum bo'lgani uchun natijalarni tekshirib ko'rish mumkin.

Molekuladagi jami (16 ta) proton  $8,8+2,9+3,8=15,5$  katakka teng

$$\frac{16}{15,5} = 1,03$$

jadallikka ega. U holda bitta protonga birlik muvofiq keladi. Demak,  $8,8 \cdot 1,03 = 9,06$ ;  $2,9 \cdot 1,03 = 2,98$  yoki  $\sim 3$ ;  $3,8 \cdot 1,03 = 3,9$  avval natijaga ega

bo‘lamiz. To‘rtta proton aromatik halqaga (signal kuchsiz maydonda), 9 ta proton metil radikallariga (signal kuchli maydonda) va uchta proton bitta metil radikaliga (signal kuchli maydonda) tegishli ekanligini sezish ham qiyin emas. Agar moddaning formulasi



*Maydonning kuchayishi*


#### **48-rasm. Uchlamchi para-butyltoluolning integral jadalliklari ko‘rsatilgan YaMR spektri.**

bo‘lmasa, integral jadalliklilaridan foydalanib protonlar soni quyida gicha topiladi. Noma’lum modda spektri integrator yordamida olinadi, ya’ni unda cho‘qqilarning integral jadalliklari keltirilgan bo‘lsin. Aytaylik, modda molekulasi o‘ziga xos signallar beruvchi funksional guruh ( $-C=O-H$ ,  $-COOH$ ,  $CH_3-CO-$ ) ga ega. Odatda, guruhlar kuchsiz maydonda signal beradi. Masalan, molekulada metoksi guruh bo‘lsa, uning qayerda rezonans uzatishi bizga ma’lum. Shu signalning integral jadallikligi 1,5 katakka teng deylik. U holda integral jadallikligi 9,0 bo‘lgan cho‘qqiga 6 ta proton to‘g‘ri keladi, Boshqa cho‘qilar uchun ham shunday hisoblashlarni bajarish qiyin emas.


#### **4.5-§. Yadro magnit rezonansi spektroskopiyasida (YaMR) signallarning ajralib ketishi**

Yuqoridagi mavzuda keltirgan misol va ko‘rib chiqilgan spektrlar mukammalligi past bo‘lgan spektrometrlardan olingan. Yuqori mukammallikka ega spektrometrda\* olingan spektrlarda signallarning


ajralib ketishi kuzatiladi. Masalan, etil spiritining ikki xil spektri taqqoslansa, ular o'rtaqidagi farq yaqqol ko'rinadi (49-rasm). Rezonans signallarining ajralib ketishiga sababchi qo'shni protonlardir. Tushunarli bo'lishi uchun A-B protonlardan iborat molekulani ko'rib chiqamiz. Bu protonlar ekvivalent emas, chunki signal bitta cho'q-qidan iborat bo'lmaydi. A protonga qandaydir H effektiv maydon ta'sir qilayotgan bo'lsin. Bunda B proton lokal maydon hosil qiladi. Bu maydonning kuchlanganligi bo'lsin. Lokal maydon yo'nalishi effektiv maydon ( $H$ ) yo'nalishi bilan parallel yoki antiparallel bo'lishi mumkin, ya'ni uni kuchaytiradi yo susaytiradi. Shunday qilib, A proton o'z atrofida ikkita maydonni « $\text{ko}'\text{radi}$ », ya'ni birinchisi  $H$  ga nisbatan sal kuchaygan maydon ( $H+\delta$ ), ikkinchisi esa sal susaygan maydon ( $H-\delta$ ) bo'ladi. U o'zini goh ( $H+\delta$ ) goh ( $H-\delta$ ) maydonga «soladi». A proton ( $H+\delta$ ) maydonda ekanligida uning signali nisbatan kuchsiz maydonda (kamroq energiyada) kuzatiladi. A proton ( $H-\delta$ ) maydonda bo'lganda esa signal nisbatan kuchli maydon ( $\text{ko}'\text{proq energiya}$ )da joylashgan bo'ladi. Demak, A-proton jadallikligi bir-biriga teng va yonma-yon joylashgan ikkita (doublet) signal beradi. B-proton xususida ham aynan shunday deyish mumkin, ya'ni u ham dublet cho'qqi hosil qiladi (49-rasm).



**49-rasm.** Etil spiritining mukammalligi past (A) va mukammalligi yuqori (B) spektrometrarda olingan YaMR spektri.




Molekuladagi C va Br atomlari nomagnit bo‘lgani uchun spektrda ishtirok etmaydi. Bunda butun ta’sirlanish vodorod atomlarining yadrolari o‘rtasida boradi:



**50-rasm Gazdan olingan 1,1,2-tribrommetanning YaMR spektri.**

Ikkilamchi uglerod atomidagi ikkita proton ekvivalent bo‘lgani uchun bitta signal, ya’ni singlet\* beradi. Lekin bu protonlar uchlamchi ugleroddagi yagona proton hosil qiladigan lokal maydon ta’sirida bo‘ladi. Bu maydon effekt maydon bo‘ylab va unga qarama-qarshi yo‘nalishi mumkin. Demak, metilen guruhi signalining jadalligi bir xil dubletdan iborat. Buni sxema tarzida ifodalasak\*\*.




Uchlamchi ugleroddagi proton (II) ga CH dagi protonlar hosil qilgan lokal maydonlar ta’sir etadi. Bu ikkita lokal maydon tashqi maydonga uch xil ta’sir ko‘rsatadi, jumladan  $\alpha$ - va  $\beta$ - protonlar lokal maydoni:

- 1) tashqi maydonni susaytiradi
- 2) tashqi maydonni kuchaytiradi


- a)  $\alpha$  - susaytiradi  
 $\beta$  - kuchaytiradi  
 3) b)  $\alpha$  - kuchaytiradi  
 $\beta$  - susaytiradi

a) va b) holatlarining ta'siri bir xil. Shuning uchun, ham lokal maydonlarning  $H_0$  ga nisbatan a va b yo'nalishlariga bitta signal to'g'ri keladi. Faqat 3 ning jadallikligi 1 va 2 larga nisbatan ikki marta katta bo'ladi:



**51-rasm. 1,1,2-tribrometan spektridagi triplet II protonga, duplet esa I protonlarga taalluqli sxemasi.**

Demak, II proton spektrda uchta cho'qqi (triplet) beradi. Cho'qqilarning jadalligi 1:2:1 kabi. Shunday qilib, 1,1,2-tribrometan spektridagi triplet II protonga, duplet esa I protonlarga taalluqlidir (51-rasm). 1,1,2-tribrometanning spektri ham aynan shunday bo'ladi. Endi etil spirtga qaytamiz (52-rasm). OH guruhi protoni metilen va metil protonlaridan kislород (nomagnit) orqali ajralgan bo'lgani uchun ular ta'sirlashmaydi. Metil radikali esa metilen protonlari ta'sirida triplet hosil qildi:




**52- rasm. Etil spirti spektridagi triplet II protonga, duplet esa I protonlarga taalluqli sxemasi.**

Ko'rinib turibdiki, etil spirtdagagi metilen guruhi signal spektrda to'rtta (kvartet)cho'qqidan iborat. Kvartet jadalliklari 1:3:3:1 kabi taqsimlangan.

Qo'shni protonlar ta'sirida spektrdagi signallarning ajralib, ketishiga **spin-spin** ta'sir deyiladi. Spektdagi dublet, triplet va hokazolar

umumiyl qilib ***multiplet*** deb ataladi. E'tibor berilsa, spin-spin ta'sir kimyoviy siljishga ta'sir qilmaydi. Turli protonlarning siljishi ularning avvalgi chastotasida kuzatilaveradi, lekin bu chastota endi dublet, triplet va kvartetning o'rtasiga to'g'ri keladi. Umuman multiplar doim kimyoviy siljishlar o'lchanadigan markazga nisbatan simmetrikdir. Spin-spin ta'siri turli signallar sonini o'zgartirmaydi. Masalan, etil spektrida uch xil ( $\text{OH}$ ,  $\text{CH}_2$ ,  $\text{CH}_3$ ) signal kuzatilishi, kerak edi. Faqat har qaysi tip signal bir necha cho'qqiga ajralib ketgan. Multipletlardagi cho'qqilar o'rtasidagi bu masofa spin-spin ta'sir ***konstantasi***(SSTK) deyiladi va J harfi bilan belgilanadi (53-rasm). Multeplittdagi cho'qqilar jadalliklarining nisbatlari ham simmetrik. Masalan 1:1,1 :2 : 1 yoki 1:3:3:1 va hokazo.

Lekin bunday simmetriya doim kuzatilavermaydi. Ko'pchilik hollarda chetlanishlar mayjud. Agar spektrda multipletlar orasidagi masofa (kimyoviy siljishlar) spin-spin ta'sir konstantasi ( $J$ ) ga nisbatan ancha katta bo'lsa, simmetrik multipletlar hosil bo'ladi. Bunday spektr birinchi tartibli deyiladi. Agar qo'shni multipletlar kimyoviy qiymati orasidagi farq SSTK dan kichik bo'lsa, bu ikkinchi tartibli spektr hisoblanadi. Bunday hollarda (ya'ni XSXSSTK yoki XS=SSTK) spektr juda murakkablashib ketadi. Uni birinchi tartibli spektrga o'tkazish uchun yuqori chastotali (100 va 300 MGS) spektrometrlardan foydalaniлади, molekuladagi protonlardan bitta yoki bir nechta deyteriya almashtiriladi.




53-rasm. Spin-spin ta'sir konstantalari.

Proton-protonga nisbatan proton-deyteriy ta'sirlashishda SSTK yetti marta katta. Shuning uchun ham spektr soddalashadi. Ba'zi hollarda spektrning u yoki bu qismini soddalashtirishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda «qo'sh rezonans» usulidan foydalaniladi.

Spin-spin ta'sir ikkita noekvivalent proton o'rtasida vujudga keladi. Bu protonlar qo'shni uglerod atomlarida yoki bitta uglerod atomida bo'lishi mumkin. Ko'proq birinchi tipdag'i protonlar uchraydi. Aytilganlarga ko'ra protonlari bir-biriga ekvivalent ikkita guruh o'zaro ta'sirlashmaydi, ya'ni ularning spektrida ajralish kuzatilmaydi.

$\text{CH}_3\text{-CH}_3$ ,  $\text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{H}_2\text{Cl}$ ,  $(\text{CH}_3) - \text{CHBr} - \text{CH}_2\text{ Br}$ ,  $\text{Ar} - \text{R}$  va hokazo.

Ta'sirlashish faqat qo'shni atomlarda bo'ladimi yoki uzoqroq protonlar ham spin-spin ta'siriga ega bo'ladimi? Faqat oddiy bog'lar tutuvchi zanjirda SSTK quyidagicha:




Agar molekulada kuch va uchlamchi bor bo'lsa, ta'sir masofasi ortadi. Masalan:  $\text{CH}_3 - \text{C}\equiv\text{C} - \text{C}\equiv\text{C} - \text{C}\equiv\text{C} - \text{CH}_2\text{X}$  birikmada  $\text{CH}_3$  va  $\text{CH}_2$  protonlar to'qqizta bog' orqali ta'sirlashadi. ( $J \neq 0$ ). Yuqoridagi birikmada esa bog'lar to'rtta edi. Spin-spin ta'sirni uzatish xususiyatining kuchliligiga qarab bog'larni quyidagi qatorga joylashtirish mumkin:
















Qo'sh va uch bog'li birikmalardagi «uzoq» ta'sir oddiy bog'li birikmalarga nisbatan kuchli bo'ladi. ( $\text{C}=\text{C}$ ). Bir-biridan ikkita va uchta bog' bilan ajratilgan A, B, S tipdag'i protonlar SSTK ham bir-biridan farq qiladi.

Shunday qilib, spin-spin ta'sir spektr murakkablashtirilsa ham, uning ahamiyati katta. Chunki undan foydalanib protoning qo'shnilarini to'g'risida juda muhim ma'lumotlar olish mumkin. Bu esa o'z navbatida moddaning tuzilishini aniqlashni osonlashtiradi.



5-jadval

	1. g		1. Gs
	12-15		$I_{AA} 9-13$ $I_{AC} 2-4$ $I_{AC} 2,7-10$
	0,35-2		
	2-9		$I_{AB} 7-14$ $I_{AC} 2-3$ $I_{AD} <1,5$
	2-14		
	11-18		
	4-10		$I_{AB} 7,5-8$ $I_{AC} 1,4-2$ $I_{AD} 5,2-5,5$ $I_{CD} 0,9$
	0,5-2		
	10-13		
	1-3		$I_{AB} 3-4$ $I_{AC} 0,6-1$ $I_{BC} 1,8-2$
$\text{CH}_A-\text{C}=\text{C}-\text{H}_B$	2-3		

### Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollar

- Ultrabinafsha spektroskopiyaga haqida tushuncha bering?
- Organik birikmalarni tuzilishi ultrabinafsha spektroskopiyaga yordamida qanday aniqlanadi?

3. Ultrabinafsha spektroskopiyada elektron o'tishlarni tushuntiring?
4. Ko'p atomli organik birikmalaning spektrlari haqida izoh bering?.
5. Sis-trans izomerlarni farq qilinishda UF-spektrlash yordam beradimi?
6. Elektron spektroskopiyada jami o'tishlar nechta guruhga ajratiladi?
7. Ma'lum va noma'lum moddalarning UF-spektrini bir xil sharoitda olib ayni moddalarning bir xil yoki bir xil emasligini isbotlash mumkinmi?
8. UF-spektroskopiyadan foydalanib, molekulani aylanma va tebranma holatga o'tkazish uchun nima qilish kerak?
9. UF-spektroskopiyadan foydalanib, dialmashingan benzol hosilalaridagi o'rnbosarlaraning jonlanish tartibi qanday aniqlanadi?
10. UF-spektroskopiyadan foydalanib, singlet va triplet o'tishlar haqida tushuncha bering?
11. Molekulalarning tebranishlari haqida tushuncha bering?
12. Molekuladagi energiyaning aylanma, tebranma va elektron pog'onalari haqida tushuncha bering?
13. Valant tebranish nimani anglatadi?
14. IQ spektroskopiyadan foydalanib, qanday moddalarning sifat va miqdori o'rganiladi?
15. Sklet tebranish nima?
16. Turli tip bog'lari bo'lgan izomerlarni IQ spektroskopiya usulida qanday topiladi?
17. Aromatik birikmalarning tavsifiy chastotalar sohasi qanday?
18. Infracizil spektroskocho'qqi usulda organik moddalarning tuzilishi qanday o'rganiladi?
19. Infracizil spektrda bog'larning yutilish maksimumi qanday kuzatiladi?
20. Infracizil spektroskopiyada qaytar organik reksiyalar sifat va miqdoriy jihatdan qanday o'rganiladi?
21. Molekulaning konfiguratsiya va konformatsiyasini IQ spektridan foydalanib qanday o'rganiladi?
22. IQ-spektrlardan foydalanib, siklogeksanning konformatsiyasi aniqlansin?

23. Noma'lum moddaning IQ spektrini ma'lum modda spektri bilan taqqoslab, ularning bir xilligini isbotlang?
24. Turli tip bog'lari bo'lgan izomerlari IQ spektroskopiyadan foydalanib, qanday aniqlash mumkin?
25. IQ spektroskopiya orqali, organik moddalar molekulalarining konfiguratsiyasi va konformatsiyasi to'g'risida xulosa chiqaring?
26.  $3500-3650 \text{ sm}^{-1}$  qaysi guruhning yutilish maksimumida kuzatiladi?
27. Yadro magnit rezonansi ( YaMR ) haqida tushuncha bering?
28. Yadro magnit rezonansi usulida radioto'lqinlar qanday beriladi?
29. Yadro magnit rezonansini kattaliklardagi tavsifi qanday?
30. Yadro spinlarida magnit maydonning joylashuvi qanday?
31. Moddalarni YaMR spektrini qanday holatda olish mumkin?
32. Yadro spinining magnit moydonida joylashuvi qanday?
33. Magnit moydanida yadrolar energetik pog'onalarining ajralishini ko'rsating?
34. YaMR spektr qanday kattaliklar bilan tavsiflanadi?
35. Signallar soni nimani bildiradi?
36. Signallar jadallikligi qanday tavsiflanadi?
37. YaMR spektroskopiyasida signallarning o'rnini tushuntiring?
38. YaMR spektroskopiyasida kimyoviy siljish qanday yuzaga keladi?
39. Protonlarning kimyoviy siljishi haqida tushuncha bering?
40. YaMR spektroskopiyada lokal maydon qanday tushuntiriladi?
41. Tashqi maydon ( $H_0$ ) ta'sirida elektr maydoni qanday hosil bo'ladi?
42. Multiplet nazariyasini asoslab bering?
43. Neftni tuzilishini o'rganishda YaMR spektroskopiyasi qanday ahamiyatga ega?
44. Spin spinlarni ta'sirini izohlang?
45. YaMR spektroskopiyada integrator nima uchun o'rnatiladi?
46. Spektrning ajralib ketishi deganda nima tushuniladi?
47. Maydonning kuchayishi qachon yuzaga keladi?
48. Proton signalining joylashishini funksional guruhlarga bog'liqligini izohlang?

## V bob. TAHLILNING SPEKTROMETRIYA USULI

### 5.1-§. Mass-spektrometriya tahlil usuli


Hozirgi zamон kimyosida mass-spektrometriya usuli katta ahamiyatga eга bo'lib, bu tahlil usuli neft va gaz mahsulotlaridan olinadigan moddalarning sifatini va molekular og'irligini aniqlashga imkon berishi bilan birga: ultrabinafsha (UB), infraqizil (IQ), yadro magnit rezonansi (YaMR) usullarida олинган ma'lumotlarni to'ldiradi.

Mass-spektrometriya moddani tekshirishning shu modda massasini (ko'pincha massaning zaryadga nisbatи m/e ni) va tekshirilayotgan moddadan olinadigan yoki o'rganilayotgan aralashmada bor bo'lgan ionlarning nisbiy miqdorini aniqlashga asoslangan usuldir. Bu usulda modda mass-spektral asboblar yordamida tekshiriladi.


Mass-spektrometriya usuli bilan molekuladagi funksional guruhlar molekulaning qaysi joyida joylashganligini, ayniqsa, molekulaning tashqarisiga joylashgan yon zanjirlarni aniqlash mumkin. Bu usul bilan nefstdan олинган yangi birikmalarning tuzilishini aniqlashda ayniqsa ahamiyatli bo'lib, tahlil uchun oz miqdorda (1-2 milligramm) modda sarflanadi va qisqa vaqt ichida ma'lumot olinadi.

Tekshirilayotgan modda gaz, suyuq, qattiq bo'llishidan qat'i nazar, ular past haroratda bug' holatiga o'tkaziladi. So'ngra elektron oqimi bilan molekulaga kuchli zarba beriladi, natijada molekula elektron chiqarib, musbat zaryadli zarrachaga aylanadi. Bu zarrachalar magnit maydoniga ta'sir etib, kollektor orqali hisobga olinadi.

Masalan, aseton molekulasiga elektronlar oqimi ta'sir ettirilganda dastlab u musbat zaryadli zarracha (a) ga aylanadi, so'ngra metil radikal chiqib ketib 43 m/e og'irligiga eга bo'lgan zarracha (b) hosil bo'ladi.



Etil spirtining parchalanishi quyidagi sxema bo'yicha ikki yo'nalishda ketadi:




Birinchi yo'nalishda bir atom vodorodi yo'qolib 45 m/e og'irligiga ega bo'lgan massa, ikkinchi yo'nalishda metil guruh yo'qotib 41 m/e og'irlikka ega bo'lgan massa hosil bo'ladi.

Boshqacha aytganda mass-spektrometriya gaz holatidagi moddani chuqur vakuumda ( $10^{-7}, 10^{-9}$  mm. simob ustunida) elektronlar oqimi bilan bombardimon qilib parchalash va hosil bo'lgan ion-«bo'lak»larni tahlil qilishga asoslangan. Odatda elektronlar oqimi energiyasi 50-70 elektron-volt (ev.) atrofida bo'ladi. Bu energiya ionlanish energiyasidan va molekuladagi bog'larni uzish uchun kerakli energiyadan ancha ko'p. Bombardimon qilayotgan elektronlar ta'sirida moddadan bitta elektron ajralib chiqadi. Bu elektron geteroatomning umumlashmagan juftining yoki qo'shbog', yoxud aromatik sistemaning bitta elektroni bo'lishi mumkin.

Natijada molekular ion deb ataluvchi kation ( $M^+$ ) hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan ion ( $M^+$ ) ning molekular massasi dastlabki organik moddaning molekular massasi bilan bir xil bo'lishi o'z-o'zidan tushunarli. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida moddaning molekular massasi ham shakllanadi:



So'ngra hosil bo'lgan molekular ion ( $M^+$ ) ning bir qismi, ba'zan hammasi parchalanadi. Ayrim hollarda neytral molekulalar ham hosil bo'lishi mumkin. Qizig'i shundaki, ionlar, asosan, musbat bir zaryadlidir. Kamdan-kam hollarda musbat ikki va manfiy zaryadli bo'lishi kuzatiladi. Elektronlar chuqur vakuumda bombardimon qilingani uchun ionlar kam hosil bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida spektrning murakkablashib ketmasligini ta'minlaydi. Tahlil qilinadigan moddining juda kam miqdori ( $1\text{mg}$  va hatto  $10^{-3}\text{ mg}$ ) mass-spektrometriyani fizik usullar ichida oldingi o'rnlardan biriga qo'yadi. (54-rasmda mass-spektromertning umumiy sxemasi keltirilgan.



**54-rasm. Mass-spektrometrning umumiy tuzilishi:**

- 1-elektronlar manbai, 2-bombardimon qilish kamerasi,
- 3-tezlashtiruvchi plastinkalar, ya'ni elektr maydon hosil qiluvchilar,
- 4-vakuum nasos. 5-ionlar oqimi, 6-magnit, 7-ajralgan ionlar oqimi,
- 8-teshik. 9-ionlar kollektori, 10-kuchaytiruvchi va qayd qiluvchi qurilma.

Modda bombardimon qilinishidan oldin bug' holatiga o'tkaziladi. Shundagina uning elektronlar oqimi bilan to'qnashishi tezroq sodir bo'ladi. Lekin nest va gaz mahsulotlaridan olingan ko'p organik moddalar suyuq yo qattiq bo'lgani uchun ular dastlab maxsus kameralarda qizdirilib, so'ngra bug' holatiga o'tkaziladi. Qizdirish natijasida modda molekulasi o'zgarmasligi lozim. Biroq ba'zi hollarda modda qizdirilganda boshqa birikmalarga o'tadi. Masalan, spirt bug'lanish haroratida degidratlanib, alkenga aylanadi. Shubhasiz, bunda olinadigan spektr alkenikidir. Shunga o'xshash, organik kislotalar (xususan, dikarbon kislota) qizdirilganda osongina karbonat angidrid ajralib chiqadi. Bu misollardan ko'rindaniki, qizdirilganda o'zgarishda uchraydigan moddaning spektrini olishdan oldin uni barqarorroq birikmaga aylantirish zarur. Spirt va kislotalarni murakkab efirga aylantirish, gidroksil guruhni asetillash mumkin va hokazo. Hosil qilingan barqaror birikma, dastlabki modda (spirt yoki kislota) bilan aynan bir xil parchalanishi lozimligini ham eslatib o'tamiz. Mass-spektrometrda elektr maydoni bombardimon natijasida hosil bo'ladigan ionlarni tezlashtirish uchun xizmat qiladi. Magnit maydoni esa ionlarni ularning massasiga qarab ajratishga imkon beradi. Har qanday zaryadlangan zarracha magnit maydonida

o'z harakat yo'nalishini o'zgartirib, bir tomonga og'adi. Zaryadi  $e$  ga teng zarracha kuchlanganligi  $H$  bo'lgan magnit maydonida  $v$  tezlik bilan harakat qilsa, unga maydon  $H_e$  u kuch bilan ta'sir qildi. Bu kuch shu ionni radiusi  $r$  bo'lgan aylana bo'ylab harakatlantiruvchi markazga intilma kuchga teng:

$$\frac{m \cdot v^2}{r} = H_e v \quad (29)$$

Ion potensial  $U$  bo'lgan elektr maydonidan o'tganda  $U$ , kinetik energiyaga ega bo'ladi:


$$\frac{m \cdot v^2}{2} = U_e \quad (30)$$

(29) va (30) tenglamalar birlishtirilib, u qisqartirilgandan keyin

$$r^2 = \frac{2U}{H^2} \cdot \frac{m}{e} \text{ formulaga yoki } \frac{m}{e} = \frac{H^2 \cdot r^2}{2U} \text{ ga ega bo'lamiz.} \quad (31)$$

(31) dan ko'rinaradiki, (ion massasining zaryadiga nisbati)  $r$  bilan proporsional bog'liq ekan. Katta massali ionlarga  $r$  ning katta qiymati muvofiq keladi va aksincha. Boshqacha aytganda, ion massasi qancha katta bo'lsa, u magnit maydonida shuncha kam buriladi ( $r$  katta), kichik bo'lsa ko'proq og'adi ( $r$  kichik). Deyarli barcha ionlar uchun  $e=+1$  bo'lGANI uchun (29) deb yozamiz. To'g'ri ionning og'ish burchagi uning kinetik energiyasi (tezligi) bilan ham bog'liq. Lekin oqimdag'i barcha ionlarga o'rtacha bir xil energiya berilgani uchun, og'ishda faqat ion massasi asosiy rol o'ynaydi.  $H$  yoki  $U$  ni o'zgartirib turib, ionlarni massasining ortib borishi tartibida ketma-ket teshik (8) dan o'tkazishga ( $10^{-9} - 10^{-15}$  a) bo'lGANI uchun, u maxsus asboblar yordamida kuchaytiriladi. Keyin sezgir galvanometr bilan o'lchanadi. Galvanometr strelkasining og'ishi kelayotgan ionlar oqimining jadallikligiga bog'liq, jadallikligi kam bo'lsa kam og'adi va aksincha. Bu sxema mass-spektr deyiladi.


Mass-spetrdagi har bir cho'qqi (cho'qqi) muayyan  $\frac{m}{e}$  ga ( $e = 1$  bo'lsa  $m$  ga) ega bo'lgan ionga muvofiq keladi. Cho'qqining balandligi shu ionning miqdoriga bog'liq. Masalan, tahlil uchun 1 mg modda olingan bo'lsa, unda milliard molekula bor, deylik. U holda parchalanish natijasida har xil massaga ega bo'lgan ionlardan ham shundan kamroq (agar barcha molekulalar parchalanishga uchrasa, milliardtadan) turli ionlar hosil bo'ladi.




**55-rasm. Neftdan olingan naften va parafin uglevodorodlari mass-spektrining bir qismi.**

Ionlar aralashmasida qaysi ion miqdori ko'p bo'lsa, unga muvofiq keladigan cho'qqi shuncha baland bo'ladi. Mass-spektrdag'i eng baland cho'qqili asosiy ion deyiladi (55-rasm). Mass-spektrlar grafik usulda ifodalanganda asosiy ionning jadalligi 100% deb qabul qilinib, boshqa ionlarning jadalligi shunga nisbatan hisoblab topiladi.

Masalan, asosiy ion cho'qqining balandligi 80 mm  $\frac{65 \cdot 100}{80} = 81,3\%$  bo'lzin. Jadallikligi jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi ion uchun bu qiymat 65 mm ga teng deylik. U holda keyingi ion jadallikligi qiymatga teng bo'ladi. Nisbiy jadallikni ordinata o'qiga, massa sonlarini esa abssissa o'qiga qo'yib, mass-spektrning grafik tasviri hosil qilinadi. 56-rasmida ana shu usulda chizilgan moy aldegidning mass-spektri keltirilgan. Spektrdag'i jadallik cho'qqilarining hosil bo'lishini quyidagicha ifodalash mumkin.



Mass-spektrdagagi jadalllik ion m/e 44 (100%) dir. t/e 29 ( $M - 43$ ) ham ~55% ni tashkil qiladi. Molekular ion m/e 72 ( $M^+$ ) ning jadalllikligi ham ancha yuqori (~ 75%, m/e 71 ( $M - 1$ ) ion jadalllikligi ~ 10%. Shunday qilib, moy aldegid molekulasingin 75 foizi o'zgarishsiz qoladi (molekular ion holida). Qolgan qismi esa C–C, C–H bog'lar bo'yicha parchalanadi. Molekular ionning parchalanishidan hosil bo'lgan mayda bo'laklar ko'pincha fragmentlar, bu jarayonning o'zi esa fragmentlanish deb ataladi.



56-rasm. Moy aldegidning mass- spektri.

Ba'zan molekular ion ( $M$ ) maksimal jadallikkaga ega bo'ladi. Abssissa uchining o'ng tomonidan eng chetki cho'qqi molekular ionga muvofiq keladi deb qarash mumkin edi. Ko'p hollarda haqiqatan ham shunday. Lekin goho chetlanish kuzatiladi. Molekulyar ion spektrda umuman bo'lmasligi ham mumkin, ya'ni u to'la fragmentlanishga uchragan.

Ba'zan spektrda ( $M+1$ ), ( $M+2$ ) kabi ionlar ham ishtirok etadi. Ularning hosil bo'lishiga sabab izotoplardir. Masalan, benzol spektrida  $C_6H_6^+$  formulaga mos keluvchi molekular ion ( $M^+$ , m/e 78) bilan birgalikda  $M + 1$  (m/e 79) va  $M+2$  (m/e 80) cho'qqilar ham mavjud. Birinchisi (m/e  $C_5^{13}C_2H_6^+$  va  $C_6H_5D^+$ , ikkinchisi esa (m/e 80)  $C_4^{13}C_2H_6^+$ ,  $C^{13}_5CH_5D^+$ , va  $C_6H_4D_2^+$ , ionlar hisobiga vujudga keladi. Lekin birikmalarga og'ir izotop ( $^{13}C$ , D) lap miqdori kam bo'lGANI uchun  $M+1$  va  $M+2$  cho'qqilar jadalllikligi kam bo'ladi. Benzoldagi cho'qqilar jadalllikligi kam bo'ladi. Benzoldagi bu cho'qqilar

jadallikligi muvofiq ravishda 6,58 va 0,18 % ga teng. Og‘ir izotopning molekuladagi miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, M+1 va M+2 ionlarning jadallikligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Shubhasiz, molekuladagi og‘ir izotop miqdori uchun tabiatda tarqalganligiga to‘g‘ri proporsionaldir. Quyidagi 6-jadvalda organik birikmalar tarkibidagi elementlarning tabiatda uchraydigan og‘ir izotoplarning shu elementlar yengil izotoplariiga nisbatan olingan miqdori keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinadiki,  $^{37}\text{Cl}$  (32,5%),  $^{35}\text{Cl}$  (100 %) ga nisbatan tabiatda taxminan uch marta kam uchraydi.  $^{81}\text{Br}$  (98 % va  $^{79}\text{Br}$  (100 %) izotoplari miqdori esa taxminan bir xil. Bu muvofiqlik spektrda ham kuzatiladi.

Monoxloralmashining birikmalarda M+2 ionning jadallikligi M+ ga nisbatan uch baravar yuqori. Monobromalmashining birikmalarda esa M+ va M+2 jadallikkari deyarli baravar.

### Ba’zi og‘ir izotoplarning miqdorlari

6-jadval

Og‘ir izotop	Yengil izotopga nisbatan miqdori ,%
$^2\text{H}$	0,015
$^{13}\text{C}$	1,11
$^{15}\text{N}$	0,37
$^{18}\text{O}$	0,20
$^{23}\text{S}$	0,78
$^{34}\text{S}$	4,4
$^{37}\text{Cl}$	32,5
$^{81}\text{Br}$	98,0

Savol tug‘iladi: mass-spektrda M+1, M+2, M+3 ionlar bo‘lsa, molekular ionni qanday aniqlash mumkin. Spektr oxiridagi cho‘qqilar (maksimumlar) ichida molekular ionni bilib olish qiyin emas. Odatda nisbatan jadallikligi yuqori bo‘lgan cho‘qqi M+ ga muvofiq keladi. M+1 va M+2 cho‘qqilarni hosil qiluvchi og‘ir izotoplarning nisbiy miqdori kam bo‘lgani uchun M+1 va M+2 cho‘qqilarning jadallikligi deyarli barcha hollarda juda past bo‘ladi (xlor va brom almashining birikmalar bundan mustasno). Ikkinchidan, faraz qilaylik biror birikma uchun ( $M^+$  m/e 44 bo‘lsin. U holda bu qanday modda? Bu massa (44 u.b) ga  $\text{N}_2\text{O}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{C}_2\text{H}_4\text{O}$ ,  $\text{C}_3\text{H}_8$  kabi moddalar muvofiq

keladi. Spektri olingen modda shularning qaysi bittasi ekanligini topish uchun shu birikmalarning har qaysisi uchun  $M+1$  va  $M+2$  larning  $M+ga$  nisbatan jadallikligi nazariy yo'l bilan hisoblab chiqiladi. Hisoblashlar og'ir izotoplarning tabiatdagi nisbiy miqdoridan foydalanib amalga oshiriladi. Shu usul bilan olingen nazariy natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.


## Izotop cho'qilarning hisoblab topilgan jadalliklari

## 7-jadval

Birikma	M <sup>+</sup>	M+1	M+2	Birikma	M <sup>+</sup>	M+1	M+2
N <sub>2</sub> O	100	0,80	0,20	C <sub>2</sub> H <sub>4</sub> O	100	1,91	0,01
CO <sub>2</sub>	100	1,16	0,40	C <sub>3</sub> H <sub>8</sub>	100	3,37	0,04

Endi tajribada olingen natijani jadval bilan taqqoslash qoladi, xolos. Masalan, spektrdagi  $M^+$  ning jadallikligi  $M'$  ga nisbatan 1,16%;  $M + 2$  niki esa 0,40% bo'lsin. U holda bu sonlar jadvaldagি  $CO_2$  ning ko'rsatgichlariga muvofiq keladi. Demak, biz spektrini olgan modda karbonat angidrid ekan.

Izotoplardan mass-spektrometriyada boshqacha foydalaniladi. Ko'p hollarda ayni cho'qqiga muvofiq keluvchi ion molekulaning qaysi qismidan hosil bo'lganligini aniqlash uchun izotoplar  $^{13}\text{C}$ ,  $^{13}\text{S}$ ,  $^{34}\text{S}$ , D - (deytriy) molekulaga atayin kiritiladi. Masalan, biror molekula (I) ning parchalanishidan spektrda kuzatiladigan ionlar ( $m_1$ ,  $m_2$ ,  $m_3$ ,  $m_4$ ) ning bittasi, aytaylik,  $m_1$  molekulaning qaysi qismi (A, B, S yoki D) dan hosil bo'lishi aniqlash uchun molekulaning A-1 qismidagi vodorod atomlaridan bittasi deyteriyga almashtiriladi va yana spektr olinadi.



Agar spektrdagи m<sub>1</sub> ionga muvofiq keladigan cho'qqi bitta birlik o'ngga (ya'ni m<sub>1</sub> -H +D) siljisa, taxmini to'g'ri chiqqan bo'ladi. Ko'pincha molekulaning u yoki bu qismiga og'ir izotoplar o'rniga turli guruuhlar (CH<sub>3</sub><sup>-</sup>, C<sub>2</sub>H<sub>5</sub><sup>-</sup>, CH<sub>3</sub>COO<sup>-</sup>) kiritiladi. Bunda molekulaning shu qismidan hosil bo'lgan cho'qqilar muvofiq ravishda 15, 29, 59 birlik o'ngga siljiydi. Mass-spektrometriyada bu usul (ya'ni muayyan maqsadni ko'zlab molekulaga izotoplar kiritish) deyteronishon deyiladi. Deyteronishon juda ko'tp qo'llaniladigan samarali usul hisoblanadi.

Mass-spektrda ko'pincha massasi kasr songa teng bo'lgan ionlar kuzatiladi. Bu ionlarga muvofiq, keladigan cho'qqilar eniga cho'zilgan (nozik emas), jadalligi esa kam bo'ladi. Bunday ionlar metastabil ion yoki cho'qqilar deyiladi. Metastabil cho'qqilar hosil bo'lishining sababi quyidagicha: bombardimon qilish kamerasida ko'pincha beqaror ionlar hosil bo'ladi. Bu ionlar mass-spektrometrning tezlashtiruvchi elektr maydonida harakat qilayotganda parchalanadi. Undan nisbatan kichik m/s ga ega bo'lgan ionlar neytral molekula hosil bo'ladi. Parchalanish ion magnit maydoniga kirmasdan sodir bo'ladi. Spektrda har ikkala (parchalangan va hosil bo'lgan) ionlar cho'qqilari o'rtasida (o'zi aslida, yo'q) massasi kasr songa teng bo'lgan metastabil ion cho'qqi kam namoyon bo'ladi. Bu cho'qqi ba'zan «yolg'on» cho'qqi deyiladi. Agar hosil bo'lgan ion massasi (m<sub>2</sub>)ning kvadrati parchalangan ion massasi (m<sub>1</sub>) ga bo'linsa, metastabil ionning massasi kelib chiqadi. Masalan, allil efirining mass-spektrida uchta normal cho'qqi (m/e 29; m/e 28; m/e 27) bilan bir qatorda «yolg'on» cho'qqi (m/e 25,1) kam uchraydi.

Shunga ko'ra  $\frac{(m_2)^2}{m_1} = \frac{27^2}{29} = 25,1$ . Bundan juda muhim xulosa chiqarish mumkin: demak, massasi m/e 27 ga teng ion m/e 29 bo'lgan iordan hosil bo'ladi (m/e 28 dan emas). Darhaqiqat,  $\frac{(27)^2}{28} \neq 25,1$  shunga o'xshash, bunday normal cho'qqi (*t/e* 43; *t/e* 58) lar va metastabil cho'qqi (*t/e* 31,9) hosil qiladi. Metastabil ion 58→43 ning parchalanishidan hosil bo'lgan deyish mumkin, chunki

$$\frac{(43)^2}{58} = 31,9$$


Ko'riniib turibdiki, mass-spektrda metastabil ionlarning bo'lishi parchalanishning u yoki bu yo'nalishida borganligidan dalolat beradi, shuning uchun ham metastabil ionlardan fragmentlanish sxemasini tuzish (qaysi ionlar qaysi qismlardan hosil bo'lganligini aniqlash)da foydalilanildi. Parchalanayotgan ( $m_1$ ) va hosil bo'lgan ( $m_2$ ) ionlar massasi o'rtasidagi farq zaryadsiz fragment (neytral molekula yoki radikal)ning massasiga muvofiq keladi. Biz ko'rgan misollarning birinchisida bu fragment ikkita vodorod atomi yoki vodorod molekulasi ( $29-27=2$ ), ikkinchisida esa metil radikali ( $58-43=15$ ) dir.

### 5.2-§. Mass-spektrometriyada ion va fotonlarning paydo bo'lish jarayoni. Parchalanish turlari va ularga ta'sir qiluvchi omillar

Parchalanish natijasida hosil bo'lgan molekular ionda musbat zaryad qaysi uglerod atomida yig'ilishi, ya'ni lokallashishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki parchalanishning keyingi bosqichi zaryad yig'ilgan atom yonidan boshlanadi. Geteroatom tutuvchi organik birikmalarda zaryad ko'pincha geteroatomda qo'shbog'li birikmalarda esa qo'shbog'dagi uglerod atomlaridan birida yig'iladi. Bosh-qacha aytganda, elektron zarba natijasida geteroatom umumlashmagan juftining yoki qo'shbog' elektronlaridan bittasi ajralishi mumkin.

Aromatik birikmalarda esa aromatik sistema elektronlaridan biri «urib» chiqariladi.

Bunda hosil bo'ladigan musbat zaryad butun molekulaga tarqaladi, ya'ni delokollashadi. Bu esa, o'z navbatida, molekular ionning barqarorligiga sabab bo'ladi. Darhaqiqat aromatik birikmalar mass-spektrida molekular ion yuqori jadallikka ega. Zaryadning qaysi atomda yig'ilganligini aniqlash ba'zan juda qiyin yoki umuman mumkin bo'lmaydi. Masalan, uglevodorodlardagi C – C bog'lar bir xil bo'lgani uchun zaryad molekuladagi istalgan uglerod atomida yig'ilishi mumkin. Bunday hollarda fragmentni katta qavsga olib, qavsning o'ng tomoni yuqorisiga ion zaryadi yoziladi:



Bunday belgilash qulay bo'lgani uchun boshqa hollarda ham ko'p qo'llaniladi.

Fragmentlanish natijasida hosil bo‘ladigan ionlar barqarorligi organik kimyodagi umumiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu qonuniyatlar quyidagilardan iborat;

**Birinchidan:** Barqaror bog‘ qiyin uziladi: Demak, C-C bog‘lar C-H bog‘larga nisbatan oson uziladi.

**Ikkinchidan:** Ayni birikmada bir necha yo‘nalishda fragmentlanish mumkin bo‘lsa, shulardan birlamchiga nisbatan ikkilamchi, ikkilamchiga nisbatan uchlamchi karbokationlar hosil bo‘lishi bilan boradigan jarayon ko‘proq fragmentlanadi. Boshqacha aytganda parchalanish to‘yingan uglevodorod zanjirining ko‘p tarmoqlangan joyidan boshlanadi.

**Uchinchidan:** Uglerod atomi bilan oddiy bog‘ orqali bog‘langan o‘zida umumlashmagan elektron juft tutuvchi atomlar fragmentlanish xususiyatiga ega emas. Musbat zaryad galogen OH, OR, NH<sub>2</sub> kabi guruhlar bilan bog‘lanadigan uglevodorod atomida yig‘iladigan jarayonlar oson boradi.

Chunki bunda umumlashgan elektron juft uglerod atomining yarim «bo‘shagan» orbitalini band qiladi, ya’ni musbat zaryad yig‘ilgan uglevodorod va geteroatom o‘rtasida tabiatli jihatidan donor-akseptor bog‘lanish vujudga keladi. Bu shu ionning mustahkamligini ta’minlaydi.



**To‘rtinchidan:** Allil va benzil sistemalar barqaror bo‘lgani uchun ular hosil bo‘lishi bilan boradigan fragmentlanish katta ehtimollikka ega. Shuningdek, dekarboksillash va degidratlanish bilan bo‘ladigan fragmentlanish ham sistemani barqaror qiladi.


**Beshinchidan:** Uzun zanjirli fragmentlar kichik massali ionlarga ajralishga intiladi. Lekin katta ionning kichik ionga parchalanishi energetik jihatdan qulay bo‘lmasligi mumkin. Masalan, bu hodisa fragmentlanishda neytral molekulalar hosil bo‘lganda kuzatiladi, chunki neytral molekulalar ionlar va radikallarga nisbatan juda barqaror. Shuning uchur ham katta ionlarning nisbatan barqaror kichik

ionlar hosil qilib parchalanis h̄ga qaraganda, ularning neytral molekula va dastlabki ionga nisbatan barqarorroq bo'lib, parchalanishi energetik qulay. Neytral molekulalar ( $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CO}$ ,  $\text{HCN}$  va  $\text{SH}_3\text{COOH}$ ) ni mass-spektr qayd qila olmasa ham ularning mavjudligini spektrdagи M- $\text{H}_2\text{O}$  (M-18), M-CO (M-28), M-HCN (M-27), M- $\text{CH}_3\text{COOH}$  (M-60) cho'qqilardan bilish mumkin. Fragmentlanish jarayonida kimyoviy bog'lar uzilib, molekular ion parchalanadi. Bog'lar uzilishi ikki xil bo'ladidi:

### 1. Geterolitik uzilish.

### 2. Gomologik uzilish sodir bo'lishi mumkin.


Elektron juftning bog' hosil qilib turgan atomlardan birida qolishi bilan bo'ladigan parç halanish geterolitik uzilish deyiladi:




Agar elektron juft teng o'rtadan uzilsa, bu gomolitik yoki radikal parchalanishdir:



Bunga misol keltiramiz\*:




Metaldegid.Gomolitik parchalanish




Bundan tashqari,  $\alpha$ -,  $\beta$ -,  $\gamma$ - parchalanishlar qayta guruhanish va retrodien parchalanishlardan farq qiladi. Kimyoviy bog' funksional guruh tutgan uglerod atomi yonidan uzilsa,  $\alpha$ -parchalanish deyiladi.

Agar uzilish shu holatga nisbatan ikkinchi va uchinchi uglerod atomlarida sodir bo'lsa, bu muvofiq ravishda  $\beta$  va  $\gamma$ - parchalanishdir.



$\alpha$ -uzilish nisbatan ko'proq kuzatiladi. Ko'rinib turibdiki  $\alpha$ -uzilish musbat zaryad yig'iladigan geteroatom yonida sodir bo'ladi. Biz bu haqida, ya'ni musbat zaryad yig'iladigan atomini aniqlash juda muhimligini aytib o'tgan edik. Ba'zan bog' uzilganda molekulaning bir qismidan atomlar uning ikkinchi qismiga ko'chib o'tishi mumkin. Bog'lar uzilishida atomlarining siljishi bilan bo'ladigan yoki qayta guruhlanib parchalanish deyiladi. Bog'lar uzilishda atomlarning siljishi kuzatilmasa, bu oddiy parchalanishdir.

Yuqorida biz ko'rgan ion aldegidning parchalanishi  $\gamma$ -vodorod atomining karbonil guruh kislorodi tomon siljishi bilan boradigan (ya'ni qayta guruhlanib) uzilishdir. Retrodien parchalanish dien senteziga teskari jarayondir:



Nihoyat, qo'shbog' tutgan birikmalarning ionlanishi haqida to'xtalib o'tamiz. Agar bombardimon natijasida qo'shbog' elektronlarning bittasi urib chiqarilsa radial-kation hosil bo'ladi:



### 5.3-§. Neft va gaz mahsulotlaridan olingan organik birikmalarni tuzilishini o'rganishda mass-spektrometriyani qo'llash

**Alkanlar.** Gazlardan ajratib olingan alkan molekulasidan elektron ajratib chiqarish uchun ancha ko'p energiya ta'lab qilinadi. Chunki hosil bo'ladigan molekular ionni barqaror qiluvchi omillar alkan molekulasida deyarli kam. Bu hol  $M^+$  ning fragmentlanishini juda

osonlashtiradi. Normal alkanlarda molekular ionning va katta fragmentlarning jadallikligi kam,  $(C_2H_5)^+$ ,  $(C_3H_7)^+$ ,  $(C_4H_9)^+$ ,  $(C_5H_{11})^+$  kabi toq massa va juft elektronli kichik fragmentlarning jadallikligi esa yuqori bo'ladi.

Ko'pchilik  $C_2 - C_{12}$  uglevodorodlarning spektrlarini o'rganib faqat etan va 3,4-dimetilgeksandagina  $(C_2H_4)^+$ ,  $(C_4H_8)^+$  - kabi toq elektronli juft massali fragmentlarning hosil bo'lishi kuzatilgan. Tarmoqlangan zanjirli alkanlar uchun quyidagi qonuniyatlar xos:

1) Tarmoqlanish bog' uzilishini osonlashtiradi, shunga ko'ra tarmoqlanish darajasi ortib borishi bilan molekular ionning jadallikligi kamayib boradi.

2) Uzun zanjirli katta fragmentlarning hosil bo'lish ehtimolligi katta. Haddan tashqari ko'p tarmoqlangan uglevodorodlar spektrida molekular ion bo'lmaydi (u to'la parchalanib ketgan). Lekin katta molekular massaga ega bo'lган ionlar jadallikligi juda yuqori.

Molekular massasi kichik bo'lган tarmoqlangan alkanlar spektrida  $(C_3H_7)^+$  -  $(C_6H_{13})^+$  ionlar odatda jadallikdir. Umuman,  $(C_3H_7)^+$  va  $(C_4H_9)^+$  ionlar deyarli barcha alkanlar spektrida uchraydi va nisbatan yuqori jadallikka ega. Asiklik alkanlarga nisbatan alisiklik uglevodorodlarda molekular ion jadallikligi katta.

**Alkanlar va alkinlar.** Alkenlar uchun quyidagi xususiyatlar xos.

1. Molekular ion cho'qqi jadallikligi normal alkanlardagiga nisbatan yuqori. Molekular massasi  $C_6 - C_{12}$  bo'lган alkenlarda  $M^+$  20-30 % o'rtasida bo'ladi, ba'zan esa 40 % dan ham ortiq.

2. Alkanlarda parchalanish asosan molekulaning o'lchamiga va tarmoqlanishiga bog'liq bo'lsa, alkenlarda qo'shbog'ning molekulanidan o'rniga hamda qo'shbog'ning yonida radikallarning bo'lish-bo'lmasligiga bog'liq.

3. Parchalanish xuddi alkanlardagi kabi zanjirning ko'proq tarmoqlangan joyidan boshlanadi.


4.Uzilish ko'pincha qo'shbog'ga nisbatan  $\beta$ -holatda sodir bo'ladi. Lekin vodorod atomining siljishi bilan bo'ladigan  $\alpha$ -uzilish ham alkanlar uchun xosdir.

5. Alkanlarda  $[C_n H_{2n+1}]^+$  formulaga muvofiq keluvchi ionlar ko'proq jadallik bo'lsa, alkenlar uchun bu ionlar  $[C_n H_{2n-1}]^+$  dir. Sikloalkenlarda molekular ion xuddi sikloalkanlarga o'xshab yuqori jadallikka ega. Alkenlar spektrida C-H bog'ning uzilishdan hosil bo'ladigan ionlar ham kuzatiladi. Masalan, etilen mass-spektrida

$(C_2H_3)^+$  ion mavjud. Propilen mass-spektri uning deyterohosilalari  $CH_3CD=CH_2$ ,  $CH_3CH=CD_2$ ,  $CD_3CH=CH_2$  bilan birga o‘rganilgan. Tekshirishlar ko‘rsatadiki  $(C_3H_5)^+$  ion  $CH_3CH=CH_2$  va  $CH_3CD=CH_2$  lardan baravar miqdorda hosil bo‘ladi. Bu aniqlik C-H (yoki C-D) bog‘ o‘rtadagi uglevod atomini uzilishini ko‘rsatadi. Alkinlarda uchbog‘ga nisbatan uzilish ko‘p kuzatiladi. Hosil bo‘ladigan ionlar  $[C_nH_{2n-3}]^+$  umuman formulaga muvofiq keladi.



Tarmoqlanmagan tuzilishli oralatma bog‘lanishli dien uglevodordolarning mass-spektrlari alkenlarnikiga o‘xshash bo‘lib, ular parchalanganda  $(C_3H_x)^+$  va  $(C_5H_x)^+$  ionlar hosil bo‘ladi. Biroq qo‘sibog‘ yonida to‘rtlamchi uglerod atomi tutadi yan dienlar mass-spektrlari farq qiladi.




Bu qatorda uglerod atomlari soni uch birlikka ortganda ( $C_8H_{11}$ ) molekular ionning jadallikligi besh marta kamayadi.  $C_8H_{14}$ ,  $C_9H_{16}$ ,  $C_{10}H_{16}$  kabi dienlar spektrida  $t/e$  95, 109, 123 bo‘lgan ionlar maksimal jadallikka ega. Bu ionlar molekuladan metil ( $M-15$ )<sup>+</sup> va etil ( $M-29$ )<sup>+</sup> radikallarining ajralib chiqishidan hosil bo‘ladi.

**Galogenli hosilalar.** C-X bog‘ C-C bog‘ga nisbatan beqaror bo‘lgani uchun galogenli hosilalarda C-C bog‘ning  $\alpha$ - $\beta$ -uzilishga nisbatan galogenning yoki vodorod galogenning ajralishi osonroq.





Ikkinchidan molekular ion galogen atomidagi umumlashmagan juft bitta elektronning urib chiqarilishi tufayli hosil bo‘ladi. Elektron ajratib chiqarish,  $RJ > RBr > RCl > RF$  tartibda bo‘ladi, ya’ni hammasidan ionli birikmalarda molekular ion oson hosil bo‘ladi. Bundan tashqari, galogenli hosilalarga  $\alpha$ - va  $\beta$ -qayta guruhlanib parchalanish ham xos. Molekular ionning hosil bo‘lishi va uning barqarorlashuvi  $J > Br > Cl > F$  tartibda o‘zgargani uchun galogenli

hosilalarda (18)→(19) tipidagi  $\alpha$ -parchalanish ftorlilarga qaraganda yodli birikmalarda oson boradi deyish mumkin:



aslida esa buning aksi kuzatiladi.  $\alpha$ -uzilish natijasida hosil bo‘ladigan, fragmentlar ( $M - 1^+$ ) va ( $\text{CH}_2 - X^+$ ) ftorli birikmalarga yuqori jadallikka ega. Bu hodisani faqat galogenlarning induksion effekti bilan tushuntirish mumkin.




57-rasm. Etil ftorid (A) va etil yodidning (B) mass-spektrlari.

Parchalanish asosan (20)→(21) yo‘nalishda borib, qisman (20)→(22) fragmentlanish ham sodir bo‘ladi. Ftor atomi induksion effektning galogenli hosilalar fragmentlanishiga ta’sirini va  $t/s$  47 ( $M-1^+$ ) (23) ning,  $t/e$  33 ( $M-\text{CH}_3$ ) (21) ga nisbatan intensivligidan ham ko‘rish mumkin. Boshqacha aytganda, odatda C-C bog‘ C—H bog‘ga nisbatan oson uzilsa ham spektrda (23) ionning jadallikligi yuqori.


Bunday parchalanishda ikkilamchi karbokation (23) ning birlamchi karbokation (21) ga nisbatan barqarorligi asosiy rol o'ynaydi. Quyida 2-xlor-2-metilbutan va 1-brom-4-metilpentanlarning mass-spektrlari keltirilgan (57-rasm).

$(M-Cl)^+$  m/e 71,  $(M-HCl)$  m/e 70,  $(M-Br)$  m/e 85 va  $(M-Br)$  m/e 84 cho'qqilar jadallikligiga e'tibor bering.

**Spirtlar.** Kislorod atomining umumlashmagan elektron juftining bitta elektroni urib chiqarilishidan  $M^+$  hosil bo'ladi. So'ngra molekular ion  $\alpha$ -uzilish bo'yicha fragmentlanadi:




58-rasm. 2-xlor-2-metilbutan va 1-brom-4-metilpentanlarning mass-spektrlari.




(27)-ni oksoniy ioni deyiladi.

Etil spirtda oksoniy ioni ikki usul bilan hosil bo'lishi mumkin:



$C_5-C_{10}$  spirtlar uchun uglevodorod ionning hosil bo‘lishi xosdir. Bu ion molekulasiidan OH vodorod atomi (ya’ni suv molekulasi) ning ajralishidan hosil bo‘ladi. Masalan, pentanol-1 spektrida aytilgan ion 12,3% ni tashkil etadi. Suv chiqib ketgach, uglevodorod ionning keyingi fragmentlanishi, tabiiyki, alkenlarnikiga o‘xshash bo‘ladi (59-rasm). ( $M-1$ ) ion propil va butil spirtlar spektrida ham kuzatiladi.





59-rasm.  $\text{CH}_3\text{OH}$  metil (a) va  $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$  etil (b) spirtlarining mass-spektrlari.

Bog‘ning uzilish turi	n	m/e	Nisbiy jadallik %
$\alpha$	0	31	100,0
$\beta$	1	45	8,2
$\gamma$	2	59	1,2
$\epsilon$	3	73	0,1

Tarmoqlanish darajasi ortib borishi bilan, masalan, birlamchi spirtlardan uchlamlchi spirtlarga o‘tilganda  $\alpha$ -uzilish juda oson bo‘lishi natijasida molekular ionniki spektrda umuman bo‘lmaydi. Birlamchi spirtlarda  $\alpha$ -uzilishdan tashqari  $\beta$ ,  $\gamma$ ,  $\epsilon$  uzilishlar ham mavjud. Bularga

muvoſiq ravishda m/e 45, 59, 73 ionlar to‘g‘ri keladi. Lekin bu uzilishlar natijasida vujudga keladigan fragmentlar jadallikligi bir-biridan farq qiladi. Buni quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin.


**Aldegid va ketonlar.** Ko‘p ionlar C-C bog‘larning uzilishi va vodorodning siljishi bilan boradigan  $\alpha$ ,  $\beta$ - parchalanishiga uchraydi.



Chumoli aldegida radikal bo‘lmagani uchun u o‘ziga xos parchalanadi:



Spektrda m/e 29 ion maksimal jadallikka ega.




Fragmentlanish odatda olti a’zoli halqasimon holat (35) dan iborat.

Ketonlarda  $\beta$ -uzilish ko‘p uchrasa ham  $\alpha$ -uzilish natijasida hosil bo‘ladigan fragmentlar aldegidlardagiga nisbatan yuqori jadallikka ega. Chunki  $\text{CH}_3-\text{C}\equiv\text{O}^+$  ion  $\text{H}-\text{C}=\text{O}$  ioniga qaraganda barqarordir. Ketonlardagi  $\beta$ -uzilish aldegidlardagiga farq qiladi. Birinchidan, aldegidlarda u vodorodning siljishi bilan bo‘ladigan  $\alpha$  uzilishda hosil bo‘ladigan qayta guruhlangan ion (37,  $\text{R}_1=\text{H}$ ,  $\text{R}_2=\text{H}$ ) hamma vaqt  $t/e$  44ga teng. Ketonlarda esa bu ion turlicha bo‘ladi. Masalan, metil keton (37,  $\text{R}=\text{CH}_3$ ,  $\text{R}=\text{H}$ ) da bu ion m/e 58 ni (agar tarmoqlanish uchinchi uglerod atomidan keyin boshlangan bo‘lsa) tashkil etsa, etil



(R= C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>) va izopropil (R= C<sub>2</sub>H<sub>7</sub>) ketonlarda muvofiq ravishda *m/e* 72 va 86 ni tashkil etadi.

Ikkinchidan, karbonil guruh bilan bog'langan alkil radikal uch yoki undan ortiq uglerod atom tutsa, qo'sh qayta guruhlanish yuz beradi. Birlamchi qayta guruhlanishda hosil bo'ladigan enol ion (38), olti a'zoli halqasimon holatdan o'tib, yana parchalanishi mumkin.



Taqqoslash uchun 60-rasmida kapron aldegid va oktanon-4 ning spektrлari keltirilgan.



**Benzol va uning hosilalari.** Benzol mass-spektringin o'ziga xos xususiyatlardan biri molekula ion jadalligining yuqori bo'lishidir. Chunki ochiq, zanjirli to'yinmagan ion hosil bo'lib, musbat zaryad ana shu strukturada delokallanadi:




**60-rasm a) kapron aldegid; b) oktanon-4 ning mass-spektrлari.**

Keyingi bosqichda (38) parchalanib, C<sub>3</sub>H<sub>3</sub> (*m/e* 39), C<sub>4</sub>H<sub>3</sub> (*m/e* 51), C<sub>4</sub>H<sub>5</sub> (*m/e* 53), C<sub>6</sub>H<sub>4</sub> (*m/e* 76), C<sub>6</sub>H<sub>5</sub> (*m/e* 77).


Alkil benzollarda aromatik halqaga nisbatan (3-uzilish kuzatiladi. Bu uzilish toluol, etilbenzol, propilbenzol spirtda ion jadalligining maksimal bo'lishiga sababchi bo'ladi. Toluolda  $C_6H_5-CH_2-H$ , etilbenzolda  $C_6H_5-CH_2-CH_3$ , bog' uzatiladi. m/e 91 bo'lgan ionga ikki xil struktura muvofiq keladi (40) va (41).




(41) ion tropiliy kation deyiladi. Eksperimental tadqiqotlar (41) formulani taqozo qiladi. Propiliy kation parchalanib, m/e 65 ion - pentadienil kation hosil bo'ladi:




Shunday qilib, benzol molekular ionining barqarorligi tropiliy ionining hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Toluoldan tropiliy-kationga o'tishini quyidagicha ifodalash mumkin:



Alkilbenzollarning fragmentlanishini n-butilbenzol misolida ko'rib chiqamiz.




yoki




(46) strukturining hosil bo‘lishi energetik qulayligi aniqlangan.

**Fenollar va aromatik aminlar.** Fenol mass-spektrida juda jadal  $(M-1)^+$  va  $(M-28)^+$  cho‘qqilar kuzatiladi. Bu ionlar molekular iondan vodorod atomi va CO molekulasining ajralib chiqishidan hosil bo‘ladl. Agar  $M^+$  dan CHO guruh ajralsa,  $(M-29)^+$  ion hosil bo‘ladi, lekin uning jadalligi nisbatan kam:



Aromatik aldegidlar va diarilketonlar ham CO va CHO ajratish bilan parchalanadi. Aromatik nitrillar ham shunday xossaga ega. Masalan, anilin mass-spektrida maksimal cho‘qqi  $M^+$  bilan bir qatorda  $(M-1)^+$ ,  $(M-27)^+$ ,  $(M-28)^+$  ionlar uchraydi: Alkil anilinlar uchun aminotropiliy ioni (7,54) hosil bo‘lishi xos.



Nihoyat, mass-spektroskopiyadan foydalanish imkoniyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Ikkita moddaning bir xilligini isbotlash. Buning uchun har ikkala moddaning mass-spektrlari bir xil sharoitida olinib, o'zaro taqqoslanadi. Spektrlar aynan bir xil bo'lsa, ikkala modda ham bitta narsadir.

2. Yangi olingan moddaning tuzilishini aniqlash. Bunda dastlabki juda ko'p birikmalarning elektron zarb ta'sirida parchalanish qonuniyatlari o'rganiladi, ya'ni ularning spektrlari olinib, fragmentlanishning molekular tuzilish bilan bog'liq qonuniyatlari topiladi. Shundan keyingina yangi moddaning spektri olinib, u muayyan ma'lum eksperimental fakt (masalan, spektrlar) bilan solishtiriladi. Asosiy fragmentlar o'xshash bo'lsa, yangi modda shu sinfga oidligiga ishonch hosil qilinadi.

3. Elementlar izotoplarini bir-biridan ajratishda mass-spektrometriyadan foydalanish hozirgi paytda davriy sistemadagi barcha elementlarning izotop tarkibi aniqlangan. Ana shu maqsadda ishlatalidigan asboblar mass-spektrometrler deyiladi. Molekula tuzilishini aniqlash uchun foydalanadigan asboblar mass-spektrometrler, usulning o'zi esa mass-spektrometriya deb ataladi.

### **Mayzuni mustahkamlash uchun nazorat savollar**

1. Mass-spektrometriya tahlil qilish usulini vazifasi nimadan iborat?
2. Mass-spektrometriyada ion va kationlar qanday hosil bo'ladi?
3. Mass-spektrometriyada modda nima uchun bombardimon qilinadi?
4. Mass-spektrometriyada bog'larining uzilishi qanday?
5. Mass-spektrda ko'pincha massasi kasr songa teng bo'lgan ionlar kuzatiladi, nima sababdan shunday qilinadi?
6. Fotonlarning paydo bo'lishi qanday sodir bo'ladi?
7. Ionlarning hosil bo'lishini tushuntiring.
8. Mass-spektrometriyada parchalanish turlari haqida nima bilasiz?
9. Parchalanishga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
10. Fragmentlanish jarayoni qanday boradi?
11. Geterolitik parchalanish sodir bo'lishini izohlang.
12. Gomolik tarzda parchalanish qachon sodir bo'lishi mumkin?
13. Qachon  $\alpha$ -parchalanish deyiladi?

14. Organik moddlarning mass-spektri haqida tushuncha bering.
15. Tarmoqlangan zanjirli alkanlarning mass-spektrlari qanday bo'ladi?
16. Spirtlar, aldegid va ketonlarning parchalanishini izohlang.
17. Fenollar va aromatik aminlarning mass-spektrlari qanday bo'ladi?
18. Benzol mass-spektrining qanday xususiyatlarini bilasiz?
19. Tarmoqlangan zanjirli alkanlar uchun qanday qonuniyatlarni bilasiz?
20. Mass-spektroskopiyadan foydalanish imkoniyatlari haqida tushuntirib bering.

## **VI bob. XROMATOGRAFIK TAHLIL USULLARI**

### **6.1-§. Xromatografik tahlil usulining nazariy asoslari**

Neft va gaz mahsulotlaridan olingen kimyoviy birikmalarni ajratish, tahlil qilish va ularning xossalarni tekshirishning kimyoviy, fizikaviy va fizik-kimyoviy usullari orasida xromatografik tahlil usullari muhim o'rinni egallaydi.

Xromatografik tahlil usullari soddaligi, samaradorligi, tanlovchanligi, tezkorligi, shuningdek, uni boshqa fizik-kimyoviy usullar bilan birgalikda avtomatlashtirish mumkinligi tufayli keng tarqalgan.

Xromatografiya usullarining o'ziga xos xususiyati ularning universalligida bo'lib, turli konsentratsiyalarda olingen anorganik va organik qattiq, suyuq hamda gазsimon moddalarni ajratish va aniqlashiga imkon beradi. Bu usullarning yana bir muhim tomoni shundaki, ular yordamida xossalari bir-biriga yaqin bo'lgan birikmlarni to'la va oson ajratish mumkin.

Xromatografiya tekshiriluvchi obyektlarni sifat va miqdoriy tahlil qilishga, moddalarning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganishga, texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatik boshqarishga imkon beradi. Keyingi vaqtarda xromatografiya atrof-muhitni nazorat qilishning asosiy usullaridan biri bo'lib qoldi.

Xromatografiyaga birinchi bo'lib, rus botanik olimi M.S. Svetning tadqiqotlari va 1903-yilda bosib chiqarilgan «Adsorbsion hodisalarining yangi kategoriyasi hamda ularning biokimyoviy tahlilda qo'llanilishi» nomli maqolasi orqali asos solindi.

O'zi taklif etgan usulning asoslarini Svet quyidagicha ta'riflaydi: «Aralash eritma adsorbent ustuni orqali filtrlanganda pigmentlar turli rangdagi alohida zonalarga ajraladi. Murakkab pigmentning turli turkibiy qismlari spektrdagи yorug'lik nurlari singari adsorbent ustunida ma'lum qonuniyat asosida bir-biridan har xil rangli qavatma-qavat bo'lib ajraladi va ularni sifat jihatdan aniqlash imkonи tug'iladi. Bunday rang-barang preparatni men xromatogramma deb, tegishli usulni esa xromatografik usul deb atadim».

Moddalarni xromatografik ajratish usullari sorbsiya jarayonlariga asoslangan. Bu yerda sorbsiya deganda gaz, bug' yoki erigan moddalarning qattiq yoki suyuq yutuvchilarga (sorbentlar) yutilishi tushuniladi. Teskari jarayon desorbsiya deyiladi. Sorbsiya tushunchasi umumiy bo'lib, u adsorbsiya (fazaning sirtiga yutilish) va absorbsiya (fazaning hajmiga yutilish) dan iborat.

Sorbsiyani ikki yo'l bilan: statik va dinamik sharoitda amalgalashirish mumkin. Statik sorbsiya ikkala fazaning nisbiy harakatsiz holatida ro'y beruvchi sorbsion jarayon bo'lib, moddaning fazalar orasida taqsimlanish muvozanati qaror topishi bilan yakunlanadi. Dinamik sorbsiya harakatchan faza harakatsiz fazaga nisbatan bir yo'nalishda siljiyidigan sorbsion jarayondir. Moddalar aralashmasini xromatografik ajratish usuli dinamik sorbsiya jarayoniga asoslangan. Barcha xromatografik usullarning mohiyati shundaki, tarkibiy qismlarga ajratiladigan modda harakatchan faza (suyuq yoki gazsimon) bilan birgalikda harakatsiz sorbent (harakatsiz faza) qatlami orqali o'tadi, yutilishi turlichcha bo'lgani uchun sorbent orqali turlichcha tezlikda o'tadi. Aralashmalarni ajratishning ba'zi turlaridan farqli ravishda xromatografik usullarning o'ziga xos xususiyati sorbsiya va desorbsiya jarayonlarning sorbentning yangi qatlamlarida ko'p marta takrorlanishidadir. Bu esa ajratishning juda samarali bo'lishini ta'minlaydi. Demak, xromatografiya aralashmalarni ajratishning dinamik, sorbsion usuli bo'lib, u moddalarni ikki faza orasida taqsimlanishiga asoslangan (fazalardan biri harakatchan bo'lib, ikkinchisi qo'zg'almas) va sorbsiya hamda desorbsiya jarayonlarining ko'p marta takrorlanishi bilan bog'liq.

Xromatografik usullarni klassifikatsiyalashning turli yo'llari mavjud.

1. Qo'zg'almas va harakatchan fazalarning fizik tabiatiga qarab suyuqlik xromatografiyası (harakatchan faza suyuq bo'lganida) va gaz xromatografiyası (harakatchan faza gaz bo'lganida). Suyuqlik xromatografiyasını o'z navbatida qo'zg'almas fazaning agregat holatiga qarab qattiq-suyuq fazali xromatografiyaga (QSX) (qo'zg'almas faza qattiq modda) va suyuq-suyuq fazali xromatografiyaga (SSX) (qo'zg'almas fazasi suyuqlik) ajratish mumkin. «Suyuqlik-suyuqlik» xromatografiyası (SSX) ko'pincha taqsimlovchi xromatografiya, deb yuritiladi.


Gaz xromatografiyasi qo‘zg‘almas fazaning agregat holatiga qarab «gaz-adsorbsion» (GAX) va «gaz-suyuqlik» xromatografiyasiga (GSX) yoki gaz taqsimlovchi xromatografiyaga bo‘linadi.

2. Sorbsiya mexanizmiga qarab xromatografiya molekular va xemosorbsion xromatografiyaga bo‘linadi. Molekular xromatografiyada qo‘zg‘almas (sorbent) bilan ajratilayotgan aralashmaning tarkibiy qismlari orasidagi o‘zaro ta’sir kuchlari tabiatini bo‘yicha molekulalararo Van-der-Vaals kuchlaridir. Xemosorbsion xromatografiyaga ion almashish, cho‘ktirish, kompleks hosil qilish (yoki ligand almashish), oksidlanish-qaytarilish xromatografiyasi kiradi. Xemosorbsion xromatografiyada tegishli kimyoviy reaksiyalar sorbsiyaga sabab bo‘ladi.

3. Xromatografiyalash usullari bo‘yicha frontal, ochiltirish (elyuent) va siqib chiqarish xromatografiyalariga bo‘linadi. Tahliliy kimyoda ko‘pincha, ochiltirish usuli qo‘llaniladi.

4. Bajarish texnikasi bo‘yicha kolonkali (nayli) xromatografiya (qo‘zg‘almas faza nayda joylashtirilgan) va yuza qog‘oz xromatografiyasi hamda yupqa qatlamlı xromatografiyalarga (qo‘zg‘almas faza sorbent qog‘oz varag‘iga yoki shisha va metall plastinkaga yupqa qatlam qilib joylashtirilgan) ajratiladi.

Xromatografik tahlilning mohiyati quyidagilardan iborat. Kolonkaga (sorbentning yupqa qatlamiga, yoki qog‘oz lentaga) ajratiladigan aralashmadan ozgina (qo‘zg‘almas faza sig‘imidan juda kichik hajmda) solinadi. Aralashmaning tarkibiy qismlari sorbentning yuqori qatlamlarida (tekis yuzadagi xromatografiyada esa namuna solingan joyda) yutila boshlaydi. Bunda yaxshi yutilmaydigan komponent kolonka bo‘ylab keyingi qatlamlarga (qog‘ozda dog‘ning chekkalari tomon) yaxshi yutiladiganlariga nisbatan kattaroq tezlik bilan o‘tadi. Dastlabki xromatogramma hosil bo‘ladi, unda aralashma tarkibiy qismlarga hali to‘liq ajralmagan bo‘ladi. Aralashmani tarkibiy qismlariga to‘liq ajratish uchun dastlabki xromatogrammani ochiltirish (aralashma tarkibiy qismlarini erituvchida eritish) kerak. Buning uchun xromatografik kolonka biror erituvchi bilan yuviladi. Xromatogramma ochiltirilganda aralash zonalar alohida zonalarga ajraladi, ularning har birida alohida modda bo‘ladi, keyin bu zonalar kolonka bo‘ylab aralashib ketadi (61-rasm).



### *61-rasm. Xromatografik kolonka*

*1- adsorbent (yutuvchi modda); 2-3- harakatchan (tekshirilayotgan) faza.*

Bunda qo'zg'almas va harakatchan fazalar orasida taqsimlanish koeffitsiyenti katta bo'lgan moddalar kolonka bo'ylab tezroq harakatlanadi va kolonka harakatchan faza bilan yetarli darajada yuvilganda kolonkadan birinchi bo'lib chiqadi. Kolonkadan chiqayotgan elyuat filtrat tarkibida aralashmaning alohida komponentlari bo'ladi, ularni biror idishga yig'ish va mos keluvchi usullar bilan tekshirish mumkin.

Har qanday sorbsiya jarayonining o'ziga xos taqsimlanish konstantasi ( $K_{taqs}$ ) bo'ladi. Bu konstanta ma'lum bir shakldagi mod daning qo'zg'almas fazadagi muvozanat konsentratsiyasining ( $S_1$ ) moddaning harakatchan fazadagi konsentratsiyasiga ( $S_2$ ) nisbatidan iborat;

$$K_{taqs} = S_1 / S_2$$

Xromatografiyada aniqlanuvchi modda ikkala fazada ham bo'lishi mumkin. Bu holda taqsimlanish koeffitsiyenti  $K_D$  aniqlanuvchi modda A ning muvozanat holatida fazalar orasida

taqsimlanishini belgilaydi va quyidagi ifodalovchi koeffitsiyentdan foydalaniladi:

$$K_D = C_{A_{\text{qo'zg}}} / C_{A_{\text{har}}}$$

bunda  $C_{A_{\text{qo'zg}}}$  va  $C_{A_{\text{har}}}$  turli shakllardagi A moddaning (miqdorining) tegishlicha qo'zg'almas va harakatchan fazalardagi umumiy tahliliy konsentratsiyasi. Taqsimlanish koeffitsiyenti aniqlanuvchi modda tabiatiga, qo'zg'almas va harakatchan fazalar tabiatiga, haroratga, pH ga, suyuqlik xromatografiyasida esa eritmaning konsentratsiyasi va ion kuchiga bog'liq bo'ladi.

Ayni modda zonasining harakatlanish (siljish) tezligi taqsimlanish koeffitsiyenti  $K_D$  ga teskari mutanosibdir.  $K_D$  ning qiymati katta bo'lganda moddaning ko'proq qismi harakatsiz fazada bo'lib, juda sekin siljiydi.  $K_D$  kichik bo'lganida modda kolonka bo'ylab harakatchan faza bilan birga tez harakatlanadi.  $K_D$  qiymati turlicha bo'lgan har qanday ikkita modda turli tezlik bilan harakatlanadi va bu xromatografik ajratish usulining asosiy omili hisoblanadi.

### Xromatografik tahlilda xromatogrammaning o'chamlari


Agar harakatchan faza oqimining ma'lum xossasini sorbent qatlidan chiqishida vaqt birligida yoki harakatchan faza hajmida o'zgarishi qayd qilib turilsa, registrator lentasida chiqish xromatografik egri chizig'i-xromatogramma yoziladi (62-rasm). Chiqish egri chizig'inining tutib qolish parametrleri deb ataluvchi parametrleri aralashmadagi moddalarni ajratish natijalarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ajratiluvchi moddalarga nisbatan qo'zg'almas fazaning sorbsion qobiliyati tutib turish vaqtı  $t_R$  bilan tavsiflanadi. Bu xromatogrammada moddani sorbent qatlamiga kiritish paytidan moddaning sorbent qatlidan maksimal konsentratsiyada harakatchan faza oqimida chiqishini ochiltirish paytigacha bo'lgan oraliqni ko'rsatadi. Bunda harakatchan fazaning sorbent qatlidan o'tgan hajmi tutib qolish hajmi  $t_R$  deyiladi:

$$v_R = t_R \cdot v$$

bu yerda,  $v$  – harakatchan fazaning hajmi tezligi.

$t_R$  ( $v_R$ ) orqali yutilmaydigan komponentning tutilib qolish vaqtı (hajmi) belgilanadi.



**62-rasm. Differensial xromatografiya egri chiziqlari:**  
1-nol chiziq; 2- sorbsilanmaydigan komponentga xos chiziq;  
3, 4-tahsil qilinayotgan komponentlarga tegishli chiziqlar.

Chiqish egri chizig‘ining (cho‘qqining) balandligi h cho‘qqining maksimumidan nol chizig‘igacha tushirilgan tik chiziqdır. Nol chizig‘i xromatogrammaning bir qismi bo‘lib, kolonkadan toza holdagi harakatchan fazada chiqishi paytidagi detektor signalini qayd etish natijasida olinadi. Cho‘qqi kengligi  $\mu$  egri chiziqning bukilish nuqtalarda egri chiziqqa o‘tkazilgan urinmalarning nol chiziqda kesgan kesmasi yoki balandlik o‘rtasidagi  $\mu_{0.5}$  cho‘qqi konturi nuqtalari orasidagi masofa.

**Xromatografik ajratishning samaradorligi.** Xromatografiyalash jarayonida modda sorbent qatlamlari orqali harakatlanib, qo‘zg‘almas va harakatchan fazalar orasida taqsimlanadi. Bunda modda zonası yuvilib aralashib ketadi. Ikki yonma-yon komponent zonalari qancha ko‘p yuvilib ketgan bo‘lsa, ularni bir-biridan ajratish shuncha qiyin bo‘ladi. Xromatografiya zonasining yuvilib ketish o‘lchami ekvivalent nazariy tarelkalar balandligi ENTB yoki N hisoblanadi.

Kolonkali xromatografiya uchun nazariy tarelkalar soni N quyidagi formulalarga asoslanib hisoblab topiladi:

$$N = 5,54(t_R / \mu_{0.5})^2$$

$$N = 15(t_R / \mu)^2 \quad (32)$$

ENTB quyidagi formuladan hisoblab topiladi:  $ENTB = L / N$  bu yerda L – kolonkaning uzunligi, mm.

ENTB ning qiymati qancha kichik bo'lsa, kolonka shuncha samarali ishlaydi va xromatogrammada cho'qqilar shuncha tik bo'ladi.

**Ajratishni baholash mezoni.** Xromatografik ajratishni miqdoriy jihatdan baholash uchun tajriba parametrlariga: sorbent tabiatiga, xromatografiyalash harorati va boshqalarga bog'liq ravishda ajratish sifatini tavsiflovchi mezonlardan foydalaniladi. Ular qatoriga ajratish darajasi (omili)  $\alpha$ , tanlovchanlik mezoni  $K_t$ , ajratish mezoni R kiradi. Ajratish darajasi  $\alpha$  ajratiluvchi aralashmadagi komponentlarning nisbiy tutib qolinishini, qo'zg'almas fazaning tanlovchanligini tavsiflaydi.  $\alpha$  quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$\alpha = (\nu_{R_2} - \nu_{R_0}) / (\nu_{R_1} - \nu_{R_0}) = (t_{R_2} - t_{R_0}) / (t_{R_1} - t_{R_0}) = \frac{K_{D_2}}{K_{D_0}} \quad (33)$$

Ajratish darajasi  $\alpha$  birdan cheksizgacha o'zgaradi. Tanlovchanlik mezoni  $K_t$  sorbentning tanlovchanligini tavsiflaydi, u quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$K_t = (\nu_{R_2} - \nu_{R_0}) / (\nu_{R_2} + \nu_{R_0}) = (t_{R_2} - t_{R_0}) / (t_{R_2} + t_{R_0}) \quad (34)$$

Tanlovchanlik mezoni  $K_t$  ning qiymatlari 0 dan 1 gacha o'zgaradi.  $K_t=0,4$  bo'lganida komponent to'liq ajratilgan bo'ladi.

Ajratish mezoni R ajratish to'liqligiga kolonka samaradorligining va sorbent tanlovchanligining ta'sirini hisobga oladi. U quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$R = 2\Delta t_{R_2} / (\mu_1 + \mu_2) \quad (35)$$

Ajratish mezoni R noldan cheksizgacha qiymatlarga ega bo'lishi mumkin.  $R=1$  bo'lganda komponentlar to'liq ajratiladi.

## **6.2-§ Xromatografiyada adsorbentlar va ularni qo'llash usullari**

Hozirgi tez bajariladigan suyuqlik adsorbsion xromatografiyasida (SAX) yuqori tanlovchanlik va samaradorlikni ta'minlabgina qolmay, shuningdek, xromatografiya jarayonini gaz xromatografiyasidagi kabi tezlikda olib borishni ham ta'minlovchi adsorbentlardan foydalani-ladi. Buning uchun adsorbent sirtining tegishli yutish xossalardan tashqari, ma'lum o'ziga xos tuzilishi (g'ovaklarining diametri, chuqurligi, soni) ham muhimdir. Bulardan tashqari, adsorbent yana quyidagi xossalarga ega bo'lishi kerak: 1) yetarli darajada tanlovchan, 2) kimyoviy va katalitik jihatdan inert; 3) adsorbsiya izotermasi to'g'ri chiziqlikka yaqin; 4) mexanik pishiqligi ancha katta bo'lishi kerak.

Arsorbentning tanlovchanligi birinchi navbatda uning sirtining yutiluvchi modda bilan o'zaro ta'sir kuchiga bog'liq. Qutbsiz adsorbentlarda bu o'zaro ta'sir kuchlari dispersion kuchlar bo'ladi. Moddaning qutbli adsorbent sirtiga yutilishida vodorod bog'lanish hosil bo'lishi yoki boshqa qutbli o'zaro ta'sir kuchlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Klassifikatsiyalash jihatdan adsorbentlarni uch turga bo'lish mumkin:

Birinchi turi: nospesifik adsorbentlar, ularga grafitlangan qurum kiradi. Bu turdag'i adsorbentlar sirtida almashinishga qodir funksional guruh va ionlar bo'lmaydi. Yuqori molekular uglevodorodlarni, masalan, polietilenni ham shu turga kiritish mumkin.

Ikkinci turi: spesifik adsorbentlar, ularning sirtida ma'lum joylarda musbat zaryadlar, masalan silikagellarda gidroksil guruhlar, seolitlarda kationlar to'plangan bo'ladi. Bu turdag'i adsorbentlarga ayrim chetki zvenolarida elektron zichligi to'plangan molekulalar bilan o'ziga xos ta'sirlanish xarakterlidir.

Uchinchi turi: sirtida elektron zichligi to'plangan bog'lanishlar yoki atomlar guruhlari bo'lgan spesifik adsorbentlar. Bunday adsorbentlar nospesifik adsorbentlar sirtiga elektron zichligi to'plangan molekulalarning monoqatlamini joylashtirish yo'li bilan olinadi. Bu turdag'i adsorbentlarga qutbli serg'ovak polimerlar kiradi.

Adsorbentlardagi xromatografik zonalarning yuvilib ketish sabablarini ko'rib chiqishda shuni nazarda tutish kerakki, adsorbsiya izotermasi ko'pincha to'g'ri chiziq shaklida bo'lmaydi, natijada

zonaning orqa tomoni asimmetrik yuvilib ketadi va xromatogrammada «dum» lar paydo bo‘ladi.

Yaxshi adsorblanuvchi moddalarning xromatografik zonalari yuvilib ketishining sabablaridan biri adsorbsiya izotermasining to‘g‘ri chiziqli bo‘lmagani tufayli yuvilib ketishidan tashqari, tashqi difuzion massa o‘tkazishning sekin borishidir. Bu adsorbentlarda tor g‘ovaklar mavjudligi orqali tushuntiriladi. Adsorbent g‘ovaklarini kengaytirish yuvilib ketishni kamaytirish va tahlil tezligini oshirishning samarali vositasidir,

Adsorbentlar kamdan-kam hollarda barcha aytilgan talablarga javob beradi. Adsorbentlarning ayrimlari ba’zi moddalarni qaytmash tarzda yutadi, boshqalari katalitik ta’sir ko‘rsatadi, uchinchilari xromatografiyanuvchi moddalarning polimerlanishiga imkon beradi. Shuning uchun gaz-adsorbsion xromatografiyada, ko‘pincha, adsorbentlarni modifikatsiyalashdan foydalaniladi. Adsorbentlar quyida-gicha modifikatsiyalaianadi: 1) kislota, ishqor yoki anorganik tuzlar bilan ishlov berish; 2) qutbli adsorbentlar sirtidagi gidroksil guruhlarni xlorsilan yoki boshqa moddalar vositasida bog‘lash; 3) suv bug‘i bilan to‘yintirish; 4) geometrik modifikatsiyalash.

Birinchi usul xalaqit beruvechi aralashmalarni, masalan, silikagel kabi adsorbentlardagi metall oksidlarini chiqarib yuborishni ta’milaydi.

Ikkinci usulda adsorbent sirtda joylashgan faol guruhlari nofaol guruhlarga almashtiriladi. Masalan, silikagelni silanlashda gidroksil guruhlari nofaol metall guruhlarga almashinadi.

Uchinchi usulda adsorbentlarning dezaktivatsiyasi, ya’ni faolligining kamayishi sodir bo‘ladi. Masalan, suv bug‘lari miqdorini o‘zgartirish natijasida aluminiy oksidining adsorbsion faolligini o‘zgartirish mumkin. Bundan tashqari, adsorbent yuzasiga bug‘lunmaydigan organik suyuqliklar kiritish ularning faolligini pasaytiradi. Bu usul quruq tashuvchi yuzasiga suyuq faza kiritish singaridir. Geometrik modifikatsiya usuli adsorbentlarni 900-1000°C da qizdirishdan iborat bo‘lib, bunda qovushib qolish natijasida adsorbentdagи g‘ovaklarning strukturasi o‘zgaradi va ultrag‘ovaklar yo‘qolib, adsorbent sirtida faqat yirik g‘ovaklar qoladi.

Keyingi vaqlarda qattiq inert tashuvchi yuzasiga adsorbent changini o‘tkazish orqali adsorbentlarni modifikatsiyalash usuli keng turqaimoqda. Adsorbent changini kapillarning ichki devorlariga ham

shimdirish mumkin. Bunda gaz-suyuqlik kapillar xromatografiyasiga gaz-adsorbsion kapillar xromatografiyasiga aylanadi.

Gaz-adsorbsion xromatografiyada turli markali silikagellar, faollantirilgan ko'mir, grafitlangan qurum singari qutbli adsorbentlar ishlatiladi. Molekulalarining geometrik o'lchamlari turlicha bo'lgan moddalar aralashmasini tarkibiy qismlarga ajratish uchun, ko'pincha molekular elaklardan-seolitlardan foydalaniladi. Keyingi vaqlarda adsorbentlar sifatida g'ovak polimerlar tobora kengroq ishlatilmoqda.

**Silikagel:** kapillar strukturali gidrofil sorbent bo'lib, uning adsorbsion qobiliyati yuzasida joylashgan silanol  $\equiv\text{SiOH}$  guruuhlarining mavjudligi tufaylidir, bu guruuhlar sorbat molekulalari bilan vodorod bog'lanish hosil qiladi.

**Aluminiy oksidi:** katta solishtirma yuzali qutbli, sorbent bo'lib, organik adsorbentlarga nisbatan uning issiqqa chidamliligi yuqori va adsorbsion sig'imi kichikroq bo'ladi.

**Seolitlar:** kristall panjarasidagi g'ovaklarining o'lchamlari muayyan va o'zgarmas bo'lgan sintetik sorbentlar bo'lib, ular molekular elaklar deyiladi.

**G'ovak shishalar:** g'ovaklari bir-biri bilan tutashib bir fazoviy panjara hosil qilgan borosilikat shishalardir. Ular qattiq inert tashuvchilar sifatida gaz-suyuqlik xromatografiyasida ishlatiladi. G'ovak shishalarning adsorbsion xossalari ularda silanol guruuhlar mavjudligi tufayli bo'lib, bu guruuhlar molekulasida elektrodonor funksional guruuhlar bor moddalar bilan vodorod bog'lanish hosil qiladi. G'ovak shishalarning shu maqsadda ishlatiluvchi boshqa materiallardan asosiy farqi ularning kimyoviy inertligi, g'ovaklarining o'lchamlarini nazorat qilish mumkinligi va regeneratsiya qilish osonligidadir.

**Faollantirilgan ko'mirlar:** juda serg'ovak tuzilgan adsorbentlar bo'lib, ular uglevodorodlar va ularning hosilalarini, aromatik birikmalarni, bo'yoq moddalarni tanlab adsorblaydi (yutadi). Quyi spirtlar, karbonat kislotalar va murakkab efirlarni kamroq yutadi.

**Grafitlangan qurum:** odatdagи qurumga  $3000^{\circ}\text{C}$  da vakuumda yoki inert gaz muhitida ishlov berish orqali olinadi. Grafitlangan qurum sirtining adsorbsion xossalari grafit guruhining adsorbsion xossalariiga juda yaqin bo'lib, ular nospesifik adsorbentlar qatoriga kiradi.

**Polimer sorbentlar:** keyingi vaqlarda gaz xromatografiyasida keng ishlatila boshlandi. Stirol, etilstirol va divinilbenzol asosida

tayyorlangan g'ovak materiallar eng ko'p ishlatiladi. G'ovak polimerlar mexanik jihatdan pishiq, sirti katta, tanlovchanligi kuchli va termik jihatdan ancha barqaror bo'ladi.

**G'ovak polimerlar:** juda tanlovchan adsorbentlar sifatida gaz-adsorbsion va suyuqlik-adsorbsion xromatografiyasida ko'p komponentli aralashmalarni tarkibiy qismlarga ajratishda, shuningdek, gaz-suyuqlik xromatografiyasida tashuvchi sifatida ishlatiladi.

**Yuza qatlamlı sorbentlar:** keyingi vaqtlardagina ishlatila boshlandi. Faol moddalari tashuvchining faqat tashqi yuzasida bir tekisda taqsimlangan sorbentlar yuza qatlamlı sorbentlar deyiladi. Faol modda sifatida qattiq yoki suyuq sorbent xizmat qilishi mumkin. Sorbent qatlaming yupqaligi va yutiladigan moddalarning sorbentga yetib borishi osonligi tufayli sorbentlarning sirt qatlamlarida massa uzatishga qarshilik kamayadi va demak, sorbsion qatlamda turish vaqtı qisqaradi. Bu esa xromatografik kolonkaning samaradorligi ortishiga olib keladi.

**Yuzasi g'ovak adsorbentlarda (YuG'A):** chuqur g'ovaklar bo'Imagani sababli g'ovaklardagi harakatchan fazada moddalarning tutilib turish vaqtı qisqaradi va massa almashish tezligi ortadi. YuG'A jarayonni muvozanatga yaqin sharoitlarda, yuvilib ketish tezligini susaytirmay olib borish imkonini beradi. Bulardan tashqari, YuG'A mexanik puxtaligi katta bo'ladi, chunki ularning o'zagi odatda shisha soqqachalardan iborat bo'ladi. YuG'A juda yaxshi regeneratsiyalanadi va oqimga nisbatan oz qarshilikka ega.

YuG'A ning adsorbsion xossalari yuza g'ovak qatlami sifatida ishlatiluvchi moddaning tabiatiga bog'liq. Masalan, faol qatlami silikagel bo'lgan YuG'A hajmiy g'ovak silikagellar kabi ishlatilaverdi. Ularda aminlar, amidlar, pestisidlar va qutbli ko'pchilik boshqa moddalar tahlil qilinadi. Faol qatlami polimerlardan iborat YuG'Ahar ham ishlatiladi.

Kossalaring majmui jihatdan YuG'A lar selektiv va juda samarali adsorbentlar sifatida hozirgi yuqori tezlikli suyuqlik adsorbsion xromatografiysi (SAX) da ishlatish uchun eng yaroqli adsorbentdir.

Adsorbent tanlashda SAX da yuzaga keluvchi quyidagi uch muammoga e'tiborni qaratish zarur:

- 1) aniqlanuvchi moddalarning kolonkada adsorbent bilan kim-yoviy yoki katalistik ta'sirlanishi natijasida yo'qolishi yoki o'zgarishi;
- 2) adsorbent ishlashini tiklash qiyinligi;

### 3) kolonkaning barqaror ishlamasligi.

Ishlatiladigan adsorbentlar odatda kislota yoki asos xossalariga ega bo'ladi. Shu sababli muhit pH iga sezgir xromatografiyalanuvchi moddalar o'zgarib qolishi mumkin. Masalan, adsorbent ishtirokida ko'pincha moddalarining oksidlanishga moyilligi ortib ketadi. Bunday hollar adsorbent tanlashda e'tiborga olinishi kerak. Shuning uchun adsorbentlarga oldindan ishlov beriladi yoki modifikatsiyalanadi. Masalan, suvda uzoq yuvish bilan kislotalilik xossasi kamaytiriladi. Xromatografiyalashni azot muhitida olib borish yoki erituvchiga antioksidantlar (oksidlanishga to'sqinlik qiluvchi moddalar) qo'shish yo'li bilan oksidlovchilarining ta'sirini kamaytirish mumkin. Eng yaxshi antioksidantlardan biri 2,6-diuchlamchi butil *n*-krezoldir.

**Gaz tashuvchi.** Gaz tashuvchini tanlash, asosan, ikki muhim omilga kolonkaning samaradorligi va sezgirligi, shuningdek, detektorning ilash prinsipiqa bog'liq. Bior gazni gaz tashuvchi sifatida ishlatish mumkinligi uning fizikaviy va kimyoviy xossalariga qarab aniqlanadi. Bularga gazning diffuziyalanish koefitsiyenti, qovushoqligi, kimyoviy inertligi, sorbsion xossalari kiradi.

Gazning reaksiyaga kirishish qobiliyati muhim rol o'yndaydi, bu xususiyati faqat gaz tashuvchining emas, balki tahsil qilinadigan moddalarining ham xossalariga bog'liq bo'ladi. Masalan, havo uncha yuqori bo'limgan haroratlarda aldegidlarni, olefinlarni oksidlaydi, lekin gaz sharoitda to'yangan uglevodorodlarga, fторli birikmalarga va nolinchi guruh elementlariga nisbatan inert bo'lib qoladi. Vodorod to'yinmagan birikmalarni gidrogenlashi mumkin. Bundan tashqari, vodorodning portlash xavfi bo'lgani sababli uni ishlatish ancha cheklangan.

Tashuvchi gazlarga asosan quyidagi talablar qo'yiladi. Ular: 1) kolonkaning samaradorligini belgilovchi zaruriy diffuzion xususiyatlarni ta'minlashi; 2) talab qilinuvchi sezgirlikka va detektorning ishlash prinsipiqa mos bo'lishi; 3) tekshiriluvchi moddalar va kolonka hamda detektor materialiga nisbatan inert bo'lishi; 4) mumkin qadar kamroq yutiladigan bo'lishi; 5) arzon, oson topiladigan va yetarli darajada toza bo'lishi kerak.

Tashuvchi gazlar sifatida ishlatish mumkin bo'lgan gazlar geliy, azot, argon, uglerod dioksid; kamroq hollarda havo, neon, kripton, metan va boshqalardir. Keyingi vaqtarda tashuvchi gaz sifatida suv bug'lari ishlata boshlandi.

### **6.3-§. Xromatografiyada ishlatiladigan kolonka va detektorlar**

Xromatografik kolonkaga konstruksion jihatdan ham, ishlatishga oid ham talablar qo'yiladi. Konstruksion talablarga kolonkaning uzunligi, ichki diametri, shakli, qanday materialdan tayyorlangani kiradi. Ishlatishga xos talablarga ichiga adsorbentning joylashtirilish zichligi, yuvib o'tadigan suyuqlikning harakatlanish tezligi, bosim gradiyenti, harorat, namunaning hajmi kiradi.

Kolonkaning uzunligi ajratish sharoitlarini tanlashda muhim ahamiyatga ega, chunki u kolonkaning samaradorligiga va tanlovchanligiga, tahlilning davom etish muddatiga ta'sir ko'rsatadi. Kolonkaning uzunligi ikki marta oshirilganda tahlil vaqtini ham ikki marta ortadi, ajratish mezoni esa kolonka uzunligining kvadrat ildizdan chiqarilgan qiymatiga mutanosib ravishda ortadi. Xromatografik qurilmalarda ishlatiadigan kolonkalarning uzunligi 15-150 sm gacha (10 m gacha yetadiganlari ham bor), diametri 2 dan 12-15 mm gacha bo'ladi. Diametrni kamaytirishga to'ldirish qiyinlashishi detektor sezgirligining pasayishi xalaqit beradi, orttirishga esa harakatchan fazasi siljish tezligining kamayishi xalaqit beradi.

Kalta kolonkalar odatda to'g'ri yoki U simon shaklda tayyorlanadi. Ularni uzunligi 3-4 m dan ortiq bo'lganda spiralsimon qilib tayyorlash tavsiya etiladi. Kolonkalar yupqa devorli shisha naylardan yoki zanglamaydigan po'latdan yasaladi. Shisha naylar ishlatish kolonkalarning sorbent bilan to'ldirilishini ko'z bilan ko'rib nazorat qilish imkonini beradi.

Kolonkani adsorbent bilan bir tekisda va bir xil zichlikda to'ldirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun adsorbent donachalarini sferik shaklga hamda bir xil diametrga (10-20 mkm) ega bo'lishi kerak. Bunday donachalar kolonkaning barcha hajmi bo'ylab bir tekisda va zichroq joylashadi. Adsorbent kolonkada zich joylashganda harakatchan fazasi va namuna ko'ndalang yo'naliishda yaxshi siljiydi, shuningdek, suyuqlik oqimining tezligi o'zgarmay bir xilda saqlanib turadi.

Kolonkaga kiritiluvchi namunaning hajmi adsorbentning joylashish zichligiga va donachalarining o'lchamiga bog'liq. Donachalar o'lchamining kichrayishi va joylashtirish zichligi ortishi bilan namuna hajmi ortadi va odatda 1 dan 10 sm/s ni tashkil qiladi.

Namuna kołonkaga dozator yordamida kiritiladi. Dozator namunani aniq miqdorda o'lchab olib, xromatografik kolonkaga kiritish uchun ishlatalidigan asbob. Dozatorga qo'yiladigan asosiy talablardan biri kiritiladigan namunalar o'lchamini va ularni kolonkaga kiritish sharoitlarini bir xilda saqlashdan iborat. Bundan tashqari, kolonkaga namuna kiritish kolonkaning xromatografik qurilma boshqa qismlarining ishlash sharoitini keskin o'zgartirmasligi, dozatorning ichki yuzasi esa namunaga nisbatan adsorbsion va katalitik faol bo'lmasligi kerak.

Gazsimon va suyuq namunalar xromatografik kolonkaga, odatda, maxsus shprislар vositasida, kiritish joyida kauchuk membranani (pardani) teshish yo'li bilan kiritiladi. Bunda gazsimon namunalar uchun gaz shprislari va suyuq namunalar uchun mikroshprislari ishlataladi. Mikroshprislari xromatografga mikrolitrning ulushlaridan tortib, to o'nlab mikrolitrlar hajmida namuna kiritishga imkon beradi. Ba'zan laboratoriya amaliyotida dozator sifatida meditsina shprislari dan foydalilanildi.

Qattiq holatdagi namunalar xromatografga ularni oldindan suyuqlikda eritish yo'li bilan kiritiladi yoki dozatorning o'zida bevosita qizdirib bug'latilgandan keyin kiritiladi.


Xromatografik kolonkaga to'ldiriladigan adsorbentga bir qator talablar qo'yiladi: ular zaruriy tanlovchanlikka yetarli darajada mexanik pishiqlikka ega bo'lishi, tekshiriluvchi aralashma komponentlariga nisbatan kimyoviy inert va oson topiladigan bo'lishi kerak.

Adsorbentlarni tanlashda fazalarning agregat holatiga, xromatografiyalash usuliga va boshqa omillarga e'tibor beriladi.

**Detektorlar.** Xromatografik kolonkadan chiqish joyida konentratsiyaning taqsimlanishi detektor deb ataluvchi maxsus asboblar vositasida qayd qilinadi. Gaz xromatograflarda detektor gaz oqimi yo'lida bevosita kolonkadan chiqish joyiga o'rnatiladi. Detektoring vazifikasi kolonkadan chiqish joyida konsentratsiyaning vaqtga bog'liqligini uzlusiz qayd qilib turishdan iborat. Xromatografiyalash natijalari detektor turini, uning konstruksiyasini to'g'ri tanlashga bog'liqdir. Detektorni tanlashda uning xromatografiyalanuvchi aralashmaning komponentlariga nisbatan yuqori sezgirligi, inersionligi kamligi; signalining namuna miqdoriga to'g'ri chiziqli bog'lanishda bo'lishi, takroriy o'lchashlarda bir xil natija berishi, ko'rsatishlarining barqarorligi, qurilmani soddaligi, ishlatishda qulayligi va arzonligi

asosiy ahamiyatga ega. Ikki turdag'i differensial va integral detektorlar ishlataladi. Differensial detektorlar xossalardan birining (konsentratsiya yoki oqim) vaqt bo'yicha oniy qiymatlarini qayd etadi (63-rasm, a). Integral detektorlar ma'lum vaqt sirasida chiqqan moddaning umumi miqdorini qayd etadi (63-rasm, b). Differensial detektorlarni o'z navbatida ikki turga bo'lish mumkin: konsentratsion detektorlar kolonkadan chiqayotgan modda konsentratsiyasini qayd qiladi va oqim detektorlari modda konsentratsiyasining oqim tezligiga ko'paytmasini qayd qiladi.

Ba'zan detektor ishining asosida yotuvchi jarayonning xususiyatiga asoslangan klassifikatsiyalashdan ham foydalaniadi.



*63-rasm. Differensial (a) va integral (b) detektorlar:  
s - konsentratsiya; d - modda miqdori; τ - vaqt.*

Masalan, detektorlar kimyoviy, fizik-kimyoviy, fizikaviy va biologik detektorlarga bo'linadi. Detektorda hosil bo'lувчи signal va uni yozish shakli detektor turiga bog'liq bo'lgani sababli detektorlarni turiga qarab klassifikatsiyalash prinsipial ahamiyatga ega. Xususan integral detektorlar o'zidan o'tuvchi moddaning umumi miqdorini qayd etadi. Shuning uchun integral detektorda clyuent usulida olinadigan hamda «vaqt-signal» koordinatalarida ifodalanadigan yozish pog'onali egri chiziq shaklida bo'ladi (63-rasm, b). Bunda pog'onaning balandligi xromatografik kolonkadan ma'lum vaqt oralig'ida chiqqan moddaning massasiga mutanosibdir. Integral detektorlarni darajalash differential detektorlarni darajalashga nisbatan ancha oson bo'ladi.

Eng ko'p tarqalgan differensial detektorlardan biri **katarometr** bo'lib, uning ishlash prinsipi qizdirilgan platina yoki volfram tolanning qurshilagini o'lchashga asoslangan, u yuvib o'tuvchi gazning issiqlik


o'tkazuvchanligiga bog'liq bo'ladi. Bir xil sharoitda qizdirilgan toladan ajraluvchi issiqlik miqdori gaz tarkibiga bog'liq. Aralashmadagi aniqlanuvchi komponentlarning issiqlik o'tkazuvchanligi tashuvchi gazning issiqlik o'tkazuvchanlidan qancha katta farq qilsa, katarometrning sezgirligi shuncha katta bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan eng qulay tashuvchi gaz vodoroddir, chunki uning issiqlik o'tkazish xususiyati ko'pchilik boshqa gazlarning issiqlik o'tkazishdan ancha kattadir. Ammo xavfsizlik texnikasini nazarda tutib, ko'pincha, issiqlik o'tkazishi yetarli darajada yuqori bo'lgan geliy ishlataladi. Keyingi vaqtarda katarometrlarda metall tolalar o'rniga elektr o'tkazuvchanligining harorat koeffitsiyenti metallarnikiga nisbatan yuqoriroq bo'lgan termostatlar ishlatala boshlandi. Katarometrning afzalliklari uning oddiyligi, yetarli darajada aniqligi va ishonchli ishlashidir. Lekin sezgirligi kuchli bo'lmagani tufayli u mikro aralashmalarni aniqlashda ishlatalidi.

Termokimyoviy detektorning ishlashi platina simining qarshilagini o'lichashga asoslangan. Bu qarshilik yonuvchan gazlar yonganida haroratning o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Gazlar xromatografik kolonkadan chiqishda qizdirilgan platina simga tegib katalitik ravishda yonadi. Termokimyoviy detektorning sezgirligi katarometrikiga nisbatan yuqoriroqdir. Termokimyoviy detektorning ishlatilishi yonuvchan moddalarga bog'liq ravishda cheklangan.

Alangali detektornig ishslash prinsipi gorelkaning vodorod alangasi unga organik moddalar kiritilganda o'zgarishiga asoslangan. Ionizatsion detektorlarning sezgirligi eng yuqori bo'ladi. Masalan, alangali-ionizatsion detektor (AID)  $10^{-12}$  gacha moddani aniqlashga imkon beradi. Bu detektorlarda vodorod gorelkasi alangasining elektr o'tkazuvchanligi o'lichanadi. Toza vodorod alangasining elektr o'tkazuvchanligi juda kichik bo'ladi. Vodorodda organik birikmalarning aralashmalari paydo bo'lganida alanga ionlanadi, ionlanish darajasi aralashmaning konsentratsiyasiga mutanosib bo'ladi va uni oson o'lichash mumkin. Bu turdag'i detektorlarning juda sezgirligi ularning keng qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Lekin alangan-ionizatsion detektorlar (AID) ning juda sezgirligi faqat organik birikmalariga nisbatan xos bo'lib, ammiak, vodorod sulfid, oltingugurt oksidlari, kislorod, azot va boshqa anorganik moddalarga nisbatan uning sezgirligi keskin pasayadi.

Argonli detektoring sezgirligi juda kuchli bo'lib, ularda aniqlanuvchi modda molekulalari  $\beta$  nurlanish ta'sirida metastabil holatga kelgan argon atomlari bilan to'qnashganda ionlanish sodir bo'ladi.

Termoion detektorda gorelka alangasiga ishqoriy metallarning tuzlari kiritiladi. Bunday alangaga fosfor birikmalari kirganida fosfor atomlari miqdoriga mutanosib ionlar oqimi hosil bo'ladi. Bu nihoyatda sezgir selektiv fosforli detektordir. Ultratovush detektorida ultratovushning gazning tarkibi va zichligiga bog'liq bo'lgan tezligi o'chanadi. Shu sababdan tashuvchi gaz sifatida molekular massasi aniqlanuvchi birikmalarnikidan anchagina farqlanadigan gazlardan foydalanish kerak. Sezgirlik chegarasi  $10^{-8}$  dan  $10^{-9}$  mol/s gacha. Bunday detektorda har qanday gazni ham detektorlash mumkin. Bunday turdagi detektorlarning muhim kamchiligi ularning elektr sxemasi murakkabligi va ularga harorat o'zgarishlari juda tez ta'sir etishidir. Boshqa turdagи masalan, diagrammali, gelyili detektorlar ham ma'lum.




**64- rasm. Xromatografik detektorlar:**

(a)-katalometr, (b)-ionizatsion detektor, (c)- elektron detektor.

1-gaz oqimi; 2-cho'g'langan sim; 3-alanga; 4- elektrodlar; 5- $\beta$  nur (elektronlar) tarqatuvchi manba.

Ionizatsion detektorlarning sezgirligi ancha katta bo'ladi. Ularning ishlash prinsipi tok kuchini o'chanishga asoslangan. Eng ko'p tarqalgani alangali-ionizatsion detektor bo'lib, unda alangaga kiritil-

gan moddalarni ionlashtiruvchi elektrodlar orasida hosil bo‘luvchi tok kuchi o‘lchanadi. Elektrodlarga kuchlanish berilgach, alangada elektrodlar orasida ionlar paydo bo‘lib, ionlanish tokini hosil qiladi (65; 66-rasmlar).




**65-rasm Alangali-ionlanish detektoring tuzilishi:**  
1-gorelka; 2,3-elektrodlar.

Elektronni qamrab oluvchi detektoring ham sezgirligi kattadir. Alanga ta’sirida gazda radikallar va erkin elektronlar hosil bo‘ladi. Aniqlanuvchi modda alangaga kiritilganda ionlar hosil bo‘lish tezligi keskin ortadi va detektorda signal toki paydo bo‘ladi, bu tok kuchaytirilib ro‘yxat qiluvchiga uzatiladi.

Detektordan chiquvchi impulslarni o‘lchash yoki yozib olish uchun sezgir ko‘rsatuvchi millivoltmetrlar va potensiometrlardan foydalilaniladi. Signalni qayd qilib, detektor signalini tashuvchi gaz hajmi  $V$  yoki uning sorbsion kolonkadan o‘tish vaqtiga t bog‘liqlik grafigi olinadi. Bu grafik xromatogramma deyiladi. Xromatogrammada tahlil qilinayotgan namunaning har bir tarkibiy qismiga mos keluvchi cho‘qqilar bo‘ladi.

Namuna kiritilgan paytdan to cho‘qqi yozib olinguncha o‘tgan vaqt ayni moddaning tutilib turish vaqtini deyiladi. Bundan tashqari, harakatchan fazaning tutilib turuvchi hajmi tushunchasidan ham

foydalilaniladi. Tutilib turish vaqtiga va tutilib turuvchi hajmi moddaning sifat belgilaridir.




#### 66-rasm. Xromatogramma:

A- tekshirilayotgan moddani asbobga kiritish; t- o'tish vaqtisi.

#### 6.4-§. Xromatografiyada sifat tahlili

Gaz xromatografiyasida kolonkaning vazifasi aralashmani alohida tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat. Ularning sifat tarkibini esa kolonkadan tashqarida ham aniqlash mumkin. Xromatografik kolonkada ajratilgan aralashmani sifat tarkibini aniqlashning ikki usuli bor: tutilib turish xarakteristikalari bo'yicha va boshqa tahliliy usullardan foydalananish orqali aniqlash. Birinchi usulda aralashmaning xromatografik kolonkadan chiqayotgan tarkibiy qismlari detektor orqali o'tadi va xromatogramma shaklida qayd etiladi. Xromatogramma aralashmaning sifat va miqdoriy tahliliga asos bo'ladi. Ikkinci usulda aralashmaning tarkibiy qismlari kolonkadan chiqishida biror tahlilatorga yuboriladi va kimyoviy yoki fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilinadi. Tipik xromatogramma 67-rasmida keltirilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki, yetta komponentdan

iborat bo‘lgan aralashmani: xromatografik usulda tarkibiy qismlarga ajratishga muvaffaq bo‘lingan. Bunda aralashmaning har bir qismiga xos cho‘qqi mavjud bo‘lib, xromatogrammada cho‘qqilarning paydo bo‘lish izchilligi ma’lum qonuniyat asosida bo‘lib, gomologik qatorda kislotalarning birin-ketin joylashishishga mos keladi.



*67-rasm. Suv va kislotalarni a aralashmasining xromatogrammasi (115 °C) da:*

1- suv; 2- chumoli kislota; 3-sirka kislota; 4-propion kislota;  
5- izomoy kislota; 6-n. moy kislota; 7-izovalerian kislota.

Aslida xromatografik sifat tahlili tutilib turish xarakteristikalaridan tutilib turish vaqtidan va unga mutanosib bo‘lgan tutilib turish hajmi hamda tutilib turish indeksidan foydalanishga asoslangan.

Sifatni tavsiflash uchun tutilib turishning mutlaq va nisbiy qiymatlaridan foydalaniladi. Lekin tutilib turishning mutlaq qiymatlaridan masalan, solishtirma tutilib turish hajmi  $V_g$  dan foydalanilganda olingan natija ishonchli bo‘imasligi mumkin, chunki bir xil sorbatlarning bir xil adsorbentlarga bir xil sharoitda xromatografiyalanganda ham tutilib turishning mutlaq qiymatlariga tasodifiy omillar (haroratning o‘zgarishi va boshqa.) ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Nisbiy qiymatlardan foydalanish, masalan, nisbiy tutilib turish hajmidan foydalanish tasodifiy omillarning salbiy ta’sirini ancha kamaytirishga va demak, takrorlaganda ham bir xil chiqadigan natijalar olishga imkon beradi. Bu holda aniqlanuvchi moddaning keltirilgan tutilib turishi hajmi- $v_{R_1}$ , yoki soddarog‘i keltirilgan tutilib turish vaqtி  $\tau_{R_1}$  standart deb qabul qilingan moddaning bir xil

sharoitda olingan tutilib turish hajmi-  $v_{R,i}$ , st yoki tutilib turish vaqtı  $\tau_{R,i}$  ga nisbatan olinadi:

$$v_{\text{nisb.}} = v_{R,i} / v_{R,\text{ct}} = \tau_{\text{nisb.}} = \tau_{R,i} / \tau_{R,\text{st}} \quad (36)$$

Nisbiy tutilib turish hajmlari qiymatini jadvallardan topish va tekshirilayotgan moddalarning sifat tarkibini aniqlash uchun tajribadan olingan qiymatlarni jadvaldan olinganlari bilan taqqoslash mumkin. Ravshanki, tanlangan adsorbent, tajriba o'tkazish sharoiti va standart sifatida olingan modda jadvalda ushbu modda uchun keltirilganlariga to'la mos kelishi kerak. Moddaning sifat tarkibini uning xromatogrammasi bo'yicha taqqoslab aniqlashni testerlar usuli bilan ham o'tkazish mumkin. Bunda tekshirilayotgan moddaning tutilib turish qiymatlari (tutilib turish vaqtı) shu sharoitda xromatografiyalangan toza moddalar (testerlar) ning tutilib turish qiymatlari bilan taqqoslanadi. Taqqoslanuvchi qiymatlarning bir-biriga yaqinligi, ko'pincha, shu moddalarning bir xilligini tasdiqlaydi. Lekin ba'zida tabiat bo'yicha turli xil moddalar ham xromatogrammada bir xil tutilib turish qiymatlarini ko'rsatishi mumkin. Bunday hollarda tahlil kolonkaga boshqa adsorbent to'lg'azib takrorlanadi. Tutilib turish qiymatlari takroriy tajribada ham bir xil bo'lса, demak, tahlil qilinayotgan modda tester moddasi bilan bir xil bo'ladi. Hozirgi paytda xromatografik usul bilan moddalarni tahlil qilishning turli ko'p bosqichli sxemalari ishlab chiqilgan va muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Bunday sxemalarda aralashma birinchi kolonkada tarkibiy qismlarga ajratilgach, uning fraksiyalari ikkinchi bosqichdagi kolonkaga yuboriladi, unda tarkibiy qismlar yanada to'laroq ajraladi va moddalarni taqqoslash ham osonlashadi.

Gaz-suyuqlik xromatografiyasida moddalarning sifat tahlilini o'tkazish uchun, ko'pincha, Kovachning tutilib turish indeksi-I dan foydalaniлади:

$$I = 100 \frac{\lg(t'_{r,p} / t'_{r,n})}{\lg(t'_{r,(n+1)} / t'_{r,n})} + 100n \quad (37)$$

bu yerda,  $t'$  – keltirilgan (shartli) tutilib turish vaqtı;  $p$  – to'yingan uglevodorod (alkandagi) uglerod atomlari soni;  $I$  – aniqlanuvchi modda.

Tutilib turish indeksini aniqlashda standart tarzida normal tuzilishdagi ikkita qo'shni (gomologik qatorda) alkan olinadi. Ular dan biri tekshiriluvchi moddadan oldin, ikkinchisi esa keyin elyutla nadi (xromatogrammadan erituvchi yordamida yuvib chiqariladi):

$$t_{r,n}^+ < t_{r,i}^+ < t_{r,(n+1)}^+ \quad (38)$$

Harorati programmalaganda tutilib turish indeksi tutilib turish harorati —  $T_e$  orqali hisoblab chiqariladi:

$$I_T = \frac{T_{r,i} - T_{r,n}}{T_{r(n+1)} - T_{r,n}} \quad (39)$$

To'plangan tajriba materiali moddalarning xromatografik xarakteristikalari bilan fizik-kimyoviy xossalari orasidagi ba'zi qonuniyatlar hamda bog'liqliklarni aniqlashga imkon beradi. Masalan, moddalarni tutilib turish indekslari va tutilib turuvchi hajmlari gomologik qatordagи moddalar molekulasiдagi uglerod atomlari soni, ularning qaynash haroratlari va boshqa xossalari bilan oddiy bog'lanish orqali bog'langan. Bu bog'lanishlar xromatografiyaning imkoniyatlarini ancha kengaytiradi. Masalan, tutilib turuvchi hajmning moddaning qaynash haroratiga bog'liqligini ko'rsatuvchi tegishli grafiklar deyarli to'g'ri chiziqli bo'lib, ulardan aralashma komponentlarini taqqoslab aniqlashda ko'p foydalaniladi. Agar komponentning gomologik qatorga mansubligi ma'lum bo'lsa, bunday grafik orqali topilgan qaynash harorati yoki boshqa xossasi shu moddani taqqoslab aniqlash uchun kifoyadir. Har qanday gomologik qatorda qo'shni a'zolarning tutilib turish indeksi bir-biridan taxminan 100 ga farq qilishi aniqlangan. Izomerlarning tutilib turish harorati orasidagi farq  $\Delta I_i$  ularning qaynash haroratlari orasidagi farq  $\Delta T_O$  ning 5 ga ko'paytmasiga tengligi qayd etilgan:  $\Delta I_i = 5 \Delta T_O$ . Tutilib turish indeksiga daxldor boshqa qonuniyatlar ham ma'lum.

Xromatografik ajratish mahsulotlarini mustaqil identifikatsiyalashda gaz xromatografiyasini boshqa tadqiqot usullari (IQ spektroskopiya, mass-spektrometriya) bilan birgalikda olib borish, shuningdek, ketma-ket ishlovchi selektiv detektorlardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Mass-spektrometriya usuli bilan aralashma tarkibiy qismlarining uzluksiz sifat tahlilini o'tkazish mumkin.

Bunda tahlil uchun moddaning juda kam miqdorlari ham kifoya qiladi. Bunday qo'shma usul xromatomass-spektrometriya deb ataladi. Shuningdek, yadro magnit rezonansi, alanga fotometriyasi, absorbsion spektroskopiyasi va boshqa, shu jumladan kimyoviy usullardan ham foydalanish mumkin.

### 6.5-§. Xromatografiyada miqdor jihatdan tahlil qilish

Xromatografik miqdoriy tahlil cho'qqining xromatografiyalanuvchi moddalar konsentratsiyasiga bog'liq turli parametrlarini cho'qqining balandligi, kengligi, sathini hamda moddaning tutilib turish hajmini yoki tutilib turish hajmining cho'qqi balandligiga ko'paytmasini aniqlashga asoslangan. Xromatografiyalash va detektorlash sharoitlari ancha barqaror bo'lganda aniqlovchi parametr sifatida cho'qqining balandligini olish mumkin. Cho'qqining sathi bo'yicha hisoblashlarda xromatografiyalash sharoitlarining barqaror bo'lishiga cho'qqining balandligini hisoblashdagiga nisbatan kamroq talablar qo'yildi. Lekin cho'qqi hajmini o'lehashning o'zida yangi xato manbalari paydo bo'ladi. Cho'qqi tor bo'lgan hollarda tutilib turish hajmining cho'qqi balandligiga ko'paytmasidan foydalanish ma'lum afzallikka ega.

Cho'qqilar to'liq keskin ajralib turmaganda xatolik ko'payadi, chunki cho'qqi konturlari aniq bo'lmaydi va ba'zan ustma-ust tushib qoladi. Bunday xromatogramma bilan ishlanganda, asosan, cho'qqilarning balandligini o'lehash bilan bog'liq bo'lgan maxsus usullardan foydalaniлади.

Miqdoriy xromatografik tahlilda quyidagilar asosiy usullar hisoblanadi: normallash, kalibrash (darajalash) koeffitsiyenti bilan birga normallash, ichki standartlash, mutlaq kalibrash usullari.

**Normallash usutidan** foydalaniлganda cho'qqilar parametrlaridan birining, masalan, barcha cho'qqilar balandligi yoki yuzasining yig'indi 100% deb olinadi. Bunda alohida cho'qqining balandligining balandliklar yig'indisiga nisbati yoki bitta yuzasining barcha cho'qqilar yuzasiga nisbatining 100 ga ko'paytmasi aralashmadagi komponentning foizlarda ifodalangan massa ulushini ko'rsatadi:

$$A_i = \frac{Y_u}{\sum Y_{u_i}} \cdot 100 \quad (40)$$

bu yerda,  $A_i$  – moddaning foizlarda o'Ichangan miqdori;  $Y_{U_i}$  – tekshiriluvchi i komponent cho'qqisining yuzasi.

Bu usulda o'Ichauvchi parametr qiymatining konsentratsiyaga bog'liqligi aralashmadagi barcha komponentlar uchun bir xil deb taxmin qilinadi.

Kalibrlash (darajalash) koefitsiyentlari bilan birga normallash usulida cho'qqilar parametrlarining yig'indisi detektorning sezgirligini hisobga olib 100% deb qabul qilinadi. Detektor sezgirligidagi farqlar aralashmaning har bir komponenti uchun tuzatish koefitsiyenti orqali hisobga olinadi. Kalibrlash quyidagicha o'tkaziladi. Aralashmada doimiy ishtirok etuvchi va ko'proq ulushni tashkil etuvchi komponentlardan biri taqqoslash uchun olinadi va uning tuzatish koefitsiyenti birga teng deb qabul qilinadi. Bunda aralashmadagi boshqa komponentning kalibrlash koefitsiyentlarini topish uchun xromatogrammadan tegishli parametrlar, masalan, cho'qqisining balandligi h yuzasi  $Y_U$  yoki cho'qqi balandligining aralashma kiritila boshlagan paytdan cho'qqi maksimumi hosil bo'lgunigacha bo'lgan oraliq  $l$  ga ko'paytmasi o'Ichaniadi, so'ngra quyidagi formulalardan hisoblab topiladi:

$$k_h = \frac{h_m \cdot C_1}{h_i \cdot C_{st}}; \quad k_{yy} = \frac{Y_{U_{yy}} \cdot C_i}{Y_{U_i} \cdot C_{st}}; \quad K_{yy} = \frac{(lh)_{yy} \cdot C_i}{(lh)_i \cdot C_{st}} \quad (41)$$

bu yerda «st»-standart tarzida qabul qilingan moddaga daxldor;  $i$  – aralashmaning aniqlanuvchi komponenti i ga taalluqli ekanini bildiradi.

Kalibrlash koefitsiyentlari aralashmaning foizlarda ifodalangan tarkibini hisoblash uchun ishlataladi. Masalan, agar hisob cho'qqining sathi bo'yicha yuritilsa, aralashmadagi I komponentning foizlardagi miqdorini quyidagi formuladan hisoblab topish mumkin:

$$A_i = k_{yy,i} \cdot \frac{Y_{U_i}}{\sum_j k_{yy,j}} \cdot 100 \quad (42)$$

Kalibrlash usullariga bog'liq ravishda tuzatish koefitsiyentlari moddaning massa, hajmiy yoki molyar ulushlariga daxldor bo'lishi

mumkin. Bunda tuzatish koeffitsiyentlarining biridan ikkinchisiga o'tish uchun quyidagi nisbatlardan foydalaniladi:

$$\frac{k_{immass} \cdot k_{sp.mol.}}{k_{st.mass} \cdot k_{i,mol.}} = \frac{M_i}{M_{st}} \quad (43)$$

bu yerda,  $M_i$  va  $M_{st}$  – tekshiriluvchi va standart moddaning molekular massasi

$$K_{st.mass} / K_{st.mol.} = 1 \text{ desak}, \frac{K_{immass}}{K_{unmol}} = \frac{M_i}{M_{st}} \quad (44)$$

Har xil turdag'i detektorlarning ishlashi turli prinsiplarga asoslangan, shuning uchun bir xil moddalarning turli detektorlarda olingan tuzatish koeffitsiyenti qiymatlari ham turlicha bo'ladi.

Tuzatish koeffitsiyentlari bilan normallash usuli kiritiluvchi namuna miqdorini aniq o'lchashni, shuningdek, nisbiy tuzatish koeffitsiyentlaridan foydalanishni talab qilmaydi, shu sababli tajriba sharoitidagi kichik o'zgarishlar o'lchash aniqligiga kam ta'sir ko'rsatadi. Usulning kamchiliklariga har bir cho'qqini alohida taqoslash zarurligini kiritish mumkin.


Ma'lum kamchiliklari borligiga qaramay, tuzatish koeffitsiyentlari bilan normallash usuli xromatografik tahlilda keng qo'llaniladi. Buning sababi shuki, tahlil natijalari takroriy aniqlashlarda bir xil chiqadi va toza standart moddalarsiz ham ishslash mumkin.

Ichki standart usuli tekshiriluvchi aralashmaga standart moddaning aniq o'lchangan miqdorini kiritishga asoslangan. Standart modda tarzida o'zining fizik-kimyoviy xossalari bo'yicha tekshiriluvchi aralashma tarkibidagi moddalarga yaqin bo'lgan modda tanlanadi. U aralashma tarkibidagi moddalardan biri bo'lishi shart emas. Xromatografiyalangandan keyin aniqlanuvchi moddaga va standartga xos cho'qqilarning parametrlari o'lchanadi. Komponentning massa ulushi (% hisobida) quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$A_i = \frac{k_i \cdot yu_i}{k_{st} \cdot yu_{st}} \cdot Q_c \cdot 100 \quad (45)$$

bu yerda,  $\theta_{\text{g}}$  – standart massasining aralashmaning barcha komponentlari massalariga nisbati;  $k$ ,  $k_{\text{st}}$  – aniqlanuvchi va standart moddalar uchun detektor sezgirligiga tuzatish koeffitsiyentlari. Usulning afzalliklariga tajriba natijalarining yetarli aniqlikda takrorlanishi, juda aniqligi, tajriba sharoitlaridagi ba'zi o'zgarishlarning o'chanayotgan kattaliklarga ta'sir etmasligi kiradi. Kamchiliklariga esa standartni aniq o'chanash zarurligi, standart cho'qqisini aniqlanuvchi modda cho'qilaridan keskin ajratish zarurligi kiradi.

**Mutlaq darajalash usuli.** Bu usulda aniqlik katta bo'lgani sababli mikroaralashmalarni aniqlashda va aralashmadagi komponentlarning ayrimlarinigina aniqlash zarur bo'lganda juda qo'l keladi. Turlicha, lekin aniq dozalarda olingan ma'lum moddalarning xromatogrammalari bo'yichi parametrlardan birining olingan namuna massasiga bog'liqlik grafigi tuziladi. Tekshiriluvchi aralashmaning taxmin etiluvchi har bir komponenti uchun o'z grafigi chiziladi. Kalibrash grafigiga misol 68-rasmda keltirilgan. Grafikdan ko'rinish turibdiki, tanlangan detektoring, aralashmaning A va B komponentlariga nisbatan sezgirligi turlichadir.



*68-rasm. Kalibrash grafigi.*

Tekshiriluvchi aralashma xromatografiyalanganda har bir cho'qqi identifikatsiya qilinadi, xromatogrammanın parametrlaridan biri o'chanadi va oldin kalibrash grafiklaridan foydalaniлади. Shunday qilib, i komponentdan tarkib topgan aralashmani tahlil qilish uchun i ta grafik chizish talab qilinadi. Agarda kiritilgan aralashmaning miq-

dori aniq bo'lsa, kalibrlash grafiklaridan har bir komponentning miqdoriga doir olingan ma'lumotlar asosida uning foiz hisobidagi miqdori hisoblab topiladi.

Xromatogramma bo'yicha o'lchangan birinchi komponent cho'q qisining yuzasini  $Y_{\text{A}}$  deb taxmin qilaylik. 68-rasmdagi kalibrash grafigiga binoan ushbu yuzasiga mos keluvchi birinchi komponentning miqdori  $q_A$  ni topamiz. Kolonkaga kiritilgan aralashmaning umumiyligi miqdori  $q$  ni bilgan holda aralashma tarkibidagi birinchi komponentning miqdori  $C_A$  ni hisoblab topish mumkin:

$$C_A = \frac{q_A}{q} \cdot 100 \quad (46)$$

Boshqa komponentlarning miqdorlari ham shu yo'sinda topiladi.

Usulning afzalliklari komponentlar miqdori juda katta aniqlikda topilishi bilan birga aralashmani barcha komponentlarga ajratish shart emasligidadir, bunda faqat tekshirilishi zarur komponentlarni ajratishning o'zi kifoya. Usulning kamchiliklari shundan iboratki, har gal namunani aniq miqdorda kiritish zarur, shuningdek, kalibrash ham ko'p mehnat talab qiladi.

## 6.6-§. Suyuqlik-adsorbsion xromatografik tahlil usuli

50-yillarning oxirida detektorlashning juda sezgir usullari paydo bo'lishi va polimerlar asosida yangi selektiv adsorbentlar yaratilishi natijasida suyuqlik-adsorbsion xromatografiya eritmalardagi ko'p komponentli aralashimalarni ajratish va tekshirishning juda sezgir, ancha tanlovchan va tezkor usuli bo'lib qoldi. Yuqori bosimlarni qo'llash joriy etilishi bilan usulning amaliy ahamiyati yanada oshdi.

Suyuqlik-adsorbsion xromatografiya ishlataluvchi asboblari bo'yicha ikki variantda: kolonkali va yupqa qatlamlari variantlarda bajarilishi mumkin. Ular bir qator muhim xususiyatlari bo'yicha bir-biridan keskin farqlanadi.

Suyuqlik xromatografiyasiga gaz xromatografiyasidagi kabi prinsiplarga asoslangan bo'lib, bunda tashuvchi gaz o'rniga kolonkadagi qo'zg'almas faza bilan aralashmaydigan suyuqlik oqimidan foydalilanadi. Xromatografik kolonkadagi suyuq tashuvchi oqimiga tekshiriluvchi material namunasi kiritilganda moddalarning qo'z-

g'almas va harakatchan fazalar orasida qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi va aralashma alohida birikmalarga ajraladi. Detektorda alohida moddalarga tegishli cho'qqilar qayd etiladi. Suyuqlik xromatografiyası amalda moddalarning biror erituvchida eriydigan har qanday aralashmalarini tahlil qilishga imkon beradi.

Suyuqlik xromatografiyasida ishlatiladigan asboblarning tuzilishi bo'yicha bir necha o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Xromatografik kolonka oqimga katta qarshilik ko'rsatishi tufayli suyuq tashuvchini xromatografga ma'lum bosim ostida kiritish kerak. Shuning uchun suyuqlik kolonkaga porshenli nasoslar yoki gaz bosimi ostida ishlovchi membranalı moslamalar yordamida kiritiladi. Gaz va suyuqliknı ajratib turuvchi membrana (to'siq) gazning suyuqlikda erishing oldini olish uchun ishlatiladi. Namunani kiritish uchun ikki yo'lli jo'mraklar yoki mikroshprislardan foydalilanadi. Kolonkalarning diametri kichik (2-6 mm) va uzunligi 1 metrgacha bo'ladi. Ular shishadan, zanglamaydigan po'lat va teflondan yasaladi. Suyuqlik-qattiq modda xromatografiyasida adsorbentlar sifatida aluminiy oksid, faollantirilgan ko'mir, kapron, kizelgur va boshqalar ishlatiladi.

Suyuqlik-suyuqlik xromatografiyasida suyuq fazani tashuvchilar gaz xromatografiyasidagi tashuvchilar singari bo'ladi. Bunda qo'zg'almas faza harakatchan fazaga aralashmasligi kerak, u kolonkaga uchuvchan erituvchidagi eritmasi tarzida kiritiladi va erituvchi azot gazi oqimi yuborilganda bug'lanib chiqib ketadi. Harakatchan fazani kolonkaga kiritib, tashuvchi qatlamlarining har xilligini yo'qotish uchun kolonkadan o'tkaziladi.

**Detektorlar.** Gaz xromatografiyasidagi kabi hozirgi suyuqlik xromatografiyasida ham kolonkada oqib chiquvchi suyuqlik oqimidagi aniqlanuvchi modda konsentratsiyasini uzlusiz qayd etib turuvchi detektorlar ishlatiladi. Detektorlar namunadan ketma-ket olish va so'ngra tahlil qilishga yoki uzlusiz tahlil o'tkazishga imkon beradi. Konsentratsiya avtomatik yozib boriladigan uzlusiz tahlil qilish usulining ko'p afzalliklari bor. Suyuqlik xromatografiyasida uch turdag'i detektorlar ishlatiladi:

1. Eritmaning ma'lum xossasi o'zgarishidan ta'sirlanuvchi refraktometrik detektorlar va o'tkazuvchanlikning hamda dielektrik singdiruvchanlikning o'zgarishini sezuvchi detektorlar.

2. Erigan moddalar xossalaringin o'zgarishidan ta'sirlanuvchi detektorlar, bunday detektorlar erigan moddaning erituvchida


bo'lmaydigan xususiyatlar o'zgarishini sezadi. Ko'rinvchi, ultrabianfsha yoki infraqizil nurlarni yutishga asoslangan spektrometrik detektorlar shuningdek polyarografik, mikroadsorbsion, radioaktivlikni qayd qiluvchi detektorlar.

3. Erituvchi chiqarib yuborilgandan keyin ishlovchi detektorlar. Bunga alangali-ionizatsion harakat detektori misol bo'la oladi. Suyuqlik xromatografiyasi uchun yagona, universal detektor bo'lmaydi. Har bir aniq holda mos detektor tanlanadi.


Harakatlanuvchi turdag'i detektorlarda xromatografik kolonkadan chiqqan eritma uzlusiz harakatlanuvchi transporter lentasiga tushadi va pechga kiritiladi. Pechda elyuent (erituvchi) bug'lanib ketadi, qoldiq lenta yordamida reaktorga kiritilib, uchuvchan birikmaga aylantiriladi va so'ngra gaz xromatografiyasi usullari bilan tahlil qilinadi.

Suyuqlik-adsorbsion xromatografiyasining kolonkali turida xromatografik jarayonni o'tkazishning ma'lum usullari-frontal xromatografiya, ochiltirish (elyuent)-chiquarish xromatografiyasi va siqib chiqarish xromatografiyasi usullarini qo'llash mumkin.

**Frontal usul.** Bu xromatografiyaning bajarilishi jihatidan eng sodda varianti bo'lib, bunda adsorbentli kolonkadan tekshiriluvchi aralashma (masalan, erituvchidagi A va B komponentlar) uzlusiz o'tkazib turiladi. Kolonkadan oqib chiquvchi eritmada har bir komponent konsentratsiyasi aniqplanadi va modda konsentratsiyasi-kolonkadan o'tgan eritma hajmi koordinatalar sistemasida grafik tuziladi. Bu bog'liqlik chiqish egri chizig'i (xromatogramma) tarzida tasvirlanadi (69-rasm).



69-rasm. Frontal tahlil egri chizig'i.



70-rasm. Ochiltirish tahlil egri chizig'i.

A va B moddalar adsorbentga yutilishi sababli kolonkadan dastlab erituvchi S chiqadi, so'ngra erituvchi bilan yomon yutiladigan komponent A va shundan keyin B komponent chiqadi. Shunday qilib, ma'lum vaqt o'tgach, kolonkadan o'tuvchi eritmaning tarkibi o'zgarmay qoladi. Frontal usul ancha kam qo'llaniladi. Undan eritmani asosiy komponentlariga nisbatan ancha yaxshi yutiladigan aralashmalardan tozalash uchun yoki aralashmadan yaxshi yutilmaydigan moddani ajratish uchun foydalaniladi.

*Ochiltirish (elyuent) usulida* kolonkaga tarkibida erituvchida erigan A va B komponentlar bor tekshiriladigan aralashmadan kiritib, kolonka erituvchi bilan uzlusiz yuviladi. Bunda tekshiriluvchi aralashmaning komponentlari zonalarga ajraladi: yaxshi adsorbsilanadigan B modda kolonkaning yu-jori qismini, yaxshi yutilmaydigan A komponent esa pastki qismini egallaydi. Bunga xos egri chiziq 70-rasmida ifodalangan.

Kolonkadan oqib chiquvchi eritmada avval A komponent paydo bo'ladi, keyin toza erituvchi va so'nggida B komponent chiqadi. Komponentning konsentratsiyasi qancha katta bo'lsa, cho'qqining balandligi shuncha baland va yuzasi katta bo'ladi, bu esa miqdoriy xromatografik tahlilning asosini tashkil etadi. Ochiltirish usuli murakkab aralashmalarни tahlil qilish imkonini beradi va shu sababli amalda juda keng qo'llaniladi. Usulning kamchiligi chiquvchi eritmalar konsentratsiyasining erituvchi ta'sirida suyulib kamayib ketishidir.

*Siqib chiqarish usuli.* Ushbu usulda *A* va *B* moddalarning erituvchi S dagi aralashmasi kolonkaga kiritilib, siqib chiqaruvchi D moddaning eritmasi bilan yuviladi. D modda tekshiriluvchi aralashma komponentlariga nisbatan yaxshiroq adsorbsilanadigan bo'ladi.

Ochiltirish usulidan farqli ravishda bu usulda xromatografiya jarayonida eritmaning konsentratsiyasi pasaymaydi. Siqib chiqarish usulining eng katta kamchiligi bir moddaning zonasini ikkinchil modda zonasini qoplab ketishidir, chunki bu usulda komponentlar zonalari erituvchi bilan ajratilgan emas.

Harakatchan fazaga-erituvchiga muayyan talablar qo'yiladi. U tekshiriluvchi aralashmaning barcha komponentlarini yaxshi eritishi, erigan moddalarga, adsorbentga, havo kislorodiga nisbatan kimyoviy inert, qovushoqligi kam bo'lishi, tarkibida qo'shimchalar bo'lmashligi, detektor ishiga xalaqit bermasligi va arzon bo'lishi kerak.

Aralashmani elyutirlash uchun, odatda, alohida erituvchilar emas, bir yoki bir necha moddaning erituvchidagi eritmasi ishlataladi. Bunda erituvchining o'zi kam adsorbilanadigan, erigan moddalar esa tekshiriluvchi aralashma tarkibidagi ko'pchilik yoki barcha komponentlarga nisbatan yaxshiroq adsorbilanadigan bo'lishi kerak. Harakatchan fazaning tarkibini uning siqib chiqarish qobiliyati uzluksiz kuchayib boradigan qilib o'zgartirish mumkin. Buni gradiyent xromatografiya deyiladi.

**Sifat va miqdoriy tahlil.** Uzluksiz ishlovchi detektorli suyuqlik xromatografiyasida moddalarning sifat va miqdoriy tahlili gaz xromatografiyasidagi kabi prinsiplarga asoslangan. Moddaning tahlili uning tutilib turish qiymatlarini, miqdoriy tahlili esa xromatogrammalardagi cho'qqilarning balandligini yoki yuzasini aniqlashga asoslangan.

Suyuqlik xromatografiyasiga xos xususiyat kolonkadan oqib chiquvchi eritmani kimyoviy, fizik-kimyoviy yoki fizik usullar bilan tahlil qilishdan iborat. Bunda kolonkadan oqib chiquvchi eritma alohida fraksiyalar tarzida yig'iladi. Odatda fraksiyalarni yig'ish uchun avtomatik ravishda ishlovchi maxsus kollektorlar qo'llaniladi.

Suyuqlik xromatografiyasi ko'pincha neft va gaz mahsulotlari tarkibini o'rghanishda, organik kimyo texnologiyasi va tahlilida qo'llaniladi. Masalan, bu usul bilan neft, kerosin, benzin uglevodorodlarning tarkibi aniqlanadi, sis va trans izomerlar, alkaloidlar va boshqalar yaxshi ajratiladi. Suyuqlik xromatografiyasi bug'lanmaydigan va beqaror birikmalarни ajratish, tahlil qilish va tekshirish usullarini ishlab chiqishda, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi.

1970-yillarning boshlarida yuqori samarali suyuqlik xromatografiysi- YuSSX (yuqori bosimli suyuqlik xromatografiysi, tezkor suyuqlik xromatografiysi) rivojiana boshladi. YuSSX usullarini ishlab chiqishga gaz xromatografiyasi usullari bilan tarkibiy qismrlarga ajratishning iloji bo'limgan, yuqori haroratda ( $40^{\circ}\text{C}$  dan yuqori) qaynaydigan va beqaror birikmalarni tahlil qilish zarurati, shuningdek, kolonkali suyuqlik xromatografiyasi samaradorligini oshirish zarurati turtki bo'ldi.

Amalda Rossiyaning «Ximavtomatika» birlashmasining Djerjinskiy shahridagi filiali tomonidan ishlab chiqarilgan «Цвет-300», «Цвет-3000» seriyali xromatograflar qulay va samarali ekanligini ko'rsatdi.

Xromatografni tarmoqqa ulash va ish rejimiga o'tkazish asbobning har bir konkret markasi uchun tuzilgan yo'riqnomaga binoan bajariladi. Asbob quyidagicha ishlaydi: yuqori bosim nasosi termostatga o'rnatilgan kolonka orqali elyuentning rostlanadigan oqimi o'tishini ta'minlab boradi. Tekshiriluvchi namuna shpris yordamida jo'mrak orqali elyuent oqimiga kiritiladi. Bunda namuna kiritish paytida asbobning tuzilishiga qarab elyuent oqimi yo to'siladi yoki to'silmaydi. Namuna kiritilib bo'lgach, elyuent 12 MPa gacha bosim ostida kolonkaga kiritiladi, kolonkada aralashma tarkibiy qismlarga ajratiladi. Kolonkadan chiquvchi oqim detektorga yo'naltiriladi va unda aralashmadagi har bir komponentning optik zichligi yoki nur sindirish ko'rsatkichi qayd etiladi. Xromatografik cho'qqilarni avtomat elektron potensiometr yozib boradi.

### 6.7-§. Yupqa qatlardagi xromatografiya usuli (YuQX)

Yupqa qatlardagi xromatografiya usuli rus olimlari N.A.Izmaylov va M. S. Shrayberlar tomonidan 1938-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi zamonda neft va gaz tarkibini, shuningdek, organik kimyoda qo'llaniluvchi tahlil usullarining eng muhimlaridan biri hisoblanadi va anorganik birikmalar tahlilida ham tobora jadal qo'llana boshlamoqda.

Agarda sorbent kolonkada emas, plastinkada yupqa qatlam holida joylashtirilgan bo'lsa, xromatografiya turlaridan biri bo'lgan yupqa qatlardagi xromatografiya vujudga keladi.

Shisha, metall yoki plastmassadan tayyorlangan plastinka yuzasiga sorbent yupqa qatlam holida joylashtiriladi. So'ngra plastinka chetidan 2-3 sm qoldirib, tarkibida tahlil qilinadigan modda bor suyuqlik tomiziladi, suyuqlik tomizilgan joy **start chizig'i** deyiladi. Plastinkaning start chizig'idan pastki cheti harakatchan faza vazifasini bajaruvchi erituvchiga botiriladi. Kapillar kuchlar ta'sirida erituvchi sorbentning yupqa qatlami bo'ylab siljiydi va tekshiriluvchi aralashmaning komponentlarini sorbent-sorbat sistemasining xossalariiga mos ravishda turli tezlikda siljitaladi. Buning natijasida moddalar aralashmasi tarkibiy qismlarga ajraladi.

Sorbentning yupqa qatlardagi xromatografik ko'chirish kolonkadagi singari harakatchan suyuq fazaning qo'zg'almas tashuvchi qatlami bo'ylab o'tishi va ajratilayotgan aralashma komponentlarining

qatlam bo'ylab turli tezlikda ko'chishi tufayli sodir bo'ladi. Ammo yupqa qatlamda ajratilayotgan aralashma moddalari kolonkadagi singari faqat bo'ylama yo'nalihsda emas, balki ko'ndalang yo'nalihsda ham diffuziyalanadi. Bundan tashqari, harakatchan fazalar yepqa qatlamda kapillar kuchlar tufayli siłjiydi.

Yupqa qatlamdagi jarayonni ikki o'lchamli deb hisoblash kerak. Bunda ko'ndalang yo'nalihsdagি diffuzion massa uzatish bo'ylama diffuziya bilan deyarli bir xil bo'ladi.

**Yupqa qatlamdagи xromatografiya (YuQX) ning asosiy xususiyatlari.** Yupqa qatlamdagи sorbent-sorbat sistemasining sorbsion xossalarini tavsiflash uchun harakatchanlik  $R_f$  tushunchasi kiritiladi. Harakatchanlik qatlamdagи modda zonasи markazining harakatlanish tezligi  $a_k$  ning erituvchining harakatlanish tezligi ( $a_f$ ) ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$R_f = \frac{a_k}{a_f} \quad (47)$$

Bu kattaliklarni bevosita o'lhash qiyin bo'lgani sababli modda zonasining start chizig'idan to zona markazigacha o'tgan masofa  $x_1$  ning erituvchi tomonidan shu vaqtning o'zida o'tilgan masofa  $X_f$  ga nisbati  $R_f$  deb olinadi (71-rasm).  $X_f$  start chizig'idan boshlab tajriba oxirida erituvchi yetgan chegaragacha bo'lgan masofaga teng:


$$R_f = \frac{x_1}{x_f} \quad (48)$$

Ravshanki,  $x_1$ ,  $x_f$  dan katta bo'lishi mumkin emas. Shu sababli qiymatlari nol bilan bir orasida bo'ladi.

Agar turli moddalar uchun  $x_1$  ning qiymatlari bir xil bo'lmasa, unda  $R_f$  ning qiymatlari ham turlicha bo'ladi. Demak,  $R_f$  sorbat-sorbent sistemasi uchun sorbsion xarakteristika vazifasini o'tashi mumkin va tajriba sharoitida ayni sorbent hamda erituvchi uchun o'zgarmas kattalikdir.

Berilgan moddaning harakatchanligini standart tarzida qabul qilingan ma'lum moddaning harakatchanligi bilan taqqoslash mumkin, bunda:

$$R_{f\_nish} = R_{fx}/R_{f\_st} \quad (49)$$



*71-rasm. Yupqa qatlamda xromatografiyalash kattaliklarini o‘lchash sxemasi.*

Kolonkali xromatografiyada kolonkaning samaradorligi nazariy tarelkalar soni  $p$  orqali aniqlanadi,  $R_f$  qiymatini  $p$  qiymatlari bilan bog‘lash mumkin, bu holda:

$$k_f = \frac{R_{fx1} - R_{fx2}}{\sqrt{R_{fx1}} - \sqrt{R_{fx2}}} \sqrt{n} \quad (50)$$

bo‘ladi. Bunda:  $R_{fx1}$  va  $R_{fx2}$  ajratiluvchi aralashmadagi ikki qo‘shti komponentlar harakatchanliklarining qiymatlari;  $k_f$  – yupqa qatlamda ajratish koeffitsiyenti, u aralashmadagi ikki qo‘shti komponentning ajralish darajasini ko‘rsatadi. Agar  $R_{fx1} = R_{fx2}$  bo‘lsa, unda  $k_f = 0$  bo‘ladi.

Nazariy tarelkalar soni  $p$  YuQX usuli bilan aniqlanishi mumkin. Buning uchun ayni moddaning start chizig‘idan to shu modda zonasini hosil qilgan dog‘ning quyi chegarasigacha bo‘lgan masofa  $l_p$  ni o‘lhash va shu dog‘ning quyi chegarasidan yuqori chegarasigacha bo‘lgan masofa  $l_{p-v}$  ni o‘lhash kerak. (46-rasmga qarang). Bunda nazariy tarelkalar soni  $p$  quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$n = 16 \cdot \left( \frac{\ln}{\ln - \sigma} \right)^2. \quad (51)$$

Nazariy tahlil  $R_f$  ning qiymati kichkina bo‘lganida va tahlil vaqtqi qisqartirilganda sorbentdagi modda zonasining yuvilib ketishi maksimal bo‘lishini, demak, modda konsentratsiyasi maksimal bo‘lishini va tahlilning sezgirligi ortishini ko‘rsatadi. Yupqa qatlama donacha diametrining kichrayishi tahlil vaqtining clo‘zilishiga olib keladi va diffuzion yuvilib ketishini kuchaytiradi.

**YuQX qurilmalarining asosiy qismlari.** Yupqa qatlama xromatografiyalash bir necha variantda amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, sorbent qatlami plastinka yuzasiga mustahkamlangan yoki mustahkam o‘rnatalgan bo‘lishi mumkin. Mustahkamlangan maganda kukun holidagi sorbentni plastinka yuzasiga yupqa bir tekis qatlam qilib joylashtiriladi. Ikkinchi holda sorbent oldindan biror qovushtiruvchi modda bilan aralashtiriladi, so‘ngra pasta holida plastinka yuzasiga yupqa bir tekis qatlam qilib surkaladi. Qovushtiruvchi modda sifatida, odatda, tibbiyot gipsi, tozalangan kraxmal va boshqalar ishlatiladi. Mustahkamlangan adsorbent qatlamli plastinkalar kamerada har qanday holatda (tik holatda ham) o‘rnatalishi mumkin.

Sorbentga asos bo‘lib xizmat qiluvchi plastinkalar sifatida, ko‘pincha shisha, aluminiy zarqog‘oz yoki poliefir plyonka ishlatiladi. YuQX da ishlatiluvchi har qanday erituvchilar, reagentlar ta’siriga chidamliligi tufayli shishadan yasalgan plastinkalar eng universal hisoblanadi. Aluminiy va plastmassadan yasalgan plastinkalar egiluvchan bo‘lgani sababli ularni turli shakkarga kiritish mumkin. Poliefir plyonkalar 320 nm gacha bo‘lgan ultrabinafsha nurlarni yuxshi o‘tkazadi, demak, ularda dog‘larni bevosita qatlamning o‘zida fotometrlash mumkin.

Silikagelning yupqa qatlami bilan qoplangan va u bilan kimyoviy bog'lanishlar orqali bog'langan shisha plastinkalar ishlab chiqariladi. Buning uchun plastinka yuzasiga sepilgan silikagel yuqori haroratda kuydiriladi. Bunday plastinkalarni sorbent (silikagel) qatlamini almashtirmay turib ko'p marta ishlatish mumkin, bunda plastinka har gal ishlatilgandan keyin erituvchilar bilan yoki xromat kislota bilan yuviladi, so'ngra suv bilan chayiladi.

Erituvchi ham qatlam bo'y lab turlicha harakatlanishi mumkin. Ko'tarilib boruvchi xromatografiyada erituvchi pastdan yuqoriga ko'tariladi, bunday harakatiga kapillar kuchlar sabab bo'ladi. Aralashmaning komponentlari esa adsorbent qatlamida dog'lar holida qoladi.

Pastga tushuvchi xromatografiyada erituvchi qatlam bo'y lab yuqoridan pastga kapillar va gravitatsiya kuchlari evaziga harakatlanadi.

Gorizontal xromatografiyada erituvchi doira bo'y lab erkin bug'lanadi. Doira xromatografiyasida gorizontal o'rnatilgan plastinka ning markaziga tekshiriluvchi aralashmadan tomiziladi va uzluksiz erituvchi berib turiladi. Bunda erituvchi kapillar kuchlar ta'sirida plastinka markazidan chetlari tomon radial yo'nalishda harakatlanadi, aralashmaning komponentlari qatlamda konsentrik halqlar shaklida joylashadi.

Agar aralashmani bir martali xromatografiyalashda tarkibiy qismlarga ajratib bo'lmasa, ikki o'lchamli xromatografiya qo'llaniladi. Bu holda birinchi xromatografiyalashdan keyin plastinkani kameradan olib, erituvchisi bug'latiladi va 90°C ga aylantirib, shu erituvchining o'zida yoki boshqasida oldingi holatiga tik yo'nalishda takroriy xromatografiyalanadi. Natijada aralashmani tarkibiy qismlarga ancha yaxshi ajratishga erishiladi.

Xromatografiyalash jarayonida erituvchining, sorbentning tarkibini yoki tajriba sharoitini o'zgartirish mumkin. Agar bu o'zgartirishlar bosqich bilan amalga oshirilsa, bu bosqichli xromatografiya deyiladi. Agar o'zgartishlar uzluksiz davom etsa, gradiyentli xromatografiya deb yuritiladi.

YuQX usulida moddalar aralashmasini tarkibiy qismlarga yaxshi ajratishning muhim omillaridan biri sorbentni to'g'ri tanlashdir. U adsorbent, ionit, suyuq fazani tashuvchi, molekular elak va boshqa vazifasini bajarishi mumkin. YuQXning adsorbsion variantida odatda

aluminiy oksid, kraxmal, yaxshilab maydalangan selluloza va adsorbsion xossasi kuchli bo'lgan boshqa moddalar ishlatiladi.

Gidrofil va liofil moddalar aralashmalarini yupqa qatlamda ajratishni poliamid sorbentlarda olib borish yaxshi natijalar beradi. Ular organik polimerlar bo'lib, zanjir uchida amin va karboksil guruhlar bo'ladi, ana shular nitrillarni adsorbilaydi, nitrobirikmalar aldegidlar ning adsorblanishiga sabab bo'ladi. Zanjir uchida karboksil guruhlar bo'lsa, poliamidlar kationalmashish xossalarini, aminoguruuhlar bo'lganda anion almashinish xossalarini namoyon qiladi.

YuQXda sefadekslar tikilgan dekstranlar asosidagi ionitlar ham ishlatiladi. Bular dietilaminoetilsulfoetil, karboksimetil va fosfoetil sefadekslardir. Bu birikmalar molekular elektr xususiyatiga ham ega. Shuning uchun molekular massalari 30.000 gacha bo'lgan oksid va peptidlar aralashmalarini ajratishda sefadekslar ishlatiladi.

**Erituvchilar.** Moddalar aralashmasini ajratish va tahlil qilishda yaxshi natijalarga erishish uchun erituvchini tanlash ham ahamiyatga ega. Bu ish birinchi galda aralashmani tarkibiy qismlarga ajratishni ta'minlovchi adsorbent tabiatiga va tahlil qilinayotgan birikmalarning xossalariga bog'liq. YuQXda erituvchi tanlash ham kolonkali xromatografiyadagi singari prinsiplarga asoslangan.

**Sifat tahlili.** Agar aniqlanuvchi moddalarning o'zi xromatogrammada o'ziga xos rangli dog'lar hosil qiladigan yoki biror rentgent bilan ta'sirlanish natijasida rang hosil bo'ladigan hollarda xromatogramma bo'yicha sifat tahlilini o'tkazish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo ko'pchilik moddalar (ayniqsa organik moddalar) bunday xossalar namoyon qilmaydi. Plastinkaga tegishli reagentlarni purkash natijasida rangli dog'lar olishga erishilsa ham ular, odatda, organik birikmalarning ma'lum sinflariga xos bo'lib, tegishli funksional guruhning belgisi hisoblanadi va bitta sinfga kiruvchi barcha birikmalar shunday rang hosil qiladi.

Ko'pchilik hollarda sifat tahlilini o'tkazish uchun plastinkadagi moddani yuvib chiqarib, so'ngra shu eritmani (yuvindini) mos keluvchi fizik, fizik-kimyoviy va kimyoviy usullar bilan tahlil qilinadi yoki xromatogrammalar bo'yicha harakatchanlik  $R_f$  qiymatlarini o'lehash va ularni jadvallardagi qiymatlar bilan taqqoslash yoki ma'lum modda (guvoh) uchun shu sharoitda olingan qiymatlar bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Bulardan eng ishonchlisi «guvohlar» usuli bo'lib, bunda start chizig'iga narnuna bilan yonma-yon

aralashmaning taxmin etiluvchi komponentlariga mos keluvchi alohida moddalar tomiziladi. Turli omillarning barcha moddalarga ta'siri bir xil bo'ladi va shuning uchun namuna komponenti bilan guvohlardan biri uchun topilgan qiymatlarning bir xil bo'lishi ularning bir xil modda ekanligidan dalolat beradi. R<sub>1</sub> larning mos kelmasligi namunada tegishli komponent yo'qligini bildiradi.

Yupqa qatlAMDagi xromatografiyani boshqa usullar bilan birga qo'shib olib borish yaxshi natijalar beradi. YuQX gaz xromatografiyasi bilan qo'shib olib borilganda plastinka o'ziga xos detektor vazifasini bajaradi. Bunda kolonkadan chiquvchi gaz plastinkaning start chizig'iga yo'naltiriladi va tanlangan erituvchi vositasida YuQX usuli bilan xromatografiyalanadi. Yupqa qatlamlı xromatogrammalarini tahlil qilish aralashma komponentlarini mustaqil usulda taqqoslashga imkon beradi va tahlilning ishonchliligini orttiradi. Gaz kolonkasidan chiqqan moddalarni YuQX usuli bilan xromatografiyash aralashma tarkibi haqida qo'shimcha axborot berishi mumkin, jumladan gaz xromatografiyasi usulida to'la ajratilmagan aralashmaning tarkibi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. YuQX ni gaz xromatografiyasi bilan birga olib borish kolonkadagi aralashmaning barcha komponentlari yuvilganmi yoki yo'qligini, xromatografiyashda kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'lish bo'lmasligini aniqlashga va ba'zi boshqa masalalarni yechishga imkon beradi.

YuQXni elektroforez bilan qo'shib olib borish, xususan anorganik ionlar aralashmasini tarkibiy qismlarga ajratish imkonini oshiradi va ajratish jarayonini ancha tezlashtiradi. YuQXni ekstraksiya va boshqa kimyoviy hamda fizik-kimyoviy tahlil usullari bilan ham birga olib borish mumkin.

**Miqdoriy tahlil.** Yupqa qatlAMDagi xromatogramma dog'idiagi moddaning miqdorini aniqlash tahlilning mas'uliyatli qismi hisoblanadi. U ikki yo'l bilan bevosita plastinka yuzasida yoki moddani plastinkadan chiqarib olib amalgalash mumkin. Plastinkaning o'zida bevosita aniqlashda biror usulda (masalan, millimetrl kalka yordamida) dog' yuzasi o'chanadi va oldindan tuzilgan darajalash grafigi bo'yicha modda miqdori aniqlanadi. Plastinkani spektroden-sitometr vositasida spektrofotometrlash usulidan ham foydalilanadi. Bunda ham miqdoriy hisoblashlar uchun dog'ning o'rtasidagi optik zichlikdan foydalaniib, darajalangan grafik tuziladi.

Modda tarkibiy qismlarga ajralgandan keyin plastinka yuzasidan chiqarib olib spektrofotometrlash yoki boshqa usul bilan tahlil qilish eng aniq natija olinadigan usul hisoblanadi. Moddani plastinka yuzasidan chiqarish odatda mexanik yo'l bilan bajariladi, ba'zida esa mos keluvchi erituvchi bilan yuvib chiqarish ham qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtida YuQX analistik kimyoning muhim usullaridan biri hisoblanadi. U murakkab aralashmalarni tahlil qilishda tengi yo'q usuldir. Bajarish uslubi va ishlataluvchi asboblari jihatidan sodda, tezkor bo'lib, tahlil qilish uchun modda ko'p miqdorda talab etilmaydi.

### 6.8-§. Suyuqlik-suyuqlikda taqsimlanish xromatografiya usuli

Suyuqlik-suyuqlik xromatografiyasiga rivojiyati bo'yicha gaz-suyuqlik xromatografiyasiga yaqindir. Bunda ham qattiq tashuvchi yuzasida suyuq faza pardasi hosil qilinadi va shunday sorbent bilan to'Idirilgan kolonka orqali suyuq eritma o'tkaziladi. Xromatografiyaning bu turi suyuqlik-suyuqlikda taqsimlanish xromatografiyasini yoki soddaroq qilib, *taqsimlanish xromatografiyasini* deyiladi. Quruq tashuvchi yuzasidagi suyuqlik qo'zg'almas suyuq faza, sorbent orqali o'tadigan erituvchi esa suyuq harakatchan faza deb ataladi. Suyuqlik-suyuqlik xromatografiyasini kolonkada (kolonkali varianti) yoki qog'ozda o'tkazilishi (qog'ozdagagi xromatografiya) mumkin.

**Suyuqlik-suyuqlik xromatografiyasi (SSX) ning asosiy tavsifi.** Gaz-suyuqlik taqsimlanish xromatografiyasidagi kabi bunda ham moddalar aralashmasini ajratish ikkita bir-biriga aralashmaydigan suyuqlik orasida taqsimlanish koeffitsiyentlari turlichaligiga asoslangan. Suyuqlik-suyuqlik xromatografiyasida taqsimlanish koeffitsiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$k_{T_X} = \frac{C_x}{C_a} \quad (52)$$

bu yerda,  $C_a$  va  $C_x$  moddalarning qo'zg'almas va harakatchan fazadagi konsentratsiyalari.

Bitta gomologik qatorning a'zolari uchun taqsimlanish koeffitsiyentlari  $-R_{tx}$  qiymatlari orasida ma'lum qonuniyat borligi

isbotlangan. Xususan, bitta gomologik qatorda  $R_{tx}$  qiymatlari uglerod atomlari soniga bog'liqligi aniqlangan.

SSX ning kolonkali variantida aralashmaydigan fazalar juftini qo'zg'almas fazaning qattiq tashuvchisini to'g'ri tanlash muhimdir. Bunday fazalar sifatida molekular tabiatni turlicha bo'lgan moddalar: suvni tutib turuvchi gidrofil moddalar, silikagel, selluloza hamda gidrofob, suv bilan aralashmaydigan, organik birikmalarni tutib turuvchi moddalar – ftoroplast, teflon va boshqa polimerlar ishlatilishi mumkin. Kolonkali variantda tashuvchilarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: ular o'z sirtida qo'zg'almas suyuq fazani mustahkam tutib turishi, sirti yetarli darajada katta bo'lishi, kimyoviy inert bo'lishi, tekshiriluvchi moddalarni yutmasligi va ishlatilgan erituvchilarda erimasligi kerak.

Aralashmani tarkibiy qismlarga ajratishni ta'minlovchi, bir-biri bilan aralashmaydigan fazalarni izlash, odatda, o'tkazilgan tajribalar asosida empirik yo'l bilan olib boriladi. Ikki suyuq fazaning tanlovchanligini o'zgartirish uchun uchinchi komponent kiritiladi. Taqsimlanish xromatografiyasida uchlamchi sistemalar keng tarqalgan bo'lib, ular ikkita bir-biriga aralashmaydigan erituvchi bilan ikkala fazada ham eriydigan suyuqlikdan iborat. Uchinchi suyuqliknini turli nisbatlarda kiritish evaziga turli tanlovchanlikka ega bo'lgan, bir-biriga aralashmaydigan fazalar to'plamini olish mumkin. Masalan, bir-biri bilan mutlaqo aralashmaydigan suv va geptanni olib, bu sistemaga turli miqdorlarda etanol qo'shilsa, etil spiriti suvda ham, geptanda ham erishi natijasida turli tanlovchanlikka ega bo'lgan ikki fazali sistemalar to'plami hosil bo'ladi.

Qo'zg'almas va harakatchan fazalar sifatida o'zaro aralashmaydigan erituvchilar tanlanganiga qaramay, ko'pchilik sistemalarda ularning ma'lum darajada bir-birida erishi kuzatiladi. Xromatografiyalash jarayonida suyuqliklarning o'zaro erishining oldini olish uchun harakatchan suyuq faza oldindan qo'zg'almas faza suyuqligi bilan to'yintiriladi. Fazalarning tarkibini o'zgarmas holda saqlab turish uchun qo'zg'almas fazani sorbentda kimyoviy yo'l bilan mustahkamlash usulidan ham foydalilanadi. Bunda erituvchining tashuvchi yuzasidagi  $-OH$  guruhlari bilan o'zaro ta'siridan foydalilanadi. Yuzasida suyuq faza mustahkamlangan bunday adsorbentlar sanoatda ishlab chiqariladi.

Kolonkaning samaradorligi suyuqliklarning qovishqoqligiga, diffuziya koeffitsiyentiga va boshqa fizikaviy xossalari bilan tahlil davomiyligi qisqaradi, qovushoqlik ortganda esa samaradorlik birmuncha ko'payadi. Amalda qovushoqlik ortishi bilan kolonka samaradorligi aytarli ortmagani sababli qovushoqligi kichik bo'lgan erituvchilardan foydalaniladi.

### 6.9-§. Qog'ozda taqsimlanish xromatografiyasи

Qog'ozda xromatografiyalashda qo'zg'almas suyuq faza tashuvchisi sifatida o'zining g'ovaklarida anchagina miqdorda suyuqliknini tutib tura oluvchi qog'ozning maxsus navlari ishlatiladi. Kolonkali variantdagи singari bunda ham ikki turdagи qog'ozdan: g'ovaklarida suvni tutib turadigan gidrofil va maxsus yo'l bilan tayyorlangan hamda qutbsiz organik suyuqliklarni tutib turadigan gidrofob qog'ozdan foydalaniladi.


Qog'ozda xromatogrammalar olish usullari yupqa qatlamlagi xromatografiya usullariga o'xshash bo'ladi.

Qog'ozda taqsimlanish xromatografiyasining muhim xarakteristikasi yupqa qatlamlili xromatografiyadagi singari hisoblanadi,  $R_f = X/X_f$  bu yerda  $x$  – komponent zonasining aralashishi,  $x_f$  – erituvchining aralashishi. Qog'ozdagи xromatografiyada  $R_f$  ni aniqlash uslubi YuQX ning o'lchashlarga asoslangan usullaridan (72-rasm) farq qilmaydi. Xromatografiyanuvchi namuna xromatografiyalashning boshlanishida qog'oz tasmasining boshlang'ich (start) chizig'iga joylashtiriladi va unga harakatchan faza (erituvchi) ning tajriba yakunidagi chegarasi ta'sir ettiriladi. Agar namuna komponentlari rangli bo'lsa ma'lum vaqt o'tgach, xromatogrammada alohida-alohida rangli dog'larni ko'rish mumkin. Birinchi komponent uchun  $R_{f_1} = \frac{x_1}{x_f}$ ,

ikkinchisi uchun  $R_{f_2} = \frac{x_2}{x_f}$  bo'ladi va hokazo.

Ideal sharoitda taqsimlanish koeffitsiyenti  $R_f$  moddaning tabiatи, qog'oz parametrlari va erituvchining xossalari orqali aniqlanadi, lekin boshqa komponentlar ishtirokida moddaning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lmaydi. Amalda esa  $R_f$  koeffitsiyent ma'lum darajada shu omillarga ham, tajribani o'tkazish texnikasiga ham bog'liq bo'ladi.

Shunga qaramay, tajriba sharoitlari uncha o'zgarmaganida va aralashmaning tarkibi barqaror bo'lganda bu koeffitsiyentlar bir xil qiymatga ega bo'ladi va aralashma komponentlarini taqqlashtirish uchun kifoya qiladi. Qog'ozdagi xromatografiyada tahlil o'tkazish uslubi YuQX da qo'llanilgan usullar singari bo'ladi. Tahlil maxsus qog'oz tasmasida yuqoriga ko'tariluvchi yoki pastga tushuvchi usulda bajarilishi mumkin.




**72-rasm. Yopqa qatlama xromatografiyalash sxemasi:**

a - a - dastlabki chiziq; b - b - eritmaning tajriba yakunidagi chegarasi.

Bundan tashqari, boshlang'ich aralashma dastlab doira markaziga joylashtiriladi va keyin markazdan qog'oz chetlari tomon harakatlanib, konsentrik halqalar hosil qiladi. Bu holda doira shaklidagi xromatogramma olinadi. Doira shaklidagi xromatogrammani olish asbobi 72a-rasmda, shunday xromatogrammani olish uchun moslangan qog'oz esa 72(b)-rasmda tasvirlangan.

Harakatchan fazani kiritish uchun qog'ozdagi doira o'rtasida rasmda ko'rsatilganidek pilik kesiladi va uning uchi harakatchan fazali idishga botiriladi. Pasayib boruvchi xromatografiyada 73-rasmida tasvirlangan asbobdan foydalilaniladi. Bu holda start chizig'i qog'oz tasmasining yuqori qismida joylashgan bo'ladi.



**73-rasm. Doiraviy xromatogramma olish asbobining sxemasi:**

a), b) 1-qog'oz filtr; 2- pilik; 3- harakatlanuvchi faza; d) xromatogramma kamerasining tuzilishi: 1- silindr; 2- harakatlanuvchi faza solingen idish. 3- qog'oz bo'lagi; 4- yuk; 5- harakatlanmaydigan fazali byuks; 6 -g'ovak probka; 7- shisha tayoqcha.

Agar tanlangan tarkibli harakatchan faza yordamida tekshiriluvchi aralashmani tarkibiy qismlarga ajratib bo'lmasa, ikki o'lchamli xromatografiyalash usulidan foydalilanildi. Bu usulda xromatogramma olish uchun xromatografiyalash ikki marta, qarama-qarshi yo'nalishlarda o'tkaziladi. Bunda namunaga birinchi erituvchi bilan ishlov berilgandan keyin xromatogramma  $90^{\circ}$  ga aylantiriladi va ikkinchi marta boshqa erituvchi bilan xromatografiyalanadi. Bu usul aralashmani tarkibiy qismlarga to'laroq ajratish imkonini beradi.

Qog'ozdagи xromatografiyaning muvaffaqiyatli qo'llanilishi taqsimlanish koeffitsiyenti turlicha bo'lgan suyuq fazalar xilining ko'pligi va ba'zi boshqa afzalliklaridan tashqari ajratiluvchi aralashmaga bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket elektr maydonini ta'sir ettirish mumkinligi tufaylidir. Bu usul *elektroforetik xromatografiya* deb ataladi.

Xromatografiyalash elektroforez bilan birga olib borilganda tekshiriluvchi aralashma tomchisi tomizilgan qog'oz tasmasiga elektrolit eritmasi shimdiriladi va doimiy tok manbaiga ulanadigan elektrodlar orasiga joylashtiriladi. Bir vaqtning o'zida harakatchan faza ham siljiy

boshlaydi. Elektroforez tugagach, qog'ozni asbobdan chiqarib quritiladi va ko'tarilib boruvchi yoki pasayuvchi xromatografiya usulida xromatografiyalash kamerasiga o'tkaziladi. Xromatografiyalash tugagandan so'ng qog'oz ochiltiriladi va miqdoriy hamda sifat tahlili o'tkaziladi. Bunday usul tahlil vaqtini ancha qisqartiradi va aralashmani tarkibiy qismlarga yaxshiroq ajratilishini ta'minlaydi.

**Xromatografiyalash qog'ozni.** Xromatografiyalash qog'ozni kimyoviy toza va neytral bo'lishi, tekshiriluvchi aralashmani va harakatlanuvchi fazani adsorbilamasligi, zichligi bir xil bo'lishi va harakatchan fazaning ma'lum tezlikda siljishini ta'minlashi kerak. Qog'ozning ichki tuzilishi va undagi tolalarning qanday yo'nalishda jöylashganligi muhim ahamiyatga ega. Odatda ishlatiluvchi qog'ozning navlari gidrofil bo'ladi, quruq holatda tarkibida 20 -22% suv bo'ladi, bu miqdor qo'zg'almas faza sifatida suv ishlatiladigan tajribalar uchun yetarlidir. Bunda harakatchan faza sifatida suvda erimaydigan suyuqliklar ishlatiladi.

Gidrofob qog'oz olish uchun odatdag'i gidrofil qog'ozga maxsus ishlov beriladi, masalan, turli hidrofob moddalar shimdirliladi yoki asetillanadi, Gidrofob qog'ozda xromatogrammalar olish usuli suvda erimaydigan moddalar tahlilida qo'llaniladi: tekshiriluvchi aralashmani tarkibiy qismlarga ajratish uchun harakatchan faza sifatida organik erituvchi, qo'zg'almas faza sifatida esa suv ishlatiladi. Agar modda organik erituvchilar eruvchan bo'lsa, suv harakatchan faza qilib olinadi, organik erituvchi esa qo'zg'almas faza vazifasini bajaradi. Buni *aylantirilgan fazalar usuli* deyiladi.

Erituvchilarga, odatda, quyidagi talablar qo'yiladi: qo'zg'almas va harakatchan faza erituvchilar bir-biri bilan aralashmasligi, xromatografiyalash jarayonida erituvchining tarkibi o'zgarmasligi, erituvchilar qog'ozdan oson chiqib ketadigan, inson sog'lig'iga beziyon va topilishi oson bo'lishi kerak.

Taqsimlanish xromatografiyasida alohida yakka erituvchilar deyarli kam ishlatiladi. Ko'pincha bu maqsadda erituvchilar aralashmasi masalan, butil yoki amil spiritining metil yoki etil spirit bilan aralashmasi, fenolning suvdagi to'yingan eritmalari va boshqalar ishlatiladi. Erituvchilarning turli aralashmalarini ishlatish  $R_f$  ni bir me'yorda o'zgartirishga va demak, aralashmaning tarkibiy qismlarga ajralishi uchun qulay sharoitlar tug'dirishga imkon beradi.

Tekshiriluvchi namunaning sifat tarkibi qog'ozda taqsimlanish xromatografiyasi usulida ham YuQX dagi kabi alohida dog'larning o'ziga xos rangi bo'yicha yoki har bir komponent  $R_f$  ning son qiymati bo'yicha aniqlanadi.

Qog'oz xromatografiyasida miqdoriy aniqlanishlar ham YuQX dagi singari yo xromatografik xarakteristikalar (xromatogrammadagi dog' sathi va uning bo'yalish jadallilikligi) bo'yicha yoki yuvib chiqarish usuli bilan bajariladi. Ko'pincha, xromatogramma dog'lar soniga qarab bir necha alohida qismlarga kesib olinadi, har bir dog' tegishli erituvchida eritiladi va ajralib chiqqan modda eritmasi mos keluvchi (fotometrik, polyarografik va boshqa) usul bilan aniqlanadi.

Darajalangan grafik  $S-l_g C$  bo'yicha aniqlash usuli yaxshiroq natijalar beradi. Bunda  $S$ -dog' sathi,  $C$ -modda konsentratsiyasi. Ko'rsatilgan koordinatalarda grafik to'g'ri chiziqli bo'ladi. Shuningdek, dog' rangining jadallilikidan ham foydalaniladi, u modda konsentratsiyasiga mutanosib bo'ladi.

Suyuqlik taqsimlanish xromatografiyasi usuli bilan anorganik sifat tahlilida kationlar aralashmasi, aminokislotalar aralashmasi va boshqa organik kislotalar, bo'yoqlar aralashmasi va boshqalar ham muvaffaqiyatli tahlil qilinadi.


### 6.10-§. Gaz xromatografiyasi tahlil usuli.

#### Amalda ishlatalishi va afzalikllari

Hozirgi paytda eng muhim xromotagrofiya usullari gaz-qattiq modda xromatografiyasi, gaz-adsorbsion xromatografiya (GAX, bunda qo'zg'almas faza sifatida qattiq adsorbent ishlataladi) va gaz-suyuqlik xromatografiyasidir (GSX, bunda qattiq sorbent donachalari yuzasidagi suyuqlik pardasi qo'zg'almas faza bo'ladi).

Gaz xromotagrasiyasida tekshiriluvchi aralashmaning tarkibiy qismlari (komponentlari) gaz faza bilan qattiq yoki suyuq fazalar orasida taqsimlanadi. Gaz xromatografiyasida harakatchan fazani gaz yoki bug' tashkil qildi.

Gaz xromotagrasiyasini o'tkazishda ma'lum haroratgacha qizdirilgan tashuvchi gaz oqimiga tahlil qilinadigan namuna kiritiladi.



**74-rasm. Gas xromatografiya sxemasi:**

1-tashuvchi gazning doimi oqim manbai, 2-gaz oqim rostlagichi, 3-tekshiriluvchi namuna miqdorini o'lchab kiritish uchun dozalovchi moslama (dozator), 4-termostatlangan xromatografiya kolonkasi, 5-detektor, 6-o'ziyozar moslama, 7-kolonkali isitish bloki.

Namuna tarkibidagi moddalar tashuvchi gaz oqimiida bug'lanib, termostatlangan, qo'zg'almas fazali (adsorbentli) kolonkaga kiradi. Kolonkadagi adsorbentda gazsimon moddalar aralashmasining ko'p marta takrorlanuvchi adsorbsiya va desorbsiya (yoki suyuqlik pardasida erish va ajralib chiqish) jarayonlari sodir bo'ladi. Bunda murakkab aralashmaning tarkibiy qismlarga ajratilishi tekshiriluvchi moddalarning fazalar orasida taqsimlanish koefitsiyenti yoki adsorbsiyalanish koefitsiyenti bilan aniqlanadi. Kolonkadan chiqishda aralashma alohida moddalarga ajralib, gaz oqimi bilan birga dedektorga kiradi.

Har qanday xramotografik kolonka ba'zi hollarda aralashma komponentlarini ajratilgandan keyin tutib koluvchi moslamalardan tashkil topgan bo'ladi.

Tashuvchi gaz ballondan reduktor orqali beriladi. Tashuvchi gazning sarfi maxsus sarf o'lchagich-rotamerlar yordamida aniqlanadi. Gazni namlik va boshqa aralashmalardan tozalash uchun kalsiy xlorid yoki silikagel to'ldirilgan shisha idishlar yoki U simon naylaridan foydalaniladi. Ular dozatordan oldin joylashtiriladi. Namuna xromatografga maxsus dozatorlardan o'lchab kiritiladi. Laboratoriya amaliyotida bu maqsadda maxsus shprislardan foydalaniladi. Katta hajmdagi gaz namunasini kiritish uchun ajratuvchi byuretkalar

ishlatiladi. Xromatografda kiritilgan namunani tashuvchi gaz bilan aralashtirish yoki uni bug'latishga mo'ljallangan moslamalar bo'ladi. Tashuvchi gaz oqimi namuna bilan birga kolonkaga kiradi. Gaz xromatografiyasida termostatlangan to'g'ri, U simon va spiral shaklidagi kolonkalar ishlatiladi. Xromatografiyani to'g'ri o'tkazish uchun kolonkani adsorbent bilan bir me'yorda yaxshi to'ldirish hamda haroratini o'zgarmas holda tutib turish juda katta ahamiyatga ega va shuning uchun xromotografik kolonka termostatlanadi.

Detektor gaz xromatografining eng muhim qismi bo'lib, u chiqish paytida gaz tarkibining o'zgarishini sezadi va ma'lumotlarni qayd etuvchi asbobga uzatadi. Integral detektoring signali gaz oqimidagi moddaning umumiy massasiga mutanosib bo'ladi. Detektordan aralashma komponentlari o'tganda o'ziyozar moslamaning perosi siljib, pog'onalar chiziladi. Shunday qilib, integral detektor yordamida olingan xromatogramma pog'onalardan iborat bo'ladi va pog'onalarning balandligi ushbu pog'onaga to'g'ri keluvchi komponentning massasiga to'g'ri mutanosib bo'ladi.

Katarometrda gaz oqimiga o'rnatilgan qizdirilgan simning elektr qarshiligi o'lchanadi. Simning harorati va qarshiligi gaz oqimidagi ajralgan modda konsentratsiyasiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Katarometr universal asbob bo'lishiga qaramay, unchalik sezgir emas.

1952-yilda gaz-suyuqlik xromatografiyası kashf etilgandan keyin gaz fazadagi aralashmani xromatografik usulda tarkibiy qismlarga ajratish imkonı anchagina oshdi. Bu usul bilan tahlil qilishda tekshiriluvechi gaz aralashmasi yuzasiga yupqa suyuqlik pardasi qoplangan tashuvchi-qattiq sorbent to'ldirilgan kolonkadan o'tkaziladi. Qattiq tashuvchining mikrog'ovakligi kam bo'lishi kerak ( $20\text{ m}^2/\text{g}$  gacha), chunki mikrog'ovaklar suyuqlikning kirishiga xalaqit beradi va natijada aralashmani to'liq ajratish qiyin bo'ladi. Qattiq tashuvchilar sifatida modifikatsiyalangan turli xil qumtuproqlar va gillarni ham ishlatish mumkin.

Shunday qilib, gaz-suyuqlik xromatografiyasida tekshiriluvchi aralashmaning tarkibiy qismlari bilan suyuqlik pardasidagi modda o'zaro ta'sirlashadi. Lekin amalda aralashma komponentlari qattiq sorbent bilan ham qisman o'zaro ta'sirlashadi.

Qattiq adsorbent yuzasida suyuqlik pardasining paydo bo'lishi xromatografik kolonkada sodir bo'ladiidan fizik-kimyoviy jarayonlar tabiatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Kolonkada gazning qattiq

adsorbentga yutilish jarayoni o'rniga, gazning qattiq tashuvchi yuzasidagi suyuqlik pardasiga yutilish (erish) jarayoni sodir bo'la boshladi. Aralashmani tarkibiy qismlarga ajratish samaradorligi gaz-adsorbsion xromatografiyadagi kabi adsorbsiya-desorbsiya jarayonlari bilan emas, balki gazning suyuqlik pardasida erishi va uning ajralib chiqish jarayonlari bilan aniqlanadigan bo'ldi. Gazlarning eruvchanligi orasidagi farq ularning adsorbsion xossalari orasidagi farq ularning adsorbsion xossalari orasidagi farqqa qaraganda muhimroq bo'lib qoldi. Shuning uchun gaz-suyuqlik xromatografiyasi ko'p komponentli aralashmalarni tarkibiy qismlarga ajratish va tekshirishda keng imkoniyatlar yaratdi.

Gaz-suyuqlik xromatografiyasida aralashmani tarkibiy qismlarga ajratish samaradorligi suyuq fazani to'g'ri tanlashga bog'liq. Suyuq faza aralashma komponentlariga nisbatan inert, ancha tanlovchan, termik barqaror bo'lishi, tashuvchi gazni o'zida eritmasligi, qovush-qoqligi kichik va bug'lanmaydigan (tajriba sharoitida) bo'lishi kerak.

Gaz-suyuqlik xromatografiyasida suyuq faza sifatida termik jihatdan ancha barqaror bo'lган vazelin moyi, silikon moylari, stalatlar (dibutilftalat, dioktilftalat va boshqalar), dimetilformamid va silikon polimerlardan foydalaniлади. Suyuq kristallar, masalan:



tipidagi azooksiefirlar o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Bunday suyuq kristallar chiziqli molekulalarga nisbatan tanlashga moyilligi kuchliroq bo'ladi. Suyuq fazaning miqdori sistemaning xossalariiga bog'liq bo'lib, qattiq tashuvchi massasining 1 dan 30-50% ini tashkil etadi. Kizelgur yoki diatomit asosida olingen tashuvchilar eng ko'p ishlatiladi. Shuningdek, shishadan yasalgan mikrosok-kachalar ham ishlatiladi. Ba'zan teflondan foydalaniлади.

Xromatografik jarayonning harorat rejimi turlicha bo'lishi mumkin. Programmalangan haroratli gaz xromatografiyasida aralashmani tarkibiy qismlariga ajratish darajasi yuqori bo'ladi. Bunday xromatografiyalashda kolonka harorati sekin-asta oshirib boriladi va kolonka orqali avval eng uchuvchan komponentlar, so'ngra harorat ko'tarilgan sari kamroq uchuvchanlari o'tadi va moddalar ancha to'liq ajratiladi.

Bir necha o'nlab markali turli xil xromatograflar ishlab chiqarilgan, bulardan laboratoriyalarda «Цвет» (Цвет -5, Цвет -6,

Цвет -100), ЛХМ (ЛХМ -4, ЛХМ-8 МД, Gazoxrom ХГ) seriyali xromatograflar ko'proq ishlataladi.

Gaz xromatografiyasining bir turi bo'lgan kapillar xromatografiyada aralashmani tarkibiy qismlarga ajratish samaradorligi ancha katta bo'ladi. Bu usulda xromatografik kolonka sifatida diametri OD-0,5 mm va uzunligi bir necha o'nlab metr bo'lgan kapillarlardan foydalananiladi. Bunda kapillar qattiq tashuvchi vazifasini bajaradi. Ularning ichki devorlari qo'zgalmas suyuq yoki qattiq faza pardasi bilan qoplangan bo'ladi. Kapillar uzunligining kattaligi va diametrining kichikligi aralashmalarining tarkibiy qismlarga yaxshi ajratilishini, xromatografiyalashni katta tezlikda olib borishni va gaz xromatografiyasining juda sezgir bo'lishini ta'minlaydi.

Kapillar xromatografiyaning asosiy qiyinchiliklari katta uzunlikdagi ingichka kapillarni tayyorlash, ularning devorlarida suyuq yoki qattiq fazaning yupqa qatlamini hosil qilish va namuna komponentlarining mikro miqdorlarini detektorlashdan iborat.

Kapillar misdan, aluminiydan, shishadan, zanglamaydigan po'latdan, plasstmassalardan yasaladi. Kimyoviy moddalar ta'siriga barqarorligi, tozaligi va tayyorlash osonligi tufayli shishadan tayyorlangan kapillar kalonkalar amalda ko'p ishlataladi. Zaruriy uzunlikda tayyorlangan kapillar baraban yoki kassetaga o'ralib, ichki yuzasiga qo'zg'almas suyuq faza qoplanadi va gaz xromatografiyaning termoshkafiga joylashtirilib, asbobning gaz zanjiriga ulanadi.

Kapillar kolonka devorining ichki yuzasiga qoplash uchun dastlab suyuq faza tanlanadi, u devorni yaxshi ho'llaydigan va aralashmaning tarkibiy qismlari yaxshi ajratilishini ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Avval kapillar kolonka harakatchan organik erituvchi bilan bosim ostida yuviladi, so'ngra quruq azot oqimida quritiladi. Kapillar kolonkaning ichki yuzasini qoplash uchun ishlataladigan qo'zg'almas faza uchuvchan erituvchida eritiladi va eritmaning ozgina miqdori gaz bosimidan foydalaniib kolonka orqali o'tkaziladi. Eritma kapillarning ichki devorini ho'llaydi, va azot oqimi bilan yuvilgandan keyin erituvchi bug'lanib ketgach kapillar devori qo'zg'almas suyuq fazaning yupqa qatlami bilan qoplanib qoladi. Suyuq qo'zg'almas fazalar sifatida yuqori haroratlarda qaynaydigan uglevodoroddlar – skvalan, oktadesen, vazelin moyi, kreminiy-organik birikmalar silikon moylari, siloksanlar va boshqalar ishlataladi.

Kapillar xromatografiyasida detektorlash sistemalarning sezgirligi yuqori ( $10^{10}$  g/s gacha), ishchi kamerasining hajmi kichik bo‘lishi kerak. Ko‘pincha, alangali-ionizatsion turdag‘i mikrodetektorlar (sezgirligi  $10^{-15}$  g/s gacha), krokatarometrlar ( $10^{-12}$  g/s gacha) va elektrokonduktorimetrik mikrodetektorlar (sezgirligi  $10^{-12}$  g/s gacha) ishlataladi.

**Amalda qo‘llanilishi.** Gaz xromatografiyasining amalda keng qo‘llanilishi va katta ahamiyatga sabab shuki, uning yordamida murakkab gaz aralashmalarining alohida komponentlarini taqoslab aniqlash va miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin, tahlilni bajarish ko‘p vaqt talab etmaydi va usul yetarli darajada universaldir. Gaz xromatografiyası preparativ maqsadlarda fizik-kimyoviy tadqiqotlar va boshqa sohalarda qo‘llanilganda yaxshi natija beradi.

Gaz xromatografiyası usuli bilan neft gazlari, kon gazlari, havo, asosiy kimyoviy mahsulotlar, organik sintez sanoatining mahsulotlari, neft va uni qayta ishlash mahsulotlari tahlil qilinadi. Gaz xromatografiyası usullari ba’zi elementlarning izotoplarini ajratish uchun ham yaroqlidir. Gaz xromatografiyasidan biologiyada, tibbiyotda, yog‘ochni qayta ishlash texnologiyasida, oziq-ovqat sanoatida, ba’zi yuqori haroratlari jarayonlar texnologiyasida foydaniladi.

Gaz xromatografiyasidan suyuqliklarni xromotografik kolonkada bug‘ holiga aylantirib tahlil qilish uchun ham foydalanish mumkin. U ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda ham qo‘llaniladi.

Gaz xromatografiyası, shuningdek, adsorbentlarning turli xossalari (solishtirma sirtini) va adsorbatlar (yutiluvchi gazlar) xossalalaring (diffuziya koeffitsiyenti) hamda adsorbent-adsorbat sistemalar xususiyatlarini (adsorbsiya issiqligi va izotermasi), moddalarning boshqa xossalari, reaksiyalar kinetikasini va boshqalarni aniqlashda keng qo‘llaniladi.

Gaz xromatografiyasidan ko‘p komponentli murakkab aralashmalarni tahlil qilishda, mikroqo‘simechalarini aniqlashda, uchuvchan bo‘limgan birikma (polimerlar) tahlilida element tahlili va boshqalarda ham foydalaniladi.

Kapillar xromatografiya usulida juda nozik aralashmalarni ham tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Masalan, kapillar xromatografiya usuli vositasida 15-20 birikmadan tashkil topgan izomer uglevodorodlar aralashmasini bir necha daqiqada tarkibiy qismlarga ajratish va miqdoriy aniqlash mumkin.

Kapillar xromatografiyaning afzalliklaridan yana biri jarayonni amalga oshirish uchun gazdan juda oz hajmda zarur bo'lishidir.

### 6.11-§. Gel xromatografiyasi

Bu xromatografiyaning mutlaqo o'ziga xos turi bo'lib, molekulalarning o'lchamlari orasidagi farqdan foydalanishga asoslangan. U gel xromatografiyasi yoki elak xromatografiyasi deyiladi.

Gel xromatografiyasida taqsimlanish xromatografiyasiidan farqli ravishda qo'zg'almas va harakatchan faza sifatida bitta suyuqlikerituvchining o'zi xizmat qildi. Bunda qattiq tashuvchi qatlami – gel donachalarini yuvib o'tadigan suyuqlik harakatchan faza vazifasini o'tab, ajratiluvchi aralashma komponentlarini kolonka bo'ylab siljitaldi. Shu suyuqliknинг boshqa qismi gel donachalarining g'ovaklariga joylashib, qo'zg'almas faza vazifasini bajaradi.

Aralashma tarkibidagi molekulalar o'lchamlari jihatdan turlicha, gel g'ovaklarining diametri esa o'zgarmas bo'lganida moddalar aralashmasi tarkibiy qismlarga ajraladi. Bunda o'lchamlari gel g'ovaklarining diametridan kichikroq bo'lgan molekulalar gelda tutilib qoladi. Tekshiriluvchi aralashma filtrlanganda maydarot molekulalar gel g'ovaklariga kirib, shu g'ovaklardagi erituvchida tutilib qoladi va gel qatlami bo'ylab g'ovaklarga kirolmagan yirikroq molekulalarga nisbatan sekinroq harakatlanadi. Gel xromatografiyasi moddalar aralashmasini shu moddalar molekulalarining o'lchamlari va massalariga bog'liq ravishda ajratish imkonini beradi. Aralashmalarni ajratishning bu usuli ancha oddiy, tezkor va eng muhim boshqa xromatografik usullardan osonroq sharoitlarda amalga oshirilish imkonini bilan farqlanadi.

Gel xromatografiyasida tabiatli va xossalari jihatdan turlicha bo'lgan har xil gellardan foydalaniladi. Ular yumshoq, yarim qattiq va qattiq gellarga bo'linadi. Bularning har biri gidrofil yoki gidrofob bo'lishi mumkin.

**Yumshoq gellar.** Bular molekulasida ko'ndalang bog'lar oz bo'lgan organik yuqori molekular birikmalardir. Ular anchagina miqdor erituvchini yutib bo'lishi va hajmi kattalashishi mumkin. Ularning suyuqliki yutish qobiliyati g'ovakliklariga mutanosib ravishda ortib boradi. Yumshoq gellar quyi molekular moddalar aralashmalarini suyuqlik oqimining tezligi kichik bo'lganda tarkibiy

qismlarga ajratish uchun qo'llaniladi. Yumshoq gellarning samaradorligi katta bo'ladi. Ularning sig'im omili, ya'ni gel ichidagi erituvchi hajmi  $V_1$  ning geldan tashqaridagi hajmi  $V_2$  ga nisbati 3 ga teng. Bular sefadekslar yoki dekstrin, kraxmal va boshqa gellar bo'lib, aralashmalarini yupqa qatlamlari variantda ajratish uchun ishlataladi. Yumshoq gellarda xromatografiyalash gel filtrlash deb ataladi.

**Yarim qattiq gellar** polimerlash yo'li bilan olinadi. Ular yetarli darajada yuqori singdiruvchanlikka ega bo'lib, o'rtacha sig'imi katta va g'ovaklarining o'lchamlariga bog'liq bo'lmaydi. Yumshoq gellardan farqli ravishda yarim qattiq gellar bo'kkanida hajmi ozgina-1,1-1,8 marta ortadi. Ular uchun sig'im faktori 0,8-1,2 bo'ladi. Yarim qattiq gellar yuqori bosimga yaxshi bardosh beradi va shaklini o'zgartirmaydi (deformatsiyalanmaydi). Ular gidrofobdir. Ularni hidrofillash kimyoviy (sulfatlar) yoki fizikaviy yo'l bilan amalgamashiriladi. Keng ko'lamda ishlataluvchi yarim qattiq gellardan stirogellar stirolni divinilbenzol bilan sopolimerlash natijasida olinadi. Yarim qattiq gellarda xromatografiyalash singuvchi gel xromatografiyasini deb ataladi.

**Qattiq gellar** qatoriga silikagellar, g'ovak shishalar (gel bo'lmasa ham) kiradi. Qattiq gellar g'ovaklarining o'lchamlari hech qanday sharoitda o'zgarmaydi, bu esa kolonkalarning yuqori o'tkazuvchanligini ta'minlaydi. Bu turdag'i gellarning sig'im omili katta emas-0,8-1,1. Qattiq gellar hidrofil ham, liofil ham bo'lishi mumkin. Ularni yuqori bosimda olib boriladigan gel xromatografiyasida ishlataladi.

Gel xromatografiyasida ishlataladigan erituvchilar aralashmaning barcha komponentlarini erita olishi, gel sirtini ho'llaydigan bo'lishi va gelda adsorblanmasligi kerak. Gel g'ovaklarini va gel donachalari orasidagi, bo'shliqni to'ldiruvchi erituvchilar xromatografiyalanuvchi moddalarning molekulalari bilan bir xilda o'zaro ta'sir etishi kerak. Shunda erigan moddalarning g'ovaklarga kirishi faqat diffuziyalanish tufayli bo'ladi.

Erituvchining qovushoqligi ham katta ahamiyatga ega, massa almashinishi tezligi ana shunga bog'liq. Diffuziyalanish koeffitsiyenti kichik bo'lgan yuqori molekular birikmalarning eritmalarini uchun erituvchining qovushoqligi, ayniqsa kichik bo'lishi kerak. Gel xromatografiyasida erituvchi tanlash qo'llaniluvchi detektorlash sistemasiga ham bog'liq.

Gel xromatografiyasi amalda yuqori molekular birikmalar aralashmalarini tarkibiy qismlarga ajratishda qo'llaniladi. Lekin undan quyi molekular birikmalar aralashmalarini tarkibiy qismlarga ajratishda ham ba'zan foydalaniлади, chunki bu usulda aralashmalarни xona haroratida ham ajratish mumkin.

### **6.12-§. Ion almashinish xromatografiyasi**

Ion almashish xromatografiyasi suyuq harakatchan faza ionlarini qo'zg'almas fazadagi qattiq yoki suyuq moddalarning ionlari bilan qaytar stexiometrik almashinishiga asoslangan. Almashina oladigan harakatchan ionlari bor bunday moddalar ionitlar yoki ion almasuvchi smolalar deb ataladi. Ular qattiq va suyuq moddalar bo'lishi mumkin. Ion almashinish xromatografiyasida ko'pchilik hollarda qattiq ionitlar ishlatiladi. Almashinuvchi ionlarning zaryadiga qarab ionitlar kationitlar (yoki kation almashuvchilar) va anionitlarga (anion almashinuvchilar) ajratiladi. Amfoter ionitlar ham mavjud bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ham kationlarini, ham anionlarini almashtira oladi.

**Ion almashuvchi smolalarning turlari.** Turli tabiiy va sintetik birikmalarning ko'pchiligi ionitlar xossasiga ega. Ulardan eng muhimlari sintetik polimer smolalar, ko'mirlar va ba'zi mineral ionitlardir. Mineral ionitlar tabiiy birikmalar bo'lib, ulardan ionitlar sifatida kation almashina oladigan kristall silikatlar, seolitlar ishlatiladi. Seolitlar ichki tuzilishi mustahkam bo'lgani sababli yaxshi bukilmaydi, ularning ionlari esa kam harakatchandir. Kationlar va katta o'lchamli molekulalar seolitlar panjarasiga kira olmaydi, shu sababli seolitlar elaksimon xususiyatga ega bo'lib, ion va molekular elaklar sifatida ishlatiladi.

Sintetik anorganik ionitlarga suyuqlantirilgan va gelsimon permutitlar, aktivlangan aluminiy oksidi, titan va sirkoniy asosidagi ionitlar kiradi. Aktivlangan aluminiy oksidi olinish usuliga qarab kationit ham, anionit ham bo'lishi mumkin. Kationit olish uchun natriy alumimat eritmasiga mo'l uglerod (IV) oksid yuborib, aluminiy gidroksid to'la cho'ktiriladi va so'ngra olingan aluminiy gidroksid qizdiriladi. Bu usulda olingan kationitga  $[(Al_2O_3)_xAlO^-_3]$   $Na^+$  formula mos keladi. Unga nitrat kislotaning 2 M eritmasi bilan ishlov berib,  $[(Al_2O_3)_xAlO^-_3] NO_3^-$  formulali anionit olinadi. Sirkoniy



ionitlari orasida quyidagi formulaga ega bo'lgan sirkoniy fosfat eng ko'p ishlataladi:  $ZrO_2 \cdot R_2O_5 \cdot 5H_2O$ . U uranni parchalanishida hosil bo'lувчи elementlardan ajratish uchun ishlataladi.

**Ko'mirlar asosida olinadigan ionitlar.** Qo'ng'ir toshko'mirlarni va antrasitlarni tutuvchi sulfat kislota bilan sulfolash ko'mirlar tarkibiga harakatchan sulfoguruuhlar kiritish imkonini beradi. Ko'mirlarni oksidlash natijasida ularda karboksil guruhlar paydo bo'ladi. Shunday qilib, ko'mirlar ional mashuvchi birikmalarga aylanadi. Sulfoguruuh kiritish polikondensatlanish reaksiyalari sodir bo'lishiga imkon yaratadi va ko'mirning gelga aylanishiga sabab bo'ladi. Sulfoguruuhlar kiritilgan ko'mirlar (sulfo-ko'mirlar) asosidagi ionitlar o'z xossalari jihatidan organik ionitlarga yaqinlashadi. Oksidlangan ko'mirlarga yuqori tanlovchanlik xos bo'lib, u ayniqsa zaryad qiymati bir xil bo'lgan kationlar aralashmasini tahlil qilishda namoyon bo'ladi.

**Sintetik polimer moddalar-smolalar asosidagi ionitlar.** Polimer moddalar- sintetik smolalar asosida olinadigan sintetik organik ionitlar eng katta amaliy ahamiyatga ega, chunki ular kimyoiy jihatdan juda barqaror, mexanik puxta, tanlovchan bo'lib, almashinish sig'imi katta bo'ladi.

Sintetik ion almashinuvchi smolalar ticho'qqi gellar bo'lib, ularning kationlarida kislotali funksional guruhlar  $-SO_3^-$ ,  $-COO^-$ ,  $-PO_3^{2-}$ ,  $-AsO_3^{2-}$  bo'ladi. Kationtlarning karkaslarida manfiy zaryadli mustahkam bog'langan guruhlar bo'lganligi sababli kationit o'zagi manfiy zaryadlangan bo'ladi. O'zakning manfiy zaryadlari qarshi ionlarning musbat zaryadlari bilan ta'sirlanib turadi va shu sababli kationitning makromolekulasi elektroneytral bo'ladi. Lekin qarshi ionlar ayni holda kationlar o'zakdag'i funksional guruhlardan farqli ravishda harakatchan bo'ladi va eritmadiagi ionlar bilan ekvivalent miqdorda almashinishi hamda eritmaga o'tishi mumkin. Bunday almashinish smola fazasidagi ionlar bilan erituvchi tarkibidagi ionlar orasida harakatchan muvozanat vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Kationtlardan eng ko'p ishlataluvchilar sulfokislotalar bo'lib, ular stirol bilan divinilbenzolni birga polimerlash orqali olingan mahsulotga sulfoguruuhlar kiritish yo'li bilan olinadi. Bizda ular КУ-2, СДВ-3 va boshqalar, chet ellarda esa daueks-50, amberlit УР-120 va boshqa markalarda chiqariladi. Ularning tuzilish sxemasi 75-rasmida keltirilgan. Sulfokationitlar kimyoiy jihatdan barqaror, mexanik pishiq bo'lib, ularda ionlanish muvozanati tez qaror topadi.



### 75-rasm. Kationitlarning tuzilishi.

Anionitlarning o'zagida funksional guruhlar to'rtlamchi –  $\text{RNH}_3^+$ , uchlamchi –  $\text{R}_2\text{NH}_2^+$ , ikkilamchi –  $\text{RNH}_3^+$  va birlamchi –  $\text{NH}_4^+$  yoki  $\text{N}_3\text{NN}^+$  ammoniy, piridin yoki boshqa asoslardan iborat bo'lib, harakatchan qarshi ionlar sifatida anionlar xizmat qiladi. Anion almashinuvchi smolalar polimerlash yoki polikondensatlash reaksiyalari yo'li bilan ham olinadi. Bunda turli aminobirikimalardan (fenildiamin, polietilen-poliamin), formaldegiddan foydalaniadi. Shunday yo'l bilan AH-1, AH-2Φ, amberlit deb atalgan anionitlar olingan. Molekulasida turli xil aminlar (shu jumladan to'rtlamchilari ham) bo'ladigan polifunksional anionit ЭДЭ-10П keng tarqalgan.

Amfoter ionitlar, boshqacha aytganda amfolitlar bir vaqtning o'zida ham kation, ham anionlarini almashina oladi. Dietilentriamin, fenol va formaldegidlardan polikondensatlash usuli bilan olingan ionit bipolyar yoki amfolit bo'ladi, chunki uning tarkibiga aminoguruhlar bilan bir qatorda kuchsiz kislota xossasiga ega bo'lgan fenol guruhlari ham kiradi. Tarkibida kompleks sonlar qoldig'i bo'ladigan smolalar,


masalan EDTA amfoter va kompleks hosil qilish xossalariiga ega bo'ladi.

**Ionitlarning almashinish sig'imi.** Ionitlarning eng muhim xossalardan biri ularning almashinish sig'imidir. Bu kattalik ionit o'zagidagi funksional guruhlarning soni va ularning eritmaning ushbu pH ida ionlanish darajasi bilan aniqlanadi. Ionitning almashinish sig'imi son jihatidan smolaning massa yoki hajm birligiga to'g'ri keladigan qarshi ionlarning mol-ekvivalent soni bilan ifodalash mumkin. Tahliliy kimyoda ionitning sig'imi odatda, 1g quruq smolaning kationit uchun  $H^+$  shaklidagisiga va anionit uchun  $Cl^-$  yoki  $OH^-$  shaklidagisiga to'g'ri keladigan almashinuvchi ionning mol-ekvivalentlari soni bilan aniqlanadi. Odatda, almashinish sig'imi 1 g smolaga bir necha (3 dan, 10 gacha) mol.ekv. ionga to'g'ri keladi. Ayni ionitning, to'la almashinish sig'imi o'zgarmas kattalikdir. Ideal sharoitda to'la almashinish sig'imi ionitning holatiga va qarshi ionning tabiatiga bog'liq bo'lmaydi, faqat ionitning o'zigina tabiatga bog'liq bo'ladi.

Odatdagi sharoitda bu sig'im qator omillarga: haroratga, eritma pH iga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, statik sharoitda aniqlangan almashinish sig'imi dinamik sharoitda aniqlangan qiymatlardan farqlanadi.

Dinamik almashinish sig'iming ikki turi bor: ayni ionning kolonkadan o'tib, oqib chiquvchi eritmada paydo bo'llishigacha aniqlanuvchi dinamik almashinish sig'imi (DAS) va to'la dinamik almashinish sig'imi (TDAS) kolonkadagi ionitning ayni ion bilan butunlay to'yingunga qadar kuzatiluvchi sig'imi.

**Ion almashinish muvozanati.** Ion almashinuvchi smolaning elektrolit eritmasi bilan o'zaro ta'sirida bir necha murakkab jarayonlar sodir bo'ladi. Ulardan eng muhimlari ion almashinishing o'zi, ionlar va molekulalarning smolaga fizik adsorbilanishi va erituvchining yutilishi hamda elektrolitning smola ichiga singishi natijasida smolaning bo'kishidir. Ion almashinish jarayoni stexiometrik ravishda sodir bo'ladi. Masalan, agar vodorod shaklidagi RH kationit tarkibida  $Na^+$  ionlari bor eritmaga kiritilsa, sistemada muvozanat qaror topadi. Jarayonni massalar ta'siri qonuni yordamida tavsiflash mumkin. Almashinish reaksiyasi.



shaklida ifodalansa, unda muvozanat konstantasi quyidagicha bo'ladi:

$$K_{H^+/Na^+} = \frac{[H^+] \cdot [RNa]}{[Na^+] \cdot [RH]}$$

Tarkibida ikki valentli ionlar bo'ladigan eritma uchun:



$$K_{H^+/Ca^{+2}} = \frac{[H^+] \cdot [CaR_2]}{[Ca^{+2}] \cdot [HR]}$$

Tarkibida xlorid ion  $Cl^-$  bo'ladigan eritma ROH anionit bilan o'zaro ta'sirlashganida ham xuddi shunday almashinish jarayoni sodir bo'ladi:



Har bir ionning smola va eritma orasida taqsimlanishini taqsimlanish koeffitsiyenti orqali ifodalash mumkin:

$$P_{Ca^{+2}} = \frac{[CaR_2]}{[Ca^{+2}]}; \quad P_{Cl^-} = \frac{[R-Cl]}{[Cl^-]}; \quad P_{Na^+} = \frac{[R-Na]}{[Na^+]}$$

Ushbu muvozanat ion almashinish konstantasi orqali aniqroq tavsiflanadi:

$$K^+ = \frac{^{a2}H^+ + ^aCaR_2}{^{a2}Ca^{+2} + ^{a2}HR}$$

bu yerda,  $a$  – zarrachalar aktivligi.

Almashinish konstantalari taqsimlanish koeffitsiyentlari bilan quyidagi nisbat orqali bog'langan:

$$K_{H^+/Ca^{+2}} = \frac{P_{Ca^{+2}}}{P_H^2 +}$$

Muvozanat konstantasi orqali ionlarning sorbsiyalanish darajasini aniqlash mumkin. Agar  $K=1$  bo'lsa, siqib chiqariluvchi va siqib chiqaruvchi ionlarning yutilish darajasi bir xil bo'ladi.  $K>1$  bo'lganida siqib

chiqaruvchi ionning sorbsiyasi kuchliroq,  $K < 1$  bo'lganida esa siqib chiqariluvchi ionning sorbsiyasi kuchli bo'ladi. Agar harakatchan faza ion almashinuvchi smolaga nisbatan siljisa, eritma bilan ion almashinuvchi orasidagi muvozanat holati quyidagicha murakkab bog'lanishda bo'ladi:

$$K = V \cdot C^z / m^2 \cdot \alpha \cdot S \quad (53)$$

Bunda,  $V$  – siqib chiqaruvchi eritmaning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;  $S$  – eritmadagi siqib chiqaruvchi ionning konsentratsiyasi,  $\text{mol/l}$ .  $T$  – ioniting almashinish sig'imi,  $\text{mol/g}$ ;  $\alpha$  – kolonkadagi smola qatlamining balandligi  $\text{sm}$ ;  $C$  – kolonkaning ko'ndalang kesimi,  $\text{sm}^2$ ;  $z$  – siqib chiqariluvchi ionning zaryadi.

Almashinish muvozanati konstantalari orasidagi farq qancha katta bo'lsa, kationlarni ajratish shuncha samarali bo'ladi. Kationlar aralashmasini ajratish imkoniyati va samaradorligi selektivlik (tanlovchanlik) koeffitsiyentlari yordamida aniqlanadi. Bu koeffitsiyent ajratiluvchi ikkita ionning almashinish muvozanati konstantalarining nisbatidan iborat:

$$K = \frac{K_1}{K_2} \quad (54)$$

Masalan, ma'lumotlariga binoan  $\text{Co}^{+2}$  va  $\text{Ni}^{2+}$  ionlari aralashmasini ajratishda tanlovchanlik koeffitsiyenti

$$K = \frac{1.06}{2.16} = 0.49$$

bo'ladi.

Turli kationlarning muvozanat konstantalari turlicha bo'lgani uchun ion almashinish jarayonidan kationlar aralashmasini ajratish uchun foydalanish mumkin.

**Ion almashinish xromatografiyasining usullari.** Elyuent usulida ionlar adsorbilangan ion almashinish kolonkasini siqib chiqaruvchi suyuqlik-elektrolit eritmasi bilan yuvish nazarda tutiladi. Bunda eng kam adsorbilanadigan ionlar kolonkadan birinchi bo'lib siqib chiqariladi, kuchliroq adsorbilangan ionlar keyinroq chiqadi. Kolonkadan chiquvchi elyuat fraksiyalarda alohida ionlar bo'ladi.

Elyuent usulida siqib chiqaruvchi elektrolit sifatida tarkibida smolaning ionogen guruhlari ajratib chiqaradigan ionlar bo'ladigan moddalardan (kation-al mashuvchilar uchun HC<sub>1</sub>, anionalmashuvchilar uchun esa NaCl dan - Cl<sup>-</sup> ajratuvchilardan) foydalaniladi. Ajratish va yuvish tugagandan keyin kolonkada boshlang'ich shakldagi ionit qoladi va uni qaytadan ishlatalish mumkin. Siqib chiqarish usuli elyuent usulining bir turi hisoblanadi. Unda ishlatalidigan siqib chiqaruvchi eritma tarkibida smolaga ajratiluvchi aralashma ionlariga nisbatan yaxshiroq yutiladigan ionlar bo'ladi.

Ion almashinish xromatografiyasini kolonkalarda o'tkaziladi, ularga oldindan bo'ktirilgan ion almashinuvchi smolalar to'ldiriladi. Kolonkalarning bir me'yorda to'lishi uchun smolalarning osmalari ishlataladi.

Kolonkadagi smola qatlami yuzasiga yuqorida ozgina namuna eritmasi tushiriladi, so'ngra elyuent oqimi yuboriladi. Agar kolonkaning tagiga idishlar qo'yib turilsa, tarkibida alohida-alohida moddalar bo'ladigan fraksiyalarni yig'ib olish mumkin. Aralashma tarkibiy qismlarga ajratilgandan so'ng komponstlarning miqdorini har qanday mos keluvchi usul bilan aniqlasa bo'ladi.

**Amalda qo'llanilishi.** Aralashmalarni ion almashinish usulida tarkibiy qismlarga ajratishning eng oddiy usuli aralashma tarkibidagi ionlarni smolaga yutirish va so'ngra har bir alohida komponentni o'ziga xos erituvchida eritib ajratib olishdan iborat.

Masalan, ishqorni K<sup>+</sup> ionlarga ajratish metallarning kationlarini chizig'i suyultirilgan xlorid kislota (0,1 M HC<sub>1</sub>) ta'sirida ajratib olish mumkin.

Ion almashinish xromatografiyasini elyuent sifatila laktat, sitrat, EDTA va boshqa eritmalardan foydalanib lantanoidlar aralashmasini tahlil qilish uchun tatbiq etish bu elementlarni ajratishning samarali usulini ishlab chiqish imkonini yaratdi. Olingan ma'lumotlar asosida lantanoidlar rudalarini qayta ishlash texnologik sxemasi taklif qilindi va muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi. Izotoplarni bir-biridan ajratishning ion almashish usullari ham bor.


Ion almashinish usullaridan eritmadiagi kation va anionlarning umumiyligi miqdorini aniqlashda, toza tuzlarni tahlil qilishda ham foydalaniladi. H<sup>+</sup> shaklidagi kationitdan kaliy tuzi eritmasi o'tkazilganda quyidagi ion almashinish jarayoni:



sodir bo‘ladi va eritmada kaliy ionlariga ekvivalent miqdorda  $H^+$  ionlari hosil bo‘ladi.  $H^+$  ionlarining konsentratsiyasini titrlash (masalan, potensiometrik) orqali aniqlash va shu orqali namunadagi  $K^+$  ionlarining miqdorini ham aniqlash mumkin.

Ion almashinish jarayonlaridan qiyin eruvchan birikmalarni eritmaga o‘tkazish uchun ham foydalaniladi. Ionitlar faqat elektrolitlar bilangina emas, balki qiyin eriydigan moddalarning (masalan, kalsiy karbonat, qo‘rg‘oshin xlorid, bariy sulfat) cho‘kmalari bilan ham ma‘lum darajada reaksiyaga kirishishi mumkin. Agar  $H^+$  yoki  $K^+$  shakldagi kationit qo‘rg‘oshin sulfat suspenziysi bilan birga chayqatilsa, qo‘rg‘oshin sulfat sekin eriydi va, nihoyat, sulfat kislota yoki natriy sulfat hosil bo‘ladi.

Nitrat ionlar  $NO_3^-$  bilan to‘yintirilgan ionit ham shunga o‘xshash ta’sir ko‘rsatadi. Bunda qo‘rg‘oshin nitrat eritmasi ishlataladi. Qo‘rg‘oshin sulfat  $RbSO_4$  cho‘kmasi  $Rb^{+2}$  va  $SO_4^{2-}$  ionlari bilan muvozanatda bo‘ladi:



Ervchanlik ko‘paytmasi  $EK_{RbSO_4}$  ga muvofiq ravishda eritmada juda kichik konsentratsiyada bo‘lsa ham qo‘rg‘oshin ionlari bo‘ladi:

$$EK_{PbSO_4} = [Pb^{+2}] \cdot [SO_4^{2-}] \quad EK_{PbSO_4} = C_{Pb^{+2}} \cdot C_{SO_4^{2-}}$$


Bunday eritmaga ionit kirilganda u qo‘rg‘oshin ionlarini eritmadan yutadi va boshqa kationlarga (masalan, vodorod ionlariga) almashtiradi:



Buning natijasida muvozanat buziladi va qattiq  $RbSO_4$  dissotsilanadi. Cho‘kmadan eritmaga qo‘sishmcha  $Rb^{+2}$  va  $SO_4^{2-}$  ionlar o‘tib, eruvchanlik ko‘paytmasining qiymati tiklangunga qadar dissotsilanish davom etadi. Ionitdan yana qo‘shib turish yo‘li bilan cho‘kmani eritish mumkin. Hozirgi vaqtida ionitlar yordamida  $BaSO_4$ ,  $A_gCl$  va boshqa cho‘kmalarni eritmaga o‘tkazish usullari topilgan.

Suvni tuzlardan tozalash deminerallashning ion almashinishiga asoslangan usuli katta amaliy ahamiyatga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, tozalashga mo‘ljallangan suvgaga bir vaqtning o‘zida

$H^+$  shaklidagi kationit va  $OH^-$  shakldagi anionit bilan ishlov beriladi. Kationitdagি almashish natijasida eritmada  $H^+$  ionlari paydo bo'лади:



anionitda esa:



bo'yicha  $OH^-$  ionlari hosil bo'лади. Ajralib chiqqan  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari o'zaro ta'sirlashib suv hosil qiladi:



Natijada toza, deminerallangan suv olinadi. Undan laboratoriyalarda distillangan suv o'rnida foydalaniladi.

Keyingi vaqtarda elektrokimyoviy maqsadlar uchun maxsus ion almashinuvchi membranalar tayyorlanmoqda. Ular ham ion almashtish, ham membrana-yarimo'tkazgich parda xossalariiga egadir. Ammo bu ion almashinuvchi membranalarning ion o'tkazish xususiyati tanlovchan bo'лади.

**Xromatografiya usulining umumiyl xususiyatlari.** Xromatografiya ko'п komponentli aralashmalarini tarkibiy qismlarga ajratish va moddalarning fizik-kimyoviy xossalari o'rganish usuli tarzida juda keng qo'llaniladi. Bu usul murakkab tarkibli suyuq va gazsimon aralashmalarini tahlil qilishning samarali usulidir. Bu usulda qattiq moddalar suyuq yoki gazsimon holatga o'tkazilgandan keyin tahlil qilinadi. Xromatografiya usuli faqat kimyoda va biologiyadagina emas, balki fan va texnikaning boshqa ko'philik sohalarida ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Gaz xromatograflari Venera (Zuhra) atmosferasiga tushirilgan asboblarda yaxshi ishladi. Tahlilning xramatografiya usuli ajratish va tekshirish usuli bo'libgina qolmay, shuningdek, ilmiy tadqiqot usuli hamdir.

### Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollar

1. Xromatografik tahlil usuli nimaga asoslangan?
2. Xromatografiya usuli qanday alomatlariga qarab klassifikatsiya qilinadi?

3. Xromatografik tahlil usuli qayerda qo'llaniladi?
4. Yuzaga chiqarish va siqib chiqarish xromatografiyasini aytib bering.
5. Adsorbsion xromatografiya usulida sifat va miqdoriy tahlillar o'tkazish uchun qanday parametrlarni aniqlash kerak?
6. Gaz va gaz-suyuqlik xromatografiyalarining mohiyati nimada?
7. Gaz xromatografiyasining qanday turlarini bilasiz?
8. Adsorbsion, gaz va gaz-suyuqlik xromatografiyasining afzalliklari, kamchiliklari va qo'llanish sohalarini aytib bering.
9. Gaz va gaz-suyuqlik xromatografiyasida komponentlarning miqdorini aniqlashda asosiy o'lchash usullarini keltiring.
10. Xromatografiyada ko'proq qo'llaniladigan adsorbentlar va erituvchilarni aytib bering.
11. Taqsimlanish xromatografiyasining asosi nimadan iborat va qanday variantlarda olib boriladi?
12. Taqsimlanish xromatografiyasida sifat va miqdoriy tahlil usuli nimaga asoslangan?
13. Gaz-suyuqlik xromatografiyasida ishlataladigan asbobining prinsipial sxemasini chizing.
14. Kolonkali xromatografiya bilan qog'ozdag'i xromatografiya orasida qanday farq bor?
15. Cho'ktirish xromatografiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
16. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasini vazifasi va gaz-suyuqlik xromatografiyasidan afzallik taraflari qanday?
17. Yuzlatilgan fazali suyuqlik xromatografiyasini normal fazali xromatografiyadan qanday farqi va afzalligi bor?
18. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasida qanday kolonkalar ishlataladi va ularning o'lchamlari qanday?
19. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasida nechanchi yildan rivojlangan?
20. Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi detektori qancha miqdordagi moddani aniqlay oladi?
21. Normal faza deb qanday fazaga aytildi?
22. Yuzlangan faza deb qanday fazaga aytildi?
23. Suyuqlik xromatografiyasini prinsipial sxemasi nechta bo'lakdan iborat?
24. Xromatografiyada detektor nima vazifani bajaradi?

25. Yuqori samarali xromatografiya qanday ishlaydi?
26. Frontal usul qanday usul?
27. Kovachning tutilib turish indeksidan qachon foydalaniladi?
28. Normallash usuli to‘g‘risida tushuncha bering.
29. Darajalash grafigi qanday chiziladi?
30. Mutlaq darajalash usuli mohiyati nimadan iborat?
31. Suyuqlik-adsorbsion xromatografik tahlil usuli haqida tushuncha bering.
32. Xromatogrammaning qanday o‘lchamlarini bilasiz?
33. Xromatografik ajratishning samaradorligi nimadan iborat?
34. Qanday adsorbentlarni bilasiz?
35. Xromatografik tahlilda adsorbentlar qanday klassifikatsiyalaniadi?
36. Polimer sorbentlar haqida ma’lumot bering.
37. Xromatografiyada ishlatiladigan kolonkalar va ularning turlari haqida tushuncha bering.
38. Ochiltirish (elyuent) usuli mohiyatini tushuntiring.
39. Xromatografiyada siqib chiqarish usuli qanday rol o‘ynaydi?
40. Gradiyent xromatografiya nima?
41. Yopqa qatlamdagi xromatografik usul to‘g‘risida tushuncha bering.
42. Xromatografiyada start chizig‘i nimani bildiradi?
43. Suyuqlik-suyuqlikda taqsimlanish xromatografiyasi haqida tushuncha bering?
44. Qog‘ozda taqsimlanish xromatografiya mohiyati nimadan iborat?
45. Elektrofforetik xromatografiya to‘g‘risida nima bilasiz?
46. Gaz xromatografiyasini qanday afzalligini bilasiz?
47. Gel xromatografiya nimaga asoslangan?
48. Ion almashinish xromatografik tahlilini izohlang.
49. Ionitlar turlari to‘g‘risida nimani bilasiz?
50. Ion almashinish xromatografiyaning qanday usullarini bilasiz?

### **Xromatografik tahlil usulining ishlatilishi va afzallikkleri**

Xromatografik tahlil usuli oddiyligi, samaradorligi va har tomonlama (universal) ligi sababli, organik va anorganik kimyo,

biologiya, tibbiyot, fizika, neft va gazni qayta ishlash va boshqa sohalarda turli xil masalalarni hal qilishda ishlatiladi.

1. Murakkab organik va anorganik aralashmalarni alohida komponentlarga ajratishda.

2. O'simlik va hayvon organizmida juda kam miqdorda uch-raydigan turli moddalar: vitaminlar, pigmentlar, glukozalar, alkoloidlarni ajtarish; neft tarkibidan to'yingan va to'yinmagan uglevodlarni ajratishda, yer po'stlog'ida kam tarqalgan moddalarni, izotoplarni boyitishda.

3. Moddalarni qo'shimchalardan tozalashda.

4. Juda suyultirilgan eritmalarini konsentrashnda.

5. Moddalarning sorbsiyalanish xususiyati bilan tuzilishi orasidagi bog'lanishga asoslanib molekular tuzilishini aniqlashda.

6. Moddalarni ayniqsa neft va gaz mahsulotlarini sifat va miqdor tarkibini idintifikatsiyalashda.

A). Spirt, konyak, vino tarkibidagi aldeigidlar, karbon kislotalar, oksikislotalarni aniqlashda;

B). Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidgi aminokislotalar va ularning xossalarni aniqlashda;

D). Neft va yog' tarkibidagi to'yingan va to'yinmagan uglevodlar va karbon kislotalarni aniqlashda va hokazo.

### **Xromotografiya tahlil usuli quyidagi afzallikkalarga ega**

1. Eng kam miqdordagi modda miqdorini (mkl, mkl) ( $10^{-6}$  3,  $10^{-6}$  ml), ulushini, ya'ni sezgirligi katta.

2. Universal, ya'ni turli xil funksional guruhlari bo'lgan modda aralashmalarini tahlil qilish mumkin.


3. Fizik-kimyoviy xossalari bir-biriga juda yaqin, o'xshash modda (izomerlar aralashmasini tahlil qilish mumkin).

4. Modda aralashmalarini komponentlarga ajratish, ularni konsentratsiyasini oshirish, selektiv (tanlab ajratish), toza moddalar olish (pereprativ) imkonini beradi.


### **Neft va gaz mahsulotlaridan olingan organik birikmalarini fizik-kimyoviy tahliliga doir masalalar yechish**

1. Quyidagi rasmning  $\alpha$  sida naftollarning izomerlari spektrlari keltirilgan,  $b$  va  $d$  rasmida  $\alpha$  va  $\beta$  naftolning spektrlari berilgan.


Keltirilgan naftolning qaysi izomerlari *a* birikmaga berilgan spektrlariga o'xshashligini aniqlang.




2. Rasmda *a* da galogenlangan uglevodorodlar aralashmasidan quyidagi spektrga ega bo'lgan modda ajratib olingan. Rasmning *b*, *d*, *e* lardagi spektrlardan qaysi biri *a* spektrga o'xshaydi va qanday modda ekanligini aniqlang.




3. Reaksiya natijasida olingan nitronaftollarning spektrлari a-rasm keltirilgan. Aniq spektrлar *o*-, *m*- va *p*-nitrofenollar va 2,4 dinitrofenollar asosida rasmdagi *a*, *b*, *d*, *e* lar tegishlicha reaksiya natijasida qanday birikma olinganini aniqlang.







4. Quyida keltirilgan IQ spektr orqali  $C_6H_{14}O_2S$  formulaga birikmadan kislород ва олtingugurt qaysi funksional guruuhlarga kirishini aniqlang (suyuq holatda).




5. Quyidagi  $C_6H_4Cl_2N_2O_2$  brutto formulaga ega bo'lgan birikma rasmida keltirilgan spektrga ega. Kislород va azot atomlariga qaysi funksional guruuhlarga kirishini aniqlang ( $KBr$  plastinkada).




6.  $C_3H_7O_2N$  birikmasida qanday kislorod va azot saqlagan guruhlar kiradi (suyuq plynokada)?




7. Keltirilgan  $C_7H_{13}ON$  birikmaning spektrlariga qarab qaysi elementlarning tuzilishini aniqlash mumkin ( $KBr$  plastinkasida)?




8. Quyidagi formulaga  $C_8H_{16}O_2$  ega bo'lgan birikmaga kislorod atomi qaysi funksional guruhlarga kiradi?




9.  $C_6H_9N_3$  birikmadagi azot atomlari keltirigan spektrdagи qaysи funksional guruhga mansub? (suyuq plyonkada).




10. Keltirilgan spektrdan foydalab  $C_8H_9ON$  birikmadagi qaysи elementlarning tuzilishini aniqlash mumkin ( $KBr$  plastinkasida)?




11.  $(C_6H_5SH_2)_2SO$  tuzilishga ega bo'lgan birikmaning IQ-spektridagi yutilish sohasini taqqoslang. ( $KBr$  plastinkasida)




12. IQ spektr bo'yicha va  $S_9H_{13}O_2N$  brutto formulasi bo'lgan birikmaning element strukturasini aniqlang (suyuq plyonkada).




13.  $S_2H_6S_2$  birikmaning oltingugurt atomiga qanday funksional guruhি kirgan?




14. Rasmda keltirilgan birikmaning tebranish guruhlariga tegishli IQ spektridagi asosiy yutilish cho'qqilarini solishtiring.




15. Brutto formulasi  $S_7H_7ClO$  bo‘lgan birikma spektridagi qaysi struktura elementlarini aniqlash mumkin? (KBr plastinkasida).




16.  $C_4H_{10}O$  brutto formulasi va IQ spektriga qarab birikmaning taxminiy tuzilishini ayting (suyuq plyonkada).




17.  $C_{12}H_{10}ClO_2NS$  birikmada qanday kislorod, azot va oltingugurt saqlagan guruhlar mavjud? (suyuq plyonkada).




18. C<sub>8</sub>H<sub>8</sub>O<sub>2</sub> birikma IQ spektridan qanday struktura elementlarni aniqlash mumkin?




19. CICH<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>CN birikma strukturasiga tegishli IQ spektridagi yutilish chiziqlarini taqqoslang.




20. Quyidagi tuzilishidagi birikmaning yutilish chiziqlarini taqqoslang (KBr plastinkasida).




21.  $C_8H_6O_2 N_2$  birikmaning IQ spektridan qanday tuzilishdag'i elementlarni aniqlash mumkin? (KBr plastinkasida).




22. Brutto formulasi  $C_5H_8O_2$  va keltirilgan IQ spektridagi birikmaning taxminiy tuzilishini izohlang (suyuq plyonkada)




23. Qattiq holatdag'i stearin kislota  $CH_3(CH_2)_{14}COOH$  spektrini tushuntiring. Ushbu kislotani suyuq holatda yoki  $CCl_4$  eritmasidagi spektrlarida qanday o'zgarishlar kuzatiladi.




24. Keltirilgan spektridagi  $C_7H_5OCl$  modda qaysi birikmalar sinfiga mansub? (suyuq plynokada).




25.  $C_9H_{11}O_2N$  birikma IQ spektridan qanday elementlarni tuzilishini aniqlash mumkin? (suyuq plynokada).




26.  $(C_6H_5CH_2)_2SO_2$ , birikma tuzilishi bo'yicha IQ spektri asosiy yutilish sohalarini taqqoslang (KBr plastinkasida).




27.  $C_9H_8O_2$  birikmani ( $CHCl_3$  va  $CS_2$  eritmasidagi) element tuzilishini aniqlang.



28. Agar IQ spektrda  $1280\text{ sm}^{-1}$  soha kuzatilsa va  $600-800\text{ sm}^{-1}$  yutilish sohasi kuzatilmasa, bu birikma tuzilishi qaysi formulaga to'g'ri keladi.



29. Agar IQ spektrda 3260, 2970, 2930, 2870, 2850, 1720, 1707,  $900\text{ sm}^{-1}$  sohalar kuzatilsa, levunin kislota qanday ochiq yoki lakton shaklida mavjud bo'ladi?



